

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

**S.S. BULATOV, P.P. SHABARATOV,
M.A. RASULOV**

NAQQOSHLIK

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

**Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2010**

Taqrizchilar:

N.X. Tolipov - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti;
U.B. Xakimov - A.A.Xo'jayev nomidagi Respublika Dizayn Kollejining o'quv ishlari bo'yicha direktor muovini

Bulatov S.S.

B-94 Naqqoshlik. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. /S.S. Bulatov, P.P. Shabararov, M.A. Rasulov; mas'ul muharrir: Sh.Sh. Murodov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lifi vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi markazi. — T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010, -368 bet.

Shabararov P.P., Rasulov M.A.

Ushbu o'quv qo'llanmada naqqoshlik fanining maqsad va vazifalari, naqsh, ularni kelib chiqish tarixi, ustoz va shogird an'analari, O'zbekistonda naqqoshlik maktabi va uning namoyondalari, naqshlarning o'ziga xos xususiyatlari, naqshlarni ramziylik alifbosi va ularni amaliy san'at turlarida va me'moriy bezaklarda ifodalanishi, dunyo naqshlari va ularning o'ziga xos tomonlari, rangli oq va qora foto suratlar, test savollari, o'quvchilarning ishlaridan namunalar berilgan. Mazzkur o'quv qo'llanma kasb-hunar kollejlarining naqqoshlik fani dasturi asosida yozilgan bo'lib, kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilarga mo'ljallangan.

BBK 85.14ya722

KIRISH

O‘zbekiston xalqlarining tarixini, qadriyatlarini, ilm-fan va madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o‘rganish va tahlil etish g‘oyat muhimdir. «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo‘ldiki, - degan edi Prezidentimiz I.A. Karimov, biz bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, bu-yuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o‘tmishdagi boy an’analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog‘imiz kerak».¹ Shu maqsadda, respublikamiz hukumatining qator hujjatlari vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san’atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo‘lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma’noda Respublika hukumati tomonidan xalq ta’limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997-yil «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Unda «O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko‘p asrlik an’analar, jamiyatning istiqboldagi rivojlanshini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan.²

Qadimda odamlar yashayotgan maskanlariga, devor-u toshlarga ov jarayonlari, jang-u jadallar, bazmlar, tantanali marosimlarni aks ettirganlar. Jumladan, Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa va boshqa obidalar qoldiqlari shundan dalolat beradi. Keyinchalik, ayrim sabablarga ko‘ra tirik mavjudotni aks ettirish taqiqlab qo‘yildi. Shuning uchun tasviriy san’at o‘rnini o‘simpliksimon, geometrik naqshli bezaklar egalladi.

¹ I.A.Karimov. «O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», T.: «O‘zbekiston», 1995, 9-b.

² Qarang: «Xalq ta’limi» jurnali, 1992 yil, 10-12 son, 1-b.

Rang-barang, o'simliksimon, geometrik naqshlar, ularning o'zaro joylashishida chuqur mazmun singdirilgan. Tasvirlangan naqshlarda ramziylik ustivordir. Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarni nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ota-bobolaramiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib, uylarni ajoyib naqshnigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam, ruhiy osoyishtalik og'ushida bo'lishi, uzoq umr ko'rishini donishmand bobolar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida ilg'aganlar.

Keksa ustalarimizning aytishlaricha, qadimda naqqoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki bo'yagan naqshlari orqali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilmoq kerak bo'lgan.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar xayolini o'ziga tortuvchi, tabiatning go'zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Kishilarni go'zallik bilan yaqin do'st, birodar bo'lishga undaganlar. Arab imlosi, g'azal, bitiklar, naqshlar, me'moriy obidalar, tasviriy san'atning islimiyl-tilsimiy turlari eshitish va ko'rish a'zolarimiz orqali ruhimizga hissiy quvonch olib keladi. Islom madaniyati ijod dasturida fikr va narsalarning shakl yaxlitligi ramziy-tilsimiy mazmun qo'big'iga o'ralgan. Naqsh, chodirga o'ralgan ayolga o'xshaydi. Naqsh-haqqoniyatni qo'l bilan ushlab ko'rish emas, go'zallikning mohiyatini anglash, shu go'zallikni dilda tasiqlash, chodir ortidagi holatga o'zni tayyorlash va unga kiring borish timsolidir...»¹

¹ G'afur G'ulom. Ibtidodagi ahd. Tafakkur jurnali. 1994 №1. 53-54 b.

Xalqimizning beba ho madaniy merosida asrlar tajribasi jamlangan, bobolarimizning ijodiy mehnati samarasi mujassam topgan. O'tmishning biror-bir yorqin «ziyo» zarrasi asrlar zimistonini yoritishi mumkin. O'zbek xalqi san'atshunoslarini madaniy merosimiz xazinasiga munosib yodgorlik yoki yodnomalarni izlab topish, ularni chuqur o'rganib mag'zini chaqish, ular tashkil etgan ijod pillapoyalaridan ko'tarilib, yangi zamon madaniyati ravnaqiga xizmat etish kabi g'oyat mas'ul va e'tiborli ishlar ko'lami kutib turibdi. O'zi bir olam bo'lgan me'morchilik san'ati va u bilan chambarchas bog'liq xalq amaliy san'ati, xususan naqqoshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalardagi ijod namunalarini o'rganish yo'lida anchagina samarali tadqiqotlar mavjud.

Ko'p yillik izlanishlarning guvohlik berishicha, xalq me'morlari va xalq ustalari taomiliga xos anchagina muammolar mavjud ularga o'zbek xalqining milliy naqshlari tarixini, maktablarini, ustalarining tajribalarini, usta-shogird an'analarini, bezaklarning ramziy alifbosini, asarlarni badiiy tahlil qilish va boshqalarni chuqur ildizigacha o'rganish kiradi. Shunday ekan, asrlar davomida ulkan madaniy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy xalq amaliy bezak sarhadining keng tarqalgan turlarining o'ziga xos tomonlari, maktablari, bajarish texnologiyasi, uslublari, ularni yaratgan ustalarning muborak nomlarini unutishga haqqimiz yo'q. Shu sababli ham bu noyob sarhad durdonalarini saqlash, ilmiy o'rganish, ularni yoshlarga o'rgatish va kelajak avlodga yetkazish muhim va dolzarb vazifadir.

Ushbu o'quv qo'llanmani yozishdan maqsad shuki, yuqorida sanab o'tilgan bilimlarni o'rganish hamda me'moriy bezak va amaliy san'at yo'nalishida tayyorlanayotgan kichik kadrlarimizni jahon andozalariga javob bera oladigan barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan iborat.

O'quv qo'llanmada o'zbek xalqi amaliy bezak san'ati tarixi, ustoz va shogird an'analarini, naqqoshlik san'ati, maktablari, ramziy naqshlarning alifbosi, amaliy san'at asarlari-

ning badiiy tahlili, Markaziy Osiyo me'moriy bezak san'ati va ulardagi naqshlar, dunyo naqshlari, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, lug'atlar, o'quvchilarning olgan bilimlarini tekshirib ko'rish uchun test savollari berilgan. Har bir mavzu foto va oq qora foto suratlar hamda jadval va chizmalar bilan boyitilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmada keltirilgan o'zbek amaliy san'ati ayrim asarlari namunalarining tasvirlari va ular haqidagi ma'lumotlar gazeta, jurnal, kitoblar va boshqa manbalardan olindi. Ushbu ma'lumotlarni boyitish borasidagi ishlar bundan keyin ham davom ettirilishi tabiiy. Mualliflar kitobxonlardan ushbu kitob haqidagi taklif va mulohazalarini bildirishlarini so'raydi.

I BOB. O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'AT TARIXI¹

O'zbek xalqi o'zining qadimiy va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. O'zbekistonning qadimiy yodgorliklari va tuproq osti qismi ulkan tarixiy muzeydir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz va boshqa shaharlardagi har bir arxitektura yodgorligi bu bir buyuk asar. Nodir qo'lyozmalar, xalq amaliy san'ati namunalari bir vaqtlar o'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligidan dalolat beradi, chunonchi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o'simliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali orzu-umidlarni, muhabbatni xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'atining ayrim turlari, ularning o'ziga xos tomonlari, haqiqiy o'zbekcha nomlari, ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida turibdi. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yli qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'at durdonalarini ko'z qorachig'idek arash va saqlash, qadrlash, ulardan foydalanish hamda tarixini o'rganish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. (1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11, 12-rasmlar)

Eneolid va jez davrida yaratilgan jez, oltin, kumush taqinchoqlar sodda shaklda bo'lib, gulsiz yoki kesma chiziqli halqasimon ramziy naqshlar bilan ishlangan. Miloddan avvalgi 3 ming yillikdan boshlab taqinchoqlar chig'anoq va qimmatbaho toshlardan yasalgan. Feruza va lojuvard, aqiq, nifretdan turli shakldagi munchoq, to'g'nag'ich va boshqa buyumlar tayyorlangan.

Suh qishlog'idan topilgan qora toshdan ishlangan tumor (miloddan avvalgi 2 ming yillik) toshtaroshlarning yuksak mahoratidan darak beradi: taqasimon shakl markazida bir-biriga

¹ Akbar Xakimov. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent., 1-tom, 2000-y, 253-258 betlar.

ro'para turgan ikki ilonning boshi aniq ko'riniб turibdi; bir-biriga tirmashib ketgan, ularning tanasi mustahkam asosda turgan toqi hosil qilgan. Bu tumordagi juft ilon tasviri hosildorlik va serpushtlilik, qadama «oq ko'zlar» ilonlar terisiga olabulalik baxsh etgan hamda ko'z tegishidan, kasalliklardan asrashga xizmat qilgan.

Temir asri (mil. avv. 1-ming yillik)ga oid oltin, kumush, bronza suyak va yog'ochdan yasalgan turli jang qurollari, uy-ro'zg'or va zebu-ziynat buyumlarida «hayvonlarni tasvirlash uslubi» uning o'ziga xos namunalari paydo bo'ldi; tasvirlanayotgan hayvonlarning asosiy xususiyatlari ularning holati murakkab mujassamatga bo'ysundirilgan.

Ahamoniylar davri san'ati (mil.avv.XI-IV asrlar)ning xususiyatlarini Amudaryo xazinasidagi buyumlar ochib beradi. Buyumlarning ma'lum qismi mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan bo'lib, zargarlik san'atini Baqtriya badiiy maktabi mavjudligi ko'rsatadi. Uchlariga bir-biriga ro'para turgan holatda ishlangan nafis haykalcha (sher, qo'y, arxar, grifon)lar ferauda ko'zlar qadalgan tilla bilaguzuklar shom Baqtryada yaratilgan bo'lishi mumkin. Ularning obraz yechimi, shakli, ijro usuli zaminida Baqtrya, sak va o'rta nafis hamda nozik bo'lgan ahamoniylar san'ati an'analarini yotadi. Plastinkalardek tasvirlangan antrapologik tiplar va uning kiyimlari buyumlarning mahalliy xususiyatini ko'rsatadi. Amaliy san'atni bezashni kuchaytirishga qaratilgan yetakchi an'analar bilan birga boshqa an'anaviy yo'nalishlar (mos, hayvonlarni tasvirlash usuli) ham davom etdi. Turlicha umumlashmalar tizimi o'ziga xos shartligi saqlanib qoldi. Shuning uchun bu davrga oid asarlarga tabiiy shakllarga yaqinlikda («mifologik realizm» uslubi) to uslublashtirish va naqsh bezak xususiyatlarining ustunligiga bo'lgan turlicha tasvirlash usullarini ko'rish mumkin.

Keyingi tarixiy davr (miloddan avvalgi III-asr) badiiy madaniyatining gullagan davri bo'lib, amaliy bezak san'atiga keskin o'zgarishlarni kiritdi. Bu davrda usullar ellistik (ay-niqla, Yunon-baqtrya podsholigi davri) va hind (gandxara

san'ati) an'analarini o'zlashtirdi. Muhr va tangalarda Yunon baqtrya shoxlarini tasvirlashda inson ruhiy olamini ochishga harakat qilingan. Uslubning keyingi (mil. avv. I asr) rivoji umumlashtirish, cheksiz hokimlik g'oyasini ifodalovchi shoxlar, ma'budalarning umumlashma obrazlarini yaratish yo'lidan bordi. Zargarlik buyumlaridan Kushon davlatidan topilgan I asrga oid 3 ta silliq nayzani qalaylab markaziga gerakil tasviri ishlangan, aniq o'rnatilgan to'rtburchak turumchilik pektural diqqatga sazovor. Bunda baqtryalik usta oltinning yorqin va sokin jilosini, uning mayin qiyofasi bilan inson shakli mos tushishini ko'rsatuvchi metall va shaklning ajoyib uyg'unligini topib bera olgan. Bo'rtma gulli, mazmunli sahnalar va murakkab mujassamot bilan kelib chiqishi ellenistik an'analariga borib taqalgan I-II asr metall va sopol idishlarga kushonlik usta o'ziga xos mahalliy xususiyatlarni kiritgan. Sopol haykalchalar yasash san'ati keng taraqqiy etdi. Ma'budlarning mahalliy etnik belgilari bo'lgan an'anaviy qiyofalari yaratildi. Ular ro'paradan qat'iy holatda hissiz yuzli qilib suyak yoki Xorazm kiyimlarida tasvirlangan. Sopol idishlar ishlab chiqarishda yuksak mukammallikka erishgan. Gulsiz yoki gulli (handasaviy naqshlar yetakchi o'rin egallagan) nozik qadahlar, kosa, piyola, ko'za va buyum idishlar sodda, ifodali shaklda tayyorlangan. Shishadan buyumlar tayyorlangan, suyakdan ishlangan fil va boshqa hayvonlar ko'rinishidagi shaxmat donalar saqlangan. Amaliy san'atning ayrim turlari Baqtriya san'ati bilan turli darajada uyg'unlashib ketgan qamduxor san'ati ellinizim va sak an'analar xususiyatlari ko'zga tashlangan. Unga hayotning o'zi va mifologik asosiy ma'buda bo'lgan. Bu san'at uslubiy yo'nalishi jihatdan xilma-xil tasvirlashda hayotiy haqiqatga yaqin, shuningdek, afsonaviy mavzularga asoslangan shakllarga ega. Shu davrga oid zargarlik san'ati haqida Dalvar-zintepa xazinasi buyumlari katta ma'lumot beradi.

Ilk O'rta V-VIII asrda amaliy san'atga yangi mazmun va shaklni talab etadigan g'oyalar kirib keldi, bu sohada yangi uslubiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Kandakorlikda oltin,

kumush, jezdan turli shakldagi kosa, lagan, ko'za, qozon, chiroqdon va boshqa idishlar tayyorlandi. Ular hayotiy lav-halar, epik va afsonaviy mazmunlar (ov, to'y, raqqosalar, jangchilar kurashi), durlar halqasi ichida ishlangan hayvonlar tasviri bo'lgan turli mujassamotlar bilan bezatildi. Tasvir us-lubida qadimiy san'at xususiyatlari yo'qolib bordi, shakllar qat'iy bo'lib, ularning nisbati o'zgardi, umumlashtirish kuchaydi. Teriga badiiy ishlov berish san'atining mavjudligi haqida qurollangan chavandoz tasviri tushirilgan bo'yama naqshli charm bilan qoplangan qalqon (VIII asr) guvohlik beradi. Shu davrda to'qimachilik ham rivojlandi. Ip va ipak-dan turli matolar tayyorlangan, zarli parcha matolar ishlangan, ayniqsa, murakkab gulli rangdor to'qilishli zandonachi (VII-IX asr) nomli nafis mato mashhur bo'lgan. Zandonachi matosida gullar taqsimli bo'lib, yirik durlar halqasi bilan hoshiyalangan aylana va boshqa shakldagi turunjlar bir maramda takrorlanadi. Turunjlarda ko'pincha bir-biriga ro'paro' turgan juft sher, qo'y, filning qat'iy tantanali holadagi tasvirlari berilgan. Ularning tanasi va tana bo'laklari naqshlar bilan ishlab chiqilgan. Mayda shakllar hay-kaltaroshligi 2 yo'nalishda taraqqiy etadi: bir tomonda ma'bud va qahramonlar obrazlarini risoladagidek berish, ik-kinchi tomonda jonli hayotiy kuzatishlarni, turli xalqlarning etnik xususiyatlari, - suyak va turkiylarning turli davrdagi o'ziga xos kiyimlarida tasvirlash davom etdi. Avval bo'lganidek, ma'budlar shakli ro'paradan va qat'iy qilib yaratilgan, biroq idishlar va ostadonlarda inson tasvirini ehtirosli va jo'shqin berish hollari uchraydi. V-X acrlarda loydan to'rtburchak, uzunchoq va boshqa shakllarda ishlangan ostadonlar keng tarqalgan, shakl jihatdan ustunlar va to-qinlar, «uy» yoki «ibodatxona»ni eslatuvchi ostadonlar o'ta hashamadorligi va ramziy naqshlarga boyligi bilan ajralib turgan. Rangli, bo'yama naqshli ostadonlarda motam lavhalari xalq san'atining sodda usulida ishlangan. Sopol idishlar tay-yorlash rivojlandi, uning shakli va hajmi boyidi, bu sohada mahorat ortdi. Mayin shaklli, nisbatlarga amal qilingan

ifodali nozik hajmli idishlar tayyorlandi. V-VIII asrlarda sirlanmagan, bezaksiz va bosma, chizma, o'yma va qadama usulida odam, hayvon, o'simliklarning bo'rtma tasvirlari ishlangan sopol buyumlar ishlandi. Keyinchalik ularni bezash uslubi o'zgardi: naqsh mujassamoti islimiy, handasaviy, hayvon shakllari va yozuvli naqshlar bilan to'ldirilgan yo'llar, belboq, hoshiya, turunjlarga aniq bo'lindi. Sirlashning keng ishlatilishi (VIII asr oxiridan) kulolchilik taraqqiyoti uchun badiiy imkoniyatlarni ochib berdi va bo'yama sopol san'atining gullab-yashnashini ta'minladi (IX asrdan boshlab). VIII-XIII asrlarda amaliy bezak san'ati yo'nalishlari (ayniqsa, yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi, kulolchilik, kandakorlik)ga islom dini estetikasi katta ta'sir qildi.

Zargarlik san'atida davrning asosiy uslubini ifodalovchi g'oyaviy birlik, barqarorlik kabi yangi an'analar ko'zga tashlanadi. Oltin, kumush va jezdan to'g'ri handasaviy shaklli taqinchoqlar ishlangan: oltin qirrali prizma yoki silindr shaklli chetlari qubbali tumorlar; konussimon shokilalar, o'yachalariga o'simlik va buyum mavzuli tasvirlar ishlangan, shuningdek, ezgu tilakli yozuvsalar bitilgan mujassamoti aniq handasaviy qismlarga bo'lingan gumbazli, konussimon uzunchoq va ko'p qirrali munchoqlar, buyum keyingi uslubiy rivojlanish shakl va naqshning ko'proq ifodali bezagini topishga yo'naltirildi. Ustalar ishlarida chaqnoq va qimmatbaho toshlar – la'l, safsar, yoqut, ferauz, lojuvard, toq billuri, nefrit va boshqalarni qo'llagan.

IX-XIII asrlarda diniy marosimlarda chiroqdon va isiriqdonlarni yoqishga xizmat qiladigan xonaki sopol o'choqlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Ularning shakli (ayniqsa, taqasimon yoni, bezatilgan tarzi) me'moriy qismlarni eslatadi. O'ta bezatilgan o'choqlar mujassamotning asosiy qismlarini ustun, asos, friz, toqi kabi me'moriy bo'laklar tashkil qilgan, ular orasiga qush, o'simlik tasvirlari, ilohiy belgilar joylashtirilgan.

VI-XIII asrlarda rangli (qizil, pushti, sariq, binafsha, ko'k, yashil) va rangsiz oshxona va kimyo shisha idishlari (ko'zacha, flakonlar, qadah, stakan, lagancha, siyohdon) tay-

yorlangan. Ko‘pincha ular bo‘rtma naqsh, bosma chizma va o‘yma usulida handasaviy, o‘simliksimon gullar, hayvon tasvirlari bilan bezatilgan. Medal’onlarda odam, qush, hayvonlar tasvirlangan, rang-barang ko‘zli, gulli va hoshiya yo‘llar o‘zaro chirmashib ketgan munchoqlar tayyorlangan.

Yog‘och o‘ymakorligining yuksak taraqqiyotidan darak beruvchi binolardagi ustun, eshik, karniz, to‘slnarga ishlangan nafis, chuqur bo‘rtma gullar, islimiy va handasaviy naqshlar, ba’zan ular orasiga kiritilgan odam, hayvon, qushlar tasviri mohirona bajarilgan. Suyakdan shaxmat donalari va boshqa buyumlar tayyorlangan.

Sopolli idishlar tayyorlashda dastlab silliq yuzali yoki bo‘rtma gulli buyumlar rangli sir bilan qoplangan, keyinroq rasm paydo bo‘ldi, rangi va bo‘yama naqshi boyidi, kulollarning estetik didi mahoratini ifodalovchi nafis ishlangan rasm va yozuv shakli ishlab chiqilgan. Dastlab gullar sopolga va qat’iyligi bilan ajralib turgan (laganning oq zaminida butunlay yoki cheti bo‘ylab qora kufiy yozuv qatori yoki nafis qora qizil naqsh joylashgan). XI—XIII acrlarda naqsh mujassamoti murakkablashdi va bezak hamohangligi yaratildi. Chiziqlarning har xil shaklli turunjlar hosil qilishi, ularning islimiy, handasaviy naqshlar, hayvon tasvirlari va yozuvlar bilan to‘ldirilishi ortdi.

Temuriylar davri (XIV-XV asrlar)da amaliy bezak san’atining yuksak taraqqiyoti mahalliy an'analar bilan bir qatorda O‘rta Sharq badiiy yutuqlariga ham asoslandi. Izlanishlar asosan bezak naqshlar sohasida olib borildi. Bezakda o‘simlik va gul mavzulari, «girih» handasaviy naqshlari, yozuvli namoyonlar yetakchilik qildi. Yog‘och ustunlar va eshiklarning naqsh mujassamoti maydon, belboq, hoshiya kabilarga mutanosib bo‘linib, o‘yma gullar – egiluvchi novdalar va gulli butalar bilan bezatildi. Marmar qabrtoshlari egiluvchan butalar o‘ramidagi o‘ta nafis yozuvlar bilan qoplandi. «Girih» ko‘rinishidagi handasaviy naqshlar yog‘ochlardan yig‘ilgan sag‘analar, yog‘och va marmar panjaralarda mahorat bilan ishlandi. XV asr kulolchiligidagi «ko-

balt» turidagi (ko‘m-ko‘k tusdagi) Xitoy chinnisi ta’sirida yangi bezash usuli shakllandi, ko‘proq oq-ko‘k sir ishlandi. Tanga, glaptika, metall o‘ymakorligi (muhr)da husnixat hukmronlik qilgan.

Kulollikda rangli va bir rangda ishlangan bo‘yama naqshlar saqlanib qolgan qat’iy sovuq rangli moviy zaminga qora naqsh, oq zaminga ko‘k naqshlar ishlangan. Koshindagi bezak chiziqlarining mayin va o‘quvchanligi bilan farq qiluvchi nafis ko‘k-yashil bo‘yama naqshlar bilan hamohang bo‘lgan bilinar-bilinmas bo‘rtma gulli chiroyli idishlar yaratilishi ustalarning katta yutug‘i bo‘ldi. Naqshlarda o‘simlik, hayvon va osmon jismlari mavzu uyg‘unlashgan.

Koshindan yasalgan idishlarga moviy bo‘yama naqshlar ranglarning ifodali o‘yinini hosil qiluvchi yorqin va nafis doqlar bilan ishlangan: qushlar qo‘ngan shoh va butoqlar, gul va mevalar tasvirlari lagan va kosalarning oq zaminida erkin joylashtirilgan, bo‘yama naqshlar tabiatning lirk obrazini ifodalagan. XVI-XVII asr kulolchiligidida naqshlar quyuqlashdi, guli maydalashdi. XIV asrlarda ustalar rangli shishalardan va rang-barang gulli uzuklar, bilaguzuklar, shokila va munchoqlarni yasashni davom ettirdilar. Oltin, kumush, jez, misdan turli shakldagi qadah, ko‘za, patnislar tayyorlanib, kandakori, chizma, o‘yma yoki qadama (oltin va kumushdan) nafis gullar bilan bezatildi. Aslzodalar uchun rangli shisha va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ot ab-zallari va qurollar, shuningdek, zargarlik buyumlar (marjon, uzuk, bilaguzuk, shokilalar), zardo‘zi kiyimlar, so‘zana, dor-pech, yostiq jildi kabi uy jihozlari tayyorlandi.

XVI-XVII asrlarda O‘zbekistonning hunarmandchilik markazlarida ipak, ip, ko‘p matolar (atlas, kimxob, zandonachi, baxmal, bo‘z, chit, shohi) va tayyor buyumlar (ro‘mol, salsa va boshqalar) ishlab chiqarildi. Rang-barang va zarhallangan islimiylar naqshlar, qushlar tasviri bilan bezatilgan o‘rdak shaklidagi egarlar yasaldi.

XIV-XV asrlardan oldin shakllangan naqsh uslubi yanada taraqqiy etdi. Buyumlar shakli, unga uyg‘un holda

bo‘linishi va berk handasaviy maydon, hoshiya, yo‘l, turunj-larga bo‘ysundirilgan o‘simlik va yozuvli naqsh mujassamoti ularga uzlucksiz harakat, kuch, cheksizlik, barqaror sokinlik hissini baxsh etish bilan birga hayot jo‘shqinligi, abadiylici va go‘zalligini yaratdi.

Barcha davrlarda bo‘lganidek, XIV-XVII asr amaliy bezak san’atida ikki oqim – rasmiy va xalq san’ati mavjud edi. XVIII-XIX asrlarda ham xalq san’ati birmuncha erkin, hayotga yaqinroq edi. XVIII asrdagi murakkab tarixiy sharoitlarda amaliy bezak san’ati sekin rivojlandi, biroq u o‘zining asosiy hayotiylik mazmunini yo‘qotmadi va ip matolar ishlab chiqarildi. Ipakchilik, gilamchilik, palos to‘qish, zargarlik, kulolchilik, charm, tosh, yog‘och, metallga badiiy ishlov berish kabi barcha turlarini saqlab qoldi. Ommaviy buyumlar shakli ixcham va nafis bo‘lib, ularning bezagida alohida egiluvchan chiziqlarning oquvchanligi bilan berilgan gullagan bog‘ mavzulari yetakchi o‘rin tutdi.

Andijon, Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon, Xiva, Toshkent va boshqalar to‘qimachilik markazlarida gulsiz va murakkab gulli ip, ipak, nimshoyi, jun matolar tayyorlandi. Go‘zalligi va iqlimga moslanganligi bilan qirmizi rangli matolar ajralib turgan; qirmizi rangini hosil qilish uchun mato bir oy davomida o‘nlab jarayonlardan o‘tkazilgan. Bu matolardan tayyorlangan buyumlar (darparda, dasturxon, ko‘rpa avra, bug‘jona va boshqalar)da taqsimli va markaziy mujassamotlarga joylashtirilgan chiroyli serhasham gulli mavzular yetakchi o‘rin tutgan. Yo‘l-yo‘l nimshoyi «olacha», «yo‘l-yo‘l» zar va kumush gulli parcha va boshqa matolar to‘qilgan. Ipakdan parcha, atlas, shohi, bahmal matolar tayyorlangan. Abr bandi usulida tayyorlangan abr gulli matolar o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Ularning sho‘xchan ranglardagi ajoyib guli orasidan daraxtlar, shox-butoqlar, gullar, mevalar va boshqalarning tasvirlarini ilg‘ab olish mumkin, bo‘yash usuli tufayli nayza shakli va mayin o‘quvchan istiroq chiziqli rang dog‘larining ta’sirchan o‘yini yaratilgan. Ranglardagi ana shunday tasviriy uyg‘unlik

Shahrisabzning yo‘rma chokda tikilgan nafis gulli ipak so‘zanalariga ham mos, rangdor do‘ppilar ham ziynatli qilib tikilgan. Bayroqlar va harbiy belgilar tikilgan kashtalar ramziy ma’noga ega bo‘lgan. Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi zardo‘zlik markazlarida aslzodalar uchun bosh kiyimlar, to‘nlar, yostiq jildlari va boshqa buyumlar tayyorlangan.

Charmga badiiy ishllov berish sohasida rangli charmdan bezatilgan kitob muqovalari va qog‘oz uchun jildlar tayyorlangan, ular o‘ta mahorat bilan bosma usulida ishlangan oltin yoki kumush bilan qoplangan. Ko‘pincha yozuvlar bilan uyg‘unlashtirilgan bezak mujassamoti keng tarqalgan. Rangli metallar (jez, qizil va sariq mis)dan tayyorlangan ro‘zg‘or buyumlari ham shu usulda bezatilgan. Ko‘za, barkash, choynak, kosalar mayda chirmovuqsimon islimiylar bilan qoplangan, ba’zan ularga she’riy yozuvlar, matallar mohirona joylashtirilgan.

Kandakorlik san’ati markazlarida yaratilgan buyumlarda mahalliy o‘ziga xoslik xususiyatlari ko‘zga tashlanadi. Samarqandlik ustalar sayozroq bo‘rtma hosil qilib nafis naqshlar yaratdi. Buxoroning kandakori rasmlari tekis bo‘rtmali chizma usulida yaratildi. Buxorolik ustalardan Usta Shokir (XVIII asr boshi), Usta Baratboy va Shodi Muhammad (XVIII asr oxiri - XIX asr boshlari) ishlari saqlanib qolgan. An’anaviy shakllardagi chiroyli idishlar (lagan, kosa, ko‘za va boshqalar)ning oq zamindagi ko‘k, feruza, yashil, pushti ranglari soflik va salqinlik hissi bilan to‘lgan. Zargarlar tomonidan toj, ayollarning peshona bezaklari, tilla marjonlar, uzuklar, tilla va kumushdan har xil toshlar (la’l, feruza, lojuvard, zumrad, nefrit, aqiq va boshqa) qadab shokilali ziraklar yasaldi. Chiroyli bezatilgan ot abzallari va qurollar tayyorlandi, tilla va kumushdan ishlangan pichoq qinlari nafis islimiylar bilan bosma usulida bezatildi, suyak va nefritli pichoq dastalari bo‘rtma rangli toshlar bilan to‘ldirilib naqshlandi yoki shabaka naqshlarga feruza ko‘zlar qadab bezatildi. Gliptika yuqori mahorat darajasini saqlab qoldi. Muhrlar va zargarlik bezaklari asosan aniq va boshqa

rangli toshlardan ishlandi. Badiiy ifodalilikka shaklning (dumaloq, cho‘zinchoq, serqirra, shakldor) go‘zalligi va naqshin husnixat yozuvlarining mohirlik bilan joylashtirilishi orqali erishildi.

XVIII asr oxirida amaliy bezak san’ati taraqqiyotida yuzaga kelgan ko‘tarilish XIX asrning oxirgi choragigacha davom etdi. XIX asrning 1-yarmida qat’iy shakl mujassamotini tuzishga intilish kuzatildi. Bu xususiyatlar, ayniqsa, badiiy hunarmandchilik (abrli matolar guli, zardo‘zlik, kandakorlik)da aniq ko‘zga tashlanadi. Naqsh mujassamoti va mavzu shakliga ko‘ra biroz qat’iy, sipo va tashqi ko‘rinishi takomillashgan. Xonadonlarda yaratilgan kashtalarda XVIII asr san’ati xususiyatlari (soddalik va go‘zallik) uzoqroq saqlangan. Bu davr amaliy bezak san’atining barcha sohalari shakl, rasm va o‘ziga xoslikni saqlagan.

XIX asrning 2-yarmida ko‘pgina shahar va qishloqlar (Marg‘ilon, Namangan, Buxoro, Andijon, Samarqand, Kitob, G’ijduvon, Urgut, Beshariq va boshqalar)da xilma-xil sidirg‘a va guldar ip, ipak va yarim ipak xonaki gazlamalar sodda va murakkab usulda to‘qib chiqarilgan. Ayniqsa, paxta va ipakdan to‘qilgan pishiq tivitli matolar (duxoba, baxmal), chiviq shoyilar (adras, beqasam, banoras), nafis va yengil ipak ro‘mollar (qalgay), shildiroq va tovlanuvchi shoyikanovizlar, beqiyos ko‘rkam, bo‘yoqlarning tafovuti va uyg‘unligi bilan bir-biridan ajralib turadigan atlas, yakruya, xonatlaslar, Farg‘ona va Samarqandning nimrang va mayin gulli choyshablari keng shuhrat qozongan. Bu matolarning bezash usullari asosan guldar va yo‘l-yo‘l shaklda bo‘lgan.

XIX asr Ustalari keskin, ayni paytda muloyim ranglar nisbati (masalan, pushti tag ustiga bosilgan qizg‘ish qora gullar va boshqalar)ga murojaat qilgan. Gul bosilgan matolarning bezak mujassamotida bog‘ning xayoliy ravishda o‘zgarib ketgan obrazlari – chaman bo‘lib ochilgan gullar, latif g‘unchalar, chirmashib ketgan novdalar, palaklar, barglar, pishib turgan anor, bodom va boshqalar keng o‘rin olgan. Handasaviy shakllar esa mujassamotning ravon, ayni

paytda aniq ritmlariga bo‘ysunadi, bu ayniqsa, rango-rang hoshiyali, o‘rtasida katta-katta qatorli doiralar joylashgan namunalarda ko‘zga tashlanadi.

Bu davr kashtachilik san’ati ham turli mahalliy markazlar (Buxoro, Nurota, Shahrисabz, Samarqand, Jizzax, Toshkent, Piskent va boshqalar)da rivoj topgan. XIX asrning 80-yillarigacha kashta ipak, jun hamda xonaki tabiiy oq va qizg‘ish ranglarda ohorlangan ip gazlamalarga tikilgan. Keyinchalik yirik zeb-ziynatlar uchun tikiladigan kashtalarga binafsha rang, sariq, zangori va to‘q sariq rangdagi kosibiy ipak matolari (shoyi) hamda fabrikada to‘qilgan matolar ishlata boshlandi. 80-yillarga kelib iplarni ohorlashda nil bo‘yoq qo‘llanishi kashta sifatining pasayib ketishiga olib kelgan bo‘lsada, ayni paytda ranglar majmuasining o‘ta yorqinligiga va rang-barang tovlanishiga asos bo‘ldi.

Asarning obrazli tuzilishida muhabbatlilikka intilish an’anasi Samarqand, Toshkent so‘zanalari, Buxoro abrli matolarida yorqin namoyon bo‘ldi. Samarqand kashtalarida bunga mujassamotning aniqligi va soddaligi, yirik turunjlarining bir maromda joylashuvi hamda kuchli navolar bilan o‘ralishi, har xil ranglar (qizil, qora, oq) uyg‘unligidagi jiddiylik orqali erishilgan. XIX asrning 1-yarmi va o‘rtalarida yaratilgan jo‘shqin ritqli so‘zanalarda bevosita gullagan bog‘ ko‘rinishlari ifodalangan bo‘lsa, yangi kashtalar o‘z sipoligi bilan diqqatni tortadi. O‘z davrining estetik g‘oyalarini ifodalagan kashtalar yangi badiiy shakl ifoda etdi. Buxoro abrbandi ustalari san’atida kashtachilikdagi kabi yirik va umumlashtirilgan «oy», «daraxt», «patnis», «zuluk» va boshqa mavzular eni avvalgidan 1,5 baravar kengaygan mato kengligi bo‘ylab joylashtirildi. Bu o‘z navbatida naqsh mujassamotiga salbiy ta’sir etdi, «boy» so‘zana va gilamlarda bo‘lgani kabi kengaytirishga intilish yuzaga keldi, ustalarning bevosita bezakdagi mujassamot, ritm, ko‘lamni his etish qobiliyati yo‘qoldi. Bu kabi hashamadorlikka intilish zardo‘zlikda kuchli namoyon bo‘ldi.

O‘zbekiston kashtachilining noyob turi hisoblangan zardo‘zlik san’ati XIX asrning o‘rtalarida Buxoroda gurkirib rivojlangan. Mohir ustalar amir saroyi ustaxonalarida amirning o‘zi va saroy ahli kiyadigan dabdabali kiyimlarga pardoz berishgan. Zar va kumush iplar bilan erkaklar to‘ni, salla, do‘ppi, shalvar, poyabzallar, ayollarning ko‘ylak, kamzul, peshonaband, ro‘mol, etik va boshqalar tikilgan. Rangdor tosh va metall qubbalar qo‘shib tikilgan zardo‘zlik buyumlari saroyning ichki qismini, ot jabduqlarini bezashda keng qo‘llanilgan.

Asriy an’analarni o‘zlashtirgan zargarlik san’ati XIX asrda ijro usullarining xilma-xilligi, shakllarga boyligi, ko‘lami bilan ajralib turadi. Ustalar shabaka, qoplama va qadama, ziqrak bosma,sovotkori, chizma, kandakori, zaxxallash, sirlash, o‘yma va boshqa turli ijro usullarida keng foydalangan. Buyumlar shakllari ifodaliligi va nafis yechimga boyligi bilan ajralib turadi. Chakka taqinchoqlariga ko‘p qavatlilik, zanjirli munchoq, yaproqchalardan tuzilgan shokilalar oqimi bilan turunjlarning oralab kelishi, la’l, marjon, feruza, aqiq, lojuvardning oltin va kumush bilan yorqin uyg‘unlashuvi xos. XIX asrning 2-yarmida hashamadorlik va bezakdorlik xususiyatlari zargarlik san’atida aniq ko‘zga tashlanadi. Taqinchoqlar dabdabali va qo‘pollashib bordi, ularning shakli murakkablashdi, hajmi kattalashdi. Mezonning buzilishi, o‘z navbatida, buyumlarning naqshlar bilan to‘ldirishga, ko‘zga tashlanuvchi rangdorlikka olib keldi. O‘rtahol aholi uchun tayyorlangan buyumlarda qimmatbahoh toshlar rangli shisha, o‘ta mehnat talab qiluvchi ziqrak usuli qolipaki usuli bilan tez-tez almashtirib turildi. An’anaviy yo‘nalish bilan birga Yevropa an’anasi ta’sirida zargarlik buyumlarining o‘ta ixchamligi, yaxlitligi, aniq shakli bilan ajralib turuvchi yangi yo‘nalish kuzatildi.

XIX asr o‘rtalarida Rishton kulollik markazlaridan biri tashkil etildi. Bu markaz ustalari (Usta To‘xta, Usta Abdullo va boshqa) mo‘yqalam bilan ishlashning o‘ziga xos usulini ishlab chiqdi. Gul va chirmovuqlardan iborat nafis moviy

rasmlar («Bahor» naqshi) nozik va yengil tur bilan idish yuzasiga ishlandi.

XIX asrning o‘rtalariga kelib, O‘zbekistonda kulolchilikning asosiy markazlari shakllandi: G’ijduvon, Samarqand, Rishton, Qurumsaroy, Denov, Xorazmda tayyorlangan sopol buyumlarning rang guruh (majmua)lari aniq chegaralangan (moviy va oq-zangori hamda zangori va qo‘ng‘ir-sariq). Muayyan ranglarga moyilligi ishlatilgan moddalar tarkibiga asoslangan. Farg‘ona va Xorazmda ishqorli sir ishlatilgani uchun bezakda moviy, oq, zangori ranglar majmuasi hukmronlik qildi. Farg‘onada idishlar ko‘proq nozik gul o‘simlik elementlari bilan bezaladi. Xorazm kulollari ishlagan gullar me’moriy sopol bezaklariga yaqin bo‘lib, buralib-buralib terilgan hamda handasaviy shakllar bilan o‘ralgan holda tasvirlangan. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi qo‘rg‘oshin sir ishlatiladigan joylarda sariq, qizg‘ish, qo‘ng‘ir ranglar majmuasi asosiy o‘rin tutadi. Gullar o‘zining shuxchanligi, yorqinligi bilan ajralib turadi.

XIX asr oxirida yog‘ochga badiiy ishlov berish rivojlandi. Ro‘zg‘or buyumlari, uy jihozlari, musiqa asboblarini bezashda ustalar o‘yma, bo‘yama va qadama usullaridan unumli foydalandi. Ayniqla, o‘ymaning ikki turi – zaminsiz va zaminli turida yaratilgan naqshlar badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Yog‘och o‘ymakorligi, temperada ishlangan bo‘yama naqsh bilan bir qatorda oddiy bo‘yalgan ro‘zg‘or buyumlari (javoncha, beshik, chiqiriq va boshqalar) ham keng tarqaldi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida amaliy bezak san’ati taraqqiyoti juda murakkab va qarama-qarshiliklarni boshidan kechirdi. Unda yangi uslubiy belgilar, yangi obraz yechimlari kuzatildi. Biroq ayrim sohalarda turli darajada tushkunlikka moyillik ko‘zga tashlandi. Bu bezashga berilishda va hashamadorlikda, keng xalq ommasiga mo‘ljallangan ro‘zg‘or buyumlarida esa ijodkorlikni yo‘qolishi va sod-dalashuvida ko‘rindi.

Mazkur davrda to‘qimachilik, kashtachilik, gilamchilikda mayin tuslarga ega bo‘lgan o‘simlik bo‘yoqlari o‘rniga chidamsiz va o‘ta yorqin anilin bo‘yoqlarining ishlatalishi, popopda kashta tikilishi, kulollikda rihli sirlarni qo‘llanishi va boshqa shunga o‘xhash xususiyatlar xos.

Amaliy bezak san’atida davr ruhi an'analariga erkin ijodiy yondashishda, avvalo, naqshning aniq tasviriy mavzular bilan boyishida o‘z ifodasini topdi. Mis buyumlardagi kandakori naqshlarda hayvon, qush, baliq va hatto me’moriy obidalar tasviri keng kiritildi. Rishton, Xorazm, G’ijduvon sopol idishlari bezagiga musiqa asboblari, pichoq, miltiq, ko‘za, choynak, hayvonlar, qushlar tasviri kiritildi. Buxoro abrli matolari – adresda davrning texnika yangiliklari (kerosin lampa va boshqa), zargarlik buyumlari, masalan: tumorlarda, soat, chinni choynak, piyola va boshqa tasvirlar joylashtirildi. Bu yerga chetdan keltirilgan mato, chinni va boshqalardagi tasviri mavzular shundayligicha o‘zlashtirildi. Amaliy bezak san’atining ayrim turlari (matoga gul bosish, kashtachilik, kulolchilik va boshqalar)da uslubiy namunalar, an'analar, mavzularning shartlilik darajasida kuchaytirishda, ularni o‘ta umumlashtirishda kuzatiladi, xususan, shu davrda yaratilgan naqshlarda gul, mevaning avvalgi obrazi zo‘rg‘a ilg‘ab olinadi.

Kulolchilikda XIX asrning oxiridan ruhli sirdan foydalanish bo‘yoqlar jilvasini boyitdi, yorqin ko‘p ranglilik yuzaga keldi. Bu sohada katta qo‘rg‘onlik ustalar yuksak badiiylikka erishdi. Kulolchilikda ham mato va kashtachilikda bo‘lgani kabi bezakdagি obraz qurilishida mahobatlilikka intilish kuzatiladi, bu buyumlar shaklidan tashqari naqshlarni ishslash usulida ham o‘z aksini topadi: jo‘shqin maromda berilgan mayda gullar o‘rnini yiriklari egalladi. Ustalar mavzuni nozik ishslashdan umumlashtirib berishga o‘ta boshladi, naqsh mujassamotiga turli xil tasvirlar (ko‘za, pichoq, musiqa asboblari va boshqalar) erkin kiritildi. Sopol buyumlar bezagiga rus chinnisi, matosi rasmlari ham ta’sir etdi. Rossiya va Xitoy chinni va metall idishlari-

ning ommaviy keltirilishi kulollikka ta'sir etdi. Buyumlarni ommaviy ishlab chiqarilishi arzonlashtirishga intilish ularning badiiy qiymatini tushurib yubordi.

Tosh o'ymakorligi buyumlari bu davrda keng tarqalmadi. Amaliy ahamiyatga ega idishlar deyarli bitilmadi, oq, kulrang, qora marmardan yasalgan bezakli laganlargina yaratildi, past bo'rtma hosil qilib ishlangan markaziy doira – bo'laklarga bo'lingandan to butunlay qoplab bezatilgan, chirmovuqlar handasaviy mavzu va yozuvlarning nafis o'ramlarini hosil qilgan. Gliptika san'ati taraqqiy etdi, qimmatbaho toshlar va metalldan muhrlar tayyorlandi, doira, oval, ko'p qirrali, bodomsimon shakllarga yozuvlar mahorat bilan joylashtirildi. Yozuvlar nafis gullarning mo'jas tasvirlari bilan to'ldirildi.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida amaliy bezak san'atida soddalashtirishga intilish kuzatildi. Iqtisodiy va texnika taraqqiyotining yangi sharoitlarida yangi xususiyatlар yuzaga keldi. Bu davrda amaliy bezak san'ati sekin va notekis rivojlandi, unga uslubiy birlikning yo'qligi xos bo'lib, qarama-qarshi an'analar va xususiyatlarni kuzatish mumkin. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar amaliy bezak sa'natida badiiy yo'qotishlarga olib keldi.

XX asrning 20-yillaridan keyin o'zbek amaliy bezak san'ati qo'shni xalqlar san'ati bilan bir oqimda rivojlandi. G'oyaviy-badiiy jihatdan bu davr tushkunlik an'analarini yengib o'tish, o'tmishning yaxshi an'analariga tayangan holda yangi taraqqiyot yo'llarini izlash davri bo'ldi. Ijodiy vorislik hayotga kirib borayotgan dunyoqarashni umumlashtirishda, naqsh mujassamoti doirasining kengayishida o'z ifodasini topdi.

1920-30 yillarda O'zbekistonda mahalliy badiiy sanoat yuzaga keldi. Badiiy hunarmandchilikning ko'plab sohalari (ipakchilik, kashtachilik, zardo'zlik, kandakorlik va boshqalar) tiklandi. Abrli matolarda (liboslар uchun) Farg'ona uslubiy yo'nalishi, murakkab rasmning nafis ishlanishi (A.Ahmedova va boshqa), interyer uchun (choyshab)

Buxoroning so‘nggi yirik, ixcham mavzularining lo‘ndaligi yetakchi bo‘ldi. An’anaviy matoga gul bosishni tiklash bilan birga mavzuli tasvirlar izlash ishlari boshlandi (A.Abdug‘afforov, G.Qo‘ziyev, K.Qo‘ziboyev). Kashtachilikda (so‘-zana) XIX asrning eng yaxshi an’analari (guldorlik, sami-miylik, ifodalilik) tiklandi (R.Rajabova, Z.Kovalevskaya). Popopda tikilgan so‘zanalarda markaziy maydoni ko‘p qatorli keng hoshiyalangan quyuq o‘simlik gullari bilan to‘ldirilgan asosiy mujassamot turi shakllandi. Mahalliy do‘ppilardan Chustning «chust», Shahrisabzning «iroqi» do‘ppilar keng ommalashdi. Patli gilam buyumlari va an’anaviy handasaviy gulli paloslar ishlab chiqildi. Ilk bor portretli gilam (usta Q.Abdullahayev) yaratildi. Zargarlik buyumlari shaklan soddalashdi (Abduvali Abdurasulov, Abdug‘ani Abdurasulov, Abdukarim Abdurasulov, S.Pochchayev, K.Miroqov va boshqalar). Kandakorlikda mavzuli tasviri-ylikka intilish kuchaydi (A.Hamidov, V.Stolyarov va boshqalar). Kulollikda yaxshi an’analar rivojlantirildi, rasmning mukammalligi, bo‘yama naqshning yorqinligi ortdi, uning ta’sirchanligi kuchaydi (T.Miraliyev, M.Ismoilov, U.Shermatov va boshqalar).

30-yillarning o‘rtalarida amaliy bezak san’atining sanoat taraqqiyoti boshlandi. Badiiy sanoatning dastlabki korxonasi - Toshkent to‘qimachilik kombinati ishga tushdi (1934), chitga gul bosishning yangi tarmog‘i yuzaga keldi. Matoning badiiy bezash usuli rus (Moskva, Ivanovo, Serpuxov va boshqalar) chitga gul bosish an’analari, milliy xalq ijodi va yutuqlarini o‘rganish zaminida shakllandi. Amaliy bezak san’ati badiiy hunarmandlik, badiiy san’at va uyda ishlab chiqarish kabi 3 yo‘nalishda rivojlandi.

Bu davrda amaliy bezak san’atining ayrim turlari notekis rivojlandi. Matolarni bezash san’ati, gilamchilik, do‘ppido‘zlik, kulollik taraqqiy etdi. Kandakorlik, yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlik o‘zining amaliy ahamiyatini bir-muncha yo‘qotib, bezak vazifasini o‘tab bordi. Asr boshida maqzi soxta buyumlarni bezash, baxmal tayyorlash, charm

buyumlarni bezash, zardo‘zlik gilam yo‘qolib ketdi. Asosiy asarlar ustalar tomonidan an’anaviy usulda yaratildi, naqshlarning doimiy shakli va mavzulari san’atning hayotiy asoslari va uning ichki mazmuni, yangilikka sezgirligi tufayli zamonaviy ohang ola boshladi. Mahalliy san’at maktablari ning yutuqlari asosida amaliy bezak san’atida umummilliy xususiyatlар ortib bordi. 2-Jahon urushi yillarida to‘qimachilik va kulolchilik taraqqiy etdi. Toshkent to‘qimachilik kombinatida sodda usulda ishlanadigan matolar ishlab chiqarildi. Rassomlar ranglarning keskinligiga asoslangan sodda gullar yaratdi: bir rangning tuslari doirasida tovlanishiga asoslangan kolorit boyitildi. Keyinchalik matolarni badiiy bezash ancha rivojlandi, to‘qimachilik artellarida an’anaviy yo‘l-yo‘l va katak matolar (qalami, olacha, janda va boshqalar) ishlab chiqarildi. Atlas va beqasamlar kam miqdorda to‘qildi, badiiy sanoatda to‘qimachilikning yangi turlaridan jakkordli to‘qimachilik davom etdi.

Kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarish o‘sdi, milliy shakllardagi sopol va buyumlar (xum, tog‘ora, kosa, lagan va boshqalar) tayyorlanadi, buyumlarning ko‘p qismi bezatilmaydi. Bezakli idishlar an’anaviy naqshlar bilan qoplanadi. Bo‘yama naqshda nafis va ifodali feruza yashil pushti ranglar yetakchi o‘rin tutadi. Kashtachilik zargarlik buyumlari, kandakori mis idishlar, o‘yma va bo‘yama naqshli buyumlar tayyorlash bu yillarda qisqardi.

Marg‘ilon shoyi to‘qish korxona ishga tushdi (1943-47), mamlakat to‘qimachilik san’ati uchun yagona bo‘lgan usulda bezatilgan ularning milliy an’analarini boyitayotgan ipak va sun’iy toladan bosma gulli matolar ishlab chiqarila boshlandi. Kulolchilikning, kandakorlik, matoga gul bosish, yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlikda mavzuli tasviriylikka intilish kuchaygan, biroq o‘z navbatida dastgohlik omiliga rioya qilish ustalarning ijodiy izlanishlarini cheklab qo‘ydi. Xalq ustalari Usta Shirin Murodov, Mahmud Usmonov, Abdulla Boltayev va boshqalar. Navoiy teatri, Muqumiylar teatri va boshqa binolarni bezashda faol qatnashib, milliy

ganchkorlik, naqqoshlik va yog‘och o‘ymakorligining noyob namunalarini yaratdilar.

50-yillarda yog‘ochni bezash sohasida uy jihozlarini bezatish doirasi kengaygan, ustalar bezak shakllaridan amaliy buyumlar (xontaxta, kitob javoni, yozuv stoli, va boshqalar)ni bezashga o‘tdilar. 60-yillardan yog‘och va ganch o‘ymakorligi an’analardan zamonaviy jamoat binolarini monumental bezaklar bilan yaxlit bezashda keng foydalanylmoqda.

1960-70-yillarda ijtimoiy hayotiy muhit san’atda milliylik va baynalminallikning o‘sishini ta’minlandi, ustalarning ijodiy faolligi ortdi, badiiy sanoatning yangi korxonalari yuzaga keldi. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining quvvati oshdi (Toshkent, Marg‘ilon, Samarqand fabrikasi). To‘qimachilikda rivojlangan sanoat ishlab chiqarishi bilan bir qatorda ijodiy qo‘l mehnatini talab etuvchi an’anaviy abrli ipak matolar ishlab chiqarish ham o‘sdi. Abrbandi san’ati o‘zining yangi ko‘tarilish jarayonini boshidan kechirdi. («Atlas» firmasi, Namangan shoyi to‘qish fabrikasi). Ustalarning ijodiy izlanishlari an’anaviy shakl chegarasini kengaytirdi, bu o‘z navbatida katta bezak kuchlari bilan badiiy umumlashmalarni amalga oshirishni ta’minladi. Ustalardagi davrning dolzarb voqealarga javob berishga intilish istagi matolarni bezatishga ramziy yechimlarni qo’llashga olib keldi: «Yo‘ldosh», «Sharq», «Beruniy yulduzlari» va boshqa tasviriy mavzular orqaligina emas, ko‘proq dadil qo’llanilgan yorqin ranglar nisbati, mujassamligining o‘ta jo‘shqinligi umumiyo ko‘tarinki kayfiyat orqali berilgan (A.Abdug‘aniyev, T.Mirzaahmedov, X.Mullajonov, M.Sobirov, S.Toshpo‘latov, A.Hamidov, E.Umaraliyev va boshqalar). Gilamchilik va palos to‘qish, kigizchilik rivojlanib bordi. Ularning guli va ranglari qizil jigarrangdan quyuq va to‘yingan to‘q qizil ranglargacha cheksiz turlandi. Turli xil handasaviy gulli («arabi», «gachaori», «terma» va boshqalar) poloslari yorqin qarama-qarshi ranglarni uyg‘unlashtirib to‘qildi (T.Jo‘rayeva, D.Qo‘chqorova, B.Mamadrahimova, B.Mirzayeva, A.Parda-yeva, A.Ro‘ziboyeva, B.Holmatova, O.Xurramova va bosh-

qalar). Umumiy an'analar va madaniyatlar yaqinlashuvi ta'sirida O'zbekistonda yangi soha bo'lgan patsiz gilam, tasvir tushirilgan mato (jumladan, shahar ko'rinishi va boshqalar) mavzuli namoyonlar ustida ishlandi.

Kashtachi va chizmakashlari san'ati andozasiz, qolipsiz tajriba va ish jarayonida xayolot olamida yaratilgan, tugallangan naqsh mujassamotlarni yuzaga keltirdi, turli ahamiyatga molik buyumlar (yirik so'zanadan tortib mayda choy xaltagacha) tayyorlandi (B.Ahatova, F.Ramazonov, P.Shoqulova, A.Shukurova va boshqalar). O'zbekiston xalq rassomi, kashtado'z F.Saydaliyeva o'ziga xos portret («Navoiy», «Oybek» va boshqalar) va mavzuli namoyonlar yaratdi. Popopda kashta tikish keng tarqaldi. Qo'l va maishiy kashtada yashnagan tabiat g'oyasi quyoshsimon turunj yoki yaproqlar bilan o'ralgan buta ko'rinishida targ'ib etildi. Amaliy bezak san'ating nodir turi bo'lgan zardo'zlik ustalar tomonidan avaylab asraldi va rivojlantirildi. Islimiylar bilan bezatilgan buyumlar (do'ppi, nimcha, chapon, kovush, yostiq jildlari va boshqalar) bilan bir qatorda dabdabali yirik nomoyonlar ham yaratilgan. Do'ppi kashtalari chevarlarning boy xayolotlari tufayli doim harakatchan to'loqonli san'at asarlari bo'lib qoldi, gullari nafis, ranglar uyg'unlashib bordi, yangi bezak nusxalari yuzaga keldi. Parcha matosini ishlatish turli-tuman kashtachilikda mahalliy xususiyatlarni erkin qo'llash yanada chiroyli va yengil ijro etiladigan nusxalar yaratish imkonini berdi.

Buyumlarida an'anaviy va zamonaviylik uyg'unlashgan zargarlik sanoati yuzaga keldi (Toshkent zargarlik zavodi, 1963-yil). Tillaga yoqut, gavhar, dur, feraza ko'zlar, shuningdek, arzon metallarga shisha ko'zlar qadab uzuk, zirak, bilaguzuk va boshqa buyumlar ishlab chiqish yo'lga qo'yildi (I.Javarov, Yu.Qoroliyev, K.Malikov, U. Shoakbarov va boshqalar). Zamonaviy zargarlik san'atida umumiylilik va mahalliy o'ziga xoslik xususiyatlari uyg'unlashtirildi. Qo'lda ishlangan buyumlarda har bir viloyat ustalari an'anaviy ko'rinishlarini saqlab qoldi.

Chinni sanoati yaratildi. Respublikada birinchi chinni zavodi 1953-yilda ochilib, u yerda O'zbekiston xalq rassomi M.Rahimov, S.Rakova, A.Aminovlar ijodiy tajribalar olib borishgan. Keyinchalik ularning safiga Ya.Qorayev, H.Haydarov, A.Nuqmonov, A.Mirzaboyev, B.Sobirov qo'shilgan. O'zbekiston chinnisozligi xalq amaliy san'ati an'analari asosida rivoj topgan.

Qarama-qarshi yorqin ranglarni uyg'unligi zaxxalli naqshning murakkab va quyuqligi orqali buyumlarni sho'xchan bezatishga erishildi: ko'k, qizil, sariq va boshqa yorqin zaminida zarhal bilan jonlantirilgan yorqin oq gul ko'zga tashlanadi (R.Orifjonov, A.Nurmonov, Yo.Qoraboyev, A.Mirzayev, F.Guliev, A.Dobryakova, L.Petrukhova, O.Severova va boshqalar). Rassomlar o'zlarining yaxshi asarlarda bayramona kayfiyat va ijodiy milliy o'ziga xoslikni bera oldi. Yirik xalq ustalari bo'lgan ko'plab mahalliy kulollik maktablari o'sdi. M.Obloqulov, R.Zuhurov, I.Komilov, Y.Nazrullayev, M.Rahimov, T.Rustamov, X.Satimov, U.Umarov, A.Hazratqulov, M.Halilov va boshqa ustalarning ishlarida xalq san'ati an'analaring erkin uyg'unlikdagi taraqqiyoti namoyon bo'ldi. Naqsh va chizmalarda rasm chiziqlarining erkin usuli, ranglardan mohirona foydalanishning hammasi jonli hayot va quvonchni ko'tarinki ruhda obrazli mujassamlashtirishni yuzaga keltirdi. Mavzuli tasvirlar (o'ynayotgan bola, ona-bola, paxta terayotgan o'smir va qizlar), bevosita hayotiy kuzatishlarni lirk berilishi kulollikni mazmunan boyitdi (S.Rakova). Mayda shakllar haykalta-roshlikdagi kulguli maishiy janr yuzaga keldi: «Shaxmatlar», «Kabobxona», «Egizaklar», «Hofiz», «Kulol», «Kurash» va boshqalar (A.Muxtorov).

1960-70-yillardan boshlab O'zbekistonda amaliy bezak san'atining noan'anaviy shakllar yuzaga keldi. Badiiy mato, an'anaviy bo'limgan chinni, shisha, kulollik, zargarlik buyumlari ko'rgazmalarda namoyish etildi, ayni vaqtda bu mahsulotlar shahar maishiy me'moriy va boshqa muhitning ko'rkaligini oshirishga xizmat qilmoqda.

An'anaviy bo'limgan kulollik namunalari dastlab U.Jo'raqulov, M.Rakovalar ijodida nomoyon bo'lgan. Yangi rang va plastika vositalarining uyg'unlashuviga asoslangan an'anaviy bo'limgan kulollik yo'nalishida S.Sultonmurodov, A.Kedrin, A.Yadroboy, U.Mamatboyev, A.Rahimov, keyinchalik S.Karamxonova, G.Dergach, E.Abramov, Sh.Mo'minova va boshqalar samarali dastlab ko'rgazmalarda namoyish etildi. 70-yillar o'rtasida Toshkent shahri so'ngra boshqa shaharlardagi jamoat binolarini bezay boshladi. 1970-yillarda badiiy shishasozlik ham paydo bo'ldi. Odamlarning kundalik ehtiyojlarini qondiradigan ommabop buyumlar bilan birga ko'rgazma zallarida namoyish etiladigan san'at asarlari yaratildi.

Noan'anaviy amaliy bezak san'atining gabelen, batik kabi turlari ham O'zbekistonda 1970-80-yillarda paydo bo'lgan. Farg'onalik gabelen ustasi L.Semizorova o'z ijodiy faoliyatini 1970-yillarda boshlagan. Uning asarlarida tabiat mavzusi yetakchi o'rin egallaydi. Chunonchi, abstrakt tasvir va teks (tuksiz va tukli) matolarning uyg'unlashuvi, omuxta texnikasi, ma'noli faktura va rang tasvirli bo'rtma naqshlar o'ziga xos bezak kompozitsiyalarini yuzaga keltirdi.

Hozirgi kunda gabelen sohasida V.Useinov samarali ishlayapti. Uning asarlari an'anaviy tekis uslubda to'qilgan gabelenlar hamda bo'yra to'qish jarayonini o'zida mujassam etgan. V.Useinov turli materiallardan foydalandi (shoir, jun, sintetik iplar, kanop, bo'yra va boshqalar). Uning gabelenlari bir necha qismdan iborat bo'lib har biri o'ziga xos falsafiy mazmuni ifoda etayotgan abstrakt yoki muayyan shakl-shamoyilga ega. Ijodkorning barcha asrlarda yashirin falsafiy ma'no, mulohaza berilgan. Oxirgi 10 yil mobaynida M.Tyurina ham gabelen sohasida faol ijod qilmoqda. M.Tyurina asarlarini mavzular doirasi keng bo'lib bir qismi o'zaro zit ranglar uyg'unlashuvi bilan grafik asarlarini eslatsa, boshqalarda esa tabiat mavzusi ijodkorlarga xos uslubda nozik badiiy tilda ifoda etilgan.

R.Ibrohimova ham gabelen yo‘nalishida faol ijod qiladi. Uning ijodidan naqshli va syujetli kompozitsiyalar o‘rin olgan. R.Ibrohimova ham xilma-xil texnik turlardan foydalanib (masalan turli qalinlikdagi iplarni tekis to‘qish va o‘rish), bo‘rtma naqshning plastik mazmundorligiga erishgan.

Mustaqillik kunlarida O‘zbekiston amaliy bezak san’atida badiiy gazlamaning batik turi rivojlandi (1992-yilda tuzilgan «Batik» guruhi: L.Sayfi, I.Lisenko, O.Kaleslikova, N.Kuchina, M.Strelnikova, R.Mirahmedovalar). Guruh rassomlari ro‘mol, durracha, bo‘yinboq, qiyiq ro‘mollarga gul solishdan boshlab, asta-sekin turli liboslarga gul tushirishga batik usulida muayyan mavzuga bag‘ishlagan rasmlar yaratishga, charmga naqshlar bosishga o‘tdilar. Jahon san’ati namunalari rassomlar uchun ilhom manbayiga aylandi. Ularning asarlarda islimiylar naqshlar bilan bir qatorda hind, yapon, qadimgi misr, afrika san’ati mavzulari uchraydi.

«Batik» guruhi va L.Sayfi liboslar to‘plamida Sharq madaniyati bo‘ladi an’analari yaqqol namoyon bo‘ldi (anorgul, bodomgul, shakllari, an’anaviy, o‘zbek va turkman gilamdo‘zligiga xos handasaviy naqshlar, zardo‘zlik san’atiga oid tasvirlar va boshqalar). Guruh tomonidan issiq batik usulida ishlangan «Bahor» mahobatli namoyonlar turkumi («Sheraton-Toshkent» mehmonxonasi, 1998-99-yillarda) ijodkorlarning o‘rta asrlar Sharq minatyura san’ati an’analiga ijodiy yondashuvning yorqin namunasidir.

«Batik» guruhidan tashqari san’atining bu turida L.Boymatova, A.Allaberginovalar ham ijod qilmoqdalar. L.Boymatova ijodining negizini manzarali, avangard yo‘nalishidagi asarlar tashkil etsa A.Allaberginova ijodida esa miniatyura, me’moriy yodgorliklar, xalq amaliy bezak san’ati mavzularidan faol foydalanishi o‘ziga xosdir.

Zamonaviy O‘zbek amaliy bezak san’ati murakkab, boy va serqirra sohadir. Ularning asarlari hayotni ko‘tarinki, turmush quvonchlarini ehtirosli, zamon ruhiga hamohang obrazlarda mujassamlashtirgan.

So‘ngi yillarda amaliy bezak san’ati 20 dan ortiq sohani birlashtirgan badiiy hunarmandchilik, yengil (chinni, badiiy to‘qimachilik) va mahalliy (kulollik, yog‘ochsozlik, gilamchilik, kashtachilik, zardo‘zlik va boshqalar) sanoat korxonalarini o‘z ichiga olgan badiiy san’at va yakka tartibda ijod qilayotganlar ko‘rinishida rivojlanadi. Kashtachilik, gilamchilik, kigizchilik, naqqoshlik bo‘yicha ustalar ka-sanachilik guruhiga birlashgan. 1978-yilda Rassomlar uyushmasi qoshida tuzilgan «Usto» birlashmasi mohir xalq ustalarini birlashtirgan va ularning ijodiy mehnatiga har tomonlama yaqindan yordam bermoqda, ularni xom-ashyo bilan ta’minlaydi, tayyor mahsulotlarni sotib oladi va sotadi, shuningdek, unutilayotgan hunarlarni qayta tiklashga yordam beradi. Bu birlashmaning bevosita kandakorlik (Usta M.Madaliyev va oilasi), chitga gul bosish (Usta A.Rahimov va oilasi) kabi sohalar qayta tiklandi va rivojlanmoqda. Bu uyushma tizimida ustaxona ochilib, Ch.Ahmarov boshchiligida qadimgi san’at turlaridan biri mo‘jaz tasvir san’ati va naqshli buyumlar tayyorlash yo‘lga qo‘ydi. Ko‘plab xalq ustalari an’anaviy buyumlar tayyorlanadigan yengil hamda mahalliy sanoat korxonalarida ham ishlamoqda. Ganch va yog‘och o‘ymakorligi me’moriy bezaklarda keng qo‘llanib, bunda turli maktab an’analarning rivojiga alohida e’tibor berildi. Ganch o‘ymakorligining Buxoro va Xiva maktablari an’analari muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirilmoqda (Z.Yusupov, U.Tohirov va boshqalar).

Amaliy bezak san’at sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o‘yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishslash bilan bog‘liq ijodiy mehnat sohalarini o‘z ichiga oladi. Amaliy san’at asarlari ko‘z bilan ko‘rish, his etish va anglashga mo‘ljallangan. Amaliy san’at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go‘zallah-tirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o‘zining ko‘rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati,

kayfiyatiga ta'sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalani-lishidan tashqari badiiy qimmati bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xomashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi amaliy san'atda estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir. Amaliy san'atda narsalarning nafisligiga ikki usul bilan erishiladi: 1) shakli oddiy, jun bu-yumlarga bezak ishlab badiiy qimmati oshiriladi; 2) shakli chiroyli qilib ishlanadi. Xomashyoning go'zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta'sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositalardir. Ta'sirchan mazmunli shakllar ko'pincha taqliddan yaratilganda mazmuni ortadi. Buyumda hosil bo'layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta'sir etadi. Bezagi tufayli buyum amaliy san'at asariga aylanadi. Amaliy san'atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at (haykaltaroshlik, rangtasvir, ayrim hollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha birikuvlari) keng qo'llaniladi. Ba'zan naqsh yoki tasvir buyumlarni shakllantiruvchi asosga aylanadi (panjara guli, tur, gilam, mato gullari va boshqalar). Amaliy san'at asarining uyg'unligi avvalo badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligida, shakl va bezakning o'zaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon bo'ladi. Bezakning shakl, tasvirning buyum ko'lami va xususiyati, uning amaliy va badiiy vazifasi bilan uyg'unlash-tirishning zarurligi tasviriy bo'laklarni o'zgarishiga, talqinda shartlilikka va narsa qismlarini o'xshatib yaratishga olib keladi.

XIX asr 2-yarmidan ilmiy adabiyotlarda amaliy san'at asarlarida foydalanilgan xomashyosi (yog'och, sopol, ganch, tosh, metall, suyak va boshqalar) va ijro usuli (bo'yash, o'yib-kesib ishslash, o'yish, kashta tikish, to'qish va bosh-qalar)ga qarab farqlana boshlandi. Bu esa o'z navbatida bu-yumlarga ishlov berishni loyihalash (dizayn) va uni ishlab chiqarish bilan bog'lanishi (badiiy sanoat)da zamin yaratdi.

Amaliy san'at asarlari yaratilgan davrning maishiy qatlamiga muayyan mahalliy va milliy xususiyatlarni, ijtimoiy guruhlar bilan yaqin munosabatda bo'lgan uning moddiy madaniyatini ifoda etadi. Asrlar mobaynida xalq ijodiyotining sohasi sifatida amaliy bezak san'ati yuzaga kelgan. Uning rivojida xalq, yashagan joyning ijtimoiy sharoiti, xalqining mashg'uloti, etnik va milliy jihatlari, turmush tarzi, madaniy darajasi, qo'shni xalqlar bilan aloqalari muhim rol o'ynagan. Kulolchilikka yaraydigan tuproq mavjud joylarda kulollik, chorvachilik rivoj topgan yerlarda jundan mato to'qish, mo'ynado'zlik, kigiz bosish, gilamchilik va shakli rivojlangan, amaliy san'at asarlarining ma'lum joyga xos uslublari shakllangan.

O'zbekiston hududidan mezolit davriga oid san'at yodgorliklari topilgan. Neolit davri sopol idishlari qo'lda yasalib, chiziqcha, nuqta va ilon izi tasvirlar (tirnoq, qo'l bilan chizib) tushirib bezatilgan. Farg'ona vodiysidan mil.avv. 3-ming yillik oxiri 2-ming yillikka oid jez davri o'yma badiiy buyumlari (jez va kumush buyumlar xazinasi) topilgan. Sopol idishlarga keyinchalik handasaviy bezaklar ishlana boshlangan. Farg'ona vodiysi, Surxandaryo viloyati o'troq, dehqon aholi idishlari shu davrda uchburchak, rombsimon yoki kataksimon qizil va qora chiziqchalar bilan bezalgan; Amudaryo bo'yi vohasidan topilgan buyumlarda ham shunday tasvirlar jigarrang, oq zaminga chizilgan. Jez davri dasht qabilalari foydalangan sopol idishlardagi uchburchak, ilonizi, archasimon yoki yo'l-yo'l tasvirlar qolip bilan bosilgan (Xorazmdagi Tozabogyon madaniyati, Buxoro vohasidagi Qizilqir qabristoni). Mil. avv. IV-II acrlar yodgorliklariga oid sopol idish va haykalchalarga hayvonlar shakli ishlangan (hayvon shakli; Afrosiyob va Xolchayondan topilgan taqinchoqlardagi tasvirlar). Ilk O'rta asr (V-VIII asrlar) amaliy bezak san'ati Surxandaryoga, Tohariston, Xorazm va Farg'onadagi davlatlar madaniyati bilan bog'liq ravishda rivojlangan. Ganch o'ymakorligi (Samarqand, Varaxsha) va yog'och o'ymakorligi (Surxandaryo viloyati)da naqshga mavzuli mujassamlashgan aralashtirib berilgan, yassi

bo‘rtma bezaklar o‘rnini hajmli shakllar egallagan. Handasaviy va uslublashtirilgan o‘simliksimon naqsh asoslari yanada mu-kammallashtirilgan. Afrosiyob, Bolaliktepa va Varaxsha rasm-larida tasvirlangan rang-barang kiyimlar shu davrda badiiy to‘qimachilik taraqqiy etganidan darak beradi. Surxandaryo viloyatining Termiz shahri yaqinida joylashgan qabristondan, Pop tumani Munchoqtepa manzilgohidan IV-VI asrlarga oid qadimda ajoyib kiyimlarning o‘ziga xos namunalari topilgan, bundan qadimda farg‘onaliklar kiyimi ancha murakkab qilib tikilganligi ma’lum bo‘ladi. Samarqand viloyatidan qadimgi maxsi, Farg‘ona vodiysidan qolip va charm kesadigan maxsus pichoq topilishi O‘zbekistonda, umuman butun Turkistonda deyarli bir vaqtida, ya’ni V-VI asrlarda bu oyoq kiyimning urf bo‘lganini ko‘rsatadi. Farg‘ona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent, Surxandaryo va Qashqadaryoda pichoq-chilikning qadimgi markazlari bo‘lgan. Pichoqlar faqat uyruzg‘or buyumi emas, balki harbiy qurol, hunarmandlik asbobi sifatida qo‘llanilib kelingan. VI-XII acrlarga oid pichoq namunalari metall tarkibining, pichoq yasash usuli va bezaklarining o‘zgarib, taraqqiy eta borganini tasdiqlaydi. Navoiy, Bobur asarlariga ishlangan miniatyuralarda (XV-XVII acrlar) yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xil namunalari tasvirlangan. VII-IX asrlarda to‘qimachilik taraqqiy etgan, ip, ipak matolardan tashqari qimmatbaho parchalar ham ishlab chiqarilgan. O‘simlik va handasaviy naqsh bezaklariga boy, jonzodlar tasviri tushirilgan «zandonachi» matosi bizgacha saqlanib kelingan. Zandonachi matosining mujassamligi taqsim usulida tushirilgan; bir me’yorda almashinib turgan turunj bezaklari ichiga bir juft qarama-qarshi turgan arslon, fil va boshqa hayvonlar tasviri joylashtirilgan.

V-X asrlarda sopol buyumlarning maxsus turi – ostadonlar tayyorlash rivoj topdi. Ostadonlarni bezashda tasviriy mavzulardan keng foydalanilgan: ajdodlar, homiyalar va xudolar, parrandalar, shuningdek, daraxt va boshqalar o‘simliklar o‘yma, bo‘rtma usullarda ishlangan. VI-X asrlardan shisha idishlar ko‘plab ishlandi; ko‘zacha, siyoxdon, turli idishlar rangli (qizil,

olcha rang, sariq, ko‘k, yashil), rangsiz shishalardan tayyoranib, bo‘rtma, bosma, chizma, qadama usullarda bezatilgan. Ko‘plab rang-barang shisha munchoqlar ishlab chiqarilgan. Marmar qabr toshlari usti girih, naqshlar bilan bezatilgan, yog‘och va marmardan panjaralar ishlangan. Me’morlikda an’anaviy ganch, yog‘och) o‘ymakorligi bilan bir qatorda g‘isht qalab naqsh hosil qilish san’ati rivoj topdi. XII asrda me’morlikda sirlangan g‘ishtdan foydalanildi, maxobatli binolarning devor, gumbazlari koshin bilan qoplanib, bino ichi ganch o‘ymakorligi, bo‘yama naqshlar bilan bezatilgan.

Islom dini qaror topishi bilan amaliy san’atning turli sohalarida badiiy bezak asarlari, mavhum naqsh-bezaklar yaratishga intilish kuchaydi. IX-X asrlar me’moriy naqqoshlikda handasaviy (yulduzsimon shakllarning turli ko‘rinishlari) va arab yozuvlari ishlash yetakchi o‘rinda turgan. Girih san’ati yuksaldi. Rangli sirning ixtiro qilinishi (VIII asr) bilan badiiy kulollik taraqqiy etdi. Samarqand, Toshkent, Buxoro, Termiz va boshqa shaharlarda sopol idishlarga naqsh-bezaklar ishlab, bo‘yab, ustidan sirlash usuli o‘zlashtirildi. Dastlab sodda yashil bezak ustidan xira sir qoplangan yoki 2-3 xil rangda sir dog‘lari oqizilgan idishlar ishlangan bo‘lsa, X-XI asrlarda idishning oq yoki g‘isht rang qizil zaminiga rangli angob bilan aniq naqsh mujassamoti tushirilib, ustidan tiniq (shaffof) qo‘rg‘oshin sir qoplangan. Shu davr kulolchiligi (ayniqsa, Afrosiyob idishlari)ga bezak bilan badiiy shaklning bir-biriga mos ravishda ishlanishi xosdir, keskin rangli bezakning aniq ishlanishi va tasvirlarning mahalliyligi («kufiy» yozuvlari, novda, lola, anor, tok barglari tasvirlanishi) bilan ajralib turadi. Keyingi davr idishlariga uslublashtirilgan o‘simliksimon naqshlar, yozuvlar va ba’zi hayvonlar shakli tushirilgan: yashil, yorqin havorang sirli idishlar, sirsiz bosma usulda tasvir tushirilgan, naqshli sopol idishlar ham ko‘p ishlangan. XII asrdan koshindan nozik yupqa idishlar ko‘plab ishlana boshlandi.

Badiiy metall buyumlar o‘rta asr uslubida yaratilgan. Idishlar (ko‘za, qozoncha, shamdon va boshqalar) bron-

zadan yasalib, hoshiya va turunj naqshlar bilan bezatilgan, yozuvlar uslublashtirilgan o'simliksimon naqshlar bilan, ba'zan qush va hayvonlar tasvirlari ham aralashtirilgan, chizma, kandakori va boshqalar. Usullarda ishlov berilgan. Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasida saqlangan ulkan qozon (1390) bezaklari, o'yib naqshlangan eshik (1397), nafis ishlangan shamdonlar, o'sha davrning nodir namunalaridir. Shishasozlik (turli-tuman rangli qadah, piyola, likobcha va ko'zachalar) va badiiy to'qimachilik rivojlangan. XIII-XIV asrlarda mo'g'illar istilosи va undan keyingi davrlarda badiiy sopol idishlar mayda o'simlik va chizma naqshlar bilan bezalgan; yashil-qora va feruza havorang bo'yoqlar oq angob ustiga tushirilgan, ustidan rangsiz yoki shaffof sir bilan qoplangan.

Amir Temur va Temuriylar davrida badiiy hunarmandlik yanada ravnaq topdi; nafis matolar, gulli kashtalar, zebuziynat buyumlari, badiiy bezatilgan qurollar, ot abzallari, idishlar ishlab chiqarilgan. Registon, Shohi-Zinda, Oqsaroy kabi yirik me'moriy ansamblar yaratilib, bino tarzi rangbarang koshin va parchinlar bilan bezatilgan, bino ichi xalli naqsh va bo'yama naqshlar bilan, XV asr 2- yarmidan tilla xalli bo'rtma «kundal» naqshi bilan bezatilgan. Yozma manbalarda Amir Temur saroylariga mavzuli tasvirlar, bo'yama naqshlar ishlanganligi qayd qilingan. Shayboniylar hukmronligi (1500-1601) va Ashtarkoniylar (1601-1753) davrida O'zbekiston hududida tinimsiz urushlar bo'lib turgan. Shuning uchun ham badiiy hunarmandlik poytaxt Buxoro va qisman boshqa yirik shaharlarda Samarqand, Toshkent, Xivada to'plangan, xattotlik, kitobat san'ati, muqovasozlik, kitob miniatyurasi, qo'lyozmalar yaratish san'ati rivojlangan. Ustalar qo'lyozma kitob sahifalariga zarhal berib, nozik o'simlik va handasaviy naqshlar bilan to'ldirib bezashgan. O'zbekistonning barcha markazlarida ip, ipak, jun matolar (atlas, zandonachi, baxmal, bo'z, shoyi, olacha, parcha) va tayyor buyumlar (ro'mol, dasturxon, salsa, belbog', kiyim va boshqalar) ishlab chiqarilgan. XVIII asrlarda to'qimachilik

markazlari Buxoro, Marg‘ilon, Andijon, Samarqand, Xiva, Toshkentda joylashgan. Shahrисabzda popop chokli so‘zanalar, Buxoro, Samarqand, Toshkentda xon va ulamolar uchun zardo‘zi buyumlar tayyorlangan. XVIII-XIX asrlarda mahobatli binolarni, ayniqsa, ichki qismini koshin, tosh, ganch, yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatish davom etdi. Kulollik va kandakorlik san’ati yuksak darajaga ko‘tarildi. Kandakorlikning Buxoro, Qarshi, Xiva, Shahrисabz uslublari vujudga keldi (Qo‘qon kandakorlik maktabi, Buxoro kandakorlik maktabi). Amaliy bezak san’atining boshqa turlarining mahalliy uslublari shakllandi.

Yozma manbalardan XVIII asrda iroqi do‘ppilar ko‘plab tikilgani ma’lum. XIX asr 1-yarmi va o‘rtalariga oid kashtalarda (Buxoro, Samarqand, Nurota) chamanzorlar tasvirlangan. Shahrисabzda «abr» bezakli matolar to‘qila boshlangan.

XIX asrda Toshkentda gulko‘rpa, palak singari yirik kashtali badiiy buyumlar tikilgan.

Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda, Xorazm, Farg‘ona vodiysida ko‘pchilik qadimdan rivojlangan. Turli xil kun mahsulotlari: charm, xrom, amirkon va boshqadan poyabzal, telpak, ustki kiyim, ot-ulov abzallari, qayish, qin kabi buyumlar tayyorlangan. Teriga badiiy ishlov berish rivojlangan; dastlab boshlangan, ustidan pardozlangan, ba’zilari bo‘yalgan. Buyumlar usti murakkab usulda rangli charm, baxmal parchalari, popuklar, qo‘ng‘iroqchalar qo‘sib tikilib buyumning badiyligi oshirilgan. Ayniqsa, qog‘oz hujjatlar solib yuriladigan juzdon (juzgirlar)ga turunj naqshlari bosma usulda tushirilib, hoshiyasiga nozik o‘simliksimon naqshlar berib bezatilgan.

XVIII-XIX asrlar zargarlari qadim zargarlik san’ati an’analarini davom ettirishdi. Yozma manbalarga ko‘ra XVIII asr zargarlari oltin va kumushga qimmatbaho toshlar qadab toj va kamarlar, qurollar, ot abzallari, zeb-ziynat buyumlari ishlagan. XIX asr zargarlari zumrad, dur, marvarid, yoqut, ferauda, aqiq, sadaf kabi qimmatbaho toshlarni oltin

va kumushga qadab serjilo, jozibali zeb-ziynat buyumlari yaratishgan. Ularni bolg‘alab (zarb berib), xallab o‘yib, bo‘rttirib naqsh yasab, bosish (siqib), usullarida ishlov berilgan.

XIX asr o‘rtalarida Rishton qishlog‘i kulollari elga mashhur bo‘ldi. Shu davrda Abdujalil, To‘xta, Abdulla kabi ustalar ishlab o‘ziga xos Rishton kulollik uslubini yaratishdi. Rishton sopol idishlarining oq zaminiga ko‘k bo‘yoq bilan bezak chizilgan. Bezaklarga oid shaklda tushirilib, idishning tubi va chetlari ajratilgan. Asosiy bezagi yirik serbarg gullardan iborat bo‘lib, orasi nozik pechak singari novdalar bilan to‘ldirilgan. To‘rsimon hoshiya naqshlar orasiga an’anaviy ko‘zchalar qo‘yilgan. Rishton buyumlari qatori Varganza, G‘ijduvon, Kattaqo‘rg‘on, Shahrisabz, Toshkent kulollarning buyumlari o‘ziga xos shakli, bezak naqshlari bilan ajralib turgan.

XX asr boshlarida O‘zbekiston amaliy bezak san’ati an’analariga asoslangan holda, yangi zamonaviy mavzular bilan boyitib rivojlantirildi. Aksariyat badiiy hunarmandlik sohalari tiklandi. Farg‘ona an’anaviy to‘qimachilik san’ati o‘rganilib, abr gulli kiyimli ipak matolar (A. Axmedov), Buxoro yirik gulli matolaridan bino ichini bezaydigan badiiy buyumlar: deraza-eshik pardalar, choyshablar, dasturxonlar ishlab chiqarildi. An’anaviy chitgarlik (A. Abdugafurov, K.Qo‘ziyev, F.Qo‘ziev), gilamchilik va palos to‘qish (G. Abdullayev)da mavzuli tasvirlar berishga, kishilar siymosini yaratishga harakat kuchaydi. Kandakori buyumlarga ham tasviriy bezaklar berish rasm bo‘ldi. XIX asr an’analarini kashtachi K.Musajonov, opa-singil Rajabovalar (Chust «tuye» do‘ppilar, Shahrisabz «iroqi»larini yaratishgan), kulol T.Miraliyev, U.Shermatov, M.Ismoilov va boshqalar davom ettirdi. Zargarlik buyumlari shakl jihatdan ancha sod-dalashtirilsa ham qadimgi an’anaviy usullarda ishlandi. 30-yillar o‘rtalaridan sanoatda badiiy matolar ishlab chiqish yo‘lga qo‘yildi. Toshkent to‘qimachilik korxonasi satin, chit, urushdan keyingi yillarda Marg‘ilon shoyi to‘qish korxonasi

sun'iy va ipak matolari ishlab chiqara boshladi. 60-70-yillarda Marg'ilon «Atlas» birlashmasi, Namangan shoyi to'qish fabrikasi abr gulli ipak matolar chiqardi. Taqsim usulida yirik gulli qilib ishlangan «arabi» xilidagi, sidirg'a va mayda gulli «terma» paloslar (T.Jo'rayev, B.Mirzayeva, O.Xolmatova), zardo'zi do'ppi, nimcha, yirik namoyonlar (A.Aminov, M.Axmedova, V.P.Stolyarov), so'zana, palak, gulko'rpa va turli kiyiklar, mayda haykaltaroshlikda an'anaviy sopol buyumlar (U.Jo'raqulov, X.Raximova) qatori beg'ubor xazil ruxi aks etgan haykalchalar (A.Muxtorov) yaratildi.

Amaliy san'at so'nggi 80-90-yillar ichida quyidagi asosiy yo'nalishlarda rivojlandi: 20 dan ortiq xalq hunarmand-chiligin o'z ichiga olgan xalq amaliy san'at yengil (chinni buyumlar, badiiy matolar) va mahalliy (sopol, yog'och buyumlar, gilamchilik, kashtachilik, zardo'zlik va boshqalar) sanoatni o'z ichiga olgan badiiy sanoat; ko'rgazma, interyer va manzarali kulollik buyumlari, gobelen, shisha, chinni va zargarlik san'atida an'anaviy bo'limgan buyumlar yaratuvchi ras-somlik ijodi bilan bog'liq malakali yakka tartibdagi mualliflik bezak san'ati.

Xalq amaliy san'atini rivojlantirish, uning unutilgan turlarini qayta tiklash va taraqqiy ettirishda «Usto» birlashmasi (1978) muhim rol o'ynadi. Kulollik, kandakorlik, tosh, yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, zargarlik san'ati, zardo'zlik, gilamchilik va kigizchilik, lak miniatyurasi, badiiy to'qimachilik, nosqovoq, to'qima ro'zg'or buyumlari, chinni, shisha buyumlar tayyorlash va boshqalar amaliy san'at turlari rivojlanmoqda. Ganch o'ymakorligini me'moriy bezaklarda qo'llash bu turning barcha maktablari an'analarini rivojlantirishga e'tiborni oshirdi. Ustalar turli maktab an'analarini uyg'unlashtirib, o'ta ehtiyyotkorlik bilan me'moriy bezaklar mujassamlashtirishga kirishilmoqda. Badiiy hayotda ro'y berayotgan jarayonning ta'siri hamda mahalliy badiiy an'analarning boyligi badiiy tajribada an'anaviy bo'limgan yakka tartibdagi mualliflik bezak san'atini rivojlantirmoqda. Badiiy to'qimachilik, chinni, shisha, kulollik

buyumlari ko‘rgazmalarda tez-tez namoyish etilmoqda, ayni paytda shahar maishiy, me’moriy va muhitini boyitish vositasiga aylanmoqda. Jumladan an’anaviy bo‘lmagan kulollik, gobelen tayyorlash rivojlanmoqda, ustalarning ishlari ko‘rgazmalarda namoyish etilmoqda. 70- yillardan kulollik asarlari Toshkent va boshqa shaharlardagi jamoat binolarini bezamoqda: Toshkent metropoliteni bekatlari va boshqalar O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi amaliy san’atning barcha shakllarini rivojiga mustahkam zamin yaratdi. Shuningdek, O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan, jahonga mashhur nafis san’at mакtablarining noyob an’analarini avaylab asrash, o‘rganish, boyitib borish, milliy tasviri, amaliy, miniatyura san’atining nodir durdonalarini dunyoga olib chiqish va targ‘ib qilish, nafis san’atlar sohasidagi ilmiy izlanishlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, zamon talablariga mos badiiy ta’lim tizimini barpo etish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil etildi (1997-yil. 23-yanvar qarori). «Xalq badiiy hunarmandchiliklarini va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlari to‘g‘risida»gi (1997-yil. 31-mart) qarori milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atning ahamiyatini oshirish, qo‘lda ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash asriy an’analarini va o‘ziga xos turlarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq an’anaviy amaliy san’atning yangidan tiklanishi va rivojlanishi har yili Navro‘zda o‘tkaziladigan amaliy san’at asarlari ko‘rgazmasida namoyon bo‘lmoqda. Amaliy san’atning hamma sohalarida professional rassom, haykaltaroshlar o‘rtasida hamkorlik mavjud. Amaliy san’atning tashkillanishi taraqqiyoti jarayonida badiiy uslublar almashuvi. San’atning boshqa turлari bilan bog‘liq ravishda davom etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.


1. O‘zbek xalqi amaliy bezak san’ati tarixi haqida nimalar bilasiz?
2. Ahamoniylar davrida amaliy san’ati haqida so‘zlab bering.
3. Muhr va tangalardagi bezaklar haqida nimalar bilasiz?
4. Sopol haykalchalar haqida nimalar bilasiz?
5. Kulolchilik buyumlaridagi bezaklar haqida so‘zlab bering.
6. Zargarlik buyumlarining yaratilishi haqida nimalar bilasiz?
7. Yog‘och o‘ymakorligi haqida so‘zlab bering.
8. Temuriylar davri amaliy bezak san’atining rivojlanishi haqida so‘zlang.
9. Temuriylar davri me’moriy bezak san’ati haqida nimalar bilasiz?
10. XIV-XVII asr amaliy bezak san’ati haqida so‘zlab bering.
11. XIV-XVII asr to‘qmachilikning rivojlanishi haqida nimalar bilasiz?
12. Charmga badiiy ishlov berish va kitob muqovalarini tayyorlash haqida so‘zlab bering.
13. Kandakorlik san’ati haqida nimalar bilasiz?
14. Tosh o‘ymakorligi haqida nimalar bilasiz?
15. Zamonaviy O‘zbekiston amaliy bezak san’ati haqida nimalar bilasiz?



1-rasm. Registonning avvalgi ko‘rinishi. 1417-1660 yillarda Samarqandning Registon maydonida qurilgan me’moriy yodgorliklar kompleksi. Ulug‘bek madrasasi, Tillakori madrasasi, Sherdor madrasasidan iborat. O‘rtacha Osiyo me’morchilik san’atining klassik namunasi.



2-rasm. Registonning hozirgi ko‘rinishi.




3-rasm. Hazrati Xizir masjidining avvalgi ko‘rinishi.

Samarqand, XIX asr o‘rtalari – afsonaviy o‘lmas shaxs Hazrati Xizir nomi bilan bog‘liq. Bino qadimiy masjid poydevori ustiga qurilgan. Bosh tarzidagi tik zinapoyadan darvozaxonaga chiqib, uncha katta bo‘lmagan xonaga o‘tiladi. Chapdagi ravoqli peshayvon jozibador naqshlar bilan bezatilgan. Old tomonida o‘ymakori 5 ustun bor. Undan xonaqohga eshik ochilgan. Xonaqohning ikki yonida hujralar bor. Bundan tashqari




shohnishin qo‘srimcha xonalar, omborxona va minora mavjud. Darvozaxona peshtog‘i koshinkor naqshlar bilan bezatilgan. Uning ikki yonidagi guldasta-minora qubbasi qobirg‘ali. Keyinchalik binoga qo‘srimcha ayvon (1899), darvozaxona (1919) qurilgan.

4-rasm. Hazrati Xizir masjidining hozirgi ko‘rinishi






5-rasm. Imom al-Buxoriy yodgorligi. Sunniy mazhabи ta'limotchisi, hadis ilmining sultonи hisoblangan Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy payg‘ambarning sodiq ummatlaridandir. U kishi o‘z hayotini hadislarni yig‘ishga va o‘rganishga baxsh etgan. Al-Buxoriy yoshligida haj qilish uchun Hijozda qoladi, u yerda hadis to‘plovchi olimlarning biografik majmuasini tuzadi. Hadis to‘plash maqsadida u Misr, Iroq va Xurosonda bo‘ladi. U umrining oxirgi kunlarida o‘z vataniga qaytadi va 870 yili Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida vafot etadi. U noyob xotira egasi bo‘lib, 600 mingga yaqin hadisni tahlil qiladi va «Al-Jomiy as-sahih» nomli asl hadislar to‘plamini yaratadi. Bu kitob musulmonlar uchun muhim hayotiy muammolar yechimini topib beruvchi musulmonlar uchun nasihatlar to‘plami sifatida hayotiy qonun-qoidalarga to‘la mos keladi. XVI asrda imom al-Buxoriy qabri tepasiga uncha katta bo‘limgan maqbara va yoniga masjid quriladi. O‘zbekiston hukumati qaroriga binoan eski maqbara o‘rniga yangi me’moriy majmua qurildi.



6-rasm. Hazrati Imom majmuasi. Hazrati Imom majmuasi doimo tabaruk bir joy bo‘lib kelgan. Bu yerda amalga oshirilgan keng ko‘lamli qayta tiklash, ta’mirlash, yangi qurilish va obodonchilik ishlari, o‘ylaymanki, Hazrati Imomning va xoki poklari shu zaminda yotgan aziz-avliyo zotlarning ruhini shod qildi, kelajak avlodlar uchun bir namuna bo‘ldi.

Ushbu majmuaning obod qilinishi, hech shubhasiz tarixiy voqeа. Xalqimizning mana shunday savobli ishlarga katta hurmat bilan, butun yuragi, chin qalbi, vujudi bilan qarashi shuni yana bir bor isbot etdiki, bizning nafaqat tomirlarimiz chuqur va baquvvat, agar biz odamlarimizning xohish-irodasini to‘la anglasak, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, sharoit yaratib bersak, bu insonlarning azmu-shijoati, bunyodkorligiga teng keladigan kuch bo‘lmaydi. Shu haqiqatni hech qachon unutmasligimizni istardim.

Islom Karimov



7-rasm. Hazrati Imom majmuasi.



Ot anjomlari. XIX asr.

Toshkent, Buxoro. XX asr.




8-rasm. Egarlar. Barchamizga ma'lum bo'lgan bu ot abzalining butun qirralariga ensiz zanjira naqshlari tushurilgan, eng o'rtada esa tabiat uyg'onish g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan gullar aks ettirilgan. Naqshlarga boy yog'och egarlar, odatda, o'ziga to'q odamlardagina bo'lgan.



9-rasm. «Namoyon». Davlat mukofotining laureati Quli Dalilov (1892 - 1961). Samarqand. 1940 y. Ganchkorlik, naqqoshlik. O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi, Toshkent.





10-rasm. Xonatlas, Rahmatullayev Jabbor (1928-yil tug‘ilgan.) Namangan, 1967-yil. To‘qilishi atlas shoyi, o‘rilishi abrbandi naqshida. Xususiy ro‘zg‘or buyumida.



11-rasm. So‘zana. Jizzax, XIX asr oxiri. Potli materialga ipakdan kashta tikilgan, bosma chokli, yo‘rmado‘zi. O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi, Toshkent.



12-rasm. Yog‘och o‘ymakorligi. O‘yma eshik. Xiva XIX asr.



13-rasm. Kulolchilik buyumlari
Lagan va guldonlar Toshkent
kulolchilik mакtabining yirik
namoyandasi M.K.Rahimovning
asarları.

II BOB. USTOZ VA SHOGIRD AN'ANALARI

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya mazmunida uzlusiz ta'limni isloh qilish milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizni intellektual merosiga hurmat, respublikamizning jahondagi mavqeい va obro'-e'tiborini mustahkamlash kabi muhim omillar amalga oshirilmoqda. Bu masalalarni amalga oshirishda ajdodlarimizni bizga qoldirgan ma'naviy xazinalari o'rini ahamiyatga egadir. Asrdan-asrga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ulug' ajdodlarimizning milliy-ma'naviy merosi jahon sivilizatsiyasi durdonalarini tashkil etar ekan, uning shaxs kamolotidagi ahamiyati cheksizdir. (13,14,15-rasmlar.)

Turkiy xalqlar qadimiylarining jahon taraqqiyotidagi o'rni salmoqlidir. Xuroson, Mavarounnahr, Afrosiyob, Sug'diyona, Marokand, Turon, Turkiston va boshqa joylar butun dunyoga mashhur bo'lib, tabarruk bu zaminda Ahmad Yassaviy, Al-Beruniy, Al-Farobi, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy singari buyuk allomalar: Spitamen, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va Mahmud Tarobi, sohibqiron Amir Temur va temuriyzodalardek jasur o'g'lonlar dunyoga keldilar. Bular o'z xalqlarining baxt-saodati, madaniyati uchun jisman va ma'nani kurashdilar. Shuning uchun ham ahli jahon ersa ularning ezgu amallarini olqishlab, hanuz tabarruk zotlar deya o'z qalblarida muqaddas tutmoqdalar. Ular, ayniqsa, yoshlarimizning tarbiyasiga, hunar va ilm olishga doimiy chaqirib keldilar. Masalan: Abduraxmon Jomiy yoshlarga murojaat qilib shunday degan edi:

«Oltin topmaguncha o'rgangil hunar
Hunarning oldida xasdир oltin-zar».

Ota-bobolarimiz «Bir yigitga yetmish ikki hunar oz» deb bejiz aytmaganlar. «Ey, farzand, agar oqil va dono bo'lay desang, hunarmand bo'lishni o'yla. Hunarmandlik sababidan izzat va hurmatga erishasan, agar hunardan bebahra bo'lsang, quruq soyasiz daraxtga o'xshab qolasan. Ey,

farzand, aqilli farosatli va ilmu-hunarli kishilar bilan do'st bo'l. Hunarsiz kishida xosiyat bo'lmaydi. Mehnatdan ilmu-hunar o'rganishdan uzoqlashma».

Hunar o'rganib, ilmu-odob egasi bo'lgan odam olamda o'z o'rnini topadi. Mehnat qilish va uni elga manzur etishning ham o'ziga yarasha odobi bor. Siz quyidagi nasihatlarimizga amal qiling: Har bir ishni halol bajarib, oxiriga yetkazing. «Mendan ketguncha....» tariqasida ish qilmang, ishni qo'l uchida qilishdan saqlaning, chunki bunday odamlarning xalq o'rtasida obro'-e'tibori bo'lmaydi.

Qo'lingdan kelmaydigan ishga aslo kirishma, bunday ishni oxiri hijolatchilik va beburdlik bilan tugaydi. Xalqimizning «chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin» degan o'gitiga amal qiling. Ko'pchilik bilan mehnat qilganda, o'zingizni orqaga tashlamang, yuelingizni birovga solmang, g'irromlik va mug'ombirlik qilmang» Hunarsiz kishi foydasiz bo'lib, na o'ziga na hech kimga nafi tegadigan tikonli butaga o'xshaydi. Hunarsiz kishini xuddi tirik murdaga ham o'xshatish mumkin. Agar senga biror hunarli kishi uchrasa uni mahkam ushlagin, uning hunarini yaxshilab o'rgangin.

«Hunardan yaxshiroq narsa yo'qdir va donishdan ulug'roq narsa yo'qdir, sharmdan yaxshiroq zevar yo'qdir va badxo'ylikdin yomonroq dushman yo'qdur».

Hunarni yoshlikda o'rganish hamda har bir daqiqani bekorga o'tkazmaslik kerak. «Yoshlikda olingen bilim toshga o'yilgan naqsh kabitir».

«Ey farzand, sen ham hunarni donodan o'rganmasang, nodondin o'rgangil. Barcha katta-kichikka hunar o'rganmoq vojibdur, nedinkim kishi hunar o'rganmoq bilan o'z hamrohlaridan baland martabada bo'lur. Chunki o'zingda hunar ko'rib o'z tenglaringda ul fazilatni ko'rmasang, o'zingni ulardan baland ko'rasan va ular yana seni o'zlaridan baland martabada bilurlar. Hunarmand kishi ularkim, fazli va hunar sabab bila qadr va martabasi o'zgalardan baland bo'lg'on ekanini bilib fazl va hunarga avvalgidan ziyodroq harakat qilg'ay va burungidan ziyodroq harakat qilg'ay va burungi-

dan ziyodroq fozil va hunarmand bo‘lg‘ay. Har kishi bundoq qilsa tezda xalqning orasida aziz va ulug‘ bo‘lg‘ay. Bas, buni bilgan kishi fazl va hunardin qo‘l tortsa, bu aqlsizlik nishonasidir. Nedinkim bekorchilik badanning fasad va bemorligiga sabab bo‘lur».

Hunar ado bo‘lmas boylikdir. Xalqimiz va uning donishmandlari asrlar davomida hunar haqida to‘plagan tajribalarini, axloqiy va falsafiy fikrlarini qisqa satrlarda badiiy ifoda etganlar. Bu har bir qisqa satrlarda bir dunyo ma’nolar mujassamlashgan. Quyidagi berilgan donolar va xalqimizning hunar haqida nasihatlaridan namunalar beramiz. Ularni har birini mag‘zidagi ma’nolarini bilib olish har bir bandaimo‘minning vazifasidir. Abduraxmon Jomiy donolar xazinasi haqida shunday deydi.

«Qo‘qsigan xazina qilolsang agar, donolar labidan to‘kilur gavhar.

Donolar yoshlарimizga hunar haqida quyidagi nasihatlarni beradilar: «Bir donishmand farzandlariga shunday pandu nasihat qilardi: Aziz o‘g‘lonlarim, hunar o‘rganinglar, zeroki, mol dunyoga e’tiqod yo‘q va oltin-kumush safarda xatarlidir. Qaroqchi o‘g‘irlab ketadiyu, ammo hunar qaynar buloq, tugamas davlatdir, agar hunarmand molidan mahrum bo‘lsa, qayg‘usi yo‘qdir. Chunki hunarning o‘zi davlatdir. Hunarmand qayerga borsa, qadrlanadi va uyning to‘ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi». (Sa’diy. «Guliston»).

Olim, fozillardan Xurramiy aytadi: «Bir qari chol kishi har vaqt yoshlarga: «Bolalarim, yoshlарni g‘animat biling, faqat o‘yin-kulgi, kayf-safo bilan yoshlар davringizni zoye etmang, o‘qing, o‘rganing, ilmli, hunarli bo‘ling. Agar yoshlар davringizda o‘zingizni tutib qolmasangiz, keyin qattiq pushaymon qilasiz, lekin foyda bermaydi - deb nasihat qiladi. Shu hurmatli cholning nasihatlariga amal qilgan yoshlар baxt-saodatli bo‘ladilar». (Sheunnun).

O‘zbekiston Respublikasining, turli joylarida turli xalq hunarmandchilik turlarini rivojlanishining sababi, ularning

geografik joylashgan joyi, tabiatini va u yerdagi mahalliy manbalarga bog'liq bo'lgan. Masalan: Toshkent viloyatida ganchkorlik, mo'jaz rang tasvir, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, suyak o'ymakorligi, zargarlik, kashtachilik va boshqa xalq hunarmandchilik turlari; Buxoro viloyatida esa zardo'zlik, ganchkorlik, misgarlik, kulolchilik, do'ppichilik kabi turlari; Farg'ona viloyatida naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, yog'och o'ymakorligi, sangtaroshlik va boshqa turlari; Andijon viloyatida naqqoshlik, kulolchilik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kashtachilik, mo'jaz san'ati kabi turlari; Xorazm viloyatida kulolchilik, naqqoshlik, gilamdo'zlik, yog'och o'ymakorligi, tosh o'ymakorligi kabi turlari; Samarqand viloyatida naqqoshlik, misgarlik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, tosh o'ymakorligi kabi turlari; Namangan viloyatida naqqoshlik, ganchkorlik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, pichoqchilik kabi turlari; Qoraqalpog'iston Respublikasida esa naqqoshlik, kigizchilik, gilamdo'zlik, yog'och o'ymakorligi kabi turlari yaxshi rivojlangan. Farzandi otasidan naqqoshlik o'rgangan va o'z navbatida u o'z bolalariga o'rgatgan. Ustanning o'g'li yoki farzanda bo'lmasa bu kasbni eng yaqin qarindoshlari bolalari va qizlariga o'rgatgan. Xullas, kasb avloddan-avlodga meros qolishi an'ana holda rivojlanib kelgan.

Ota-bobolarimiz bolani tug'ilmasdanoq hunarga o'rgatish kerak deydilar. Bu gapda chuqur falsafiy ma'no yashirin, ya'ni, qadimdan hunarmand oilalar juda ko'p bo'lgan, masalan zargarlik hunari bilan shug'ullanayotgan oilada kichik boladan tortib cholu-kampirlar ham shu hunar bilan shug'ullanganlar. Bola ona qornida bo'lganida ona zargarlik buyumlarini tayyorlashda, materiallarni eritishda yoki boshqa narsalarda yordam bergen. Ona shu metallar hidiga o'rgangan, shu nafas organlari orqali bola ham nafas olgan, ya'ni bola ham shu xidlarga moslashgan. Bola tug'ilgandan so'ng bir qancha vaqt keyin zargarlik buyumlarini qo'lida o'ynab o'tirgan va yurgan. Asta bola ota-onasiga zargarlik buyumlarini qismlarini bukib yoki tayyorlab berib turish kabi

ishlarni qilib zargarlik, hunariga qiziqib ishlar bajargan. Keyinchalik bu tabiiy qiziqish natijasida yetuk usta bo'lib, ota-onasini hunarini davomchisi bo'lgan.

Shuning o'zidayoq xalqimizning qadim-qadimdan hunarmandchilik turlarini nechog'liq ardoqlaganligini, hunarni faqat eng munosib va fidoiy kishlarga gagina ishonib topshirganligini ko'rishimiz mumkin.

Olima D.A. Zoxidova «Hunarmandchilikka kirish» maxsus kursi bo'yicha dastur va uslubiy tavsiyanomasida hunarmandchilik ustaxonalarining nizomi ya'ni «risola» haqida quyidagicha bayon etgan.

Hunarmandchilik risolalari «udumlar nizomi» bo'lib (uncha katta bo'lмаган 16-18 varaq hajmdagi kitobcha), usta-hunarmandlar va ularning shogirdlarining ma'naviy hayotlari va mehnat faoliyatlarini belgilab beruvchi me'yoriy xujjat sifatida foydalanishlari uchun mo'ljallangan.

Shuni ta'kidlash joizki, turli soha hunarmandchilik risolalarining tuzilishi bir hil. Ularning barchasida risola Allohga, uning payg'ambarlariga va izdoshlariga hamdu-sano bilan murojaat qilishdan boshlanadi, so'ngra muayyan bir hunarning ilohiy kelib chiqishi haqida haqiqatgo'y imom Jafar tomonidan rivoyat qilinadi, chunki aynan u barcha hunarlarning tuzuvchisidir. So'ngra hunarmandga o'zining mehnat faoliyatida qanday hikmatli, diniy yoki boshqa gaplarni ayt-mog'i lozimligi haqida ko'rsatmalar beriladi va nihoyat, provardida, hunarmandga risola qoidalari bajarganligi uchun mukofot yoki ushbu qoidalarni buzgani, bajarmagani uchun jazo va'da qilinadi.

Risolalarga binoan, shogird barcha avliyolarning – hunar homiylarining nomini, har bir ishlab chiqarish jarayonida o'qiladigan Qur'on suralarini aytib bermaguncha, ustozidan «takbir» (ruxsat ibodatini qilish orqali mustaqil ravishda hunar bilan shug'ullanishga ruxsat) ola olmaydi.

Ammo biz uchun o'ta muhim narsa shundaki, barcha risolalar juda katta ruhiy ma'naviy kuch-quvvatga ega: ular bajarilishi majburiy bo'lgan ma'naviy qonun-qoidalari

farzlarini o‘rnatadilar va ushbu hunarga mansub odamlar bu qonun-qoidalarga rioya qilishlari shart bo‘lgan.

Ushbu risolalarda usta-hunarmandlarni qiladigan kasbiy fazilatlari, burch va majburiyatları, «usta» degan nomni olish odoblari, qonun-qoidalari va boshqalar bayon etilgan. U yerda oqsoqollarni ya’ni pirlarini va ustozlarini doimiy e’zozlash, shaxsiy va kasbiy fazilatida o‘z ifodasini topgan. Ustoz zardo‘zlarning aytishlaricha, yaqin-yaqingacha «pir-zod»lar bo‘lib, ularni «risolachi» deyishgan. Haftada ikki marta, yakshanba va payshanba kunlari risolachi barcha zardo‘zlik ustaxonalarini aylanib chiqqan va odamlarni to‘plab, risola o‘qigan, o‘qiganlarini tasvirlab bergan.

Odatda, qiroatxonlik dasturxon ustida davom etgan. Qi-roatdan keyin risolachi tinglovchilardan tushgan uncha-muncha nazr-niyozni belbog‘iga tukkanda, fotiha o‘qib, navbatdagi ustaxonaga yo‘l olgan.

Qadimda har bir hunar muqaddas hisoblangan bo‘lib, u hurmatlab, e’zozlab kelingan. Har bir hunarni o‘z ustalari va uning shogirdlari bo‘lgan. Ota-bobolarimiz ustoz va shogird-lar uchun xos odob-axloq maxsus qonun-qoidalari, urf-odatlari, madaniyatlari, duolari milliy an'analar ishlab chiqilgan bo‘lib, bu qoidalarga qat’iy rioya qilganlar. Ustozning ham, shogirdlarining ham oldiga qo‘yilgan o‘ziga yarasha vazifalari, burchi bo‘lgan.

Ustoz shogirdga qattiqqo‘l, talabchan bo‘lgan. Ustozlar shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Bulardan tashqari hunarmandlarning kasb madaniyati, hunarmand va shogirdlik odobi, shogirdning ustoz oldidagi burch va vazifalari: hunarmandlar kasb madaniyati, hunar-mndlarning odob qoidasi, hunarmand va shogird o‘rtasidagi odob mezoni singari mezonlar ishlab chiqilgan.

Hunarmand va xorizor o‘rtalaridagi munosabatlar savdoda poklik vaadolatlilik, to‘g‘rilik, xushfe’llik, nafsin tiyish, kambag‘al-bechoralarga xayru-ehson qilish, mahsu-lotning asl bahosini bilmaganlar bilan to‘g‘ri muomalada

bo‘lish, va’daga xilof etmaslik boshida olmaydigan ishga va’da bermaslik asosida qurilgan.

Alisher Navoiyning zamondoshi olim mudarris Husayn Voiz Koshifiy «Kim bilan do‘stlashish kerak», degan risolasida hunarmandlarni, o‘zlarini qanday tutish kerakligi haqida quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tadi:

«Sendan hunarmandlar o‘rtasida nechta odob qoidasi bor, deb so‘rasalar, sakkizta deb javob ber:

Birinchi: o‘z hunarini noqonuniy daromadlardan asraydilar.

Ikkinchi: hunarni boylik orttirish manbai deb emas, balki hayotda munosib o‘rin egallah maqsadida o‘rganadilar.

Uchinchi: o‘z ishining ustalariga doimo hurmat va ehtiyomda bo‘ladilar.

To‘rtinchi: noplari yo‘llar orqali boylik to‘plovchilar bilan aloqa qilmaydilar.

Beshinchi: ishda kamchilikka yo‘l qo‘ymaydilar va tanlangan kasblariga befarq bo‘lmaydilar.

Oltinchi: mahsulotning bahosini bilmaganlar bilan to‘g‘ri muomalada bo‘ladilar.

Yettinchi: oldi-berdi tarzi bilan bog‘liq ishlarda odil bo‘lish.

Sakkizinchi: agar ish hisobchi bilan bitadigan bo‘lsa o‘z hissasini jamiyat hissasidan yuqori qo‘ymaslik kerak, chunki yurt farovonligi xuddi ana shu jamiyat jamg‘armasi tufayli yuzaga keladi».

Qadimda milliy an’ana bo‘yicha shogirdlikni o‘ziga xos odob-axloq qoidalari bo‘lgan. Chunonchi, Xusayin Voiz Koshifiy bunday deydi:

«Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so‘rasalar, yettita degin.

Birinchi: o‘z ishiga yaxshi munosabatda bo‘lish, ya’ni o‘z kasbini sevish.

Ikkinchi: o‘z ishiga e’tiqod qo‘yish va unga ishonish.

Uchinchi: ustozi oldida haqsevar bo‘lish, o‘z nojoya odatlarini tark etish.

To‘rtinchi: ko‘rish lozim bo‘lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish.

Beshinchi: eshitish mumkin bo‘lmagan barcha narsalarga qulq solmaslik.

Oltinchi: barcha noloyiq ishlardan qo‘l tortish.

Yettinchi: ustoziga zid bo‘lgan kishilar bilan muomala qilmaslik.

Agar shogirdlikning asoslari nechta deb so‘rasalar, oltita degin:

Farmonbardorlik, rostgo‘ylik, vafodorlik, nasihatni qu-loqqa olish, ozor bermaslik, sir saqlash.

Shogirdlikning eng yaxshi xislati nima deb so‘rasalar, shunday degin: poklik. Shogirdlikning noyob gavhari nima deb so‘rasalar: hamkasb do‘stlarini xushnud etish deb javob ber.

Kasb-hunar kollejlarimizda ustozi va shogird odobi an'analarimizni, urf-odatlarimizni qayta tiklash, zamonaviy madaniyat va axloqni rivojlantirish, xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviy tajribasini o‘rgatish va kelajak avlodga yetkazishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, hunarmandchilik Sharq xalqlarining qadimiyligi qadriyati bo‘lib, u asrlar davomida inson ma’naviyatini, o‘y-xayollarini, orzu-istiklarini o‘zida ifodalab kelayotgan san’at hisoblanadi. Uning o‘ziga xos milliylik xususiyatlari o‘rtasidagi axloq-odob mezonii, madaniyati, yosh avlodda hunarmandchilik kasbiga mehr-muhabbat o‘stirishda muhim ahamiyatga egadir.

Ustaga shogird tushish odobi

Inson zebi-ziyнати bilim-odobdir.
Bularni shogirdlariga singdirgan
ustozlаргина chinakkam ustozlardir.¹

A.Navoiy.

Qadimdan hunar o‘rganish muqaddas vazifa sanaladi. Har bir xalq kelajak avlodlariga o‘zidan qoldirgan takrorlanmas hunarlari bilan qadrlangan. O‘zbekiston qadimda hunarmandlar markazi bo‘lgan desak xato qilmagan bo‘lamiz. Masalan, Andijon viloyatida, Shaxrixon, Samarqand viloyatida Urgut, Farg‘ona viloyatida Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan viloyati Chust tumanida xalq hunarmandchiligi gullab yashnagan. Hunarmandlar o‘sha davrda mahallalarga bo‘linib yashaganlar, chunonchi zargarlik mahallasi, pichoqchilik mahallasi, deb yuritilgan. O‘sha davrlarda yana misgarlik, bo‘yrachilik, sandiqchilik, pichoqchilik, aravasozlik va kulolchilik mahallalari mavjud bo‘lgan. Masalan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda bo‘yrachi mahallasi bo‘lib u yerda umuman Buxorodagi bo‘yra to‘qiydigan ustalar yashagan. Bo‘yrachi mahallasida 120 ta oila yashagan.

Har bir kasb-korlik mahallasida qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida raqobat bo‘lgan. Chunki kimning mahsuloti sifatli bo‘lsa, xalq o‘shani ishlab chiqqargan mahsulotini sotib olgan. Shuning uchun har bir usta sifatli mahsulot tayyorlashga intilgan.

Har bir ustaning o‘z rastasi bo‘lgan. Bozorda, odatda, bozor begi bo‘lgan. U barcha rastalarga keltirgan mollarini kuzatib ularga narx belgilab chiqqandan keyin savdo-sotiq boshlanar edi. Sifatsiz mahsulot ishlagan ustaning bozori kasodga uchragan.

Usta o‘tmishda xalq ustalarining eng bilimdoni hisoblangan. Chunki ular madrasada tahsil olib adabiyot, tarix, musiqa, matematika, kimyo fanlarini yaxshi bilganlar.

¹ Hikmatlar guldastasi. T.:1982 yil 54-bet.

Naqqoshlik texnologiyasi avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Qadimdan naqqoshlar naqsh yaratish sir asrorlarini yozib qoldirmaganlar, faqat shogirdlari bilganlar. Shogirdlari usta bo‘lganlaridan so‘ng ular ham o‘z shogirdlariga o‘rgatgan. Shunday qilib, naqqoshlik kasbini an’ana tariqasida rivojlan-tirib kelganlar.

Usta o‘ziga shogirdlikka o‘z bolasini yoki qarindoshlari-ning farzandini olgan. Shogirdlikka 7-8 yoshdan olingan. O‘qish o‘rganish 7-12 yillar atrofida bo‘lgan. Ustoz shogird-lari bilan kunduz kuni ishlab kechqurun esa ustoz rahbarligida savod chiqarilgan. Shogirdlar geometriya va kimyoni o‘rganganlar.

Shogirdning qo‘lidan mustaqil ish kelgandan keyin ustalar uning ishlarini muhokama qilishib, so‘ngra «usta» nomini berishgan.

Ustaning o‘g‘li ota kasbini yoshlikdan o‘rganib borgan. Bu esa kelajakda yaxshi hunarmand bo‘lishiga zamin yarat-gan. Ustada o‘g‘li yoki farzandi bo‘lmasa, bu kasbni eng yaqin qarindoshlariga bolalariga o‘rgatgan. Xullas kasbning avlodga meros bo‘lib qolishi an’ana holda rivojlanib kelgan. Ustaga shogirdlikka berishda quyidagi urfga amal qilingan: Bolani usta oldiga olib borish; Bolani ota-onasi va qarin-dosh-urug‘lari «bo‘y» degan bo‘g‘irsoq va xolvaytar qilib, ustaning huzuriga kelganlar va «bolani go‘shti sizniki, suyagi bizniki» qabilida gaplar bilan uning ixtiyoriga topshirganlar. Keltirilgan pishiriqlar o‘sha paytdayoq birgalikda tanovvul etilgan. Usta bolaga hunar o‘rgatishdan tashqari butun o‘qish davomida o‘zi oziq-ovqat bilan ta’minlab turgan. Kasb o‘rgatish tekin olib borilgan.

Ustoz shogirdga qattiqxo‘l va talabchan bo‘lgan. Chunki har bir hunarli o‘ta nozik did va sabr-toqat bi-langina o‘rganish mumkin bo‘lgan. Ustalar shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirddan pokizalikni, ish vaqtida chalg‘imaslikni egri va noma‘qul ishlarga yaqin yo‘lamaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo‘l urmaslikni, qat’iy turib talab qilganlar.

Usta shogirdga hunar sirini o'rgatishdan tashqari uy yumushlarini bajarishga ham o'rgatib borgan. Shogird san'at sirlarini puxta egallagandan so'ng oq fotiha berilgan. Marosimda ustoziga shogird bosh-oyoq sarpo, tugun in'om etgan.

Ba'zida ustoz shogirdi mustaqil ish boshlashda qiynalmasligi uchun shu kasbda ishlataladigan asbob va andozalar bergen. Agar oq fotiha olgan ba'zi shogird mustaqil ishlashni xohlamasa ustoznikida qolib ishlayvergan. Bunday holda ustoz bilan kelishib ish haqi olgan.

O'zbek ustalaridan biri ganch o'ymakor usta Usmon Ikromovning hayot yo'li ibratlari. Yosh Usmon usta Rasulhojini qo'lida 8 yil ishlaydi. Besh yilgacha haftalik haqi 10 tiyindan oshmagan. Har payshanba kuni Rasulhoji shogirdi qo'liga 10 tiyin bergen. Usmon pulni olib bozordan onasi va ikki singlisiga yegulik olib borgan.

Odatda shogird faqat usta buyurgan ishni qilishi kerak edi. Ustadan beruxsat shogird biror ishga urinsa yoki uning asboblariga teginsa kaltak yerdi. Oltinchi yiliga o'tganda Usmonning haftalik ish haqi 50 tiyinga, sakkizinchchi yilga o'tganda esa kundalik ish haqi bir so'mga chiqadi. Bu paytda u imorat ishidagi oddiy cho'pgarlikdan tortib, g'isht terish, suvoq, ganch o'ymakorligini mustaqil bajara oladigan bo'lgandi. Nihoyat sakkiz yil deganda Usmon ustasi Rasulhojidan oq fotiha olib, usta nomiga ega bo'lgan.

Buxorodagi hamma ganchkor ustalarga ganch sotadigan boylardan biri Abduqodir bir kuni usta Hayotni chaqiradi va yangi uyni ganch bilan bezamoqchiligin aytadi. So'ngra usta Hayot bu ishni 22 yoshli Shirin Murodovga topshiradi. Bu ish Shirinning birinchi mustaqil ishi edi. Shirin mehmonxona bezaklarini oddiy, bejirim nisbatlarini saqlagan holda bir butun ko'rinish bo'lishini hisobga oladi. U mehmonxona va ayvonlarni sharaflar bilan bezaydi. Undagi o'yma ganchlar juda mayin, bejirim chiqqanligi sababli ustalar orasida hurmat, obro'si yana ham oshadi. Usta Hayot kunlardan bir kun Shirinni oldiga chaqirib, men sendan xur-

sandman endi mustaqil ishlayversang bo‘ladi deydi. Azaliy odat bo‘yicha unga ustalar o‘rtasida usta nomini berishadi. Shirin Murodov shundan so‘ng xalq orasida usta degan sharaflı nomga sazovor bo‘ladi.

O‘zbek me’morlari yaxshi yashash uchun har jihatdan qulay shinam, chiroyli uylar qurbanlar. O‘zbeklarni hovli-joyi tugal bir me’moriy ansamblni tashkil etib o‘ziga xos sharqona fayzi bo‘lgan. Bu qurilgan uylarni bir-biriga uzviy qilib qurilishi va bezalishi bir san’at darajasida bo‘lgan.

Yog‘och o‘ymakorligi bo‘yicha ishlayotgan shogird ustani uyida yoki o‘zining uyida yashagan. Shogirdni yaxshi va puxta o‘rganishi uchun avval uni mehnatga o‘rgatgan va shu hunarga tabiiy holda qiziqishini oshirgan. Buning uchun ustoz shogirdiga uyidagi mayda-chuyda uy ishlarini ham bu-yurgan, keyin esa asta ustaga asbob uskunalarni olib berib turish yoki xomashyonи tayyorlab turish, keyinchalik esa eshik, derazalarni, ustunlarni o‘rnatishga va naqshlarni o‘yishga o‘rgatgan.

Ya’ni bolani yashash bilan birga hunar sirlarini oddiy-dan-murakkabga qarab o‘rgatib borgan. 3-4 yillardan so‘ng yaxshi tajribali shogirdiga usta 15-20 kun pul ishlab kelishi uchun ruxsat bergen.

Shogirdga usta nomini berish o‘ziga xos urf-odatlari bo‘lgan. Bu tantanaviy kecha shogirdning ota-onasini uyida yoki ustani uyida o‘tkazilgan. Kechaga shogirdning qarindoshlari, ustozni qo‘lida ishlayotgan shogirdlar, ustalar, mul-lalar qatnashgan. Ustalar kattasi oqsoqol yoki ustakalon uning yordamchisi poykor usta nomini olayotgan shogirdning boshiga salsa o‘ragan. Chopon kiygizib beliga qiyiqcha bog‘lagan va beliga qiyiqchaga arra va tesha qistirib qo‘yilgan. Ustalar va do‘srtlari tabriklaganlar. Keyin katta usta dasturxonadan yopgan nonni olib kechani sababchisiga qarab «qayerga borsang ham o‘zingni qo‘ygan kulchangni ko‘rsatgin» deb bergen. Bunday urf-odatlarning har xil tur-lari bo‘lgan. Ba’zi urf-odat bo‘yicha bo‘lg‘uvchi ustaga bi-ror-bir uyni mustaqil bezash topshiriladi. Uyni bo‘lg‘uvchi

usta bitkazgandan so‘ng ustalar uning ishini tekshiradilar va baho beradilar. Agar ustalarga ma’qul tushsa, unda shogirdga «usta» degan unvon berilgan. Shundan so‘ng yosh ustaga boshqa shaharlarga borib ishlashga ruxsat berilgan yoki ba’zi yosh ustalar ustaga «xalifa» bo‘lib, uning boshchiligidagi ishlab yurgan.

Oqsoqolni tayinlashda shaharlardagi eng katta tajribali ustalardan birini saylagan. Agar oqsoqol biror nohaq ish qilib qo‘ysa unda biror masjidga oqsoqolning yordamchisi va hamma ustalarni yig‘ib qayta oqsoqol saylagan. Buxoroda esa oqsoqolni qayta saylash boshqacharoq bo‘lgan. Ustalar Buxoro xoniga maxsus ariza yozar edilar. Shundan so‘ng Buxoro xonidan «sarpo» va maxsus qaror ya’ni «yorliq» ol-gan. Xalqqa qaror o‘qib berilgan, sarpo kiydirilgan.

Buxoroda XIX asr oxiri XX asr boshlarida duradgorlar boshlig‘i usta G’ulom, O‘ra-Tepada esa usta Karim Kajorboshi (usto Abdu Karim Abduxoliqov) bo‘lgan. O‘ra-tepalik xalq ustalarini yuqori Zarafshon qishloqlarida masjid, madrasa, turarjoy binolarini bezash uchun taklif etganlar. Ular naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik va boshqa ishlarni bajarganlar.

Ustalar uyushmasi turarjoylarga ustalarni ishlashga yuborganlar. Ularga ish haqi tariqasida ishlagan joylaridan kiyimlar, qo‘y, sigir, echki, yer yoki pul berilar edi.

Ustalar orasida o‘ziga xos musobaqa ham bo‘lgan, ularning ishlarini ko‘rgazma qilib katta ustalar orasida baholagan.

Masalan, O‘ra-tepaning ko‘k Gumbaz mahallasida Mavlono Eshon maqbarasini ikki o‘yma eshigini bajarish uchun usta Karim Xorrot va Abduqodir Xorrotlarga topshirildi. Ular bittadan eshikni o‘yib bezatdilar va ularni ikki tabaqali ikki eshiklar bir qancha katta ustalar orasida baholanadi. Usta Abduqodirning eshigi 70 oltin tanga, usta Karimning eshigi 100 oltin tanga bilan baholanadi.

Usto Karimning eshigini baholashning sababi eshikni yuqori yarim doira qismi naqsh kompozitsiyasi bilan

bog‘langan. Abduqodir ustaning eshigi tepasi uchli bo‘lib bino ko‘rinishi kompozitsiyaga mos kelmagan, ba’zi ustalar ishiga berilgan bahosiga kelisha olmas edi, shuning uchun bu holatni aralashib kelishmovchilikni hal qilar edi.

1924-yilgacha O‘rta Osiyoda boshqa hunar turlari ustalarini kabi zardo‘zlar ham juda ko‘p bo‘lgan. Chunonchi, Buxoroda 300 dan 350 nafargacha zardo‘z ustalar ishlagan. Hunarmandlar o‘rta asr hunar shirkatlari ko‘rinishidagi maxsus tashkilotga uyushgan edilar. «Zardo‘zlar ishlari ustidan nazorat o‘rnatuvchi bu tashkilot o‘zining saylovchi ma’muriyatiga ega bo‘lib, barcha rasm-rusumlarga va urfodatlarga izchil amal qilar, tantana va yig‘ilishlar o‘tkazib turar edi.

Buxoro ustalarining zardo‘zlik kasbi otadan bolaga meros bo‘lib kelgan. Asli zardo‘z bo‘lgan oilaning o‘g‘il farzandi otasidan zardo‘zlikni o‘rganib, o‘z navbatida u o‘z bolalariga o‘rgatgan. Pushti kamaridan o‘g‘il bo‘limgan otalar bu kasbni eng yaqin qarindoshlariga o‘rgatganlar. Kasbning avloddan-avlodga meros qolishi odatdagi hol bo‘lganiga qaramay, zardo‘zlik ham boshqa kasblar bilan bir qatordan o‘rin olgan.

Zardo‘zlik kasbini o‘rganish uchun 10-12, ayrim hollardagina undan, kattaroq yoshdagi bolalarni jalb etganlar. Bolani usta oldiga olib borish o‘ziga yarasha tantana bo‘lgan. Bolaning ota-onasi va qarindosh-urug‘lari bo‘g‘irsoq va xolvaytar qilib, ustaning huzuriga olib borgan va «bolaning go‘shti sizniki, suyagi bizniki», qabilida gaplar bilan uning ixtiyoriga topshirganlar. Usta bolaga hunar o‘rgatishdan tashqari butun o‘qish davomida oziq-ovqat bilan ta’minlab ham turgan. Yangi shogirdga chinakkam ta’lim berish ishlarini usta birdaniga boshlamagan. Dastlabki paytlardan shogird uy yumushlariga qarashgan, ustaxonani supurib-sidirgan, suv tashigan, bozor-o‘char qilgan, tikuvchilarga yordam bergen, onda-sonda ish orasida, uncha-muncha katim tortib turgan. Oradan bir yil yo undan sal ko‘proq

muddat o‘tgandagina unga tikish sirlari o‘rgatila boshlangan. Shogirdga mablag‘ to‘lash borasida ma’lum qoida bo‘lmagan. Hunar o‘rgatish muddati ham cheklanmagan. Ta’lim berish 4 yildan 7 yilgacha davom etgan. Bordi-yu, shogirdi o‘ta qobiliyatli chiqib qolsa, bunday malakali ishchisidan mahrum bo‘lishni istamagan ustoz uni 8-10 yilgacha ham saqlagan. Bunday paytlarda shogird oqsoqolni o‘rtaga solib, ustasi tezroq ruxsat berishini so‘ragan. Shogirdning talabi o‘rinli bo‘lsa, oqsoqol ustadan shogirdga yo oq fotiha berishi yoki bo‘lmasa mehnatiga haq to‘lashi lozimligini aytgan. Albatta, shogirdga to‘lanadigan haq xalifalarga to‘lanadigan haqdan ancha kam bo‘lgan. Norozilik paydo bo‘lmasligi uchun usta qisqa vaqt ichida zardo‘zlik sirlarini puxta egal-lagan layoqatli shogirdlariga ahyon-ahyonda chetdan ish olishga monelik qilmagan. Gap shundaki, tushgan daromadning kattagina qismi ustaga, undan ortgani shogirdga qolgan. Ta’lim muddatini o‘tagan shogird ustozidan oq fotiha olgan. Shogirdning uyga qaytishi o‘zi bir marosim bo‘lgan. U «arvohi miyon bandoy» deb atalib, kasb-hunar homiyalarining ruhi qo‘lab yursin degan ma’noni anglatgan. Bu marosim shogirdning zimmasiga tushib, zardo‘zlik uyushmasi a’zolari ishtirokida uning uyida o‘tkazilgan. «Shoxi Mardon haqqiga belingga belbog‘ bog‘ladim» - deya fotiha o‘qib usta shogirdning beliga belbog‘ bog‘laydi va shu bilan unga zardo‘zlik kasbi bilan mustaqil ish boshlayverishga ijozat beradi. Marosim kunida ustozga bosh-oyoq sarpo, tugun in’om qilingan. Bunday tugunlardan bobo, oqsoqol va poykor ham quruq qoldirilmagan, albatta. Ba’zi hollarda bechorahol shogirdlarni kuzatar chog‘ida usta ularga ishni oson boshlashlari uchun kergi (chambarak), qaychi, tayyor gul singari ashyo va buyumlardan berib yuborgan. Bordi-yu, oq fotiha olgan shogird iqtisodiy jihatdan nochor bo‘lib, mustaqil ish boshlashga ko‘zi yetmasa, ustozni uyida qolib ishslashni so‘ragan. Bunday holda unga xalifa tarzida ishslash huquqi berilib, har ikkala tomon ana

shu shart asosida ish haqini kelishib olgan. Zardo‘zlik kasbini homiysi «arvoxi pir»ga sig‘inish uzoq vaqtgacha qoida bo‘lib keldi. Ilk bahor kunlarida, xususan «guli surx» ayyomida hamma zardo‘zlar Buxoro yaqinidagi Baxovuddin qishlog‘iga kelib, pirning haqqiga qo‘y so‘yib, xudoyi qilganlar. Usta zardo‘zlarning aytishicha, yaqin-yaqingacha «mirzoda»lar bo‘lib, ularni «risolachi» deyishgan. Haftada uch marta, yakshanba va payshanba, shanba kunlari risolachi barcha zardo‘zlik ustaxonalarini aylanib chiqqan va odamlarni to‘plib, risola o‘qigan, o‘qiganlarini tavsiflarini bergan. Odatda, qiroatxonlik dasturxonda davom etgan. Qiroatxon keyin risolachi tinglovchilardan tushgan uncha-muncha nazr-niyozini belbog‘iga tukkanda, fotiha o‘qib, navbatdagi ustaxonaga yo‘l olgan.

Har bir hunar, odatda, avloddan-avlodga o‘tgan, begona bolalardan esa o‘ta iste’dodli, shu hunarga mehr qo‘yanlarigina tanlab olingan. Chinakkam o‘ymakor usta bo‘lishni orzu qilgan kishilar madrasada tahsil ko‘rgan bo‘lishi, she’riyat va musiqa sirlarini bilishi, hatto musiqa asboblarini biroz bo‘lsada bilishi shart bo‘lgan. Ayrim ustalar shogirdlari uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirddan pokizalikni, ish vaqtida chalg‘imaslikni, egri va noma’qul ishlarga yaqin yo‘lamaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo‘l urmaslikni qat’iy turib talab qilganlar.

Mashhur me’mor usta A.Xaqqulov o‘zining «Ta’mir san’ati» kitobida sevimli ustozи Usta Shamsining shogirdlariga bo‘lgan munosabati haqida shunday xotirlaydi: «O‘smirlik yillarimda, ya’ni xalq amaliy san’atiga mehr qo‘yan yaqin do‘stlari - ya’ni padari buzrukvorimdan meni shogirdlikka so‘rab, kelajakda mening me’morchilik asboblarimga sohiblik qilsin» degan ezgu istaklarini bildirdilar. Shu kundan boshlab me’morchilikning barcha siru-asrorlarini o‘rgata boshladilar. Usta Shamsi o‘ta kamtarin, oddiy, kansuqum inson edi. Ammo shogirdlarini jon-dilidan sevardi. Yuragimdagи gapni

ochiq aytadigan bo'lsam u bor mehri ilmi va aqli-zakovatini shogirdlariga bag'ishlar edi. U ana shunday zukko ta'b va xushsuxan inson panohida kamolga yetganidan haligacha faxrlanadi. Davlat mukofoti laureati, Mehnat ordeni sohibi, O'zbekistonda mashhur xalq ustasi Usta Shamsi xalq amaliy san'atining barcha murakkab jihatlarini juda chuqur bilar edi. U shogirdlaridan ham xuddi shuni talab qilar, erinchoq, ishga yengil-yelpi qaraydigan, go'zallikni, sevmaydigan, tarixiy obidalarga mensimay ko'z tashlaydigan yigitlarni jini suymasdi. Men bu kamtar insonning yoqimtoy, nuroni siy-mosini ta'mirlashda amalga oshirgan ishlarni, shogird tarbiyalaydigan g'ayrat-shijoatini butun xayolimdan gavdalantirarkanman, Usta Shamsi G'ofurov kelajak uchun, go'zallik uchun, go'zallik va uning qadri uchun ezgulik uchun qanchalik qayg'urganligini yaqqol tushunib turibman. Men shogird sifatida hamisha bu fidokor inson oldida burchliman. Xalq madaniy merosini asrab-avaylashga e'tibor oshayotgанини Usta Shamsi singari xalq ustalari an'alarini kun sayin rivojlantirishni, shogirdlar tarbiyalashdagi g'amxo'rlikni kuchaytirishni taqozo etadi.

Ustoz degan nomni olish qiyindir. Bu sharafli nomni olish hammaga ham nasib etmagan. Bu ulug' nomni olish uchun ko'p yillar davomida murakkab sinovlardan o'tganlar.

Bir kishi o'zini usta deb atagani uchun Buxoro amiri qattiq g'azablanibdi. Chunki ko'plab hunarmandlar orasida bu sharaf kamdan-kam odamga muyassar bo'lgan ekan. G'azablangan amir bu odamni zindonga tashlashni, hunarini ko'rsatib, o'zini oqlamaguncha ozod qilmaslikni buyuribdi. Uning hech qanday ish quroli yo'q ekan. Hamisha yonida olib yuradigan pichog'i bilan bir kechada zindon devoriga shu qadar chiroyli naqsh chizibdiki, bunday naqshni faqat ertak yoki tushda ko'rish mumkin edi. U usta degan nomini ana shunday oqlabdi.

Hunarmandchilik pirlari

Qadimiy va ko‘hna madaniyatimiz, ilm-ma’rifatni o‘rganish va ularni yoshlarga o‘rgatish ma’naviy qiyofamizni boyitishda katta ahamiyatga ega. Bu bebaho merosni va milliy an’analarimizni farzandlarimizga o‘rgatish muqaddas va aslo kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda.

«O’tmishdagi allomalarimizning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma’naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta’sir ko‘rsatmoqda. Ularning boy ilmiy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va tegishli xulosalar chiqarib, zamonaviy bilimlar, bugungi hayot talablaridan kelib chiqadigan tajribalar bilan boyitish zarur va bu ulug‘ merosni avvalo o‘zimiz uchun, kelajak avlodlar tarbiyasi uchun beqiyos ma’naviy oziq deb bilmog‘imiz darkor.»¹

Prezidentimiz yuqorida ta’kidlaganidek talaba – yoshlarning ma’naviyatini shakllantirishda Sharqda ko‘p asrlar mobaynida sayqallangan ajoyib ma’rifiy boyliklar, ulug‘ olimu-fozillarning purhikmat asarlarini, ibratomuz fikrlarini chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Xalqimizning asrlar davomida sayqallangan kasb-hunar qonun-qoidalari, urf-odatlari va hunarmandchilik pirlari haqida yozilgan risolalar hozirda kasb-hunar kollejlarida hunar o‘rganayotgan talabalarni ma’naviyatini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi.

Insonlar hunarmandchilik bilan ibtidoiy davrlardan boshlab shug‘ullanib, turli-tuman buyumlar, narsalar yasab kelganlar. Asrlar davomida, hunarmandchilik an’ana tariqasida rivojlanib, takomillashib bizgacha yetib kelgan. Hunarmandchilikning ham tarixan o‘z marosimlari va an’analari bo‘lgan. Bular o‘z-o‘zidan kelib chiqmagan. Ular ma’lum sabablar asosida paydo bo‘lgan va avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston milliy istiqlol iqtisodiyot, siyosat, mafkura. T.: O‘zbekiston, 1996, 40- 41 - betlar.

Har bir hunarmand o‘z piriga ega bo‘lgan. Bu pirlar shu hunarning asoschisi hisoblangan. Ajdodlarimizning qo‘lyozmalarida va keksa ustalarning aytishicha, dunyodan o‘tgan usta hunarmandlarning, ya’ni pirlarning ruhi ushbu hunar ustalarining tevarak atrofida aylanib yurar ekan. Shuning uchun hunarmand ustalar doimo ish boshlashdan avval duoi fotiha qilib, ruhlarini shod etgan va ulardan ruhiy madad so‘rashgan.

Pir termini nima ma’noni bildiradi?

Pir (forscha-keksa, qari) so‘fiylik an’anasida tariqatlarining oliy rahnamosi yoki obro‘li rahnomalar, shuningdek, har bir murid o‘z murshidini ham Pir deb atagan. Aholi orasida Pir tushunchasi avliyo ma’nosida ishlatilgan.¹ Shuningdek, Pir tushunchasi hunarmandchilikda ham ishlatiladi. Pir hunarning asoschisi hisoblangan. Har bir hunarning pirlari mavjud bo‘lgan. Chunonchi:

Igna bilan ishlovchi barcha hunarmandchilikning, ya’ni tikuvchi zardo‘z va boshqalarning piri Bobon Zarado‘z bo‘lgan.

Kulolchilik hunari Odam Atodan Sayd Amir Kulolga, undan keyin Bahovuddin Naqshbandiy orqali barcha kulol-larga o‘tgan.

To‘quvchilar piri Idris payg‘ambar, zardo‘zlar piri hazrati Yusuf Alayhissalom, cho‘ponlar piri Zangi ota, yog‘och o‘ymakorligi va qayiqchilik piri payg‘ambar Nuh hisoblangan.

Duradgorlik yetti piri tururlar: Avval - ustoz Jamoliddin, ikkinchi - ustoz Shamsiddin, uchinchi - ustoz Nizomiddin, to‘rtinchi - ustoz Shahobiddin, beshinchi - ustoz Imomuddin, oltinchi - ustoz Kamoliddin, ettinchi - ustoz Abdulloh Amaniy tururlar.

Ma’rifatchilarining besh piri tururlar: Avval - Mavlono Rumiy, ikkinchi - Shams Tabriziy, uchinchi - Shayh Sa’diy,

¹ O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi., O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, T.: 2004, 7-jild, 73-bet. Uchinchi - Ustoz ilm; To‘rtinchi - pir Shari’at. Fan va turmush jurnali. 1996, №1, 20 bet.

to‘rtinchi - Shayh Attor, beshinchi - Shohqosim Anvariy tururlar.

- Nonvoylik piri Xo‘ja Suxoyil.
- To‘rt piru Mushfiq (mehribon) kimdir?

Avval - Padar (ota);

Ikkinchidan - Modar (ona);

Uchinchisi – Ustoz ilm;

To‘rtinchi – pir Shari’at.

Endi, Sayid Amir Kulol, ya’ni kulolchilik hunarining piri haqida ba’zi bir tarixiy ma’lumotlarga to‘xtalib o’tsak. «Sayid Amir Kulol aslzoda sayidlardan bo‘lib, Buxoro yaqinidagi So‘xor qishlog‘ida tug‘ilib o‘sgan va vafot etgan, qabri ham o‘sha yerda, asosiy kasbi kulolchilik bo‘lgani sababli, «Kulol» degan laqab olgan. Uning otasi esa Buxoroning Afshona qishlog‘ida yashagan. Otasi haj safaridan qaytgan chog‘da, uning huzuriga Yassaviya tariqatining namoyandasi Zangi otaning xalifasi Sayid ota keladi va ular aka - uka tutunishadi. Said qachon Buxoroga kelsa, dastlab, u xatini ko‘rib, so‘ng shaharga kirar ekanlar. Ana shunday tashriflarning birida, Sayid ota o‘z do‘stiga qarab: «Ey birodar, xudo sizga bir ulug‘ farzand beradi, unga siz «Amir Kulol» deb ism qo‘ying», -deydi. Darhaqiqat, oilada o‘g‘il dunyoga keladi.

Oradan bir necha yil o‘tgach, Said ota yana Afshonaga keladi va yosh Amir Kulolni oldiga chorlab, o‘z sallasini teng ikkiga bo‘lib, yarmini o‘zining boshiga, ikkinchi yarmini Amir Kulolning boshiga o‘raydi. Bir ozdan so‘ng, Said ota bolani yana chaqiradi va undagi sallani o‘ziniki bilan o‘lchaydi. Amir Kulolning sallasi ikki barovar uzun keladi. Shunda Said ota: «Bu bolaning martabasi menikidan ulug‘ bo‘ladi», - degan ekanlar. Bu karomat hijriy 683 (Milodiy 1285) yil sodir bo‘lgan ekan.

Qadimdan har bir hunar pirlari va ustozlarini ulug‘lash hamda qadrlash odob tusini olgan. Shogirdlar va ularning ota-

onasining pir hamda ustozlarga bo‘lgan sharqona munosabatlari, odob mezonlari mavjud bo‘lgan.

Bu haqda So‘fi Olloyor shunday yozgan: «Agar bo‘lmasa yo‘l boshlaguvchi pir, Solor bo‘yniga Shayton domi tazvira. Qachon har pir bilur qutlug‘ yo‘lingni, Tanib er yaxshisin, topshir qo‘lingni. O‘shal pirki, arning eri bo‘lgay, Amir Temurning pirlari».

Markaziy Osiyoda qadimda hunarmandchilik uyushmasi bo‘lib, bu uyushmalarning rahbari bobo atalgan. O‘zida hunar pirining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirgan bobo ustaxona kengashida boshchilik qilgan. Boboning shahar hokimlari oldida obro‘sni yuqori bo‘lgan. Bu lavozimga ustalar orasidan bilimdon, tajribali va vijdonli halol odam saylangan. Agar rahbar boboning faoliyatidan norozi bo‘lsa, kengash orqali o‘z lavozimidan chetlashtirilgan. «Yirik ustaxonalarda boboning yordamchilari - oqsoqol va poykorlar deb atalgan. Oqsoqol keksalar orasidan saylangan. U bozorni idora qilgan, soliq yig‘ilishida qatnashgan, mahsulot sifatini nazorat qilgan, mahsulotning barqaror bahosini aniqlagan. Uning ishtirokida ustalar buyurtmachilar bilan shartnomalar tuzgan.

Poykorlar esa e’tiqodli yoshlar orasidan saylangan. Ular tashkiliy vazifalarni bajarganlar, ya’ni ular yollangan hunarmandlarni kerak bo‘lgan ustaxonalarga olib borish, ustalarga buyurtmalar qidirib topish va shu kabi ishlarini bajarganlar».


Oqsoqol lavozimiga shaharlardagi eng katta tajribali ustalardan biri saylangan. Agar oqsoqol biror nohaq ish qilib qo‘ysa, unda biror masjidga oqsoqolning yordamchisi hamma ustalarni yig‘ib qayta oqsoqol saylagan. Buxoroda esa oqsoqolni ariza asosida saylashar ekan. Shundan so‘ng Buxoro xonidan «sarupo» va maxsus qaror, ya’ni «yorliq» olgan. Xalqqa qaror o‘qilib sarpo kiydirilgan.¹

Buxorodagi XIX asr oxiri XX asr boshlarida duradgorlar boshlig‘i usta G’ulom, O‘ra-Tepada esa usta Karim Kajor-

¹ Zohidova D. Hunarmandchilikka kirish. -T.: UMKXTRI. 2001. 10 bet.

boshi (usta Abdu Karim Abduxoliquv) bo‘lgan. O‘ra-Tepalilar ustalarni yuqori Zarafshon qishloqlarida masjid, madrasa, turarjoy binolarini bezash uchun taklif etganlar. Ular naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik va boshqa ishlarni bajarganlar.

Ustalar uyushmasi turar joylariga ustalarni ishlashga yuborganlar. Ularga ish haqi tariqasida ishlagan joylaridan kiyimlar, qo‘y, sigir, echki, yer yoki pul berilar edi.



I-sxema. Hunarmandchilik ustaxonasi uyushmasining tuzilishi.

Pir hunarning asoschisi. Bobo hunarmandchilik uyushmasining rahbari. Oqsoqol, Poykor boboning yordamchilari. Ustakor katta usta (bosh usta).

Xalifa - o‘zining xususiy ustaxonasi bo‘lmaganligi sababli boshqa ustaga yoki ustaxona egasiga yollangan usta. Ustod, ustoz kasb-hunar o‘rganuvchi usta, muallim. Ustaxona - usta ishlaydigan maxsus jihozlangan bino, korxona.

Usta - malakali hunarmand. Kasaba - muayyan bir turdagи kasb bo‘yicha hunarmandlarning uyushmasi. Ustozoda - hunarni otasidan o‘rgangan usta.

Hunarmandlar ustaxonalarida diniy e’tiqodlarni shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq ishlар olib borilgan.

«Ustaxonaning binosi - ishxona ushbu kasb-hunar sohiblarining pirlarini makoni sifatida qadrlangan. Barcha hunarmandlardan nafaqat ruh-homiyni, balki uning tirik avlodini ham qadrlash talab etilgan. Masalan, temirchilik hunarining homiysi Dovud payg‘ambar bo‘lgan, ammo uni ganchkorlar, novvoylar ham e’zozlashgan. Igna bilan ishlovchi barcha hunarmandlarning (tikuvchi, etikdo‘z, zardo‘z va shu kabilar) homiysi Boboi Parado‘z, kulollarning homiysi esa Buxoro shayxlaridan Said va Amiri Kulol (yoki Kalon) va Baxovuddin Naqshbandiy hisoblangan. Rivoyatlarga qaraganda kulolchilik hunari Odam Atodan Said Amir Kulolga, undan esa Bahovuddin Naqshbandiy orqali barcha kulollarga o‘tgan. Bahovuddin Naqshbandiy, ayniqsa, naqshlangan buyumlar ishlab chiqaruvchi ustalar tomonidan e’zozlangan. Ular buyumlarga naqsh solish Bahovuddindan qolganligi tufayli uni naqshbandiy, ya’ni tojikcha naqsh-rasm, bezak va band - boshomoq (chizmoq) ma’nosidan keilib chiqqan holda pir sifatida bilganlar.¹

Ustaxonani «pok» joy deb hisoblab, uni «pirxona» deb atashgan. Ustaxonaga tahoratsiz kirish, tuflash, asbob yoki uskunani tashlab yuborish yoki otib yuborish, so‘kinish nojo‘ya harakatlar qilish va boshqalar pirga nisbatan hurmat-sizlik, e’tiborsizlik deb hisoblaganlar.^{2,3}

Ustalar orasida xos musobaqa ham bo‘lgan, ularning ishlarini ko‘rgazma qilib katta ustalar orasida baholaganlar.

Masalan, O‘ra-Tepaning ko‘k Gumbaz mahallasida Mavlon Eshon maqbarasini ikki o‘yma eshigini yasashni usta Karim Xorrot va Abduqodirga topshirildi. Ular bittadan eshikni o‘yib bezatadilar va ikki tabaqali eshiklar bir qancha ustalar orasida baholandi. Usta Abduqodirning eshigi 70 oltin tanga, usta Karimning eshigi 100 oltin tanga bilan baholanadi.

¹ Zoxidova D., Hunarmandchilikka kirish. T.: UMKXTRI, 2001 - 12-bet.

² Peshcherova E.M. Remesleniy organizatsii Sredney Azii v konse XIX - nachala X /Mejdunarodniy kongress vostokovedov / 1960. 1-6.

³ Suhareva O.A. Pozdnefeodalniy gorod Buxara T. : Izd. AN RU z, 1962. - 194-6.

Zardo‘zlik san’ati ham muqaddas sanalgan bo‘lib, Hazrati Yusuf eng birinchi usta zardo‘z va eng birinchi ustoz, g‘oyibona homiy va pir hisoblangan. Bu haqida maxsus kitob ya’ni «risola» bo‘lgan. Unda aytilishicha zardo‘zlik hunarining piri bo‘lmish Hazrati Yusuf ruhini yod etib, unga qo‘y so‘yib hudoyi qilganlar.

USTOZ VA SHOGIRD ODOB MEZONLARI

O‘zbek xalqining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o‘rganish va tahlil etish g‘oyat muhimdir. Shu maqsadda respublikamiz hukumati ning qator xujjatlari Vatanimizni har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yosh-larga ta’lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san’atimiz, ota- bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo‘lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Qadimda ajdodlarimiz usta-shogird an’analari asosida yoshlarga hunar o‘rgatish bo‘yicha boy tajribaga ega bo‘lganlar. Lekin biz, keyingi vaqtarda ajdodlarimizning boy merosidan, hamda tajribalaridan to‘liq foydalana olmayap-miz. Shulardan biri ustoz-shogird an’analarini chuqur o‘rganmaganligimizdir. Ajdodlarimiz tajribalari yoritilgan adabiyotlarni ham etarli deb bo‘lmaydi. Bundan tashqari ajdodlarimiz boy tajribalarini hozirda hunar o‘rgatilayotgan joylarda, chunonchi oliy o‘quv yurtlarida, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarida, shaxsiy ustaxonalarda ustoz-shogird odobi to‘liq o‘rgatilmasligi, o‘quvchi-yoshlarimizni ahloq-odobiga va bilim darajasiga, umuman, ularning ma’naviyatini shakllanishiga salbiy ta’sir etayotganligining guvohi bo‘lamiz.¹

Shuning uchun ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosdan to‘g‘ri va unumli foydalanish, chunonchi, ishlab chiqa-

¹ Ganchkarova P.A. - Buxoro zardo‘zlik san’ati. G’ofur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1986. 12-bet.

rilgan «Ustoz va shogird odobi an'analari» asosida o'quvchi-yoshlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarida quyidagi ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi: ajdodlarimiz ma'naviy merosiga bo'lgan hurmat-e'tibori kuchayadi, o'z ota-onasiga, ustoziga, o'rtoqlariga, xullas, insonlarga bo'lgan hurmati oshadi. Ularning shu hunarni qiyomiga etkazib o'rganishlarida asos bo'lib xizmat qiladi.

«Ustoz va shogird odobi an'analari» mavzusi yoritilgan 16 ta ko'rgazmali quroldan iborat to'plam oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, maktablarda sinfdan, maktabdan tashqari muassasalarda tashkil etilgan hunarmandchilik ustaxonalarida va boshqa muassasalarda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu ustoz va shogird odobi an'analari mezonlarini ma'naviyat xonalarida, ustaxonalarda, ijodiyot xonalarida devoriy ko'rgazma sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir. U har bir kasb-hunar o'rganayotgan shogirdning yonida bo'lishi lozim.

I.1 Shogirdning odob qoidasi. O'z ishiga yaxshi munosabatda bo'lish, ya'ni kasbini sevish o'z ishiga e'tiqod qo'yish va unga ishonish, ustoz oldida hokisor bo'lish, salbiy odatlarini tark etish, ko'rish lozim bo'limgan narsalardan o'zini tiyish. Eshitishi mumkin bo'limgan barcha narsalarga qulq solmaslik, barcha noloyiq ishlardan qo'l tortish. Ustozga zid bo'lgan kishilar bilan muomala qilmaslik.

I.2 Shogirdning ustoz oldidagi burch va vazifalari. Ustozga itoatli bo'lish va ustoz an'analalarini davom ettirish. Ustozning pand nasihatlariga amal qilish. Ustozga taqlid qilish. Sabr-toqatli bo'lish, irodali bo'lish. Ustozning yuzini yerga qaratmaslik, aksincha uning obrusini ko'tarish. Ustoz sha'ning iliq so'zlar aytish. Ustozning dushmani bilan do'st tutinmaslik, ustozning oila a'zolarini hurmat qilish, ustozning qarindosh urug'larini hurmat qilish, ustozning ruxsatisiz hech narsaga qo'l tekkizmaslik. Birovning narsasiga ko'z olaytirmaslik. Ustozga cheksiz hurmat bilan munosabatda bo'lish.

I.3 Shogirdning eng yaxshi xislatlari. Ustoz qabuliga kirganda yoki ustozni ko‘rganda birinchi bo‘lib, salom berish, ustozning oldida kam gapirish va boshini egib turish, ko‘zni har tomonga yogurtirmaslik. Agar maslahat so‘ramoqchi bo‘lsa, oldin ustozdan ijozat olish. Ustoz javob aytganda e’tiroz bildirmaslik. Ustoz oldida boshqalarni g‘iybat qilmaslik, o‘tirib-turish odobini to‘liq saqlash.

I.4 Shogirdlar ruhiy olamining muhim zamini. Vatanparvarlik, o‘rtoqlik, do‘slik, hamkorlik, hamjihatilik, sadiqat, mehr-muruvvat, kasb tanlash imkoniyatini, milliy iftixor, insonparvarlik, xushmuomalalik, ozodalik, pokizalik, samimiylilik, ziyraklik, tashabbuskorlik, insoflilik, rostgo‘ylik, ornomuslilik, andishalilik, kattalarni hurmat qilish, sof muhabbatni qadrlash, vazminlik, to‘g‘rilik, millatlarni hurmat qilish, ota-onani hurmat qilish

I.5 Shogirdning bir-biriga munosabatlar mezoni.

1. O‘zaro ko‘rkam xulq bilan samimiy munosabatlarda bo‘lish;
2. Intizomli bo‘lish;
3. Bir-birining aybini oshkor qilmaslik;
4. Erinchoq va yalqov bo‘lmaslik;
5. Do‘sining omonatiga xiyonat qilmaslik, ziyonzaxmat etkazmaslik;
6. Munofiq va riyokor bo‘lmaslik, adovat, hasad, g‘iybat, ig‘vo qilmaslik, yolg‘on so‘zlamaslik;
8. Bir-biriga yordam berish;
9. Do‘sining muvaffaqiyatidan quvonish.

Ustozning shaxsiy fazilatlari

Saxiylik, odoblilik, mehr-muruvvatlilik, marhamatlilik, ochiq yuzlilik, shirin muomalalilik, sabr-toqatlilik, talabchanlik, iffatlilik, itoatlilik, qanoatlilik, to‘g‘ri so‘zlilik, poklik, muloyimlik, rostgo‘ylik, o‘rtoqlik, do‘slik, hamkorlik,

hamjihatlilik, sadoqatlilik, vatanparvarlik, insonparvarlik, samimiylilik, ozodalik, pokizalik, ziyraklik, tashabbuskorlik, insoflilik, or nomuslilik, andishalik, kattalarni hurmat qilish, sof muhabbatni qadrlash, vazminlik, millatlarni hurmat qilish, ota-onani hurmat qilish, mehr-shafqatlilik va boshqalar.

Ustozning kasbiy fazilatlari

Oson yo'l bilan murakkab bilimlarni shogirdlarga o'rgata olishi (o'quvchanlik); barcha hunar va fan turlari yuzasidan muayyan bilimga ega bo'lish; qisqa daqiqalarda shogirdlarni idrok qila olish fazilati; shogirdlarni uyushtira olish va boshqarish iste'dodi; ixcham va ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq; o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro' orttirishi, o'quvchanligi, muommala va muloqot o'rnata olish; insonning qiyofasi, harakatlari va qilgan ishlari asosida kelajagini oqilona tasavvur qilishdan bashorati; bir necha obyektlarga bir davrning o'zida shaxsiy munosabatni bildirish o'quvi; imon-e'tiqodga, faol hayotiy jarayonlarga yo'naltirish qobiliyati; tashabbusga, ijodga ilhomlantira olish; bilimdonlik, ta'lim va tarbiya ishlarini oldindan ayta olish, tadqiqotga layoqatlilik, ya'ni o'z hunariga yangiliklar kiritma olish, o'z hunariga qiziqishi va uni yoshlarga sidqidildan o'rgata olish; sohasi bo'yicha o'zidan keyin sodiq shogirdlar qoldirishi va boshqalar.

Ustozning shogirdlari, ota-onalariga bo'lgan munosabati

Farzandga hunar o'rgatish uchun zimmasiga olgan vazifasini bajarish o'z va'dasi ustidan chiqish.

Ota-onaga farzandning qobiliyati, xulq-odobi to'g'risida ochiq gapirish.

Ota-onalarning ustozga bo‘lgan munosabati

1. Ustozga muruvvat ko‘rsatish.
2. Ustozning farzandiga bergen tanbexini to‘g‘ri tushunish.
3. Farzandining hunar o‘rganishida kerakli narsalarni etkazib berish.
4. Ustozni rozi qilish.

Hunarmandlarning odob qoidasi

1. O‘z hunarini iflos va shubxali daromadlardan asraydilar.
2. Hunarni boylik orttirish manbai deb emas, balki hayotda munosib o‘rin egallash maqsadida o‘rganadilar.
3. O‘z ishining ustalariga doim hurmat va ehtiromda bo‘ladilar.
4. Nopok yo‘llar orqali boylik to‘plovchilar bilan aloqa qilmaydilar.
5. Ishda kamchilikka yo‘l qo‘ymaydilar va tanlangan kasblariga befarq bo‘lmaydilar.
6. Mahsulotlarning asl bahosini bilmaganlar bilan to‘g‘ri muomalada bo‘lish.
7. Agar oldi-berdi tarozi bilan bog‘liq bo‘lsa kam bermaslik va ko‘p haq olmaslikka intiladilar.
8. Agar ish hisobchi bilan bitadigan bo‘lsa, o‘zlarining xissasidan yuqori qo‘ymaydilar.

Hunarmandlarning kasb madaniyati

Hunarni jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish maqsadida o‘rganish.

Hunarni mehnatsiz daromadlardan asrash.

Ustozlar an’anasiga ehtiromda bo‘lish.

Mehnatsevar bo‘lish.

Intizomli bo‘lish.

Muvaffaqiyatsizliklardan tushkunlikka tushmaslik.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Ustoz va shogird an'analari haqida so'zlab bering.
2. Ajdodlarimiz bizgacha qoldirgan ma'naviy xazinalar haqida so'zlab bering.
3. «Ta'lif to'g'risida»gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilindi?
4. Ustaga shogird tushish odobi haqida so'zlab bering.
5. Shogird tushish odobi xaqida so'zlab bering.
6. Ustoz va shogird odobi mezonlari haqida so'zlab bering.
7. Ustazoda deganda nimani tushunasiz?
8. Ustoz va shogird haqida qanday rivoyatlarni bilasiz?
9. Hunarmandchilik pirlari haqida nimalarni bilasiz?
10. «Avesto» kitobida ustoz shogird haqida nimalar deyilgan?



14-rasm. Qosimjonov Olimjon Toshkent naqqoshlik maktab
namoyandası



15-rasm. Jalil Hakimov Toshkent naqqoshlik maktabi namoyandasi



16-rasm. Anvar Ilhomov. Toshkent naqqoshlik maktab namoyandasi

III BOB. NAQQOSHLIK SAN'ATI TARIXI

O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.

Milliy naqshlarimiz g'oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg'u asboblari, uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib turarjoy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o'ylantiradi. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida rivojlandi, me'morchilik hamda tasviri san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib bordi (Xorazmlik naqqoshlar, «Majnuntol» turarjoy binosi devoridagi naqshning bir qismi. Buxoro, «Anor» turarjoy binosi devoridagi naqshning bir qismi. Buxoro G'ishtlik masjidi, naqshning bir qismi, Jomiy masjidi, shift va ustun sharafasidagi naqshning bir qismi. Qo'qon. XIX asr, Kalontarov uyi, zalistagi naqshning bir qismi. Samarqand, XX asr, Kalontarov uyi, yotoqxona uyidagi naqshning bir qismi. Xayroboddagi masjid, ustun (bolor)dagi naqshlar. Toshkent XX asr)

Naqsh – arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir (Beshik - Samarqand. Shatranj doskasi - Buxoro, XIX asr. Egar - Buxoro, XX asr boshlari. Turqovoq - Samarqand, 1901 yil. Kursicha - Toshkent, XX asr o'rtalari. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, inkurustatsiya, panjaralar va hokazolarda har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanaadi. Masalan, o'yib, chizib, chok yordamida, zarb bilan, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik san'ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiadir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va

naqqoshlik ajralib chiqdi hamda rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ldi. Chunonchi, Xitoyda, Qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko'rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga: geografik o'rniga, o'lkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va har xil hayvonlar, qirg'iz va qozqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'rasiz. Yevropada barokko, gotika, roman, klassitsizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ta'sir etdi.

O'zbekiston territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, Sug'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz Surxandaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (I asr) budda ibodatxonalar qazilmalaridan topilgan naqsh qoldiqlari orqali isbotlab bergenlar. Xorazmdagi Tuproqqa'l'a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI-VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o'yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo'ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqshlarni ko'rib hayron bo'ladi kishi. Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov ko'rinishi, manzaralar hamda diniy marosimlar tasvirlangan. Jonli maxluqlar qizil va ko'k ranglar bilan bo'yab tasvirlangan. VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o'zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din hamda yangi g'oya O'rta Osiyo tasviriy san'atiga ta'sirini o'tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks ettirish man etildi. «Keyinchalik yuzaga kelgan diniy sharhlar va hodisalar ko'proq murosasiz yo'l tuta borib, qat'iy ravishda shunday der edi: «Tangri yoki

odamzod suratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning suratini chizing aks holda bu qoidani buzgan kishi gunohi azim qilgan bo‘ladi», deb qo‘rqtildi. Jonli mavjudotlar suratini chizish man etilishining ma’nosи shundaki, xudodan boshqa hech kim biror narsa yaratish u yoqda tursin, hatto xudo yaratgan narsani qayta gavdalantirishi ham mumkin emas va bu uning qo‘lidan kelmaydi, aks holda, musavvir xudo bilan bahs boylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo‘ladi».

Islom talablariga bo‘ysunish oqibatida jonivorlar, parandalar va odamlarni tasvirlash yo‘qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o‘zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo‘ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo afsunlar vazifasini bajardi. IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda naqqoshlik san’ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g‘isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog‘och o‘ymakorligini qo‘llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa, maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo afsunlar, tasbih va boshqalar naqadar mo‘lligini ko‘ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo‘layotgan voqeliklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda o‘ziga xos ma’no bo‘lgan. Chunonchi, o‘simpliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, «pechak islimiy» naqshi boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to‘kinchilik hamda bahor chog‘ida uyg‘onishni bildiradi. Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo‘lgan muhabbatini bildiradi. Uning ranglari o‘ziga xos ma’no va xarakterga ega. Naqsh o‘zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroh bo‘lib kelgan. Eng oddiy prinsiplari bir-biriga mutanosiblik, uyg‘unlik, yo‘sin va usullarini ajoyib qayta-qayta takrorlashuvdir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e’tibor berib, uning tabiiyligini yo‘qotmaganlar, har

bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh negizida ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. XI-XII asrlarda O'zbekiston territoriyasida arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan.

Girih – forscha, chigal, tugun degan ma'noni beradi. Handasaviy naqsh – to'rtburchak, uchburchak va boshqa elementlardan tashkil topgan geometrik murakkab naqsh turi. Girih to'g'ri, egri va aralash chiziqlarga bo'ysundirilgan bo'lib, o'ziga xos shartlilikka ega. Bu naqsh turining keng tarqalishi bezak san'atining rivojlanishiga yangidan-yangi imkoniyatlar ochib berdi. O'zbek madaniyatining rivojlanishiga butun dunyoga mashhur olimlar – Abu Ali ibn Sino (Avitsenna), Beruniy, Firdavsiy va Ro'dakiylar yetishib chiqdilar. O'sha vaqtda butun dunyoga mashhur bo'lgan (YUNESKO muhofazasidagi) Somoniya maqbarasi qurildi. U 1127-yili me'mor Arslon Muhammadxon boshchiligidida oshirilgan oddiy g'ishtdan har xil kombinatsiyalashtirib qurilgan. G'ishtlar yoz faslida eng toza ganch bilan terilib ishlangan.

Xalq rivoyatlariga ko'ra, me'mor bu minorani qurganu, ko'zdan g'oyib bo'lgan. Imarat yaxshi cho'kib, o'rnashib terilgan yaxlit toshga aylangandan keyin me'mor paydo bo'lib pardoz ishlarini boshlagan.

«XIII asrda yuksak ko'tarilgan milliy madaniyatni mongol bosqinchilari izdan chiqardi. 1219-1221 yillarda Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Marv bosib olinib tor-mor qilindi».

XIII asrda Chingizzon hukmronligida milliy san'at bir-muncha izdan chiqsada, lekin butkul yo'q qilinmadı. Temur va temuriylar davrida esa o'zbek milliy xalq amaliy san'ati yuksak darajada rivojlandi.

«XIV-XV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari tarixida taraqqiy etgan feodalizm iqtisodiy ijtimoiy formatsiyasi davrida feodal ishlab chiqarishga asoslangan o'ziga xos bir qator iqtisodiy

madaniy ko‘tarinkilik ro‘y berdi. Bu davrni biz hozir Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzodga o‘xhash juda ko‘p iste’dodli adiblar, olimlar, mutafakkirlar, san’atkorlar nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan uyg‘onish (Renes-sans) davri deb ataymiz. XIV-XV asrlarda Samarqandda tez sur’atlar bilan turli-tuman inshoatlar qurila boshlagan. Bu qurilishlarda Hindiston, Eron, Iroq, Zakavkaze, xullas Amir Temur hukmronligi ostida bo‘lgan barcha o‘lkalardan kelgan me’morlar, hunarmandlar, ustalar, san’atkorlarni ko‘rish mumkin edi. Ular o‘zları bunyod etayotgan inshoatlarga butun bilimlari, hunarlari va san’atkorona mahoratlarini baxsh etganlar. O‘sha davrda Samarqand va Movarounnahrning boshqa joylarida bunyod etilgan juda ko‘p hashamatli tarixiy madaniy obidalarda O‘rta Osiyo xalqlaridan tashqari butun yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining o‘ziga xos boy, sermaz-mun, badiiy estetik merosining sintezi qorishib, uyg‘unlashib ketgan edi, desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak».

Temuriylar xonligida hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. U bosib olgan erlardagi hamma ustalarni Samarqandga yig‘di». U tikuvchi, toshtarosh, zargar, kulol, naqqosh va boshqa ustalarni olib kelib ishlatgan. Shu san’at turlari qatori naqqoshlik ham tez rivojlana boshladi. Temur hukmronligi ostida juda ko‘p bino, masjid, madrasa va boshqalar qad ko‘tardi. Undagi bezaklar yanada badiiy-lashtirildi. Shaharlar atrofi bog‘u-bo‘stonga aylantirildi. Xullas, u o‘zbek milliy madaniyatini rivojlantirishda katta hissa qo‘shti. Ayniqsa, tasviriy san’at qaytadan tiklanib, tez orada rivojlanib ketdi. Devorlarda osmon, sobit sayyoralar, tog‘lar, dengizlar, sahrolar, odamlar, hayvonlar va boshqalar aks et-tirildi. O‘sha davrda tasviriy san’atning asosiy vazifasi hukmdorlarning kuch qudratini, harbiy shavkatini ulug‘lash-dan iborat edi. Afsuski ko‘pgina urushlar oqibatida bizgacha etib kelgan ayrim qoldiqlargina saqlanib qolgan. Ayniqsa, oppoq ganch ustidan chizilgan gullar, manzaralar, qushlar tasviri nihoyatda nafis ifodalangan. «Tabiat manzaralari

musavvir tomonidan shu qadar ustalik va chaqqonlik bilan ado etilganki, uning qo‘li bamisol qush parvozidan erkin harakat qilgan, shoir tili bilan aytganda, tutgan mo‘yqalami musavvирning o‘z barmoqlariday aniq harakat qilgan, usta bilan qil o‘tmas do‘st mo‘yqalam go‘yo uning amriga mahtalday».

XIV-XV asrlarda koshinkorlik rivojlandi, qurilgan binolarni koshin va parchinlar bilan bezatish avj oldi. Koshin va parchinlardan ajoyib naqshlar hosil qilishga erishildi. Chunonchi, Samarqanddagi Shohi Zinda kompleksi, Ashratxona, Oqsaroy, Ko‘hna Urganchdagi To‘rabekxonim maqbarasi va boshqalardir. XV asrda naqqoshlik san’ati yanada rivojlandi. Natijada naqqoshlikda kundal texnikasi paydo bo‘lib rivoj topdi. Samarqandda Ashratxona, Oqsaroy maqbaralari va boshqa arxitektura yodgorliklarining ichki qismi kundal usulida bezaldi.

Kundal – arxitekturada devorga bo‘rtib ishlangan bezak texnikasi. Me’morchilikda keng tarqalgan. Mo‘yqalam bilan devorga surtilgan qizil kesak bo‘rtma shakl oladi, ustidan bo‘yoq va zarhal beriladi. Zamin zarhalga, asosiy bo‘rtma naqsh elementlari turli-tuman ranglarga bo‘yaladi yoki aksincha, bo‘rtma naqsh zarhalga, zamin esa turli rangga bo‘yaladi. XV asrdan boshlab Samarqanddagi Ashratxona maqbarasi, Buxorodagi Amir maqbarasi baland masjidda jozibador namunalar saqlangan. O‘rta yerda kundal texnikasidagi bezaklar keng tarqalgan.

XVI-XVII asrga kelib syujetlarni kundal usulida naqshlar bilan bezash rivoj topdi. Kundal usulida Buxorodagi xo‘ja Zayniddin xonaqosi (XVI asr), Baland masjid (XVI asr), Abdulazizzon madrasasi (XVI), Samarqanddagi Tillaqori madrasasi (XVII asr) va boshqalar bezaldi. Bu arxitektura binolarida bezalgan naqshlar o‘zining badiiyligi, harakatchanligi, o‘ziga xos originalligi bilan kishini hayratga soladi. Naqshlarning har biri bir katta asar bo‘lib voqelikni naqqosh tili bilan kuylayotgandek tuyuladi. Lekin XVII

asrning oxiriga kelib, bir necha joyda takrorlanadigan naqshlar va mavzularning bir xilligi, tillaning haddan tashqari sarf etilganligi ko‘zga tashlandi. Ayniqsa, bu sohada ijodiy izlanishlar kam bo‘lmasligi seziladi.

XVI-XVIII asrlar orasida o‘zaro ichki urushlar va nizolar madaniyatning rivojlanishiga salbiy ta’sir etdi. Bu esa milliy naqqoshlik san’atining rivojlanishiga ham ta’sir etdi. Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari vujudga kelishi bilan san’atkorlar bu shaharlarga yig‘ila boshladi. Shu vaqt dan naqqoshlik xalq amaliy san’at turlari kabi gullab yashnay boshladi. Xivadagi Toshhovli, Qo‘qondagi Xudoyorxon o‘rdasi, Buxorodagi Sitorai Mohixosa singari yirik binolar ajoyib naqshlar bilan bezatildi. Hajmli planli naqsh kompozitsiyalar paydo bo‘ldi. Bu bezaklar nihoyatda nafisligi bilan ajralib turar edi. Naqsh san’atining rang-barang rivojlanishida, har bir shahar va vohaning o‘ziga yarasha naqqoshlik maktabi paydo bo‘ldi. Chunonchi Farg‘ona, Toshkent, Xorazm, Samarqand va boshqalar. Ular o‘zining kompozitsiyalari, rangi jihatidan va boshqa tomonlari bilan farqlanadi.

XIX va XX asr boshlarida turarjoy binolari, mahalla masjidlari, saroy va o‘quv yurtlari binolari, choyxonalarning devor va shiftlari jimmijador naqshlar bilan bezatildi. Ayniqsa, devorlar sirtiga daraxtlar, guldastalar, guldonli guldastalar, gulli butoqlar jonli chiziqlar bilan bezatildi. Chunonchi Quvadagi Zayniddin boyning uyi, Toshkentdagi knyaz N.K.Romanovlar saroyi, A.A.Polovtsevning uyi, Marg‘ilondagi Saidahmadxo‘ja madrasasi va boshqalar (Toshkentdagi xalq amaliy san’ati muzeyining ayvon peshtoqiga ishlangan naqshlar).

1990 yillar O‘zbekiston naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi san’ati tarixida yangi bosqich bo‘ldi.

O‘zbekiston naqqoshlik maktablarini asosan Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xiva maktablari tashkil etmoqda. Ushbu maktablarning texnik, uslubiy va kompozition tomonlarida ko‘pgina o‘xshashliklar bilan birga, farqli

tomonlari ham mavjud. Shu sababli, naqqoshlik kompozitsiyalarida keng tarqalgan doira yoki aylana ko‘rinishidagi naqshin gullarni «pargoriy» deb nomlashadi. Bu uslub deyarli hamma ustalarning asarlarida uchraydi. Lekin asrimizning boshlarida Toshkentlik Usta S.Xo‘jayev ijodida u o‘zining yuqori cho‘qqilariga erishgan.

Farg‘onalik ustalarning naqqoshlik asarlarida "buta", «guldastalar»ga keng o‘rin beriladi. Lekin ular ushbu mакtabda birmuncha yaxlit, naqshlarning orasi ochiq yirik-yaxlit ko‘rinishlarda ishlanadi. Bundan tashqari, Farg‘ona naqqoshligida Rishton kulolchiligidagi xos moviy bo‘yoqlar ko‘p ishlatilib, unda asosan o‘simlik dunyosi naqshlari yetakchilik qiladi. Chunki, aynan ularda mahalliy aholining «jannat bog‘i» va kosmogonik, diniy falsafa haqidagi tushunchalari o‘zining ifodasini topgan.

Samarqand va Buxoro yog‘och o‘ymakorligi ham ko‘p tomonlardan Xiva maktabining an’analariga yaqin bo‘lsada, ushbu viloyatlarning naqqoshligi o‘zidagi kompozitsiya va ranglar majmuasi bilan Farg‘ona-Toshkent mакtabiga yaqindir. Chunki, naqqoshlik san’atidagi maktablar bir-biridan asosan naqshlar tizimi va har bir kompozitsiyaning tasvirlanishi bilan farqlanadi. Masalan, Toshkentda o‘yiladigan gullarning orasi ochiq, tasvirlar birmuncha erkin bo‘lib ko‘rinsa, Xorazmda birmuncha zich, novdalarning orasidagi bo‘sh joy qoldirilmasligiga katta ahamiyat qaratiladi. Ularda ishlatiladigan ranglar deyarli barcha viloyatlar uchun o‘ziga xos. Xiva maktabida ko‘p hollarda me’morchilik ko shinlarida keng tarqalgan mayda gul va novdalardan iborat islimiy naqshlar ko‘p uchraydi (islimiy-morgula, islimiy-zanjira, islimiy-shobuta va boshqalar). O‘tmishda xalq san’atining boshqa turlari kabi naqqoshlik san’atida ustalar asosan «Usta-shogird» an’anasi orqali tayyorlanadi. Bu an’ana hozirgi davrgacha saqlangan bo‘lib, shu bilan birga san’atning ushbu turlariga sezilayotgan ehtiyojdan kelib chiqib, sohaga moslashtirilgan qator kollejlar ham profesional ustalar tayyorlashga kirishdilar (O‘zbekiston Badiiy

Akademiyasining Toshkent shahri va viloyatlardagi tasviriy va amaliy san'at bilim yurtlari).

90-yillarga kelib, mustaqil ijod bilan shug'ullanayotgan «professional» xalq ustalarining aksariyati, markaz va uyushmalar tarkibiga a'zo bo'lgan holda ijod qilmoqdalar. Respublika maxsus ijodiy-ishlab chiqarish «Usto» birlashmasiga a'zo bo'lgan ustalar davlat ahamiyatiga molik yirik obyekt va qurilishlarda qatnashsalar, «Musavvir» va «Hunarmand» ilmiy-ishlab chiqarish markazlariga a'zolari uyda ijod qiladilar va mahsulotlarini mana shu markazlar orqali tarqatadilar. Markaz esa ularga metodik yordam ko'rsatadi, ustalar ijodini keng omma orasida, Respublika va xorijdagi yirik ko'rgazmalarda targ'ib qiladi va hokazo.

Hozirda, naqqoshlik san'ati o'zining avvalgi davrlardagi mavqeini qayta tiklamoqda. Toshkent shahri va Respublikaning boshqa yirik shaharlarida qurib, foydalanishga topshirilayotgan yoki qayta ta'mirdan chiqarilayotgan qator diniy va dunyoviy xarakterdagi qurilishlarga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. «Usto» birlashmasining Toshkent shahri va viloyatlardagi bo'linmalarida ishlayotgan ustalar, oxirgi o'n yil orasida ko'plab yirik obyektlarda muvaffaqiyatlidir: O'zbekiston Prezidentining «Oqsaroy» qarorgohi (1998-99), Oliy Majlisning yangi binosi (1997), Temuriylar tarixi davlat muzeyi (1996), «Turkiston» kontsert zali (1994), Toshkent shahar hokimligining yangi binosi (1996-98), O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi binosi (1995), Bekobod shahridagi Metallurgiya kombinatining oromgohi (1993), «Algoritm» zavodi (1994), Rossiyaning Voronej va Moskva shaharlaridagi «O'zbekiston» va «Namangan» magazinlari (1989-92), O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi (2000), O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligining qabullar uyi (1993), O'zbekiston Prezidenti Apparatining Matbuot markazi (1998), «Yunusobod» tennis korti (1994), «Guliston» sport majmuasi (1997), Davlat «Sirk»i binosi (1999), «Sheraton-Toshkent» mehmonxonasi (1999), «Xotira maydoni» (1999), O'zbekiston Respublikasining Hindiston

(2000), Germaniya (2000), Malayziya (1993) davlatlaridagi elchixonalarining binolari, Toshkent shahridagi Sayilgoh ko‘chasidagi choyxona ayvoni, Samarqand viloyatidagi Imom al-Buxoriy, Farg‘ona viloyatidagi Ahmad al-Farg‘oniy majmualari (1998) va boshqalar. Naqqoshlik asosan gumbazlarni va galereyalar shiftini bezashda qo‘llanilgan.

Yog‘och o‘ymakorligi asarlari orasida Toshkent shahridagi Oliy Majlisning yangi binosi uchun ishlangan eshiklar diqqatga molik asarlardan. Ish jarayonida ko‘plab yog‘och o‘ymakorlar qatnashdilar. Ularning orasida Toshkentlik M.Ibroximova (mashxur Usta N.Ibroximovning qizi) ijodiga taalluqli eshiklardir. Hozirda qurilayotgan binolar o‘lkamizning iqlim sharoitlariga mos bo‘lishi, dizayni bo‘yicha jahon andozalariga javob berishi va kommunikatsiyaning zamona-viy asbob-anjomlari va isitish-sovitish tarmoqlari bilan ta’minlanmog‘i lozim.

M.Ibroximovaning Oliy Majlis binosi uchun ishlagan eshiklari Malayziyadan keltirilgan palma daraxtidan (subtropik zona) tayyorlangani sabab, faqatgina an’anaviy bezak vazifasini bajarib qolmay, zamonaviy boshqa talablarga ham javob beradi. Ular 2,5x8,2 m., qaliligi 40,5 sm. o‘lchamda bo‘lib, sirtiga asosan «o‘simplik-islimiy», «gajaksimon» va «zanjira» naqshlarining turlari o‘yilgan.

Obyektlardagi naqqoshlik ishlarini bajarishda M.To‘rayev, A.Ilxonov, S.Maxmudov, K.Shoislomov, X.Nuraliyev, S.Shukurov va boshqa yirik ustalar shogirdlari bilan qatnashdilar.

Ularning orasida ayniqsa, A.Ilxonov va X.Nuraliyevlar katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. A.Ilxonovning Temuriylar tarixi Davlat muzeyi (1996) uchun ishlangan bezaklari K.Bexzod nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Usta ijodi davomida faqat Toshkent naqqoshligining an’alarini rivojlantirib qolmay, naqshlarning mumtoz namunalarini o‘zlashtirgan holda zamonaviy ko‘rinishlarini ham kashf etmoqda.

Oliy Majlis binosining markaziy Majlislar zalida, Toshkent naqqoshlik mакtabiga xos bo‘lgan «kundal»ning xuddi Temuriylar tarixi davlat muzeyi gumbazidagi varianti uchraydi. Keyingi yillarda gumbazlarni bezashda moviy rangdan umumiy fon tariqasida foydalanish ommalashib ketdi. Aslida, ushbu holat zamonaviy jarayonda yangilik emas. XV-XVI asrlardagi Temuriylar davri qurilishlaridagi gumbazlarda boshqa ranglar qatorida moviy rang yetakchilik qilgan. Shu bilan birga, «kundal» XIX asrning oxiri XX asrning boshidagi qurilishlarda asosan tillaxalda bajarilardi. Hozir esa ustalarining texnik imkoniyatlarining kengayishi oqibatida tilla suvidan foydalanmoqdalar. Farg‘ona naqqoshligida ham xuddi Toshkentda bo‘lgani kabi, ko‘p uchraydigan elementlarni «mexrob», «madoxil», «bodom» va «bo‘ta» naqshlari tashkil etadi. Undagi asosiy naqshlarning atrofida yordamchilari - «chorgul», «shobarg», «oygul», «zanjira» naqshlari turlari hamkorlik qiladi. Naqqoshlik san’atida ijod qilayotgan har bir usta, amaliyat davomida, mavjud an’analarni o’zlashtirib, ish jarayonida klassik naqshning juda ko‘p ko‘rinishlariga muvaffaq bo‘ladi. Naqshdagagi bir arzimagan chiziq ham naqshning shakl-shamoyilini yoki tasvirdagi mazmun moxiyatini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin. 90-yillardan bosholab qurilayotgan bir qancha madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish binolarida va maishiy xarakterli buyumlardagi naqqoshlikda ushbu vaziyat namoyon bo‘lmoqda.

Ikkinchchi jahon urushi kezlari halok bo‘lgan hamyurtlarimiz uchun qurilgan «Xotira maydoni» ham yirik obyektlar qatoriga kiradi. Obyektning g‘oyaviy mazmuni bo‘yicha, unda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va O‘zbekistonning hamma viloyatlari uchun maxsus joy ajratilgan bo‘lib, ularning har birida urushga ketib, qaytmagan kishilarning ism-shariflari ko‘rsatilgan.

Loyiha mualliflari obyektida barcha viloyatlarning o‘ziga xosligini ko‘rsatishga harakat qilishgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi pavilonidagi ustunlarga o‘yilgan ayrim naqshlarda, ularni ushbu mакtab an’analaridan biroz uzoq ekanligi

seziladi. Ular ko‘proq Toshkent-Farg‘ona maktabidagi naqshlarga yaqin. Qoraqalpog‘iston yog‘och o‘ymakorligi uchun ko‘proq, qozoq va turkman amaliy san’atida keng tarqalgan unsurlar xarakterlidir. Shiftdagи xavoza, peshtоq, «kosh», vassalarga ham o‘ymakorlik uslubida naqsh solingan.¹ Lekin bunda, naqshlar tekislikning sirtini butkul qoplamay, lavhalarda beriladi. Ustunlarning bo‘yi (2,5x3 m.), ayvonlarning umumiyligiga hamoxang tanlangani sabab, ular birmuncha yengil va nozik bo‘lib ko‘rinadi.

«Xotira maydoni» Mustaqillik maydonidagi ochiq maydonda joylashgan. Obyektning atrofidagi tabiat manzarasi bilan bog‘liqligini saqlab qolish maqsadida, undagi «kosh», «xavoza», «vassa» va boshqa qismlar uchun o‘simlik-islimiy naqshining bir qancha turlari tanlab olingan. Shu orqali mualliflar tabiat bilan obyekt orasidagi o‘zaro uyg‘unlashuvni saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganlar.

Bundan farqli o‘laroq, Samarqand viloyatining Chelak tumanida qad roslagan Imom al-Buxoriy majmuasida boshqacharoq manzara uchraydi. Majmua butkul me’morlik san’atining namunasi bo‘lib, u o‘z navbatida naqqoshlik, ganchkorlik va toshtaroshlik san’atlarining uyg‘unlashuvindir. Masjid majmuadagi yog‘och o‘ymakorligi asarlari yuqoridagi «Xotira maydoni»da bo‘lgani kabi, ustun-peshtоqlar, hamda 3,60x5,5 metrdan iborat katta darvoza tashkil etadi. Darvoza M.Abrorov boshliq guruhning mahsuli bo‘lib, u yog‘och o‘ymakorligining «choka pardoz» va «lola pardoz» uslublarida bajarilgan.

Ushbu obyektlarda nafaqat Toshkent shahri balki Respublikaning boshqa viloyatlaridan kelgan naqqosh ustalarining qatnashishlari oqibatida, ko‘pgina unsurlar, kompozitsiyalar va uslublar aksariyat hollarda bir-biri bilan uyg‘unlashib ketgani kuzatiladi.

Zamonaviy sayyoqlikning rivojlanishi oqibatida, sovg‘abop buyumlar ishlab chiqarish ham kun sayin ommalashmoq-

¹ O‘zbekiston san’ati (1991-2001 yillar) Toshkent, Sharq, 2001. 77-81-betlar.

da. Bunda «Musavvir» ilmiy ijodiy ishlab chiqarish markazi a'zolari naqqoshlar - M.To'rayev, A. Ilxomov, S.Maxmudov, K.Shoislomov, A.Asqarov asarlarini eslab o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu ustalar nafaqat respublika balki xorij ko'rgazmalarining ham faol qatnashchilari (Germaniya, Yaponiya, Shveytsariya, Turkiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Belgiya, Hindiston va boshqalar).

O.Fayzullayevning asarlarida an'anaviy o'simlik naqshlari bilan birgalikda geometrik naqshlarga ham keng o'rinn beriladi. Ustaga 1995-yil 26-oktyabrda Toshkent shahrida o'tkazilgan birinchi respublika xalq amaliy san'ati yarmarkasida «Xalq Ustasi» sertifikati berildi. Shu bilan birga, 1994- yili Pokiston-dagi 46 musulmon mamlakatlari qatnashgan amaliy san'at ustalari festivalida O.Fayzullayev to'rtinchchi faxriy o'rinni egal-lab qaytdilar.

A.Asqarovning naqqoshlik asarlarida nafaqat vodiy, balki O'zbekiston naqqoshligining yetuk ustalari O.Qosimjonov, T.To'xtaxo'jayev, J.Hakimov, Z.Qodirovlarning eng yaxshi an'analari davom etmoqda.

Ushbu manzaradan ko'rinish turganidek, oxirgi o'n yil mobaynida naqqoshlik san'ati haqiqatan ham rivojlanib, unutilib borayotgan ba'zi uslublarini qayta tiklayotgani, naqshlarning ro'yxati yil sayin kengayotgani va islamiyning bir necha turlari uyg'unlashayotganining guvoxi bo'lmoqdamiz. Birgina yuqorida keltirib o'tilgan «paragori» uslubini olsak, u XIX-XX asrning boshlaridagi Toshkent maktabida ayniqsa, mashhur bo'lib, so'nggi paytlarda esa deyarli qo'llanilmayotgandi. Hozir esa u qayta tiklandi. Xomashyolardan mahalliylariga bo'lgan talab katta: yong'oq, chinor, qayrag'och, nok, o'rik. Chetdan keltiriladiganlari orasida Ruminiya buki, dub kabi yog'och sortlari ham ko'p ishlatilmoqda.

Hozirgi kunda, bozor iqtisodiyoti muammolari san'atning boshqa turlarida bo'lgani kabi naqqoshlik san'atiga ham shiddat bilan kirib kelmoqda. Bu esa, ustalarimizga zamonaviy sharoitda yashab, ijod qilishning yangi ko'rinishlarini izlashga sabab bo'lmoqda. Ular nafaqat ijodiy izlanishlarini davom et-

tirmoqdalar, balki internet va kommunikatsiyaning boshqa zamonaviy aloqa vositalari orqali sohalariga taalluqli yangiliklar bilan tanishmoqdalar, xorijiy ko'rgazmalarda, xalqaro tashkilotlar tomonidan homiylik qilinadigan turli loyihalarda, ko'rgazmalarda qatnashib, o'zlarining kasbiy mahoratlarini oshirmoqdalar (1995-yil Toshkent shahrida Yuneskoning loyihasi asosida tashkil etilgan xalq hunarmandlarining yarmarkasi, 1996 yili Parij shahrida o'tkazilgan Amir Temurning 660 yillik tantanalari doirasidagi ko'rgazma, 2000-yil Gannover shahridagi butun jahon ko'rgazma va boshqalar).

Ustalar, yuqoridagilar bilan birga, buyurtma bo'lgan taqdirda, asosiy yo'nalishlaridan tashqari, iste'molchining talabidan kelib chiqqan holda, xohlangan o'lcham va uslubdagi buyurtmalar ustida ham ishlamoqdalar. Yevropa andozalaridagi bufet, tryumo, servant, stol va stullarning to'plamlari fikrimizning dalilidir. Ularda o'yiladigan naqshlar an'anaviy yoki buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan chizmalar asosida, yevropaliklarning amaliy san'atiga xos naqshlar ham bo'lishi mumkin.

Shular bilan birgalikda, O'zbekiston hukumati xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi an'analarini asrab-avaylash borasida ham ko'pgina xayrli ishlarni amalga oshirdi. Ustalarning daromad solig'i va boshqa bojxona to'lovlaridan besh yilga ozod qilinishlari xalq hunarmandlari qatorida naqsh o'ymakorligi bilan shug'ullanadigan ustalarga qator qulayliklarni yaratmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Naqqoshlik san'ati tarixi va uning rivojlanish davri haqida nimalar bilasiz?
2. Mustaqillik davrida naqqoshlik san'atini rivojlanishi haqida qanday tushunchalarga egasiz?
3. Naqqoshlik san'atiga oid qaysi adabiyotlarni bilasiz?
4. Naqqoshlik san'ati va uning namoyandalaridan kimlarni bilasiz?

5. Temuriylar davri naqqoshlik san'atining rivojlanishi haqida nimalar bilasiz?
6. Girihi ustalardan kimlarni bilasiz?
7. Samarqanddagi tarixiy obidalarning nomini sanab bering?
8. Naqsh termini qanday ma'noni anglatadi?
9. O'zbek xalq amaliy san'ati turlarini sanab bering?




17-rasm. Amaliy san'at muzeyining ichki bezaklari.




18-rasm. Shatranj. Buxoro, XIX-XX asr boshlari.

O‘zbekiston territoriyasida shatranjning o‘rtalari asrlardayoq ommalashib ketayotganligi borasida Dalvarzintepa (eramizgacha II asr), Afrosiyob (VI-VII asrlar), Termiz (XVI asr)da olib borilgan arxeologik qazilma topildiqlari guvohlik beradilar. Shatranj o‘yinini hozirda ham ko‘pchilik sevadi. Shatranj donalari va taxtasidagi naqshlar XIX-XX asr o‘zbek xalq amaliy san’at an’analari asosida ado etilgan.



19-rasm. Juzdonlar. Qo‘qon, Buxoro, XIX asr.

Perosi g‘ilof ichida yashiringan aftoruchka ixtro etilgunga qadar qalam, dovot, mo‘yqalam, naqqoshlik pichoqchalari singari kasb-hunar qurollarini saqlash uchun juzdondan foydalilanilgan. Tashqi ko‘rinishi, tuzilishi, xomashyosi katta-kichikligi, bezagi jihatidan juzdonlar xilmal-xil bo‘lgan. Qog‘oz qorishmasidan qilingan juzdonlar sirtiga lak surilib, tempera bo‘yog‘ida naqsh chekilgan.



20-rasm. Knyaz N.K. Romanov saroyi. Toshkent, XIX asr oxiri. Knyazning yevropacha usulda qurilgan saroyi ichkarisini bezashda Toshkentlik naqqoshlar katta mahorat ko'rsatganlar. Yorqin, nafis ishlangan islimiyl naqshlar va giriylar zalga o'zgacha oro bag'ishlab turadi.



21-rasm. O'simliksimon naqsh. Naqqosh Anvar Ilhomov



22-rasm. Gulli giriҳ naqqosh Anvar Ilhomov



23-rasm. To‘g‘ri to‘rburchak shaklidagi o‘simliksimon naqsh kompozitsiyasi.

IV BOB. NAQQOSHLIK MAKTABLEARI

Xiva, Qo‘qon, Buxoro xonliklari davrida xalq amaliy san’ati ustalari shu shaharlarga yig‘ila boshladilar. XIX asr arxitektura yodgorliklarini kuzatsak, ular bir xil uslubda yaratilganligini ko‘ramiz. Chunki o‘sha vaqtłari naqqoshlar ish axtarib boshqa shaharlarga borar edilar yoki buyurtma bo‘yicha boshqa shaharlarga borib binolarni bezatar edilar. Ko‘pincha Farg‘ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga, Qo‘qon, Marg‘ilon ustalari Toshkentga kelib ko‘pgina binolarni bezar edilar. Bu esa naqqoshlik maktablarining yanada rivojlanishiga o‘ziga xos kompozitsiyalarning yaratilishiga, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda katta rol o‘ynadi. Lekin bu naqshlar bir-biriga o‘xshasada har bir shahar va har bir ustuning o‘ziga xos rang majmuasi, koloriti, uslubi, kompozitsiyasi jihatidan farq qiladi. Agar biz XX asr orasida yaratilgan ishlangan naqshlarni kuzatsak, har bir tuman va viloyatning o‘ziga xos naqqoshlik maktablari yaratilganligini ko‘ramiz.

SHAYXZODA MAHMUD – (XV asr oxiri XVI asr) – naqqosh va musavvir. Behzod, Oqa Miraklardan ta’lim olgan. Avval Sulton Husayn Mirzo saroyida ijod etgan, keyinchalik (1529-yil Ubaydullaxon Xirotni egallagach) Mir Ali Hiraviy bilan birga Buxoroga kelgan, Behzod an'analarini davom ettirib samarali ijod etgan va o‘ziga xos maktab yaratgan. Musavvir Hofiz Sheroziyning «Devon»i, Abdurahmon Jo-miyning «Tuhfat Ul-afkor» (AQSH, Vashington, Sakkler galereyasida), «Haft manzar», Nizomiy Ganjaviyning «Mahzan Ul-asror» (Parij milliy kutubxonasi), Sa’diy Sheroziyning «Bo‘ston» (Fransiya, Gulbekiyan va Kayr to‘plamida), «Ravzat Ul-muhibbin» (Hindiston, Xaydarobod, Salar Jang muzeyida) qo‘lyozmalariga miniatyurlar yaratgan.

XUDOYBERGAN MUHRKAN – (1822-Xiva-1920) – xattot, naqqosh, bastakor. To‘p quyuvchi Usta Muhammad Panohning o‘g‘li. Otasidan to‘p quyushni, xattot Usta Er-

mon xalifadan xattotlikni, muhrkan Usta Islom xo‘jadan muhrkanlikni o‘rgangan. Xudoybergan Muhrkan xon saroyida devon lavozimida ishlagani uchun «devon», davlat zARBxonasida tanga pullar uchun qoliplar va muhrlar yasagani uchun «muhrkan» nomlariga sazovor bo‘lgan. Xudoybergan Muhrkan Muhammad Rahimxon II saroyi kutubxonasiagi kitoblarning asosiy qismini (masalan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Abdurahmon Jomiyning «Haft avrang», «Silsilat o‘z-zahab», «Layli va Majnun», «Yusuf va Zulayxo» dostonlari va boshqalar chiroyli nafis yozuvlarda ko‘chirgan. Xudoybergan Muhrkan marmar taxtalar, o‘ratosh (poyustun)larni chiroyli yozuv va nafis naqshlar bilan she’riy tarixlarni marmar toshga o‘yib yozgan va gullar bilan bezagan; Xudoybergan Muhrkan ishlaridan namunalar Xivadagi ko‘pgina me’moriy obidalarda saqlangan: Said Mahruyjon maqbarasi (1864), Asfandiyorxon harami (1896) va qabulxonasi (1912), Yusuf yasovulboshi (1906).

FARG’ONA NAQQOSHLIK MAK TABI

Farg‘ona naqshi Xo‘jand, Marg‘ilon, Qo‘qon, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shahlarida vujudga kelgan uslublardan iborat. XIX asr va XX asr boshlariga mansub bo‘lgan naqshlar ko‘plab osori atiqalarda saqlanib qolgan. Qo‘qondagi Madalixon dahasi va Dahai Shohon, Xudoyorxon o‘rdasidagi va boshqa naqshlar o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lsada, Farg‘ona naqshlarida ko‘proq Buxoro, Xiva naqshlarining ta’siri bor. Hattoki rus naqqoshlarining uslubi ham har yerda uchrab turadi. Lekin Farg‘ona vodiysida o‘ziga xos naqqoshlik maktabi rivoj topgan edi. Farg‘ona naqqoshlari girih, o‘simliksimon (islimiyl) va gulli girih naqshlarini bezaklarda qo‘llaganlar. Kompozitsiyalarning simmetriyali bo‘lish prinsipiga amal qilganlar (Qo‘qonlik naqqosh S.Mahmudovning ishlagan naqshi). U boshqa naqqoshlik maktablaridan naqshlarining tabiatga juda

yaqinligi, erkin ishlanishi, ranglarining kontrastligi bilan farqlangan. Bulardan tashqari Farg‘ona naqshlarida tabiatdagi gul, barg, g‘uncha va boshqalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanilgan. Chunonchi Farg‘ona naqshlariga qarasak, pista gul, anor, atirgul, majnuntol, bodomgul va boshqalarni ko‘rishimiz mumkin. Farg‘ona vodiysidagi naqsh kompozitsiyalarning tabiatga juda yaqinligi Toshkent, Xiva va Samarcand naqshlaridan ajralib turadi. Farg‘onada naqqoshlar chetlari chiroyli qilib, ichiga islimiyl shakl tushurilgan qizil, yashil bo‘yoqlar bilan turunjni afzal ko‘radi. Farg‘ona naqqoshlik maktabining namoyondalaridan biri Saidmam-mud Norqo‘ziievdir.

Saidmamud Norqo‘ziiev naqqoshlik maktabini yarat-gan ustazoda naqqoshlardan. Saidmamud Norqo‘ziiev 1883-yili Qo‘qon shahrida naqqosh oilasida tug‘ildi. Uning otasi Norqo‘zi Nurmatov o‘scha davrda Qo‘qon shahrida dong taratgan usta naqqoshlardan edi. Saidmamud Norqo‘ziyevning otasi juda ko‘p shaharlarga borar edi, ayniqsa Toshkentdaggi Knyaz N.Romanovning saroyini, A.Polovtsev uyini (hozirgi xalqqa amaliy san’ati muzeyi) va boshqa turarjoy binolarini bezashda qatnashib xalqqa tanil-gan. Saidmamud yoshligidan naqsh chizishga, rasm solishga qiziqib, bu san’at sirlarini o‘rgana boshladi. U 7 yoshligi-dan boshlab xususiy maktabga bordi u ko‘pincha otasining naqsh andozalarini tamosha qilib, ulardan nusxalar ko‘chirar edi. Keyinchalik u har xil naqsh kompozitsiyalarini o‘zi ijod qilib chiza boshladi. Bir kuni Qo‘qonda mashhur naqqosh Muhammad Soli, Saidmamudning naqshlarini ko‘rib hay-ratda qoladi va unga tasanno o‘qiydi. 1895-yildan boshlab usta naqqosh Muhammad Solihga shogird bo‘lib, ko‘pgina boylarning uylarini bezashda qatnashdi.

1899-yili Saidmamud otasi bilan birga Farg‘ona, Andijondagi bir qancha uylarni bezadilar. Uning tajribasi oshib, o‘zi bemalol naqsh kompozitsiyalarini mustaqil chiza oladigan, xohlagan naqshini qiynalmasdan chizadigan dara-


jaga erishdi. U 30 yoshida otasidan fotiha olib usta bo'ldi. O'sha kundan boshlab u mustaqil ishlashga muyassar bo'ldi. 1903 yildan boshlab shaharlardagi boylarning buyurtmalarini, ayniqsa, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon, Jalolobod, o'sha va boshqa joylardagi uylarni, masjidlarni bezab shuhrat qozondi. Avval boylarning uylarini bezagan bo'lsa, keyin madaniyat uylari va saroylarini, choyxona va boshqa joylarni bezadi. 30 yillarda usta o'g'illari Saidmahmud va Saidumar naqqoshlik sirlarini o'rgandilar o'g'li va nevaralari bilan Farg'ona vodiysidagi 30 ga yaqin choyxonani bezadilar. 1946-yili Alisher Navoiy nomidagi teatr binosiga turli viloyatlardan ganch o'ymakorlar, naqqoshlar, yog'och o'ymakorlar, misgarlar va boshqalar taklif qilindi. Shu ustalar ichida Usta Norqo'ziyev ham naqsh bezagiga taklif etildi. Uning boshchiligida Farg'ona zali bezatildi va ko'pgina boshqa zallar uchun naqsh andazalar tayyorlab berdi. Norqo'ziyev andozalari bo'yicha naqshlar chizildi va ganch o'ymakorligi bajarildi.

Arxitektor S.Polupanov duxobaga zardo'zlik naqshini bajarish uchun ko'pgina andozalar taklif qildi. Saidmahmud Norqo'ziyevning ko'pgina arxitektura yodgorliklarini qayta tiklashda xizmatlari katta. U 30-40 yillarda Qo'qondagi Xudoyorxon o'r dasini ta'mir etishda qatnashdi. Usta 1954-yili o'zining ajoyib naqsh kompozitsiyalari bilan birinchi butunittifoq xalq amaliy san'ati ustalari ijodi va jumhuriyat xalq amaliy bezak san'ati ko'rgazmalarida qatnashdi. 1959-yili Moskvada ochilgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati ko'rgazmasida o'zining naqshli namoyoni bilan qatnashdi.

«Usta Norqo'ziyev – talantli naqqosh, sidqidildan o'z ishiga berilgan – yangilik yaratuvchi rassomdir». U o'zbek xalqining milliy madaniyatiga katta hissa qo'shdi. Tajribalarini o'z shogirdlariga qoldirdi. Uning juda ko'p shogirdlari hozirda zamонавиy binolarni naqsh bilan bezab, Farg'ona o'zbek milliy naqqoshlik an'anaviy mакtabini davom ettirmoqdalar.



24-rasm. Farg'ona naqqoshlik maktabi naqsh loyihasidan namuna "Namoyon"



25-rasm. Qo‘qon naqqoshlik maktabi naqsh loyihasidan namuna

TOSHKENT NAQQOSHLIK MAKTABI

Toshkent naqshlari o‘zining nafisligi, ranglarning bir-biriga asta-sekin o‘tishi, aniq bir koloritga qat’iy rioya qiliishi, geometrik va o‘simliksimon naqshlarning ko‘p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar ko‘pincha yashil gammada ishlanadi. O‘simliksimon naqshlardan oygul, paxta, bofta, uch barg, shukufta, bargli gul va boshqa elementlar aniq stil-lashtirilgan. Murakkab geometrik naqshlar ishlanadi. Naqqosh ustalardan Jalil Hakimov, Toyir To‘xtaxo‘jayev, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raupov, Anvar Ilhomov, Komil Karimov va boshqalar Toshkent naqqoshlik maktabining asoschilaridirlar.

Yoqubjon Raupov 1888-yili 22-yanvarda O‘ratepa shahrida naqqosh ustazoda oilasida dunyoga keldi Yoqubjon tug‘ilgan O‘ratepa shahri yog‘ochga naqsh ishlash san’ati bo‘yicha mashhur edi. Uning otasini Rauf kalon deb atashar edi. Rauf kalon iste’dodli doimo yangidan-yangi naqshlar kashf etuvchi, shiftlarga va devorlarga o‘ng‘aylik bilan gullar soluvchi hamda ustun va kursilarni murakkab jimjimador naqshlar bilan bezovchi katta san’atkor bo‘lgan. Shuning uchun ham ustani hurmat qilib Rauf kalon deb laqab qo‘yanlar. Rauf kalonlar sulolasi asosan me’morchilik in-shootlariga milliy an’anaviy naqshlar berish bilan mashhur bo‘lib kelganlar. Yoqubjon ustozi Rauf Nazarovning tallantini meros qilib oldi. Yoqubjon otasidan nasldan-nasnga o‘tib kelayotgan naqqoshlik sirlarini qunt bilan o‘rganib, naqqoshlik texnikasini mukammal o‘zlashtirdi. U otasi boshchiligida O‘rta Osiyoning turli shaharlarini, chunonchi Namangan, Marg‘ilon, Andijon, Leninobod, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand, Chimkent va shu singari shaharlardagi jamoat binolarini bezadi. U avval otasiga shogird, keyinchalik yordamchi bo‘lib ishlab yurdi. 18 yoshidan boshlab naqqosh usta sifatida bezak ishlarida mustaqil qatnashdi. U yoshlik chog‘larida juda ko‘p mutolaa qildi hamda arab yozuvini o‘rganib oldi. Tinimsiz izlanishlari tufayli naqsh sirlarini

o‘rgana bordi. Yoqubjon shaharma-shahar yurib, turli masjid, mehmonxona, uy va ayvonlarning shifti, peshtoqi va ustunlarini naqshlar bilan bezadi. U birinchi bo‘lib Farg‘ona vodiysidagi binolarni mustaqil bezadi. Uning nomi tez orada ko‘pchilikka tanildi. Yoqubjon Raupovni turli shaharlarga taklif qilishadigan bo‘ldi.

Usta muzeylar, turarjoy va jamoat binolari, madaniyat uylariga sayqal berdi. U arxitektura yodgorliklaridagi naqshlarga qayta jon bag‘ishladi. Birinchi vaqtarda Tojikistonda, keyinchalik esa 1923-yilda Toshkentga ko‘chib kelgan. Yoqubjon Raupov naqqoshlik sirlarini to‘la-to‘kis egallagan, naqqosh nomini olgan mustaqil usta edi. U Toshkent xonardonlarida ishslash bilan birga amalda qo‘llaniladigan uy-ro‘zg‘or buyumlariga, ya’ni qutichalar, ko‘p raxli xontaxta, kursi, qalamdon, stol va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlariga naqsh chizdi. Natijada san’atkorning bunday san’at asarlari har xil ko‘rgazmalarda namoyish qilindi usta naqqosh san’atkorning nomi Respublikamizda hurmat bilan tilga olina boshlandi. 1934-yilda usta Toshkentdagি ishlab chiqarish rassomchilik kombinatiga ishga taklif qilingan keyinchalik shu dargohda nakqoshlik bo‘limida dars bera boshladi. Bu o‘quv ustaxonasida yoshlarga ustozlik qildi. O‘z naqqoshlik maktabini yoshlarga o‘rgatdi. Sirkorlikda o‘ziga xos jihatlarini puxta egallagan iste’dodli shogirdlari hozir uning ishlarini muvaffaqiyatli davom ettirmoqdalar, 1938-yilda esa sermehnat harakatchan usta Moskva shahriga butunittifoq xalq xo‘jaligi ko‘rgazmasining O‘zbekiston paviloniga bezash uchun ketayotgan bir gruppa naqqoshlarga rahbar qilib tayinlandi. Bezak ishlari dastlab 1938-39-yillarda keyin esa 1952-56-yillarda nihoyasiga yetkazildi. Sirkorlik ishlarini 18 kishidan iborat ustalar brigadasi uch oy davomida ishlab bitkazdilar. Bu ishda, ayniqsa, naqqoshlardan Yo.Raupov, A.Qosimjonov, V.Isayev, X.Husanov va boshqalar alohida o‘rnak ko‘rsatishdi, ular xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasining O‘zbekiston pavilonidagi gumbazni, shiypon, ayvon va boshqa joylarini ajoyib naqshlar bilan

bezadilar. Shu davrlarda Yo.Raupovning ijodiy ishlaridan ko‘p qirrali xontaxtalari, har xil qutichalari, mayda buyum-larga ustalik bilan chizilgan san’at asarlari, xalq amaliy san’atining O‘zbekistondagi ko‘rgazmalarida hamda chet mamlakatlarining ko‘rgazmalarida muvaffaqiyat bilan namoyish qilindi.

1937-yilda Parijda ochilgan xalqaro san’at va texnika ko‘rgazmasida Yo.Raupovning ishlari namoyish qilindi. Yo.Raupov ta’mirchi usta sifatida ham tanildi. Usta ko‘pgina naqshlarni qayta tiklashda o‘z kuch qudratini aymadi. 1941-yili Toshkentdagি Polovtsev binosini hozirgi O‘zbekiston xalq amaliy san’ati muzeyidagi sirkorlik namunalariga qayta jon bag‘ishladi.

Bundan tashqari 1950-yillarda Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridagi tarixiy yodgorliklarga qayta sayqal berishda qatnashdi. 1947-yili zamonaviy estetik talablarga asoslanib o‘zbek milliy an’analarini saqlagan holda O‘zbekiston davlat opera va balet teatri binosini bunyod etishda qatnashdi. Naqqoshlar, ganchkorlar, toshtaroshlar va boshqalar O‘zbekistonning turli chekkalaridan taklif etildi, shular qatorida Yo.Raupov ham bor edi. Naqqoshlik san’atini puxta egal-lagan Yo.Raupov teatr binosining gumbaz, portal hamda tashqi galereya qismining shiftiga naqshlar ishladi. (Qushtanob islimiш sharafa Yo.Raupov).

1952-yilda Moskvada butunittifoq xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasi O‘zbekiston pavilonining kirish qismidan joy olgan shiypon (rotonda), shiftiga ishlagan naqqoshlik ishlari bilan ustaning yanada obro‘ e’tibori ortdi. 1955-yilda Bekoboddagi metallurglar madaniyat uyini ajoyib naqshlar bilan bezadi, 1966-yili Toshkent zilzilasi oqibatida ko‘pgina uylar vayron bo‘ldi, arxitektura yodgorliklari shikast yedi. Ularni qayta tiklashda Yo.Raupov o‘z shogirdlari bilan qatnashdi. 1968-yili Yo.Raupov Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyini bezadi. 1969-yili esa Samarqandning 2500 yillik yubileyiga atab «Yulduz» choyxonasini naqshladi. 1970-yili esa xiyobonni «ko‘k gumbazli» choyxonasining

ichlarini ajoyib naqshlar bilan bezadi. Yo.Raupovning naqsh kompozitsiyasi rangi hamda xarakteri jihatidan Toshkentlik ustalarning naqshlaridan ajralib turadi. U ko‘pincha tojik naqqoshlik mактабining an’analarini saqlagan holda ajoyib kompozitsiyalar yaratgan. Ijodkor o‘zbek va tojik naqshlari ning boy madaniy merosidan mohirona foydalanib, ko‘pgina islimiy va geometrik naqsh kompozitsiyalarini yaratdi. Uning naqshlaridagi ranglarning ochiqligi, yorqinligi hamda bir-biriga uyg‘unligi kishini o‘ziga jalb qiladi. Naqsh kompozitsiyasi tuzilishi jihatidan an’anaviy milliy naqshlarga doimo yangi element va motivlar kiritgan. Yo.Raupov kompozitsiya tuzishda sodda, uzoq yaqinini yaxshi bilardi. U naqsh kompozitsiyalarini uzoqdan ham ko‘rinishini ta’minlar edi. Usta naqsh ishlashda ko‘proq chirmoviqsimon o‘suvchan islimiy mazmundagi naqshlari bilan va katta-kichik yuzalarni to‘g‘ri taqsimlashi hamda mayda kichik buyumlar formasiga ni-hoyatda uzviy ravishda birlashib ketgan odmi naqshlarning kamsuqumliligi bilan ham ajralib turadi. Yo.Raupovning naqshlarini kuzatar ekanmiz, naqsh sxemasini erkin, chiroyli shakllar hosil qilib ishlanganligi hamda naqsh elementlaridan unumli foydalanganligini ko‘ramiz. Uning naqshlarining ko‘pchiligi tojik naqshlariga o‘xshab ketadi, gullari yirik hamda o‘ziga xos detallardan iborat. U bargli gullar besh va sakkiz bargli gullar, ya’ni «Xitoy afsonalari» hamda oddiy gullardan foydalangan. Usta tumorchi naqsh tartibida naqsh kompozitsiya tuzib, har bir tumor gulni aniq oq chiziq bilan ajratib, ularning zaminini esa turli ranglar bilan bo‘yagan. Usta turli shaharlarga borganda har bir jooning o‘ziga xos an’anasiga moslab naqsh bajargan. U hamma joyda ham bir qolipdagi naqshlarni hech qo‘llamay, yangi-yangi naqshlar to‘qib, tuzib bo‘yagan. Yo.Raupovning yirik me’morchilik inshoatlariga yoki maishiy buyumlarga ishlagan naqshlarini kuzatsak chiziq va ranglarning bir-biriga g‘oyat uyg‘unligini sezamiz. Usta ko‘k, havorang yonida pushti rang qo‘llashi naqshni buzmay balki, bu ikki rang bir-birini to‘ldiradi, butunlik hosil qiladi. Uning hayoti davomida turli shaharlarda

qilgan ishlari o‘ziga xos mакtab vazifasini o‘tadi, tajribasini boyitdi. Yo.Raupov naqshlarni bo‘rttirib, tillahalli nozik plastinkalarni ham qo‘lladi. Ya’ni kundal texnikasidan ham foydalandi. Bu texnikada naqshlarni bajarilishi o‘ziga xos joziba, ko‘rinish berishini ko‘ramiz. Usta muhtasham binolarning peshtoqlari, aroqilar, navolari, shiftlariga bergan naqshlari bino chiroyini yanada ochadi hamda xonalarga fayz va alohida latofat bag‘ishlaydi. Sharqqa mashhur bo‘lgan naqqosh Maoniy aytganidek «agar kimki rasmdagi har bir chiziqqa jon bag‘ishlay olar ekan, u san’at kalitini egallagan bo‘ladi». Ana shu san’at kalitini egallagan har bir chiziqqa jon bag‘ishlay olgan buyuk san’atkorlardan biri Yo.Raupovdir. Usta har bir naqshni to‘g‘ri va aniq chiqishiga hamda bir-biriga bog‘lanishiga intilgan. Ustaning naqshlariga nigoh tashlar ekanmiz, islumi patnis, islumi gul, islumi mehrob, pechak islumi aroqi, chor islumi aroqi, qo‘shtanob pechak islumi, yakraftor islumi, turunji aroqi islumi va boshqa naqsh kompozitsiyalarini ko‘p uchratamiz. Naqsh turlari ichida eng ko‘p tarqalgan va murakkab turi girih bo‘lib, uni hamma ustalar ham ishlay olmagan. Uni chiza olgan haqiqiy naqqosh hisoblangan. Ko‘pincha ustalar girihskor (girih chizuvchi usta) ustaga chizdirib, keyin binolarga yoki buyumlargacha qo‘llar edilar. Yo.Raupov esa girih naqshni qiynalmasdan bemalol chiza olar edi. Usta o‘z ijodiy faoliyatida ko‘proq medalon kompozitsiyalarini qo‘lladi. Uning ishlagan har bir kompozitsiyalari umumiyligi yaxlit butunlik kasb etadi. Yo.Raupov yog‘ochga naqsh ishlashdan oldin yog‘ochni qum qog‘ozda tekislab alif moyi surkab, keyin uning sirtini maxsus massa bilan tekislab naqsh chizgan. Naqsh tayyor bo‘lgandan so‘ng egar moyi yoki fabrika laki berilgan. Egar moyi surilgan naqsh yoritilgan hamda bezatilgan yuzani darz ketishidan, chirishidan saqlagan. Yo.Raupov tabiiy tayyorlangan bo‘yoqlarni, lakkarni yaxshi ko‘rar edi hamda naqshlarning sifatli chiqishiga katta e’tibor berar edi. Yo.Raupov yillar davomida tajribasi oshib sodda va oddiy usulda bajarilgan naqshlar murakkab-

lashib bordi va bo‘yoqlarning rang-barangligi yanada oshdi. Kompozitsiyalarida ko‘pincha qizil, jigarrang, yashil, to‘q sariq, favoranglardan foydalandi. Ustaning aniq va serman-zara naqshlari baland hamda keng shiftlarni bezashda yaxshi natijalar berdi. Yo.Raupov naqsh kompozitsiyalarini juda erkin, yengil mustaqil, qiynalmasdan chizardi. U ko‘pincha naqsh chiziladigan yuzaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri axtasiz yuzaning o‘zida chizib, bo‘yab, pardozlab bera olar edi. Tinib-tinchimas, mehnatsevar usta Yo.Raupov qarigan chog‘ida ham kichik buyumlarga bezak berish ustida ko‘p ish olib bordi. Ko‘p izlanishlar qilib qadimiyligi naqqoshlik san’atini hozirgi zamon talabiga javob beradigan zamonaviy formalarda muvaffaqiyat bilan qo‘lladi.

Jumhuriyat butunittifoq hamda xalqaro ko‘rgazmalarda surunkali qatnashib kelgan Yo.Raupov bir necha marta diplom va medallar bilan taqdirlandi. Yo.Raupov 1938-yili Ras-somlar soyuzining a’zosi, 1944-yilda uzoq yillik samarali mehnatlari uchun O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, 1963-yilda O‘zbekiston xalq rassomi unvoniga sazovor bo‘ldi. Usta jumhuriyat hukumatining faxriy yorliqlari bilan mukofotlangan. Ustaning ko‘p naqshlari jumhuriyat va viloyat markaziy muzeylarida saqlanib doimiy, ekspozitsiya yaga aylanib qolgan. San’atkor o‘z kasbini astoydil sevadigan, ishni ko‘zini biladigan, ziyrak, harakatchan usta edi. Yo.Raupov XIX asr naqqoshlik maktabining an’anaviy davomchisi. Uning shogirdlariga nisbatan talabchanligi, serg‘ayratligi, ijodida o‘z aksini topgan. U kishini xalq amaliy san’ati ustalari ichida iste’dodli vakillaridan biri deb bilamiz. Hozir uning o‘lmas asarlari xalqqa xizmat qilayotir. Mana shunday ustalardan yana biri – Toyir To‘xtaxo‘jayevdir. U 1918-yil 29-dekabrda Toshkentda tug‘ildi. U o‘rta maktabda o‘qib yurgan paytalaridayoq qalam va akvarelda juda ko‘p rasmlar chizar edi. Toshkentlik mashhur pargori usta Olimjon Qosimjonov bilan do‘splashib sirlarini Olim-jonning tutingan otasi Usta Sherali hoji Hasanovdan o‘rgangan edi. Sherali Hasanov yoshlar bilan ishslashni juda

yaxshi ko‘rar edi. Lekin u hunar mahoratlarining asosiy sirlarini hattoki o‘g‘lidan ham sir saqlashga harakat qilardi. «Biz, - deb eslaydi Toyir To‘xtaxo‘jayev, - o‘qish paytlari usta bizdan nimalarnidir sir tutayotganini sezib qoldik. Lekin bizni ustozimiz tayyorlagan shablonlar juda qiziqtirar edi. Bir marta ustozimiz hayallab qolgan edi,

Toshkentlik naqqosh Toyir To‘xtaxo‘jayev

Toshkentlik mashhur naqqosh Olimjon Qosimjonov bizlar uning shaxsiy arxivini yashirinchaligida diqqat bilan ko‘zdan kechirib original ulgilarni, ornamental kompozitsiyalarini sinchiklab o‘rgandik. Bu voqealarda 1932-yilning boshlarida sodir bo‘lgan edi. Toyirjon Olimjon Qosimjonovdan naqsh sirlarini tashnalik bilan o‘rgandi. Naqqoshlik sirlarini qunt bilan o‘rganib asta-sekin o‘zi mustaqil kompozitsiyalar yarata boshladi Toyir Ustoziga 6-8 yilcha shogird bo‘lib yurdi. Keyin esa Toshkentdagi «Badiiy o‘quv ishlab chiqarish kombinatiga o‘qishga kirdi va bu bilim yurtini muvafqaqiyatli tugatdi. U yerda qog‘ozga va yog‘ochga naqsh ishlash texnologiyasini qunt bilan o‘rgandi.

T.To‘xtaxo‘jayev birinchi bor mustaqil ravishda mashhur naqqosh Yo.Raupov bilan birgalikda 1938-yili Butunittofoq qishloq xo‘jalik ko‘rgazmasidagi O‘zbekiston pavilonini milliy naqshlar bilan bezab, yuksak mahoratini aks ettirdi usta ayni avj olib ijod etayotgan bir davrda to‘satdan Ulug‘ Vatan urushi boshlandi San’atkor ona Vatanni mudofaa qilishga chaqirildi urush yillari Germaniyadagi sovet qismlarida xizmat qildi san’atkor jangchi xizmati cho‘zilib ketib, juda ko‘p qiyinchiliklarga duch keldi, salomatligiga putur yetdi. U Vatan mudofaasi uchun «Qizil Yulduz» ordeni, bir qancha jangovor medallar va faxriy yorliqlar bilan mukofotlandi, ulug‘ Vatan urushi tamom bo‘lgandan so‘ng salomatligiga qaramasdan qo‘liga qalam olib sevgan hunari bilan shug‘ullandi. Shu bilan birga badiiy bilim yurtida o‘qituvchilik qildi va naqqoshlik mahorati sirlarini yoshlarga o‘rgatdi Toyir To‘xtaxo‘jayev faqat jamoat binolari yoki har

xil esdalik sovg'a bilan shug'ullanmasdan balki, turar joy binolarini ham naqsh-nigorlar bilan bezadi 1946-yili Toshkentdag'i o'quvchilar saroyini o'simliksimon va geometrik naqshlar bilan o'ziga xos qilib bezadi 1953-yili butunittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasi O'zbekiston pavilonining kirish qismidan joy olgan shiypon, shiftga ishlangan naqqoshlik ishlari bilan yanada xalqqa tanilib obro' topdi. 1966-yili Toshkent shahridagi zilzila natijasida ko'pgina uylar vayron bo'ldi, arxitektura yodgorliklariga shikast yetdi Ularni qayta tiklashda T.To'xtaxo'jayev o'z hissasini ayamadi. U O'zbekiston amaliy san'ati asarlari doimiy ko'rgazmasi binosiga, Sitorai Mohixosa va boshqa arxitektura yodgorliklariga qayta jon bag'ishladi.

Ustaning ko'pgina asarlarini ko'zdan kechirar ekanmiz beixtiyor naqqoshlik san'atiga qanday yangiliklar qo'shdi, uning san'atining o'ziga xos xususiyatlari nimada? - degan savollar tug'ilardi.

T.To'xtaxo'jayev murakkab motivlardagi naqsh kompozitsiyasini tuza olgan. Ustaning oltinsimon-jigarrang gamma o'zbek naqshini rivojlantirishda qo'yilgan yangi bir qadam bo'ldi (Xontaxta. Naqqosh T.To'xtaxo'jayev bajar-gan.). O'sha davrga qadar bu sohada yashil rang asosiy o'rinni egallab kelar edi, lekin usta jigarrang bilan bronzani aralashtirib yangi palitra yaratdi. Bu yaratilgan gamma chirroyli va nafis bo'lib chiqdi va bu yangi palitrani boshqa ustalar ham darhol o'zlashtirdilar. Bir xil tanlangan rang gammasi naqshinkor mebellar, dub, qora qayin va boshqa yog'ochlardan yasalgan uy buyumlariga juda uyg'unlashib ketar edi. Ma'lumki, naqqosh ustalar bezashda avval yashil moviy ranglardan foydalangan. T.To'xtaxo'jayev bu ranglarni ijodiy o'rganib, arxitekturada iliq ranglar bilan bezash mumkinligini amalda isbotlab berdi. Chunonchi uning yaratgan asarlari hozirda O'zbekiston san'ati muzeyida va xalq amaliy san'ati muzeylarida 8 qirrali kursi, xontaxta, yodgorlik buyumlari, zeb-ziynatlar saqlanadigan qutichalar

va boshqa badiiy buyumlar misol bo‘la oladi. Bu asarlar muzeylarimizning doimiy ekspozitsiyasiga aylanib qolgan. Ustaning oltinsimon jigarrang naqshlar bilan bezalgan xalq amaliy san’ati buyumlarini faqat O‘zbekiston dagina emas balki chet ellarda xarid qiluvchilarning ham diqqatini o‘ziga tortgan. T.To‘xtaxo‘jayev rang-barang naqshlar bilan bezatilgan Leyptsigdagi xalq amaliy san’ati buyumlari xalqaro yarmarkada ham namoyish etildi. Xalq ustasi jumhuriyat Butunittifoq va chet el ko‘rgazmalarida qatnashib (Chexoslovakiyada, Amerikada, Kanada, GDR) faxriy yorliq, medallar va har xil mukofotlar bilan taqdirlangan. T.To‘xtaxo‘jayev naqshlar orasida manzarali va tematik rasmlar ishlab o‘ziga xos uyg‘unlikni jonli chiziqlar va ranglar jilosi bilan borliqni his etib kuyladi. Uning naqshlangan xalq amaliy san’ati buyumlari hozirda kishilarimizning turmushini bezab turibdi. U an’anaviy milliy naqshlarga yangi elementlar kiritib, san’at kalitini egalladi. Toyir To‘xtaxo‘jayev og‘ir kasalligi tufayli ancha yosh olamdan o‘tdi. O‘zbekiston xalq rassomi, davlat mukofotining laureati ganch o‘ymakor usta Mahmud Usmonov o‘zining «San’atim-saodatim» degan risolasida Toyir To‘xtaxo‘jayevni shunday xotirlaydi: «... ajoyib naqqosh Toyir To‘xtaxo‘jayev bilan ko‘pgina ijodiy davralarda va musobaqalarda birga bo‘ldik. Toyirjon kamgap, kamsuqum, doimo o‘z ishi bilan band, mehnatkash edi»—deydi. Haqiqatdan ham T.To‘xtaxo‘jayev sharq xalqlari madaniyatiga o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ san’atkorning ko‘plab shogirdlari bugungi kunda yoshlarga qadimiy san’at sirlarini an’ana tariqasida butun bilim va mahoratlarini o‘rganmoqdalar.

O‘zimizga ma’lumki, o‘tmishda o‘z ilmini meros qilib qoldirib ketmagan, aniqrog‘i, shogirdlar yetishtirmagan ustani haqiqiy ustoz hisoblashmagan. Hozirda ustaning ishlarini an’ana tariqasida davom ettirayotgan talantli shogirdlari Abdulla Abdurahmonov, Q.Qosimov, X.Ishoqjonov, I.Mamadaliyev, K.Norqo‘ziyev, N.Husanov, S.Shukurov va boshqalar respublikamizning turli joylarida ijod qilib

yoshlarga bilim va mahoratlarini o'rgatmoqdalar. Shuning uchun ham xalqimiz «Yaxshi san'atkor ikki umrga ega» deb bejiz aytishmagan.

O'zbek naqqoshlik maktabini rivojlanitirishda samarali hissa qo'shgan Olimjon Qosimovning talantli shogirdi naqqoshlik bo'yicha o'ziga xos maktab yaratgan, juda ko'p shogirdlar tayyorlagan xalq ustalaridan biri – O'zbekiston xalq rassomi Jalil Hakimovdir.

Jalil Hakimov 1920-yili Toshkentda usta oilasida dunyoga keldi. U yoshlik chog'larida otasi bezayotgan patnis, idish-tovoqlar va boshqa narsalarga gul solishini soatlab kuzatib o'tirar edi, uni qandaydir sehrli kuch o'ziga tortar edi. Asta-sekin yosh Jalilda xalq amaliy san'ati turlariga, ayniqsa, naqqoshlikka bo'lgan havasi yanada oshib bordi. U asta-sekin qog'ozlarga har xil naqsh elementlarini chizishni o'rganar, otasi esa unga yordam berar edi. Yillar o'tishi bilan unda naqqosh usta bo'lish orzusi tug'ildi. O'sha vaqtida Toshkentda 1934-yili badiiy o'quv ishlab chiqarish kombinati ochildi. Bu kombinatda o'zbek xalq amaliy san'atining naqqoshlik, ganchkorlik, kulolchilik va boshqa turlari bo'la-jak xalq ustalariga o'rgatila boshlandi. Jalil hali maktabni tutgatmagan edi. Nihoyat, 1935-yili maktabni tamomlab shu kombinatning naqqoshlik bo'limiga o'qishga kirdi. Kombinatga o'sha yillarda jumhuriyatimizda ko'zga ko'ringan xalq ustalari usta Shirin Murodov, Olimjon Qosimjonov, Mahmud Usmonov, Toshpo'lat Arslonqulov va boshqalar xalq amaliy san'ati sirlarini yoshlarga o'rgatishga taklif qilingan edi. Jalil eng ko'zga ko'ringan katta ustalardan biri Olimjon Qosimjonov (1878-1952) qo'lida naqsh sirlarini o'rgana boshladи. Bu yosh bo'lg'uvchi usta Jalil uchun katta baxt edi. Chunki ustoz ularga faqat naqqoshlik sirlarini o'rgatib qolmay, balki ta'lim tarbiya berishda muhim rol o'ynadi. Keyinchalik ustoz Jalilga eng nozik va mas'uliyatli vazifalarni ham ikkilanmay topshiradigan bo'ldi. Ustozi Olimjon Qosimjonovni juda hurmat qilar, uning chizayotgan yoki bo'yayotgan har bir ishini butun

vujudi bilan berilib o‘rganar edi. Ustoz shogirdini kelajakda katta usta bo‘lishiga to‘liq ishonar edi.

1938-yili Jalil Hakimov badiiy kombinatni tugatib, naqsh sirlarini yanada chuqur bilish uchun Toshkentdagi kulolchilik zavodiga ishga kirdi. U yerda ko‘pgina xalq amaliy san’ati ustalari bilan yaqindan tanishib, ijodiga ijod qo‘sildi. Shu yili Moskvadagi butunittifoq qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasining o‘zbek pavilonini bezashda qatnashdi. U yerda Olimjon Qosimjonov, M.Usmonov, Yoqubjon Rappov, Toyir To‘xtaxo‘jayev va boshqalar ham bor edi. Ustalar bilan butunittifoq ko‘rgazmasining «O‘zbekiston» pavilonini naqsh bilan bezab shuhrat qozondilar. O‘sha yillari Jalil Hakimov rassomlar uyushmasiga a’zo bo‘ldi.

Jalil Hakimov mustaqil ravishda katta-katta jamoat uylarini naqshlar bilan bezashda qatnashdi. Ota-bobolarimizni qadimdan yaratib kelgan naqshlarini qayta tiklashda ham qatnashdi va ularga qayta jon baxshida etdi. Bu esa ustaning qadimiy asarlarni yanada chuqur o‘rganishga yordam berdi. V asr san’at sirlarini kelajak avlodga yetkazish maqsadida mакtab qoshida naqqoshlik to‘garagi tashkil etib, yoshlarga o‘z hunar sirlarini o‘rgatdi. Mohir pedagog o‘quvchilarga xalq amaliy san’atiga bo‘lgan qiziqishini, hunar o‘rgatishda, ularning hayotdagi va voqe’likka bo‘lgan estetik munosabatini hamda shu san’at asarlarini o‘z qo‘llari bilan yarata olishga o‘rgatdi. Usta tabiatdagi gul, bog‘u-bo‘stonlarni, g‘am-g‘ussani, tinchlikni, hayotdagi go‘zallikni naqsh tili orqali gapirish alifbesini o‘rgatdi. Naqsh elementlarini har birining o‘ziga xos ramziy mazmunga ega ekanligini, ularni qalamda yengil, erkin, ravon va har bir chiziq jonli chiqishini talab qildi. Ranglarni bir-biriga monand olishni, havo perspektivalarga amal qilishni yoshlarga uqtirdi. Har bir naqshning tabiiy chiqishiga chaqirdi, chunki har bir naqsh elementi jonli tabiatdan olinganligini ko‘rsatib o‘rgatdi. Ijodkor tinimsiz mehnati va yana mehnat qilishi kerakligini uqtirdi.

1948-yili Toshkentdagi N.Ostrovskiy nomli o‘quvchilar saroyida naqqoshlikdan to‘garak olib bordi. U yoshlardan o‘z tajriba va bilimini ayamadi.

1951-yili P. Benkov nomidagi respublika rassomlik bilim yurtiga Jalil Hakimov taklif etildi. U yerda ko‘pgina talantli shogirdlar O‘zbekiston xalq maorifi a’lochisi M.To‘rayev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arboblari K.Karimov, A.Ilhomov va boshqalarni tayyorladi. Keyinchalik o‘z shogirdlari bilan o‘quvchilar saroyini (avalgi binosini). Bekoboddagi madaniyat uyini, xiyobonning «Ko‘k gumbaz»li choyxonasi, Samarqanddagi «Yulduz» restorani, Oqqo‘rg‘ondagi «Shon-shuhrat» muzeyi, Toshkent vokzali, Donetskdagи «O‘zbekiston» kafesi, Toshkentdagi «Guliston» restorani va boshqa binolarni ajoyib jonli chiziqlar, jozibador ranglar, inson ruhiyatini ko‘taruvchi naqshlar bilan bezadi. Bu yaratgan naqshlarning har biri o‘ziga xos mazmun, ruhiyatga va voqe’likka ega. Ularning har birini tahlil qilish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Naqsh tilini bilish uchun kishi badiiy ma’lumotli bo‘lishi kerak.

Ustaning har bir naqshlariga e’tibor bersangiz naqsh chiziqlarining ravonligi, bir-biriga nisbatini va ularda uyg‘unlikni sezadi kishi. Ularga qarab tabiatdagi borliqni, ya’ni yer, osmon, bog‘u-bo‘ston, qir-adirlarni, daryo va o‘rmonzorlarni, gulzorlarni, raqqosalarning badiiy ritmik o‘yinini, qomatini sezadi hamda rangi orqali musiqa sadolarini unsiz ovozi eshitiladi. Beixtiyor naqshlardagi go‘zallikni ko‘rib, kishi ruhi ko‘tariladi. Insonning bu san’at asarlari orqali hayotga bo‘lgan muhabbati yanada oshadi, o‘z ishiga yangi kuch g‘ayrat, ruhiy ozuqa olib olg‘a qadam bosadi. Akademik Usta Shirin Murodov aytganidek: «Naqsh kirgan uyga g‘am-anduh kirmaydi», degan gapida juda katta kuch va ruhiy ozuqa yotadi. Shuning uchun ham qadimdan ota-bobolarimiz erta bahor faslida qir-adirlarga saylga chiqishni an’ana tariqasida davom ettirib kelyapti. Tabiblar ruhiy kasalga chalingan kishilarni shunday saylga chiqishini

tavsiya qiladilar. Chunki tabiatdagi va naqshdagi go‘zalliklar ruhiy tushkunlikka tushgan kishilarni qayta davolaydi. Bularning hammasi ota-bobolarimizni qanchalik nozik tabiatli, yuqori madaniyatli bo‘lganidan darak beradi. Jalil Hakimov ham kishilar ruhini tarbiyalovchi shifokordir. Ustozi Olimjon Qosimjonovning palitrasи 9-12 xil rangda edi. T.To‘xtaxo‘jayev ko‘pincha syujetli rasmlar, portret, manzaralarni oltinsimon jigarrang koloritda bajargan. J.Hakimovning naqshlariga e’tibor berib kuzatsak, undagi naqshlar elementlarga boyligi, aniq, ravonligi, yorqin yashil rangli koloritda bo‘lishi bilan boshqa ustalardan farq qiladi. Ayniqsa, geometrik naqshlarning yechimini puxta bilgani uchun u ko‘pincha gulli girihi juda ko‘p ishlar edi. Geometrik naqshni yaxshi bilgan ustani qadimdan katta usta deb ataganlar. Uning yaratgan naqshlarining yana ijobiy tomonlaridan biri nimaga va qayerga naqsh ishlamasin, u uzoqdan ham yaqindan ham juda yaxshi ko‘rinadi. Bu esa ustanning qanchalik naqqoshlik sir-asrorlarini chuqur bilganini ko‘rsatib turibdi. Jalil Hakimov har qanday nozik hamda murakkab bezaklarni osonlik bilan bajardi, yangi mutanosiblikka, zarb izchilligiga qat’iy rioya qildi. U o‘zbek milliy naqqoshlik san’ati an’analarni puxta egallagan, uni samarali davom ettirgan san’atkordir. San’atkor o‘z kasbini astoydil mehr bilan ishlaydigan usta edi. Jalil Hakimovning bo‘yab bezagan xontaxta, kursi, quticha va boshqa san’at asarlari Monrealda, Chexoslovakiya, Ruminiya, Bolgariya, Vengriya, GDR, Hindiston va boshqa xorijiy ellarda yuqori baholnadi. Uning asarlari o‘z amaliy san’at asarlari doimiy ko‘rgazmasida saqlanmoqda. Ustaning ijodi Sharq an’analari ruhida rivojlandi, tarixda o‘lmas iz qoldirdi. Uning yaratgan asarlari kishini go‘zallik olamiga olib kiradi hamda bizga shodlik ruhiyatini baxsh etib kelmoqda.

Anvar Ilhomov (1946.20.8 –Toshkent) – naqqosh, 1980-yildan Rassomlar uyushmasini a’zosi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1983). N.Ostrovskiy nomli

Toshkent shahar o‘quvchilar uyidagi naqqoshlik to‘garagiga qatnashgan, naqqosh Mahmud To‘rayevdan ta’lim olgan (1958-62). Toshkentdagi P.Benkov nomidagi jumhuriyat badiiy bilim yurtida naqqoshlik bo‘limida ta’lim olgan. U yerda o‘z xalq rassomi J.Hakimovdan ta’lim olgan, ToshPIning arxitektura fakultetini tugatgan (1967-73). 1968-yili Samarqandda ustakalon Yoqubjon Raupov va Jalil Hakimov boshchiligidagi ko‘pgina jamoat binolarini bezagan. Toshkent loyihalash institutida (ToshGenplan) arxitektor bo‘lib ishlagan (1968-73). Eksperimental kulolchilik kombinati qoshidagi K.Karimov brigadasida naqqosh bo‘lib ishlagan (1967-77). 1977-yildan boshlab O‘zbekiston Rassomlar uyushmasini badiiy fondi qoshidagi xalq san’ati ustalari Birlashmasidagi (Usto) naqqosh Jalil Hakimov brigadasida ishlagan (1977-80). 1980-yildan beri naqqoshlik brigadasiga boshchilik qilib kelmoqda. A.Ilhomov Ustozi Jalil Hakimovning mакtabini, ya’ni Toshkent mакtabini davomchisi. Qog‘oz, yog‘och, ganchga bo‘yab naqsh ishlash san’atini egallab shuhrat qozonib kelmoqda. Uning naqqoshlik san’atiga kiritgan yangiligi shundan iboratki, u hozirgi zamonaviy binolarga o‘zbek an’anaviy milliy naqshini bog‘lay oldi. Kompozitsiyada ranglarni esa asta-sekin bir-biridan yumshoq bog‘lab o‘tishini ta’minladi. Qotib qolgan O‘zbek xalq amaliy san’atida naqqoshlikdagi kundal texnikasini rivojlantirishda katta hissa qo‘shti. Hozirda zamonaviy uylarni kulolchilik, naqqoshlik, ganchkorlik bilan bezashning o‘rtasidagi uyg‘unlikni topa olib o‘z mahoratini namoyish qilmoqda. A.Ilhomov Toshkentdagi Xalqlar Do‘stligi saroyining banket zalini (1980), Toshkent shahridagi «Dilorom» kafesi (1980), To‘qimachilik saroyi (1987), Perm viloyati Chusovoy shahridagi madaniyat saroyi (1978), Toshkentdagi «Yulduz» kafesi (1985), «Sirdaryo» kafesi (1986), Guliston shahridagi Drama teatrini (1985) naqshlar bilan bo‘yab bezagan. A. Ilhomovning yuksak mahoratlarini namoyish etdi. U Husanov Tohir, Hakimov Sodiq, Shoyoqbov Rustambek kabi juda ko‘p shogirdlar tayyorladi.

Shukurov Sobirjon (1947.16.4-Toshkent-2003.18.11)-naqqosh. O‘zbekiston xalq Ustasi (2003). Benkov nomidagi respublika rassomchilik bilim yurtini (1967), Toshkent Politexnika instituti me’morchilik fakul’tetini (1976) tugatgan. 1980-yildan respublika maxsus ijodiy ishlab-chiqarish “Usto” uyushmasida faoliyat ko‘rsatgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi binolarini, Samarqanddagi Imom al-Buxoriy majmuini va Buxoro viloyatidagi majmualarni naqqoshlikning qadimiy milliy uslubida bezashda muayyan hissa qo‘shtigan. “Shuxrat” medali bilan mukofotlangan (1997).

Qosimjonov Olimjon (1978-1952) -naqqosh usta, Toshkent naqqoshligining yirik vakili. Hunarni usta Sherali-xo‘ja Hasanovdan o‘rgangan Ustozi bilan birga ishlab u knyaz’ Romanov saroyi (hozirgi Tashqi ishlar vazirligi qabulxonasi), A.Polovtsev uyi (hozirgi Amaliy san’at muzeyi)ni bezashda qatnashgan 1920-yillardan ko‘pgina jamoat binalari (ayniqsa, 1923-yil butunitifoq qishloq xo‘jaligi va hunarmandlik ko‘rgazmasi; 1938-yil butunitifoq qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasining O‘zbekiston pavil’oni va boshqalar)ni bezagan. Qosimjonov Olimjon naqsh mujassamotlarida ranglar uyg‘unligidan mahorat bilan foydalanib jozibador bezaklar yaratgan u bezagan xontaxta, kursi kabi badiiy buyumlar respublika va chet mamlakatlar muzeylarida saqlanadi.

Karimov Abdug‘ani Nabihevich (1954.24.4, Toshkent)-naqqosh, O‘zbekiston xalq Ustasi (2005). Benkov nomidagi respublika rassomlik bilim yurtini (1973) va Toshkent pedagogika institutini (1979) tugatgan. O‘rta maktabda o‘qituvchi (1979-83), «Rassom» kombinatida bezakchi rassom (1984-92), «Usto» birlashmasida naqqoshlik brigadasi boshlig‘i (1992-94). «Turkiston» kontsert zali (1994), Temuriylar tarixi davlat muzeyi (1996), Oliy majlis binosi (1997), Oqsaroy (1999), Hindistondagi O‘zbekiston elchixonasi (2000), O‘zbekiston milliy teatri (2001), Toshkentdagi

«Shaxidlar xotirasi» muzeyi va boshqa yirik inshootlarning badiiy bezagini ishlashda ishtirok etgan.

G’afurov Ashir (1876-1941) gach o‘ymakori, naqqosh. G’afurov Ashir ijodida islimiy naqsh, choka pardozni keng qo‘llagan, zaminni chekma usulida bezagan. Dilali va o‘yма eshik hamda darvozalar ustasi sifatida tanilgan. O‘zbekiston xalq xo‘jaligi ko‘rgazmasi (hoz. Badiiy ko‘rgazmalar direksiysi binosi)ga 2 tabaqali eshikni tayyorlashda qatnashgan, eshik dilalari va atrofidagi hoshiya naqshlarni ishlagan (naqshlari orasida imzosi bor).

143-рasm. «Гули наво» нақши
Рис. 143. Узор «гули наво»




26-rasm. Toshkent naqqoshlik maktabi
naqsh loyihalaridan namuna (naqqosh M.To‘rayev)



27-rasm. «Tokcha namoyon» naqsh loyihasi (naqqosh M.To‘rayev)



28-rasm. Aylanma «Shobargli islimi» naqsh kompozitsiyasi (naqqosh M.To‘rayev)




29-rasm. «Kitoba» naqsh loyihasi (naqqosh M.To‘rayev)


XIVA NAQQOSHLIK MAKTABI

Xiva naqshi Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Buxoro naqshidan tubdan farq qiladi. Rangiga kelsak, naqshlarning umumiyligi rangi ko'pincha havorang koloritda ishlanadi. Ranglar kam ishlatilsada, o'ziga xos ko'r kamlikka ega (37-rasm). Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar juda ko'p ishlatiladi. Xorazm naqshlari butun yuzani geometrik naqshlar bilan to'ldirib moviy va yashil bo'yoq berishni yaxshi ko'rganlar. Kompozitsiyada naqshlarning tuzilishiga qaraganda, asosan novda spiralsimon aylanib-aylanib murakkab naqshlar hosil qiladi. Islimiyligi naqsh kompozitsiyadan tnovda, marg'ula, shukufda va nuxotgul, oddiy oyguldan tashkil topadi. Bu islimiyligi naqshlar boshqa shaharlardagi naqqoshlik maktablarida asosan naqshlarning dinamikaviyiligi bilan farq qiladi. Ko'pincha yulduz hosil qiluvchi girihsiz ishlatilib, orasiga spiralsimon islimiyligi naqsh ishlatiladi. Samarqand choyxonasi. Naqqosh A. Ilhomov Xiva naqshlari umuman madoxili naqshlar asosida tuziladi.

Keyin esa islimiyligi naqsh spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqqoshchilik maktabining namoyandalari Abdulla Boltayev, Ro'zimat Masharipov, Odamboy Yoqubov, Eshmurad Sapayev va boshqalar. Xorazm naqshi.

30-rasm Xiva naqqoshlik maktabi. Tosh hovli saroyi





31-rasm. Muhammad Rahimxon madrasasi peshtoqidagi naqshlar

BUXORO NAQQOSHLIK MAK TABI

Buxoro naqshi hamma naqshlardan naqsh kompozitsiyalarining murakkabligi, mukammalligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlarida murakkab girihsar aniq, puxta o'lchamda ishlatalishi o'simliksimon naqshlarning o'ziga xos san'at bilan ishlangani naqshlarning yaproq, meva, gul barglar ritmiga alohida e'tibor berilishi bilan farqlanadi.

Ahmad Donish Mahdum ibn Nosir (taxallusi Kalla; 1826-Buxoro-1897)-yozuvchi, rassom, xattot, olim, ma'rifatparvar. XIX-asrda Buxoro taraqqiyatparvar muhitining yuzaga kelishida muhim o'rinni tutgan. Tojik tilida ijod qilgan. Mudarris oilasida tug'ilgan. Ahmad Donish boshlanqich savodni onasidan olgan, so'ng mакtabda, madrasada tahsil ko'rgan. Adabiyot, tarix, falsafa, tibbiyat, matematika, astronomiya ilmini mustaqil o'rgangan. Xattotlik rassomlik va naqqoshlikni yaxshi bilgan, munajjimlikdan yaxshi xabardorligi bilan Nasrullaxon nazariga tushgan. 1857, 1869, 1873 yillarda Buxoro amiri elchilarining mirzasi bo'lib, Rossiya (Peterburg)ga borgan. Safar taassurotlari asosida «Navodirqoe» («Nodir voqealar») va «Tarjimai ahvoli amironi Buxoro» («Buxoro amirlarining tarjimai hollari») kabi asarlar yozgan. Ularda amirlik tuzumini isloq qilish masalasini ko'targan. Ahmad Donish Muzaffar taklifi bilan «Manozir Ul-kavokib» («Sayyoralarning joylashishlari») nomli astronomiya (ilmi nujum)ga oid kitob yozgan (1865). 1870-73-yillarda islohat haqida «Risolai dar nazmi tamaddun va taovun» («Madaniyat va jamiyat tartibi haqida risola») asarini yaratgan. Biroq undagi fikrlar amirga yoqmagan va uni saroydan uzoqlashtirgan (1874). Ahmad Donish ma'lum muddat Buxoro tumanlarida qozi lavozimida ishlagan. Amir Muzaffar vafotidan so'ng Buxoroga qaytgan, madrasalardan birida mudarrislik qilgan.

Ahmad Donish «Nodir voqealar» asarida fan, texnika yangiliklari, tabiat hodisalari, geografiya, insonning uzoq


umr ko‘rishi, koinotning kelib chiqishi, Oy va Quyosh tutilishi, zilzila haqida fikr yuritgan, Yevropa ilm-fanini o‘rganishga da’vat etgan. «Risolai tarixiy» nomi bilan mashhur bo‘lgan «Ta’rxi saltanati xonadoni manqitiya» asarida manqitlar sulolasining 100 yillik hukmronligi tahlil va tadqiq qilingan.

Ahmad Donish chizgan ayrim rasmlar saqlangan. «Maktab» nomli miniatyurasida xotin-qizlarni o‘qitish g‘oyasi ilgari surilgan. XV-asr miniatyura san’ati uslubida chizilgan «Shoir va darvesh» miniatyurasi, «Majnun sahroda» nomli 2-miniatyurasi, bangining hajviy rasmi, o‘zi ko‘chirgan va bezagan Bedil asarlari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, Sharqshunoslik instituti va O‘zbekiston davlat san’at muzeyida saqlanadi. Toshkentdagi ko‘chalardan biriga Ahmad Donish nomi berilgan.

Hafizov Nabi (Usta Nabi Hafizov, 1893-Buxoro-1959)-naqqosh va musavvir, birinchi o‘zbek plakatchisi. Buxorodagi binolarni naqshlar bilan bezagan. Usta Nabi Hafizov rassomlik bilan ham shuqullangan, zamonaviy mavzularni tasvirlashda miniatyura san’ati an’analarini keng qo‘lladi. Matbuotda faol ishtirok etdi, plakatlar yaratdi. Tosh bosma usulida chop etilgan plakatlarida qoya va mazmun sodda, tushunarli hamda ommabop qilib ifodalangan. Usta Nabi Hafizov plakatlaridan namunalar Buxoro viloyat o‘lka-shunoslik muzeyida saqlanadi.



32-rasm. Buxoro XIX asr. Turar joyga bajargan namoyon kompozitsiyasi



33-rasm. Buxorodagi Abdulazizzon madrasasiga gul giri namoyon kompozitsiyasi. XIX asr.




34- rasm. O'yma bezakli eshik.

SAMARQAND NAQQOSHLIK MAK TABI

Samarqand naqshlari Toshkent, Farg‘ona naqshlariga o‘xshab ketadi. Samarqand naqshlari o‘ta guldorligi, barg va gullarining badiiy harakatchanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Unda murakkab girihsalar bilan aniq bir ritmik takrorlanuv-chan naqshlar kompozitsiyasi Toshkent naqshlariga o‘xshash. Avval zangori rang gammasida ko‘p naqsh bajarilgan bo‘lsa, hozir esa yashil rang gammasida ko‘proq naqshlar bajariladi. Samarqand naqqoshlik maktabini yaratishda «usta Rahmonxol, usta Jamoliddin (Mirjamol), usta Mahmud, usta Abdujabbor, usta Abduzohid, usta Sharif, usta Aminjon, usta Baqo» keyinchalik usta Jalol va Bolta Jalilov-lar kabi naqqoshlar asos soldilar va beba ho hissalarini qo‘shdilar.


USTA ABDUZO HID – (taxminan 1852-1917) - Samarqandlik naqqosh, mohir va chaqonligi bilan shuhrat qozongan. usta Abduzohid shogirdlari usta Baqo, usta Abdug‘anilar bilan birga ishlagan: Abdu Darun majmuasidagi yangi ayvon (1908), Shoxizinda masjidi ayvoni (1908-1910), Boqi Baland masjidi (1910), Mahmud Xorazmiy masjidi asosiy ishlaridan.




35-rasm. Samarqand hovli mehmonxonasi



36-rasm. Samarqand Shohi Zinda ansamblisi.



37-rasm. Samarqand Shohi Zinda ansamblı.



38-rasm. Samarqand Shodimulk og‘a maqbarasi peshtoqi.



39-rasm. Sher dor madrasasiga ishlangan namoyon kompozitsiyasi
XVII asr.



40-rasm. Samarqand XIX asr. Turar joyga bajargan namoyon kompozitsiyasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Naqqoshlik mакtablarining bir-biridan farqi haqida nimalarni bilasiz?
2. Abdulla Boltayev qaysi naqqoshlik mакtabi namoyandasiz?
3. Jalil Hakimov qaysi naqqoshlik mакtabi namoyandasiz?
4. Olimjon Qosimjonov hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?
5. Toyir To‘xtaxo‘jayev hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?
6. Samarqand naqqoshlik mакtabi va uning namoyandalari haqida nimalar bilasiz?
7. Buxoro naqqoshlik mакtabi haqida nimalar bilasiz?
8. Xiva naqqoshlik mакtabi va uning namoyondalari haqida nimalar bilasiz?
9. Farg‘ona naqqoshlik mакtabi haqida nimalar bilasiz?
10. Toshkent naqqoshlik mакtabi va uning namoyandalari haqida nimalar bilasiz?
11. Temuriylar davrida naqqoshlik san’atining rivojlanishi haqida nimalar bilasiz?
12. Girih usulida naqsh kompozitsiyalari ishlaydigan ustalardan kimlarni bilasiz?
13. Xiva naqsh kompozitsiyasi Toshkent naqsh kompozitsiyasidan nimasi bilan farqlanadi?
14. Hozirgi zamon naqqosh ustalaridan kimlarini bilasiz?
15. Farg‘ona naqshlari boshqa naqqoshlik mакtablari dan nimalari bilan farq qiladi?

V BOB. RAMZIY NAQSHLARNING ALIFBOSI. NAQSHLARDA KUYLANGAN ORZU¹

Ma’nosiz so‘z bo‘lmanidek, ma’nosiz naqsh ham yo‘q. Hatto ibtidoiy davr odamlarining qoya toshlarga chizgan rasmlari ham muayyan ma’noni anglatgan. Ularning aksariyatida yovvoyi hayvonlarni ovlash, qo‘lga o‘rgatish jaryonlari tasvirlangan. O‘rtalik Osiyoda islom dini joriy etilguniga qadar monumental tasviriy san’at yuksak rivoj topgan. Bunga Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa kabi obidalardagi syujetli pannolar guvoh bo‘la oladi. Ularda elchilarining sovg‘a-salom bilan tashrif buyurishayotgani, mehmondorchilik qizigan payt, ov jarayoni kabi xilma-xil mavzular o‘zining aniq ifodasini topgan. Islom dini joriy etilganidan so‘ng tasviriy san’at o‘rnini, asoson, ornamental, ya’ni o‘simpliksimon, geometrik naqshlar egallaydi. Bunday naqshlar qadimdan monumental tasviriy san’at bilan bir qatorda ishlatib kelingan bo‘lib, ularning ham ramziy ma’nosini bo‘lgan. Rang-barang o‘simpliksimon va geometrik naqshlar o‘zaro kompozitsion bog‘lanib, g‘oyaviy ma’no jihatidan serjilo, sermazmun yaxlit pannoni tashkil etgan. Quyida bir necha turdagи naqshlarning ramziy ma’nolari ustida fikr yuritamiz.

Qadimda odamlar Quyosh, Oy, yulduz suv va olovga sig‘inishgan. Jumladan, Xorazmda bemorga kechqurun tomga qo‘yilgan qatiqni, Hindistonda esa kasalga kumush idishdagi suvga oy aksini tushirib ichirishgan. Qadimgi misrliklar Quyoshdan kuch olish uchun qo‘llarini quyoshga qaratib ko‘tarishgan. Yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha, Massagetlar shohi To‘maris «massagetlar hukmronligi quyoshi bilan qasam ichaman», der ekan.

Binobarin, qadim zamonlarda odamlar tabiatdan, sayyoralar kuchidan madad kutishgan, ularga sig‘inishgan, ularga atab ibodatxonalar qurishgan.

¹ Nozilov Dodo. Naqshlarda kuylangan orzu. Fan va turmush jurnali 1981, 12 soni 4-5 betlar.

X asr tarixchisi Ma'sudiyning yozishicha, ibodatxonalar ramziy shakl va ranglarga ega bo'lgan. Chunonchi, Sobiylar ibodatxonasi aylana shaklida; Saturn – qora toshdan olti qirrali tarzda ishlanib, unga qo'rg'oshindan but qo'yilgan; Yupiter – yashil rangli piramida; Mars – qizil toshdan uzunchoq to'rtburchak shaklida; Quyosh sariq toshdan kvadrat shaklida ishlangan bo'lib, unga tilla but qo'yilgan; Venera – kvadrat ichiga havorang toshdan uchburchak tarzida ishlangan bo'lib, u oq butga ega; Merkuriy – uzunchoq to'rtburchak ichiga ko'k rangli toshdan uchburchak shaklida ishlangan; Oy – kumushrang sakkiz burchak tarzida ishlangan va unga kumush but qo'yilgan.

Demak, olti qirrali naqsh – Saturn, piramida tarzidagi naqsh – Yupiter, uzunchoq to'rtburchak shaklidagi naqsh – Mars, kvadratsimon naqsh – Quyosh, kvadrat ichida o'rnatilgan uchburchak naqsh – Venera, uzunchoq to'rtburchak ichiga o'rnatilgan naqsh – Merkuriy, sakkiz burchakli naqsh – Oy ramzini ifodalagan ekan.

Uzoq o'tmishda har bir xalqda kvadrat shakli – dunyoning to'rt tomoni, osmon saroy, quyosh farzandi, abadiylik, yorug'lik ma'nolarini bildirgan. Hind va Eron xalqlari dostonlarida tasvirlanishicha, Vishvakarmon o'g'li Vivasmanga to'rt tomoni bir xil osmon saroy quradi. Bu yarqiragan saroyda na qarish, na baxtsizlik, na ochlik, na tashnalik va na biron ko'ngilsizlik bo'lar emish.

Abulqosim Firdavsiy ham o'zining «Shoxnoma» asarida Siyovushning qurgan Gang qal'asi - Siyovushgird shahrini kvadrat tarzda tasvirlaydi:

Forsiy o'lchov bilan o'lchasang agar,
O'ttiz karra o'ttiz enu bo'y kelar.

Shuningdek, bu shaharni behisht deb ta'riflaydi:

Unda unutilgan betoblik so'zi,
Bu bo'ston shaharmas, behishtning o'zi.

Firdavsiy mazkur shahar tasvirini keltirishda qadimiy dostonlarga ham murojaat qilganini sezamiz.

Xorazmdagi imoratlar peshtoqiga qadimda aylana shaklida naqshlar o‘yilgan. Naql qilishlaricha, yovuz niyatli odamning bunday naqshga ko‘zi tushsa niyatidan qaytar emish. Ayrim xalqlarda esa aylana naqsh – vafodorlik, kvadrat – do‘stlik, yarim aylana – baxt ramzini anglatgan. Hozirgi O‘zbekiston va Tojikistonning ko‘pgina qishloqlarida ilgari navro‘z bayrami kuni uy devorlariga aylana naqshlar chizishgan. Bunday naqshlar Quyoshga bag‘ishlangan bayramni nishonlashni ifodalagan. Yuqoridagi dalillar xalq badiiy bezagida o‘rin olgan aylana, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak naqshlari tabiat omillari ramzi bo‘lib, ular vafodorlik, baxt, umr, insoniyliek belgilari ramzini anglatganligidan dalolat beradi.

Salib shaklidagi naqsh O‘rta Osiyoda juda qadim zamonlardan buyon mavjud. Oltintepadagi bronza davriga oid salib shaklidagi tamg‘alar, X-XI asrlarga oid Afrosiyob devoriy pannolari fikrimiz dalilidir. Salib shaklidagi naqshni xalqlar turli davrlarda tabiatning paydo bo‘lishi tushunchasi, Quyosh ramzi, o‘lish va tirilish hamda diniy aqidalar belgisi, deb bilishgan.

Chechen-ingushlarda esa mehmon ketishidan oldin mezbon eshigiga do‘stlik ramzi sifatida salib naqshli o‘z tamg‘asini o‘yib ketar ekan. Mo‘g‘ullarda murakkablash-tirilgan salib tasviri «o‘n ming yillik baxt» ma’nosini anglatgan. O‘tovga kiraverish peshtoqidagi naqsh «hech qachon bu uyning chirog‘i o‘chmasin», degan ma’noni anglatgan.

Romb shaklidagi naqshni O‘rta Osiyo ornamental tasviriy san’atida ko‘p uchratish mumkin. Olimlarning ta’kidlashicha, romb ilk tosh davridan boshlaboq ayol, ya’ni ona yer belgisi hisoblangan. Ayol-nasl, yer esa hosil beradi. Yer ning hosildor bo‘lishi uchun dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi qabilalarda turli marosim o‘tkazilgan. Jumladan, Yangi Gvineya, Janubi-sharqiy Osiyo, Afrika, Avstraliyaning

dehqonchilik bilan mashg‘ul qabilalarida ekish oldidan ekin ekiladigan dalada har xil marosim o‘tkazilib, bunday marosimlarda serfarzand va egizak tuqqan ayollarga alohida e’tibor berilgan. Shuning uchun romb serfarzandlik, serhosillik ramzi sifatida e’zozlangan.

Arxeologlar Oltintepadan topgan haykalchalar taraqqiy etgan bronza davriga oid bo‘lib, ularning pastki qismi uchburchak shaklidagi kontur bilan belgilangan. Uchburchaklar ichki nuqtada, mayda chiziqcha, uzun ko‘ndalang to‘g‘ri chiziqlar bilan to‘ldirilgan. Mutaxassislar mazkur uchburchaklarni ma’budaning qat’iy qabul qilingan inografik tasviri, deb ta’kidlashadi.

Bu o‘rinda shuni aytish kerakki, ustunning ko‘zagi qismi yaqin Sharqda nasliylik ramzi hisoblangan. Ustunning ko‘zagi qismini va tanasini gul va islimiylar bilan to‘ldirib o‘ymakorlik qilish yuqorida aytib o‘tilgan urf-odat, ya’ni ustunni gul bilan bezash asosida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Binobarin, X asr shoiri Kisaiy Marvaziy aytganidek,

Gul jannatdan hadya bir ne’mat erur,
Kishilar ko‘ngliga guldan yodgor nur.

Manbalarda keltirilishicha, Merkuriyga bag‘ishlangan sobiylar ibodatxonasi devorlariga yashil shoxcha ushlab turgan yosh xushbichim yigitlarni tasviri tushirilgan. Mutaxassislar bu shoxchalarni daraxt obrazi bo‘lib, manixey dinining ramziy belgisi sifatida ko‘zga ko‘rinarli o‘rnini egallagan, deb ta’kidlashadi. Manna, manixey diniga mansub oyatdan ikki misrasi: «Shon-sharaflar senga, ey nur taratuvchi, bizning yo‘lboshchimiz Mani, Dunyo tomiri va shon-shuxrat novdasi».

Demak, islom diniga qadar shoxchalar tasviri manixey dinining ramziy belgisi hisoblangan. Islom dinida esa daraxt shoxchalari naqshi saodat daraxti, ma’nosini anglatgan.

Qadimda Pomir tog‘idagi qishloqlarda navro‘z bayrami kuni xonodon erkagi saharda sariq tol shoxchasini olib xona

to'sinlariga ilishi rasm bo'lgan. Bu esa tabiat uyg'onishi va bahor kirganining ramzi edi.

Xullas xona shifti va devorlariga chizilgan o'simliksimon naqsh, gul va lolalar rasmi bahor, xonadonga baxt, sihat-salomatlik hamda xonadonda hamma vaqt muhabbat hukm surishi orzusini tarannum etgan.

Xalq amaliy-badiiy san'ati va me'morchiligidagi gul hamda o'simliksimon naqshlar bilan bir qatorda mevalar ham o'z aksini topgan. Jumladan, I asrga oid bir idishda ayol zulfi va qulqqlari o'rniga barg va novdalari bilan bir boshdan uzum naqshi bo'rtma qilib tushirilgan. Shuningdek, VI-VII asrlarga oid Munchoqtepadan topilgan xona devorlarida odam boshi bilan bir bosh uzum tasviri ko'zga tashlanadi. Anor esa I-V asrlarga oid osuriy devorlarida hamda I-III asrlarga oid anor ushlab turgan hosildorlik xudosi Anatixa haykalchasida o'z ifodasini topgan. Xalq uy-joy me'morchilida ham anorgul naqshi mavjud. Shuni eslatib o'tish kerakki, olma-muhabbat, anor, uzum - ezgulik, to'qchilik to'kin sochinlik ramzi hisoblangan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, tabiat uyg'onishi bahor, muhabbat gul bilan belgilangan, kuzda esa bu gul sersharpas mevaga aylangan, ya'ni to'qchilik, baraka baxshida qilgan. Demak, gul o'simlik, meva naqshlarining me'morchilik badiiy bezagida keng ishlatilishi xonadonlarning baxtli hayot, muhabbat, mo'l-ko'lchilikka bo'lgan orzu-umidlari ramzi sifatida gavdalananadi.

Mo'g'il xalq ornamental bezagida tasvirlangan tabiat manzaralari, hayvonlar ham ramziy belgilarini ifodalagan. Jumladan, bulut, chaqmoq, olov, suv, fazo, makon-g'oliblik, uyg'onish, bepoyonlik; ot zakovat. Tafakkur; baliq - hushy-orlik; sichqon uy hayvonlarining ko'payishi ramzi bo'lgan. O'rta Osiyoning uzoq tog' qishloqlarida qadim davrlarda yangi yil arafasida uy devorlariga mayda mollar to'dasining sxematik tasviri chizilar ekan. Bunday rasmlar xonadonni

yangi yilda chorva mollari ko‘payishiga bo‘lgan orzusini ifodalagan.

Surxandaryo yog‘och o‘ymakorligida ustun ustiga o‘rnatilgan boshalar o‘xshatma qo‘chqor shoxi, burama shakllarida uchraydi. Bunday shakllar qadimiy Panjikent yog‘och o‘ymakorligida, Varaxsha obidalarida ham mavjud. Mazkur boshalar asosan tomdan tushayotgan og‘irlik kuchi-ni barobar taqsimlashga yordam beradi. Yunonlarning qadimiy obidalarida o‘simpliksimon naqsh ustun kapitelaritdan o‘rin olgan bo‘lib, u qahramonlik, mardlik ramzini ifodalagan. O‘rta Osiyodagi yovvoyi echki, qo‘chqor shoxiga o‘xhash boshalar ham ramziy tushunchalarga ega bo‘lgan. Jumladan, olimlarning ta’kidlashicha, ibtidoiy jamoada ovlangan hayvon go‘shtini tayyorlash uchun olovxonaga topshirilib, terisi, shoxi, ov qatnashchilari orasida taqsimlanar ekan. Demak, yovvoyi echki shoxi jasur, dovyurak, chaqqon merganga taqdim qilinadigan nishona bo‘lgan. Balki Sosoniy shohlari bosh kiyimida yovvoyi echki shoxi tasvirlanganligi boisi shundadir. Darvoqe tog‘lardagi uylar xonasining kiraverish peshtoqiga, ustuniga xonadonni balo-qazolardan saqlash maqsadida yovvoyi echki yoki qo‘chqor o‘rnatishgan.

Binobarin, uylaridagi ustun boshasining yovvoyi echki, qo‘chqor shoxiga o‘xshashligi zamirida qadim zamonlardan saqlanib qolgan yuqoridagi kabi ishonch yotardiki, u kishining jasurlikka mardlikka, pokizalikka da’vat etuvchi belgi ramzi sifatida xalq badiiy bezagida, o‘z ifodasini topgan.


Ayrim hollarda rang ham ramziy ma’no kasb etgan. Jumladan, mo‘g‘illarda ko‘k rang moviy osmonni, adabiylikni, oq - tozalikni, sariq boylikni, muqaddaslikni, qizil xursandchilik va g‘alaba ramzini ifodalagan.

Manbalarda keltirilishicha, qadimda ba’zi mamlakatlarda hunarmandlar oltinni Quyosh, kumushni – Oy, qalayni Yupiter, misni Venera, temirni – Mars, qo‘rg‘oshinni - Sat-


urn, simobni - Merkuriy deb atashgani haqida ham ma'lumot bor. Bu dalillarni Ma'sudiyning yuqorida keltirilgan fikrlari bilan taqqoslasak, ulardagi belgilar rang va material jihatidan bir-biri bilan bog'liqligi ko'zga tashlanadi. Masalan, Quyoshga bag'ishlangan ibodatxona sariq rangdagi toshdan qurilgan bo'lib unga tilla but qo'yilgan, oyga bag'ishlangan ibodatxona kumush rangdagi sakkiz burchak shaklida ishlangan bo'lib, u kumushdan yasalgan butga ega.

Ushbu sahifalardagi rasmlar me'morchilikdagi turli naqshlardan, xususan o'simlik va gullarni aks ettiruvchi naqshlardan keng foydalanganligi yaqqol ko'rsatilgan.

Mazkur dalillar qadim zamonlarda ibodatxonalar bezagida ishlatiladigan ranglarning ham ramziy mano'si bo'lganligidan dalolat beradi. Ko'k rang moviy osmonni bildirganligidan moviy rangdagi gumbazlar osmonga o'xhatilgan. Shu bilan birga ayrim joylarda ko'k rang xonadonni «yomon ko'z»dan asraydigan belgi sifatida ham shu maqsadda imorat darvozasi ustki qismining ikki tomoniga ko'k rangli naqshin sopol idish yoki uning sinig'ini ikki parchasi suvoqqa yopishtirib qo'yilgan.




41-rasm. Turkiston. Xoja Ahmad Yassaviy xonaqoh –
masjidining mehrobi.



42-rasm. Samarqand. Amir Temur maqbarasi. XIV asr

Binolarni va buyumlarni bezashda qadimda odamlar naqshlarning ta'sirchanligini kuchaytirish uchun ulug' allomalar va xalq hikmatlarini pand-nasihatlarini, falsafiy fikrlarni arab yozuvida shunday tasvirlaganlarki, uning ham naqsh, ya'ni bezak sifatida hamda shior o'rnini o'taganiga qoyil qoladi kishi.

Arab xatida yozilgan bu chiroyli, bezakli yozuv Muhammad payg'ambarimiz (s.a.v) duolaridan biri bo'lib, u quyidagi mazmunga egadir: «E ochuvchi zot, och, bularga eshiklardan eng yaxshi eshikni». Bu yozuvning chap va o'ng pastki qismida hattotning shaxsiy muhri hamda kim tomonidan bitilganligi qayd etilgan.



43-rasm. (Ushbu yozuv afg'onistonlik xattot Aziriddin Vakiliy Fufalzoiy Duroniy tomonidan yozilgan)¹.

Ushbu ramziy ma'noga ega bo'lgan duo ma'nosini anglab olish uchun birinchi arab yozuvini o'qishni, ikkinchidan bu duoning mazmunini, uchinchidan, berilayotgan shaklning mazmunini bilish talab qilinadi. Shundagina xattotning bizga yetkazmoqchi bo'lgan falsafiy fikrini bilishimiz mumkin.

¹ «Arab xati» kitobidin olingan» 1-rasmga qarang

Yettita eshkaklik kema suvda suzib borayotgani tasvirlangan, hamda suvda payg‘ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning duolari berilyapti.

Shakl bilan duoni qo‘sib o‘qisak, bu tasvirning asosiy falsafiy mazmuni ochiladi.

Insonlar bu foniy dunyoda bamisolli bir kemada suzib boradilar. Bu sinov dunyosida insonlarga shunday hayot yo‘lini berginki, bu foniy dunyoda hammamizga sinovidan yaxshi o‘tib olishni nasib aylasin, degan ma’noni anglatadi.

To‘lqinsimon suv esa xayolan tasvirlanganligi hayotni notejisligi, hayot yo‘li ravon bo‘lmasligidir.

Hayot ezgulik va yovuzlikdan, kun va tundan iboratligi, ya’ni, insonlar sinovli dunyoda juda hushyor bo‘lishga chaqirilgan. Chunki, «Alloh hamma narsani ko‘rguvchi va bilguvchidir», deyiladi muqaddas kitobimiz Qur’oni karimda.

Hozirgi ramziylik haqida va naqshli bezaklarni o‘qish alifbosi qiyomiga yetkazib tuzilmaganligi, «Ramziylik lug‘ati» hamda «Ramzlar entsiklopediyasi» O‘zbekistonda tuzib chop etilmaganligi ko‘pgina qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Chet ellarda bu kabi ishlar deyarli amalga oshirilib bo‘lingan.

O‘zbekistonda ushbu muammoni hal qilish uchun biz naqshlarni o‘qishning dastlabki alifbosini tuzdik. Ularni guruhlarga ajratib ramziy ma’nolarini quyidagi bo‘limlarga bo‘lib chiqdik:

1. Geometrik naqsh elementlarining ramziy ma’nolari 1-jadval.

2. Islomiy naqsh elementlarining ramziy ma’nolari 2-jadval.

3. Qush va hayvonlarning ramziy ma’nolari 3-jadval.

4. Buyumlarning ramziy ma’nolari.

5. Ranglarning ramziy ma’nolari.

1-jadval**Geometrik naqsh elementlarining ramziy ma'nolari**

№	Ramzlar	Mazmuni
1	Nuqta	Hayotning boshlanishi, tangrining yagonaligi, hayotning tugaganligi va boshqa ramzlar.
2	To‘g‘ri chiziq	Hayotdagи to‘g‘ri yo‘l, hayotning raxonligi.
3	To‘lqin chiziq	Hayotning notejisligi, oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘uligi.
4	Olti qirrali yulduz	Hayotning boshlanishi va oxiri.
5	Tik turgan holatidagi teng tomonli uchburchak	Hayotning boshlanishi.
6	Teskari turgan holatida teng tomonli uchburchak	Hayotning oxiri.
7	Teng yonli uchburchak	Yaxlit bo‘lingan bo‘lak, ayriliq, olam.
8	To‘g‘ri to‘rtburchak	Dunyoning to‘rt tomoni, osmon saroyi.
9	Romb	Ishonch, ayol, ya’ni ona yer, serfarzandlilik.
10	Aylana	Olam, baxt, quyosh, insonlarni yovuz niyatdan qaytarish ramzi, mukammallik, abadiylik, ya’ni olam doimiydir, lekin insonlar umri o‘tkinchidir.
11	Besh qirrali yulduz	Hayotning qisqaligini, besh kunlik dunyo, islamning besh ustuni.
12	Yarim aylana	Baxt.
13	Kvadrat	Dunyoning, olamning cheksizligi, quyosh farzandi, abadiylik, yorug‘lik, mustahkamlik, borliq, yer-suv, olov va havodan iborat ekanligi, mukammallik, tenglik, go‘zallik.
14	Sakkiz qirrali yulduz	Mustahkamlik, «Ikki dunyoing obod bo‘lsin» degani.
15	Beshburchak	Tabiat.

Besh qirrali yulduz – hayotning qisqaligi, besh kunlik dunyo. Islomning besh asosi¹: «Sevimli payg‘ambarimiz bunday buyurganlar: musulmonlik besh narsa ustiga qurilgandir. Allohdan boshqa hech bir tangri yo‘qligiga va Muhammad (alayhissalom) uning bandasi va elchisi ekanligiga ishonish, namoz o‘qish, zakot berish, ramazon ro‘zasini tutish, hajga borish».

¹ Islom dini asoslari haqida. O‘zbekiston, 1993, 16-17 betlar.

Sevimli Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning bu muborak so‘zlariga ko‘ra Islom dini besh asos ustiga qurilgandir. Bu mo‘minning yetuk musulmon bo‘lishi, islomning shartlari shu ko‘rsatilgan besh narsani bajarish bilan bo‘ladi:

1. Allohning borligiga, yakka ekanligiga, hazrati Muhammad (alayhissalom)ning Allohning bandasi va payg‘ambari ekanligiga dilidan ishonib va tili bilan;

«Ashhadu an la ilaha illallahu va ashhadu anna muhammadan abduhu va rasuluhu» deyish;

2. Dinning tayanchi bo‘lgan kunda besh vaqt namozni o‘qish;


3. Din tomonidan belgilangan o‘lchov bo‘yicha boy hisoblanganlarning yilda bir marta zakot berishi;

Nuqta – yaratuvchi.

«Yerda, ko‘kda, son-sanoqsiz mavjudotlar yaratgan, bor qilgan va yana yo‘q qiluvchi, avvali va oxiri bo‘lmagan, doimo bor bo‘lgan, yakka, yo‘ldoshi topilmaydigan, yaratilganlardan hech biriga o‘xshamagan.

Hech bir narsaga muhtoj bo‘lmagan ALLOHga ishonamiz. Yana ishonamizki, Alloh tirikdir, u ko‘radi, biladi, sezadi, eshitadi. Qisqasi, unga sirli, yashirin biror narsa yo‘qdir. Har narsa unga oshkoradir. Alloh xohlaydi, xohlaganidek qiladi. Uning ishiga hech kim aralasha olmaydi. Uning amriga hech kim qarshi turolmaydi. Na tug‘ilgan, na tug‘dirgan. Yordamchisi, sherigi, yangi, o‘xhashi yo‘qdir. Cheksiz, tugalmas qudrat egasidir.¹ (44-rasm).

¹ Islom dini asoslari haqida. O‘zbekiston, 1993, 5-bet



44-rasm. Klaster usulida nuqtaning ramziy ma'nolari

Islimiylarining ramziy ma'nolari


Nº	Ramzi	Ma'nosi
1	Chinnigul	Hayot ramzi
2	Uzum	To'kin-sochinlik
3	Kurtak	To'qchilik, bahor, uyg'onish, navro'z
4	Bog'lam	Baxt boylanishi
5	Barg	Bahorgi uyg'onish
6	Qalampir	Har xil yomonliklardan va yomon ko'zlardan asrash
7	Zirk guli (gulsafsar)	Osoyishtalik va umr uzoqlik
8	Anor	Ezgulik, to'qchilik
9	Oygul	Baxt, iqbol, go'zallik
10	Jingalak	To'kin-sochinlik, boylik
11	Olma	Muhabbat
12	Novda	Boylik, farovonlik
13	Yaproq	Bahorgi uyg'onish, Navro'z
14	Atirgul	Go'zallik ramzi
15	Isiriq	Yomon ko'zdan asrash
16	Lola	Bahor belgisi
17	Shobarg	Bahorgi uyg'onish ramzi
18	To'lqinsimon gul poyasi	Boylik va farovonlik ramzi

Gul – go'zallik, muhabbat, yaxshilik, himmat ifodasi. Gul – jannatdan olingan ajoyib ne'matdir. Hayotimizni gulsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Gul ayol, ya'ni hayot guliga o'xshatiladi naqsh atamasi o'rnida ham ishlatiladi.


Odamlar bir-biriga bo'lgan sog'inchini, mehr-muhabbatini gul bilan izhor qiladi. To'y gulsiz o'tmaydi. Bularning hammasi kishilarimizni ezgu niyat, mehr-oqibat, shafqat hamda diyonat ruhida tarbiyalashi katta ahamiyatga egadir.

Gul haqida X asr shoiri Kisoiy Marvaziy shunday degan edi: «Gul – jannatdan hadya bir ne'mat erur, kishilar ko'ngliga guldan yog'ar nur». Qishdan so'ng qirda maysagiohlarning nish urib chiqishi. Yangi yil kirib kelish kuni.

«Navro'z – tiriklik bayrami sifatida mashhur bo'lib, uning tag'in bir muhim xosiyati bor: bu kunlarda marhumlar yodiga juda katta ahamiyat berilgan.



A) Ramziy naqsh elementlari



B) Ramziy naqsh elementlari

Masjidu-madrasa, xonadon-u mahalla, mozor-u ziyo-ratgohlarda Qur'on o'qitilib, jonliqlar so'yilgan. Yetim-yesir, bola paqirlar uchun katta doshqozonlar osilib, qurbanlik taom-lari pishirilgan. Har bir oila o'z xilxonalarini artishsa, bosh-

qalariniki ham tozalab, orasta qilishgan. Mevali daraxt-u gul-chechaklar o'tkazishgan.¹ Ayniqsa, bahorgi uyg'onish davrida tabiat manzarasi har qanday kishining baxru-dilini ochadi, ruhini yengillashtiradi. Eski tibbiy kitoblarda kasallarni ruhiy davolashni ko'zda tutib, bemorga bahor faslida keng yaylovlarga, qirli dalalar, tog'larga chiqib, dam olishni tavsiya qilganlar. Ayniqsa, sil va ruhiy kasalga mubtalo bo'lgan kishilarga ko'proq foydali deb hisoblangan. Natijada, hayotdan to'ydim degan ruhiy kasallikka chalingan kishilar ham tabiatga suqlanib boqadilar, hayotga va Vatanga mehri ortadi. Ayniqsa, bizlarning urf-odatlar bo'yicha bahorgi uyg'onish vaqtida lola sayriga chiqish an'anaga aylanib qolgan.

Qalampir – har xil yomonliklardan asrash, achchiq ta'm. O'zbek erkaklarini do'ppisida ham o'z aksini topgan. Qalampirning bir qanchasi shoda qilinib ustun tepasiga yoki eshik tepasiga ilib qo'yiladi. Buning sababi, yomon ko'zdan asrash maqsadidadir.

Anor – ezgulik, to'qchilik, to'kin-sochinlik va yetuklik. Qadimdan uylarni bezaganda serhosil anor daraxtini namoyonda tasvirlashgan. Bu tasvir xonani bezab juda ko'r kamlik bergen, insonlar ruhini ko'targan. Naqqoshlar serhosil anor daraxti tasviri orqali insonlar xonardonida har doim to'qchilik bo'lsin, ular o'yagan niyatlarga yetishsin deb tilak qilganlar, ya'ni insonlar yaxshi niyat qilganlar. Shuning uchun ham xalqimiz «yaxshi niyat, yarim mol» deb bejiz aytmaganlar.

Bodom – baxt iqbol ramzi. U tabiatdan stillashtirib tasvirlangan islimiyl naqsh turi. U zargarlik buyumlari, naqsh buyumlari, do'ppilar, matolar, yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik va boshqa xalq amaliy bezak san'ati turlarida keng ishlatiladi. Qadimda ota-bobolarimiz bu naqsh elementini juda ko'p ishlatib kelganlar.

¹ Mahmudov S. O'zbek udumlaridan. – T., Fan 1993, 100-bet.

Pechak islimi - qadimdan uylarimizni buyumlarni pechak islimi naqsh bilan bezab kelgan. Bu naqsh oddiy hoshiya naqsh turi bo'lib, tuzilishi jihatidan novda yo'l davomida to'lqinsimon bir tomonga o'sib, barg va gul chiqarib, o'sib boradi. Bu naqsh orqali naqqoshlarimiz inson hayoti shu naqshga o'xshayotib, inson hayoti bir xil kechmaydi, ya'ni, hayotning ba'zi kunlari xursandchilik bilan o'tsa, ba'zi kunlari qiyinchiliklardan, quvonch va tashvishdan iboratdir. «Oyning o'n beshi yorug», o'n beshi qorong'u» degan falsafiy fikr ilgari surilgan. Hadisi sharifda hayotda insonlar ba'zi narsalarga ojizlik qiladi. Buning davosi sabr qilishdir. Yetishmovchilikning davosi shukr qilish kerak deyilgan. Yana bu pechak islimiyning to'lqinsimon o'sishini inson hayotiga taqqoslab, agar inson yashash davomida 99 ofat aylanib yuradi. Inson agar shu 99 ofatdan eson-omon qutilsa, qarilik manziliga yetib boradi, deyiladi. Shuning uchun xalqimizda shunday urf-odatlar borki, qariyalarni shu manzilga eson-omon yetib, ulug' yoshga yetganliklari uchun ularni juda hurmat qiladilar va e'zozlaydilar. Mahallalarda vaqtı-vaqtı bilan ulardan xabar olib, holahvol so'raydilar, o'zlari tayyorlagan ovqat yoki meva-chevalar bilan mehmon qiladilar.

Gul ramzlari¹

Seryaproq atirgul yoshlikning nazokatini anglatadi. Oq atirgul – bokiralik. Pushtirang atirgul niholi – yoshlikning gulday ochilishi. Mimozi – kamtarlik. Bo'tako'z – xotiralar. Marvaridgul – baxt. Liliya – tozalik. Bu gullar yosh xonimlargagina taqdim etiladi.

Mirta kelin gulchambariga taqiladi, uning ramziy belgisi sof muhabbat. Shuningdek, flyordoranj ham kelinchakning to'y marosimida kiyadigan bosh kiymidagi sun'iy oq atirguldir, uning ramziy belgisi – iffatlilik. Orom – gulining

¹ Boltayeva Feruza. Yangi asr avlodı – 2002 y. 37-38 betlar.

xushbo‘y ifori va oddiy, kamtarin ko‘rinishi: «Tashqi go‘zalligining emas, ichki olaming meni maftun etdi», deganidir.

Sariq atirgul – er-xotinlik muhabbat. To‘q qizil gullar yosh xonimlarga to‘g‘ri kelmaydi, ular janoblarga tegishli bo‘lib, otashin muhabbat ma’nosini anglatadi, sambitgul, qizil chinnigul, ko‘knor, lotin chechagi (nasturtsiya) ham shular qatoridadir.

Nargis va kungaboqar – o‘ziga bino qo‘yanlik. Uchqat (bo‘ta o‘simgi) qattiq bog‘lanmoq. **Gulhamishabahor-** rashk va xavotir. Dafna yaprog‘i yoki novdalaridan bo‘yniga osish uchun qilingan chambar g‘alaba, shuxrat alomati hurmat belgisi sifatida tushuniladi. Kiparis – pushaymon. Anemon – tark etilganlik.

O‘rik guli – birga bo‘lish iltimosi, behi guli – nafratiga qaramay sitqidildan sevmoq, oq akas – sof muhabbat. Aloy – haqorat, astra – sirli niyat. Bo‘tako‘z oddiylik, noziklik.

Tog‘li chinnigul – imillama! Xitoy chinniguli – nafrat, dala chinniguli – ixtiyoriy rad qilish, qizili – otashin, sof muhabbat, seryaproq‘i – antiqa qobiliyat.

Georgin – yangilik, gilizardak – g‘amgin xotira, anor guli – samimi do‘stlik. Yasmin – do‘stlikdan mamnunlik, kaktus – qisqa baxt. Lavanda – qiziqqonlik, marvaridgul – sirli muhabbat.

Oq liliya – bokiralik, sarig‘i – g‘urur, suvlisi – tinchlantirish, havorangi – buyuklik.

Al‘p atirguli – baxtni va‘da etish, oqi – bokiralik, yovvoyisi – she’riyat, sarig‘i – vafosiz, tannoz, seryaproq‘i – go‘zallikdan rohatlanmoq, to‘q qizil atirgul – sog‘liq.

Moychechak – nafrat, nastarin – tark etilgan. Lola – muhabbat izhori.

Guldasta va gulchambarlar tuzishda quyidagi gullardan foydalanish tavsiya etiladi: shobbo‘y – hashamat, lola – ko‘rkamlik, rayhon – kambag‘allik, pal’ma – doimiylilik.

Gullar va guldonlar tasviridagi ma'nolar

Gullar va guldonlar tasviri islom san'atidagi eng ommaviy mavzulardan biri bo'lib, me'moriy bezak, miniatyura, gilam, yog'och va ganch o'ymakorligi naqshlarida ko'p uchraydi. O'rta va Yaqin Sharq san'atida keng tarqalgan bu mavzu ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Bir qarashda od-diy tuyulgan bu tasvir har bir davrda ma'lum ahamiyat kasb etib, murakkab dunyoqarashlarni o'zida ifoda qilgan.

Odamlar qadim paytlardayoq tabiat hodisalari va turli xil narsalardan hayratlanib, ulardan ilohiylashtirganlar.

Narsalarning sirli kuch – qudratiga ishonch ularni bezatishga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Aytaylik, don, suyuqlik solingan idish zamin timsoli bo'lib, qut-baraka, hosildorlik kabi xususiyatlarni mujassamlashtirgan. Zamin timsoli hayot baxshida etuvchi ayolga qiyos qilingan. Natijada idish ayol qomatining e'tiborli belgilarini anglatadigan turli xil tasvir-fifalar – antropomorfik xususiyatlar mujassam etgan holda yasalgan. O'rta Sharq xalqlari an'analariga ko'ra, ko'za xususan ayol ilohasi timsolini ifoda etgan. Zardushtiylikdagi tasavvuriga ko'ra dunyo manzarasi uch qismidan suv, yer, osmondan iborat, idishda o'sib turgan o'simlik tasviri olamning tuzilishini anglatuvchi o'simlik tasviri olamning tuzilishini anglatib ulkan ko'l – Vourukashani mujassam etadi, bu tiriklik (idish, suvni ifodalash) va urug'laridan yer yuzidagi butun daraxtlar vujudga keluvchi – Haomu daraxtining (o'simliklar ifodasi) ramzidir. Buddizmda esa guldon yoki unda o'sayotgan nihol tasviri mutlaqo boshqa ma'no kasb etadi. Idishda o'sayotgan "Orzu daraxti" yoki Bodhi daraxti Janubiy-Sharqiy Osiyo tasviriy san'atida eng ko'p tarqalgan mavzulardan biri. Budda afsonalariga ko'ra, Xudolar Nilufar gulidan tug'ilishadi, gul esa suv – yer (idish – suv tarzida) tagidan o'sib chiqadi. Budda ongingin ochilishi butun dunyoda faqat Budhi daraxti tagida ro'y beradi, bu uning hayoti-dagi doimiy o'ziga xos belgi hisoblanadi.

Nilufar guli tasviri tushirilgan idish hozirgi paytda ham Hindiston va Tseylonda bo‘ladigan marosimlarda ko‘p hol-larda iloha ramzi sifatida qo‘llaniladi.

Koinot va dunyo daraxti muqobilining sehrli tasviri bo‘lgan Buddha hovonchasi bilan marosimlarni ijro etishda dunyoning sakkiz tomoni joylashtirilgan sakkizta tilla idish va sakkizta kumush idish ham muhayyo qilinadi.

Gul solingan idish tasviri ham O‘zbekistonning qadimgi san’atida tez-tez uchraydi. Xorazmdagi devoriy suratlarda (eramizning III asri) uchbarg naqshi va dastali ko‘zacha tas-viri saqlanib qolgan. Panjikentdagi devoriy suratlarda esa anorning mevali novdasi solingan guldonlar tasviri uchraydi, keyingi antik va ilk o‘rta asrlar san’atiga mansub otashga (olovga sig‘inish xonasi) devorlarida ham dastasi tik ishlangan ko‘zacha ichida mevali anor novdasi tasvir etilganligini ko‘rish mumkin. Chag‘aniyonning o‘rta asr (VII-VIII asr boshi) ga mansub xilxonasi qazilmasidan topilgan shokila zirak ko‘zacha shaklini eslatadi, undan go‘yo chillak tarzida o‘sib chiqqan novdalar uch barg bilan tugallanadi. Isomning kirib kelishi va budparastlikning ta’qib etilishi bilan san’atda keng yoyilgan naqsh uslubida gullar tasviri juda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon islom madaniyatida bog‘ timsoli mavjud olam manzarasidan iborat jannatni ifodalab, ilohiy bunyod-korlik, dunyo go‘zalligini ifoda etuvchi manba sifatida qaral-ganligi san’at va she’riyatda asosiy mavzuga aylanganligi bi-lan bog‘liq. Naqsh tilidagi ramziylik, ayniqsa, so‘fizm falsa-fasi natijasida murakkablashib bordi. So‘fizmning mistik nuqtai-nazaridan gullar tasviri hayotiylikdan uzoqlashtirilib, mavhumlashtirildi va diniy-falsafiy ramzlarga aylandi. So‘fizmda gullar solingan idish tasviri Islom ta’limotidagi asosiy g‘oyalardan biri – dunyoning, tabiatning keng ko‘lamda rang-barangligini (ko‘zacha, guldastada rang-barang gullar orqali ramziylashtirilgan) birlashtirish, koinotni Allohma ko‘rish, yakka-yagonalikni tan olish, yaratganning

jamolini nafis gullarda ko‘rishni ifodalaydi. Bu tasvir ayni paytda Parvardigor yaratgan osmon go‘zlligini madh etishga chorlaydi va haqning dunyosi go‘zal ekanligiga ishora qiladi.

So‘fizm ta’limotiga ko‘ra, butun dunyo Allohning nuri, ijod qilguvchining tabiatda aks etishidir. Alloh tabiatda mu-jassamlanadi va u yaratgan narsalarda ularning ichki mohiyatini anglatgan holda mavjud bo‘ladi.

Sinoiy fikricha, “... yaratilgan buyumlar qanchalik rang-barang va ko‘p bo‘lmashin, ular Xudoning ixtiyori, roziligi bilan uzviy bog‘liq. Bu xayoliy ranglarning barchasi (ya’ni, moddiy dunyoning rang-barang hodisalari) “yagona ko‘za-chada uyg‘unlashadi.

XV-XVI asrlarga kelib guldon – idishlarda gullayotgan nihol yoki guldastalarning tasvirlari yangicha ahamiyat kasb eta boshladi, ya’ni ko‘p qirrali xosiyatlari talqin qilindi. Keyinchalik uning tasviri gilamlar, so‘zanalar, devoriy suratlar, qo‘lyozma kitoblar, gazmol, ganch o‘ymakorligi va hokazolarda yetakchi kompozitsion naqsh sifatida o‘rin egalladi. Idish va undan o‘sib chiqayotgan nihol tasviri mahobatli me’morchilikda ham keng tarqaldi. U ko‘zacha sifatidagi ustunda ham (daraxt ramzi) o‘z ifodasini topdi. Shunday qilib, gullayotgan nihol mavzusi (Idishdagi guldasta) juda ommaviylashib, musulmon mamlakatlari san’atida yetakchi mavqeini egalladi.

Shuningdek, O‘rta asrlarga mansub Sharq miniatyurlarida bir xil mavzuli komozitsiyalar, ya’ni guldasta solingan idishlar tasviri ko‘p qo‘llanilgan. Bunga misol qilib oq lolagul, atirgul, gulsafsar yoki nargis guldastalarini keltirish mumkin. Bir oilaga mansub bo‘lgan gullar dastasidan foy-dalanishdan maqsad shuki, u rango-rang oilaga mansub gullarni har maromdagil ahamiyatini (gullab turgan novda turli oilaga mansub gullar bilan birgalikda bo‘lishi mumkin), ta’kidlaydi, yaratganning ijodidagi rango-rang go‘zallikni go‘yo o‘zida mujassam etganday bo‘ladi.

Bir oilaga mansub gullar dastasi bevosita tasvirlangan sahnadagi ma'lum holat bilan bog'liq. Har bir holatda guldasta sahnada ko'zlangan maqsadning ichki mohiyatini ifoda etadi. Ularning bir nechasini ko'zdan kechiraylik.

Nizomiyning «Xamsa» dostonlariga ishlangan Hirot maktabiga «Farhod Shirin oldida» sahnasi kishi diqqatini tortadi (Londondagi, Britaniya muzeyida saqlanadi. 6810 raqamli). Shirinning huzuriga tog'ni teshib, ariq o'tkazmoqchi bo'lgan pahlovon Farhodni keltirishadi. Farhod eshik yonida, darparda orqasida esa Shirinning tasvirlanishi o'sha davr rasm-rusumlariga monanddir. Farhod Shirinni ko'rmasa-da, yoqimli ovozidan sarmast, chap qo'lini yuqoriga ko'targan oshiq holda tasvir etilgan. Bu xatti-harakatlarda o'spirin yigitning oliymaqom Shirining bo'lgan hurmati, cheksiz muhabbat, nozik his-to'yg'ulari o'z ifodasini topadi. Qabul marosimi xonasidagi hovuzcha yonida lolagul va nargis guldastasi solingan ikkita guldon turibdi. Lola dastasi yigitning oliyjanobligi va tuyg'ulari ramzi («uning ikki yuz tili bo'lsada, doim sukut saqlaydi»), ularning oqligi yigit niyati pokligiga ishora bo'lsa, ikkinchi guldasta – Nargis esa bilim ramzi. O'rta Sharq she'riyatida bu gul nomi ko'z yoki ko'z qorachig'i muqobili sifatida ishlatiladi («nargis ko'zli», «yig'loqi nargis»). Bu yerda nargis tasviri muhabbatga oshno bo'lgan Farhodning anglab yetishini ifoda etuvchi ramziy timsolga aylangan.

Nizomiyning «Xamsa» asariga chizilgan tarbiz maktabiga mansub «Xisravga toj kiydirish» sahnasida (London, Britaniya muzeyi, OV 2365 B 60) ochiq ayvon, baland taxtida o'tirgan Xisrav, hovlidagi hovuz yonidagi uch ko'zachada yaproqlari xuddi xanjardek o'tkir, katta-katta siyohrang safsargullar tasvirlangan. Bunday joylashtirish uch burchakli kompozitsiyani tashkil etadi.

Gulsafsa – nafis gul, u islom madaniyati nuqtanazaridan ramziy ma'noga ham ega. Uning yuqoriga tomon o'sgan uch yaprog'i ularga qarama-qarshi o'sgam yaproqlar bilan uyg'unlashib «qarama-qarshi tomonlar birligi»ni

anglatadi. Safsargul shaklining o‘zi yer hukmdorining tabiatdagi ikki xillagini bir tomondan uni yuksak ma’naviyat ilhomlantirishi, ikkinchi tomondan yomon xayollarga berilishini bildiradi.

Amir Xisrav Dehlaviyning «Devoni» ko‘chirmalaridagi «Hayot quvonchlari va ko‘z yoshlar» miniatyurasini (**XVIII asr G’arbiy Eron, O‘z. Res. Sharqshunoslik ilmiy tekshirish instituti, № 1005**) atirgul guldastasi bezab turibdi. She’riy misralarda hayotni anglash, yorug‘ulik, shodlik, ezgulik va yovuzlik yonma-yon bo‘lishi ifodalangan. Miniatyuraning tabiiyligi shundaki, unda bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan mustaqil kompozitsion sahnalar tasvirlangan. Yuqoridagi tabiat manzarasi fonida qatl marosimi tasvirlangan bo‘lib, sahnada qo‘llari orqasiga bog‘langan, tiz cho‘kkan yigit boshida uzun pichog‘ini shaylab turgan jallod gavdalantirilgan. Yigit boshyalang, g‘amgin, egnidagi esa motamsaro ko‘k rangda. Taxtda o‘tirgan hukmdor qatlni ijro etishga ishora qilmoqda. Atrofdagi odamlar bo‘layotgan voqeani kuzatib turibdi.

Miniatyuraning pastki qismida bir necha sozanda raqsga tushayotgan yosh qizga jo‘r bo‘lishmoqda, uning san’atidan zavq olib o‘tirgan mo‘ylovli erkakning qadahiga soqiy ko‘zachadan may quymoqda. Bazm qilayotganlar yig‘ilgan chamanzorning bir chetini bezab turgan yirik-yirik atirgullar solingan guldon she’riy satrlarning ichki ma’nosini berishga va butun tasviridagi umumiylikni buzib turgan manzaralarga uyg‘unlik bag‘ishlashga xizmat qiladi.

Musavvir tanlagan atirgul tasviri islom estetikasidan kelib chiqib, qarama-qarishi ma’no berish ruhida bajarilgan u turli xil ramziy xususiyatlarga ega «Shoh Nu’matulloh» tasvirlarida bu gul majoziy ma’no kasb etib, inson tabiatidagi ikki xillikni ifodalaydi. «Gunohkor qalbing – bu tikondir, ruhing esa atirgul». Bir tomondan atirgulning qirmizi rangi, ikkinchi tomondan atirgul-tinchlik, osiyishtalik ramzi. Atir-

gulda ham tikon, ham qiyg'os ochilgan gulni ko'ra olish – bu dunyoning barcha qirralari bilan ko'rish qadam, intilishdir. Rassom tanlagan rasm kompozitsiyasi va atirgul gulini tasvirlashga berilish – ushbu miniatyurada hikoya qilingan syujetlarning bir-birini bog'lovchi usuldir.

Jaloliddin Rumi yozgan edi:

Qarama-qarshiliklardagi mangu hayot shuldir.

Keyingi o'rta asr davrida gul va guldon tasvirlari o'zingning ilk ma'no-ahamiyatini yo'qotib, bezak sifatida keng tarqaldi, ko'p qirrali ramziyligi esa borliqning go'zalligi g'oyasiga burildi. Bunday talqin ko'proq me'moriy bezaklarda, xususan, Farg'ona, Toshkent, Buxoro va joylardagi ko'zga ko'ringan uy-joylardagi devoriy naqshlarda uchraydi.

3-jadval

Qush va hayvonlarni ramziy ma'nolari

№	Ramz	Ma'nosi
1	Sher	Mardlik, jasorat, kuchlilik, hokimlik,
2	Tulki	Makkorlik, ayyorlik,
3	Chumoli	Donolik, hokisorlik,
4	Bulbul	Sadoqat,
5	Xumo	Baxt qushi,
6	Boyqush	Baxtsizlik, vayronalik.
7	Baliq	hushyorlik, halol luqma.
8	Sichqon	Uy hayvonlarining ko'payishi ramzi.
9	Echki va qo'chqor	Jasurlik, mardlik, pokizalik.
10	Hotam	Saxiylik.
11	Oq kabutar	Tinchlik.
12	Ohu	Go'zallik, himoyasizlik.
13	Tuxum	Birlik.
14	Dev	Makkor, g'azabkor, buzg'unchi maxluq, bo'lib, ezgulikka qarshi kurashuvchi yomonlik, yovuzlik ramzi.
15	Ilon	Yomonlik.
16	Quyon	Ziyaraklik.

Bu mavzu zamonaviy rassom ijodida ham keng ommalashib bormoqda, chunonchi, Sharq san'atining ramziylik an'anasi o'tkinchi bo'lмаган qadriyatga aylandi.

Qadim-qadimlarda paydo bo'lган hayotbaxsh idishlar, gul va guldonlar timsoli, asrlardan asrlarga ko'chib, turli xil qarashlar, tasavvurlar muloqatiga aylanib kelmoqda, bugungi madaniy qatlamda yangi mazmun kasb etib, boshqa ma'nolarga ega bo'lmoqda.

Baliq – o'zbek xalq amaliy san'ati turlarida keng tarqalgan naqsh elementi. Ustalarimiz qadimdan buyumlarni bezashda hayvon, qush va boshqalarni yoki ular tanasi qismlarining «mol ko'zi», «bulbul ko'zi», «qush qanoti» kabi shaklini chizish, naqsh ishlashni rasm qilgan. Baliq xushyorlik, halol luqma va boshqa ramziy ma'nolarga ega. Kulollar baliq dumini eslatuvchi «Baliq dumi», baliq tumshug'ini eslatuvchi «baliq tumshug'i» kabi naqshlarni sopol idishlarga tushuradilar. Kandikorlar mis buyumlarga, pichoqsozlar esa pichoq dastasini, asosan baliq ko'zini eslatuvchi «Baliq ko'zi» naqshi bilan bezaydilar: bunda pichoq dastasi yoyilib, unga oq, ko'k yoki qizil ko'zlar qadab atrofiga jez va mis halqachalar o'rnatiladi. Qadimda baliqqa sajda qilish rasmi Markaziy Osiyo bo'ylab keng tarqalgan. Uning old Osiyo va O'rta yer dengizining qadimgi xalqlaridagi o'xhash diniy e'tiqodlari bilan bog'lanib ketadi. Zardushtiylikda baliq bilan bog'liq rasm-rusumlar alohida o'rin egallab, hatto musulmon davridagi an'analarda ham bu mavjudotga ehtirom, sajda uzoq vaqtlargacha mavjud bo'lgan. Avestoda ham suv toshqini hamda baliq bilan bog'liq juda ko'p misollar uchraydiki, ular haqida Markaziy Osiyo xalqlarining ko'plab afsona va diniy e'tiqodlari bor. Baliq bilan ilonni yonmayon aks ettirilishi oilaviy juftlikni anglatadi, chunki baliq qut-baraka, ko'payish ramzi hisoblanadi. Ba'zida halol luqma, halollik, pokizalik ramzida ishlatilgan. Baliqda ilohiy fazilatlar bor deb bilib, suv toshqinining u bilan bog'laganlar. Qoraqalpog'iston Markaziy Osiyo mintaqasining qa-

tor hovuzlarida muqaddas baliqlar saqlangan. Chunonchi, Sulton bobo mozori (Sulton Vays) qoshidagi hovuzda saqlangan zog‘ora baliqlar dovrug‘i ham shundan. Naman-gan viloyatida mozor baliq, Samarqand viloyati Urgut mozoridagi va boshqa joylardagi baliqlar hozirgacha muqaddas sanaladi. Hozirda ham mozorga ziyorat qilgani kelgan odamlar baliqlarga yeguliklar berishadi va yaxshi niyat qilib tanga tashlaydilar.

Semurg‘ – sharq xalqlari og‘zaki poetik ijodidagi afsonaviy qush obrazi; osmonda uchish, uzoq manzilni yaqin qilish haqidagi asriy orzu umidlarning ramziy ifodasi.

Dastlab, Eron mifologiyasida paydo bo‘ldi. «Avesto» da Semurg‘ shaklida ishlatilgan. Semurg‘ o‘zbek xalq ertak va afsonalarida ijobiy qahramonning do‘sti, himoyachisi, hamrohi, uni «Yetti zulmat ichi»dan olib chiquvchi fantastik qush sifatida bilishadi. Turkiy xalqlarda Semurg‘ning Xumo, Anqo, Davlut qushi, Baxt qushi, Marqumomo, Kuntubulg‘on, Bulbuligo‘yo va boshqa variantlari bor. Semurg‘ obrazi «Qahramon», «Oynai jahonnamo», «Rustam», «Kenja botir» kabi ertaklarda keng tasvirlangan. Bu obraz yozma adabiyotda ham uchraydi, masalan, Navoiyning «Lison uttayr» asari va boshqalar. Semurg‘ haqidagi afsonalar asosida Hamid Olimjon «Parizod va Bunyod» dostonini yozgan. Ularda afsonaviy obraz shartli vosita sifatida mualliflarga qadimgi o‘tmishdagi real voqelik haqida fikr yuritish imkonini beradi.

O‘zbekfilm kinostudiyasi «Semurg‘» filmini yaratgan (1974-yil). Semurg‘ning Xumo varianti O‘zekiston Davlat Gerbiga asos qilib olingan. Shuningdek, Toshkentdagi «Turkiston» saroyi oldida uning ramziy monumenti o‘rnatalgan.

Humo – davlat (boylik) qushi. Bu tushunchaning tarixiy ildizlari «Avesto»dagi Far bilan bog‘liq, u humoni anglatadi. Far omad va tole timsoli bo‘lib, kimning boshiga qo‘nsa yoki soya solsa, unga baxt va iqbol keltiradi, o‘sha

odam sultanat egasi bo‘ladi. Har ikki qush ham baxt va omad ato etish vazifasi bilan ajralib turadi.



45-rasm. Buxoro. Labihovuz. Nodir Devonbegi madrasasi.

Semurg‘, Anqo va xumo qushlarining ertak va afsonalarga ko‘chgan nusxalari g‘ayrioddiy xususiyatlarga o‘xshashlikka, ma’nosи, ertak syujetida tutgan o‘rni va vazifasiga ko‘ra o‘zaro aynanlikka ega. Ular o‘zbek xalqining ko‘hna dunyo qatlamida yashagan ajdodlari shuurida yuzaga kelgan muqaddas qushlar, omad va tole’ haqidagi tushunchalarning o‘zaro uzviy bog‘lanishidan kelib chiqqan badiiy umumlashmalardir.

Bu xil qushlar ertaklarda ijtimoiy-maishiy ma’no kasb etib, inson saodati va adolatli shoh haqidagi ideal g‘oyalarning badiiy tajassumi, yaxshi niyat, orzu-istiklarning o‘ziga xos badiiy talqiniga aylangan.

Odil shoh haqidagi ideal g‘oyalar xalq tushunchasida qayta ishlanadi va badiiy timsollarda jilolanib, o‘ziga xos tarzda aks etadi. Ertakdagagi Xumo qushini uchirish va u tolei baland kishi boshiga qo‘nishi hodisasi syujet voqealarining mantiqiy uzviyligini ta‘minlab, bosh qahramon taqdirida o‘zgarish yasash, uni odil shoh sifatida belgilash vazifasini ado etadi. Anqo va Xumo insoniyat shuurida saqlangan adolatli shoh haqidagi asriy orzularning bunyodkori, badiiy timsollarga ko‘chgan talqinidir.

Xumo qushining qadimdan mashhur bo‘lganligini arxeologik topilmalar ham tasdiqlab turibdi. Chunonchi, Varaxshadagi qazilmalardan birida topilgan yarmi qush, yarmi ayol shaklidagi tasvir shu jihatdan e’tiborni tortadi. Qanotli va qo‘sh oyoqli ayol suratidan ayon bo‘ladiki, bunda Semurg‘ suv muakkili Anaxita bilan bog‘liq holda tasvirlangan. Bu topilma ibridoiy dunyoqarash, tasavvurlar zaminida tashkil topgan san’at asaridir. Farg‘onadan topilgan XI asrga oid mis patnis hamda Samarqanddan topilgan nosqovoqdagi rasmda esa Xumo haqida xalq tasavvuri aniq va yorqin ifodasini topgan. Tasvirda qush Quyoshga qo‘nib turgani, pastroqda esa ot mingan yigit tasvirlangan. Ana shu shakllar bir butun mantiqiy uzviylikda olib qaralganda, Quyoshga qo‘ngan Xumo ot mingan kishiga soya tashlab turibdi. Bu esa afsonaviy Xumo qushi bilan bog‘liq orzularning qadimgi san’at asarida ifodalangan timsoliy ko‘rinishlaridir.

Xumo – afsonaviy qush bo‘lib, baxtu-iqbol ramzi hisoblanadi. Shuning uchun xumo tasvirini qadimdan amaliy san’at turlari naqqoshlik, ganchkorlik, zargarlik, zardo‘zlik, kashtachilikda kulolchilik kabi turlarida hamda me’moriy bezaklarida ramziy hamda tumor sifatida foydalanib kelganlar.

Xumo tasviri O‘zbekiston Davlat gerbida baxt timsolida ham olingan. Xalqimiz orasida shunday gap borki, «Bu qush kimning boshiga soya solsa, baxti chopib u toju-taxt egasi bo‘ladi» deydilar.

Badiiy adabiyotlarda ham xumo qushi qadimdan ramziy ma'noda ishlatib kelingan. Masalan Alisher Navoiy ham «Lison ut-tayr»da qushlar haqidagi xalq xayoloti an'analariiga asoslanadi. Dostonda aynan Xumo timsoli ham yaratilgan. Shoир uni Xumoy tarzda tilga olgan.

... Qushlar Xudhud boshlagan yo'lga yurib, Semurg'ni izlab parvoz etadi. Sal o'tmay ular bag'oyat mashaqqatli parvozdan bosh tortib, Xudhudga bir-bir uzr ayta boshlaydi. Ularning aksariyati oldingi hayoti ham yomon emasligini bahona qiladi. Ana shu uzr aytgan qushlar orasida Xumoy ham bor.

Shoир uni «Sohibfar», ya'ni «Far egasi» deb ta'riflagan. «Far» so'zi «Go'zallik», «husnijamol», «Chiroy» binobarin, «Nur», «Ravshanlik», «Yorug'lik» ma'nolarini ham bildiradi. Podsholar nur taratib o'tirishiga ishora qilinib, «Far», «Shohlar haybati» ma'nolarida ham kelgan. Demak, Xumoyni shoир shohona shonu shavkat homiysi sifatida ta'riflaydi.

A.Navoiyning «Lison ut-tayr» da Xumoyning o'zi shunday deydi:

Ondadur iqboldin moyam mening -
Kim bedur taxtu sharaf soya mening.
Zotima oncha sharaf bersa Iloh -
Kim mening soyam gadoni qilsa shoh,
Men yana shoh istamak ya'niki ne!
O'zni ranjur aylamak ya'niki ne!
Qilmog'im xushroq havoyi jilvagoh,
Bermagim soyamda shohlarga panoh.

Xumoy: «Iqbol menga shunchalik kulib boqqanki, men hatto soyam bilan kishilarga sharaf taxti ato eta olaman. Agar Iloh zotimga shunchalik sharaf bag'sh etgan bo'lsa, ya'ni soyam hatto gadoni shoh darajasiga ko'tarsa, men uchun yana shoh istamoqqa ne hojat?! O'zimni mashaqqatga chog'lamoqning nima keragi bor?!

Undan ko‘ra soyamdan shohlarga panoh berib, havoda uchib yurganim afzal emasmi?!»

Anqo – Ahuramazda qudrati bilan yaratilgan Semurg‘ ta’sirida yuzaga kelgan bo‘lib, baxt ato etuvchi, g‘ayritabiyy xususiyatga ega bo‘lgan ulug‘vor qushdir.

Anqo – baxt va tole qushi. Uning asosiy belgilari ko‘zga ko‘rinmaslik, tanasi, qanotlari va boshi oltin, kumush hamda qimmatli toshlardan yasalgan. Anqo deb atalishi ham o‘zi yo‘qligiga, ko‘rinmasligiga ishora.

Anqo – (qush) sodiqlik. Kishiga baxt keltiruvchi qush sifatida talqin etiladi. «Rivoyatlarga ko‘ra uning nomi boru o‘zi yo‘q afsonaviy qush. U go‘yo qushlarning podshohi bo‘lib, Qof tog‘ida yasharmish. Qit’ada aks ettirilgan man-tiqqa binoan anqoning Ko‘hi Qofda muhim turini go‘yoki qanot go‘shasiga sodiqlik odatidir. Ayni shu xislati tufayli uning qismatida barcha qushlar bilan yaqinlik bitilgan. Uning uyasi ham «Ko‘hi Qof» - yaqinlik tog‘idir. Bu Alisher Navoiy ko‘z o‘ngida qanotli kishi – Anqosifat. Anqo esa qanotli odam timsolida gavdalangan».

Anqo qushi qaysi inson boshidan uchib o‘tsa podsho bo‘ladi, degan afsona xalq orasida yuradi. Anqo nihoyatda go‘zal va topilmas, noyob afsonaviy qush. Tasviriy xalq amaliy san’atida me’moriy bezaklarida, ko‘p uchraydi. Afrosiyobdan topilgan qadimgi Samarqand hokimi saroyining devoriy bezaklarida tumshug‘ida yaxshilik (xayr-ehson) urug‘ini tarqatayotgan Anqo qushi tasviri bor. Anqo – afsonaviy qush. Qadimgi sharq xalqlari afsona, ertak va dostonlarida bosh qahramonga homiy. U insonlar ko‘ziga ko‘rinmaydi, qanoatli, pati oltin, kumush va boshqalardan deb ta’riflandi. Xalqimiz orasida Anqo baxt, tole, davlat qushi, kimga soyasi tushsa o‘sha baxtli bo‘ladi degan fikr mavjud. Taxchil, kamyob narsalar haqidagi «Anqoning urug‘i» degan ibora shundan olingan. Rivoyat, ertak va cho‘pchaklarda Anqo Semurg‘ga, Xumoga ham o‘xshatiladi.¹

¹O‘zbek milliy entsiklopediyasi T.: 2000, 1-jild, 377-bet

Qaqnus qushi¹

«Avesto» animizm tushunchasining mohiyatini zuhur etuvchi omil sanaladi. U tabiat va jamiyatdagi hodisalarining azaliy to‘qnashuvi, ezgulik (Ahuramazda) va yovuzlik (Ahriman) o‘zaro omadsiz olishuvini vasp etadi. Semurg ana shu kurashda ezgulik bunyod etuvchi, mif zaminida turib faoliyat ko‘rsatuvchi afsonaviy qush timsolidir.

Jahon xalqlari folklorida turli nom bilan atalgan g‘ayrioddiy qushlar naql etiladi. Ular dastlabki timsol sifatida turli xil dunyoqarash, diniy e’tiqod va muayyan tasavvurlar zaminida paydo bo‘lgan. Shulardan biri qadimgi Yunon folklorida hikoya qilingan Qaqnus qushidir. U sayraganda odamzot mahliyo bo‘lar emish. Afsonalarga ko‘ra, Qaqnus ming yil yasharmish, go‘yo ilk kuy mayin ohang navolari uning sadosidan olingan ekan. Bu qush kishilarga zavq va shodlik ulashib, uzoq umr ato etarmish. Qaqnus o‘zbek folklorida hikoya qilingan bulbuligo‘yoni eslatadi.

Ezgulik yaratuvchi ana shunday qushlardan yana biri o‘zbek asotirlarida madh etilgan Sayena qushidir. Qadimda mazda dini va mifologik e’tiqodlariga ko‘ra, bu qush g‘ayritabiyy qudratga ega bo‘lib, o‘z qavmlari mulkiga qutbaraka, farovonlik, mo‘l-ko‘lchilik in’om etarkan. Sayenaadolatpesha, yaxshilik va yorug‘lik, farovonlik va ezgulik tangrisining eng yaqin yordamchilaridan biri bo‘lib, elatga baxt va tole ato etilishi aytildi. Bu afsonaviy qush eng ulug‘ne’matlar jam bo‘lgan Xoma daraxtini makon tutgan. Mo‘tabar Sayena ezgulik mazmunidan unib chiqqan mifologik timsoldir. Aniqrog‘i, ilohiylashtirilgan, mag‘iyaviy qudratga ega bo‘lgan, samo hukmroni,adolatpesha ilohning timsoli «Avesto»da Sayena merevo deb nomlangan ana shu qushning turkiy tiliga mansub va nisbatan keyingi namunasi Semurguk otligus deb atalgan. Pahlaviy matnning VI asrga oid namunasi esa «menoke kratda senmurno» deb nomlangan.

¹ Imomov K. Quyoshga qo‘ngan qush.//Sirli olam. 2002, №2, 2-3 betlar.

Mifologik qatlamda naql etilgan Sayena – yurt homiysi. Nisbatan bo‘rttirilgan tarzda, mubolag‘a tasvirlanadi. Muqaddas «Avesto»da u «ulkan, mahobatli qush», qanotlari tog‘ni qoplagan yomg‘irli bulutday keladi. Demakki, Sayena qudratli, zabardast qush, ayni paytda mag‘iyaviy kuchga ega bo‘lgan ilohiy hilqat, ulug‘ ne’mat. Mifologik e’tiqodga ko‘ra, u yomg‘ir bulutlarini haydab kelib, elatni suvga serob qiladi. Imonlilarning uyini chorva mollari bilan to‘ldirib, qut-baraka, farovonlik, mo‘l-ko‘lchilik bunyod etadi. Bu qushning ilohiy qudrati va mag‘iyaviy xususiyati uning g‘ayritabiyy faoliyatida yaqqol aks etib turadi. Mifologik vazifasi esa imonlilarni himoya qilish, diniy e’tiqodga jalb etish va ezgulik ilohiga ishonch uyg‘otishdan iborat bo‘lgan.

Sayena merevo aslida senmurvoning mohiyatini tashkil etadi va mifologik qushlarni ibtidosi sanaladi. Uning ertak va dostonlarga ko‘chib, badiiylik kasb etgan intixosi esa Semurg‘ nomi mashhurdir. Demak, dastlab Sayena merevo, senmurvo va nihoyat Semurg‘ deb atalgan g‘ayritabiyy qushlarning tarixiy asoslari yagona bir manba, qadimgi mifologik qatlamda shakllangan noyob qush timsoliga borib taqaladi. «Semurg‘» atamasi Sayena merevo so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan so‘nggi shaklidir. Ko‘ktubulg‘on, Murg‘ifomon, Murqibo singari g‘ayrioddiy qushlar esa mifologik qarashlarning Semurg‘ timsoli ta’sirida tashkil topib shakllangan turli xil ko‘rinishlardan iborat.

Semurg‘ timsoli fors eposida ikki xil ta’riflanadi. Birida u marhamatli, ikkinchisida – darg‘azab zolim, Elburza tog‘ida istiqomat qiladi. Turkiy eposida esa u doimo bir xil, ijobiy tavsiflanadi. Semurg‘ qahramonning mehribon do‘sti, himoyachisi, safarda hamroh, uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qiluvchi, sirli hodisalardan voqif etib, yo‘l ko‘rsatuvchi madadkor. Ayni paytda u yovuzlikning ashaddiy dushmani, qahramonni yetti qavat zulmat qo‘yniga olib chiqadigan yordamchi personaj.

Shu bilan birga u sehr-jodu kuchiga ega bo‘lib, uzoq masofani afsonaviy qisqa muddat ichida, ko‘z ochib yum-

guncha kechadigan vaqtda bosib o‘tadi. «Sen chaqmoqni chaqgin, alangani baland yoqgin. Kunchiqarda sen bo‘lsang, kun botarda men bo‘lsam, parimga alanganing issig‘i o‘tsa, ko‘zni yumib ochguncha oldingda hozir bo‘laman». «Yetti kecha-yu kunduz quyulib, daryoyi Bahrul azimga tushdi, ikki qanotini ko‘tarib suvga qarab chunonan urdiki, suvlar chor atrofga qopchib ketdi». Semurg‘ning qudrati va haybatli qiyofasi badiiy talqinda yana ham jiddiy tus oladi, timsoli yorqinroq gavdalananadi. «Semurg‘ uchganda hamma yoqni qorong‘ilik bosibdi. Bir mahal havo bulut bo‘lib, bo‘ron turib, chaqmoq chaqib, jala quyib, to‘polon bo‘libdi. Qarasa, Semurg‘ uchib kelayotgan ekan». Ko‘rinadiki, mifologik timsol talqinida suv muakkili Anaxitaning ta’siri seziladi. Uning asosiy vazifasi qahramonni himoya qilish, ko‘mak berish, yo‘l ko‘rsatishdan iborat. Semurg‘ qahramon sarguzashtida mo“jiza ko‘rsatadi va ezgulik yaratishda hal qiluvchi kuchga aylanadi.

Qaqnus qushining ramziy ma’nosı¹

«Avesto» animizm tushunchasining mohiyatini zuhur etuvchi omil sanaladi. U tabiat va jamiyatdagi hodisalarining azaliy to‘qnashuvi, ezgulik (Ahuramazda) va yovuzlik (Ahriman) ilohlarining o‘zaro omonsiz olishuvini vasf etadi. Semurg‘ ana shu kurashda ezgulik bunyod etuvchi, mif zaminida turib faoliyat ko‘rsatuvchi afsonaviy qush timsolidir.

Jahon xalqlari folklorida turli nom bilan atalgan g‘ayri-oddii qushlar naql etiladi. Ular dastlab timsol sifatida turli xil dunyoqarash, diniy e’tiqod va muayyan tasavvurlar zaminida paydo bo‘lgan.

«Semurg‘» atamasi Sayena merevo so‘zining fonatik o‘zgarishiga uchragan so‘zning shaklidir. Ko‘ktubulg‘on, Murg‘ifomon, Murqimomo singari g‘ayrioddiy qushlar esa

¹ Imomov K. Quyoshga qo‘ngan qush. // Sirli olam. 2002, 2-3 betlar.

mifologik qarashlarning Semurg‘ timsoli ta’sirida tashkil topib shakllangan turli xil ko‘rinishlaridan iborat.

Semurg‘ timsoli fors eposida ikki xil ta’riflanadi. Birida u marhamatli, ikkinchisida – darg‘azab zolim, Elburza tog‘ida istiqomat qiladi. Turkiy eposida esa u doimo bir xil, ijobiy tavsiflanadi. Semurg‘ qahramonning mehribon do‘sti, himoyachisi, sifatida hamroh, uzog‘ini yaqin, mushkulini onson qiluvchi, sirli hodisalardan voqif etib, yo‘l ko‘rsatuvchi madadkor. Ayni paytda u yovuzlikning ashaddiy dushmani, qahramoni yetti qavat zulmat qo‘yniga olib tushib, yana olib chiqadigan yordamchi personaj.

Burgut qushining amaliy san’at asarlarida ramziy ifodalanishi¹

Milliy timsollar va ramzlarning har biri milliy g‘ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasidir.

Islom Karimov

1998-yilda O‘rta asrlarga mansub Kerder xarobalarida (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Orol bo‘yi) qush tasviri ifodalangan sirlangan sopol kosachaning parchasi topildi. Uning tagi aylanasi – 13 sm, devori qalinligi -0,73, saqlanib qolgan yuqori qismi diametri esa -22 -24 smni tashkil etadi. Topilma IX-X asrlarga mansub, deb qayd qilinadi.

Kosachaning oq fonida qoramtir-jigarrangda bezak berilgan. Idishning yarim aylanadagi ichki qismida burgut tasviri bor. Rasmga qarab, qushning saqlanib qolmagan boshi o‘ng tomonga qaragan deb taxmin qilinadi. Qush patlari yo‘l-yo‘l chiziqlar orqali tasvirlangan, qanotning yelka qismi patlari baliq tangalari shaklida. Burgut gavdasi fonida to‘lg‘anayotgan ilon rasmi, uning dumি qush changalida ekanligini faraz qilish imkoniyatini beradi. Ilonning uzun

¹ Mambetullayev M. Burgut tasviri Kreder kosachasi // “San’at” jurnali. 1999 yil. № 1, 10-11 betlar.

tanasi uch yeridan uchbargli gullar bilan bezalgan. Qushning chap qanoti ichkarisida baliq tasvirini ko‘rish mumkin – xuddi shunday baliq tasviri qushning saqlanib qolmagan o‘ng qanotida ham bo‘lgan, deb taxmin qilsa bo‘ladi.

Kerder kosachasida qadim Sharq san’atida juda sevimli bo‘lgan mavzu – kuchlining zaif ustidan g‘alabasi, ya’ni shoh sultanatining ramziy g‘oyasi o‘z ifodasini topgan. Bunday mavzular hind-eron va turkiy madaniyatlar ildizlari qatlamlariga singib ketgan bo‘lib, ularning ko‘p asrlar davomida yonma-yon rivojlanganligi kuzatilgan. Ushbu mintaqada ana shu mavzu aks etgan idishning topilishi tasodifiy hol. Bu usullar ilk o‘rtta asrlardagi amaliy san’atning har xil turlarida uchraydi. Mana shunday hayvonlar tasviri Sosoniylar davriga mansub kandakorlik buyumlaridagi naqshlarda keng tarqalgan. Idish-tovoqlar va ko‘zalarda, odatda, afsonaviy, shuningdek, hayotda uchraydigan semurg‘, ot, burgut, tovus singari hayvon va qushlar tasviri mavjud. Ushbu qiyofalar-dagi qanotlar tasvirida yaqinlik bo‘lib, ular tuxumsimon yoki doira shaklidagi tangalar bilan to‘ldirilgan patlar bilan tugallanadi. Permdan topilgan VII asrning birinchi yarmiga mansub idishdagi ayolni olib ketayotgan burgut qanotlari tasviri, shuningdek, Ufadan (Boshqirdiston) topilgan VII-VIII asrga mansub kosachadagi burgut tasviri ham ana shunday. Kompozitsiyalardagi qanot va dum patlari, shuningdek, bo‘yin patlari, tangasimon qanotlar kabi unsurlarni aks ettirishda o‘xshashlik aniq seziladi. Bu holni Somoniylar davriga mansub kosachalardan birida tasvirlangan Semurg‘da ham ko‘rishimiz mumkin. Ushbu muqobillar qiyosi shuni ko‘rsatadiki, juda uzoq davrlar mobaynida, jumladan III asrdan to XI asrgacha qanotlarni aks ettirishda bir xil uslub qo‘llanilgan.

Markaziy Osiyo va Eronda chigalli qush – burgut qiyofasi koinot ramzi hisoblangan. Uning qiyofasida – osmonda suv va o‘simliklarni olib kelayotgan afsonaviy Xaom-Mitra

burguti timsoli mujassamlashgan,¹ Veda afsonalarida Indra burguti som o'simligi sharbatidan mangu umr beradigan obi olib keladi. Burgut ohu yoki boshqa hayvonlar bilan aks et-tirilsa, bu Mehrjon - kuzgi hosil bayrami, kuzgi kun va tun muvozanati tenglashgan davr ramzidir. Avestoda yirtqich qush Vargan- Vretrag'ni (Vedadagi Indra o'rni almashgan) ilohiy g'alabasining timsollaridan biridir. Yirtqich qush qiyofasida – burgut, lochin esa Xvarno – omad keltiruvchi – shohlik ilohiyoti timsolidir. Shu boisdan ham Xorazm shohi Vazamar burgut shaklidagi toj kiygan. Nisodan topilgan eramizdan avvalgi II-I asrlarga mansub Parfiya qalqonida ham burgut tasviri tushirilgan.² Dunyo xalqlarining ko'p ertaklarida burgut insonga ko'mak beruvchi sifatida aks etgan. Odamlar inson o'lgach, qush bu qalbni narigi dunyo podshosiga olib ketadi deb ishonganlar. Qalb qushi yoki qalbni olib ketuvchi qush haqidagi tasavvur Misrda, Bobil va Yunonistonda ham saqlangan. Psevdokallisfenning Aleksandr o'limidan so'ng, burgutning osmonga ko'tarilishi haqidagi hikoyati buni tasdiqlab turibdi.³

Rimda imperatorlar vafot qilgach, ularning qalbini osmonga olib ketish uchun burgut qo'yib yuborilgan. Markaziy Osiyoda topilgan suyakdon- assuari qopqoqlarda burgut tasviri uchraydi. Qush vujuddan ajralib chiqib, uzoq tog'li joylarga ketuvchi qalb ramzi sanalgan. Qoraqalpoqlar ham inson o'lganidan so'ng, uning qalbi qush bo'lib, ko'kka parvoz qiladi, deb ishonganlar. Qizig'i shundaki, ummaviylarning Damashqdagi mashhur masjidi⁴ «Burgut gumbazi» deb nomlangan. O'sha gumbaz tomon yuzlanganda kishi ro'parasida ajoyib va ulug'vor manzara namoyon bo'ladi.

Odamlar bu yerda uchayotgan burgutni ko'rayotgallariga ishonadilar – gumbaz qushning boshi, uchishga ko'tarilayotgan qismi – ko'ksi, yarim devori o'ngga uchish,

¹ Trever K.V., Lukonin V.G. Sasanidskoe serebro M., 1987.

² Derkevich V.G. Xudojestvenniy metall Vostoka VII-XIII vv. M., 1963.

³ Barisov A.Ya., Lukonin V.G. Sasanidskiye gemmi. L, 1963.

⁴ Pugachenkova G.A. Iskustvo Turkmenistana. M., 1967.131-b.

shuningdek, chap qismida ikki qanot hosil bo‘ladi. Aytish mumkinki, muqaddas masjidning qiyofasida qush timsolini aks ettirish tasodif emas.

Shu nuqtai nazardan kulolchilik san’atida qushlarning tasvir etilishi musulmon dunyonsida inson olamdan o‘tgach, qalbi qush bo‘lib uchib ketadi, degan tushuncha bilan man-tiqan va mazmunan bog‘liqdir. Odamlar bu yerda uchayot-gan burgutni ko‘rayotganlariga ishonadilar – gumbaz qushning boshi, uchishga ko‘tarilayotgan qismi – ko‘ksi, yarim devori o‘ngga uchish, shuningdek,¹ chap qismida ikki qanot hosil bo‘ladi. Aytish mumkinki, muqaddas masjidning qiyofasida qush timsolini aks ettirish tasodif emas, to‘g‘rirog‘i o‘rtalarda asrlardagi musulmonlar uchun bu oddiy hol edi.

Qadimgi o‘g‘izlarning diniy e’tiqodlari haqidagi ma’lu-motlarda berilgan tasvirlar ma’nolarini ko‘rib chiqish kishilarda alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki biz hikoya qilayotgan kosachaning topilgan joyi ular yashagan makonning bir qismi hisoblangan. Bu yerlarda asosiy totemlar sifatida lochin, burgut va boshqalar bo‘lgan. Ayon bo‘ladiki, xon o‘rdalarida oltin va kumushdan yasalgan qushlar tasviri (burgut, lochin) qo‘yilishi qadimgi urf-odatlar bilan bog‘liq. Temuriylar qarorgohlarida ham qushlar shakli tasvir etilgan buyumlar bo‘lgan(lochin, burgut).

Qushlarning ilohiyligi haqidagi tasavvur ba’zi bir xalqlarda (tojiklar, o‘zbeklar) tumor bezaklari, birinchi navbatda tustovuq, xo‘roz va tovus, ba’zi bir xalqlarda (qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq) ukki, qirg‘iy, lochin, burgut tasvirlari timsolida ko‘rinadi. Burgutga ehtirom qoraqalpoqlarda eng avvalo bola tug‘ilishi va tarbiyasi bilan bog‘langan. Bu sig‘inish, ehtiromning ilk ildizlari saklar davriga borib taqaladi.

Ilon tasviri Eron va Turk qabilalariga mansub. Eramiz-dan avvalgi IV-III asrlar va VII-XIII asrlarga mansub arxeologik topilmalarda uchraydi. S.P.Tolstov o‘sha paytda

¹ Ibn Djubayr. Puteshestviye. Perevod s arab., vstupitelnaya statya i primech. L. A. Semenovoy. M., 1984. 18-b.

ilonga sajda qilish mavjud bo‘lganligini to‘g‘ri belgilaydi. Diniy va ilohiy kuch sifatida turli xil bezak-taqinchoqlardagi sudralib yuruvchilar, quruqlikda yashovchilar va hashoratlarning turli marosimlarga oid tasvirlari qadim-qadimlarda ma’lum bo‘lgan. O‘zbek va tojiklarning bilaguzuklarida ilon tasviri o‘zlashtirilgan holda uchraydi. Ilon boshi tasvir etilgan bilaguzuklar Qoraqalpoq muzeyida ham mavjud. Bezak-taqinchoqlardagi ilon tasviri yovuz kuchlardan himoya qilish va ilonga sajda qilish rasmi bilan bog‘liq. U ikki xil maqomda bo‘lgan. Ilon olivjanoblik va donishmandlik ibtidosi sifatida namoyon bo‘lgan. Qadimgi Yunonistonda donishmandlik ilohasi – Afina dubulg‘asi ilon tasviri bilan bejiz bezatilmagan. Afsonalar va rivoyatlarda xazinalar, muqaddas daraxtlar, yer osti boyliklari va qadimgi qabrlar qo‘riqlovchi ajdarholar va ilonlar bilan qo‘riqlanganligi haqida hikoya qilinadi. Ilonlar ko‘p imkoniyatlarga ega bo‘lib, ular hatto yomg‘ir chaqira oladi, deb hisoblaganlar. Xitoyliklarning diniy e’tiqodiga ko‘ra, yerning yashnashi osmon ajdarhosiga bog‘liq. Hindistonda ilon suv va o‘simliklar ilohasi hisoblanib, hosilning yaxshi bo‘lishini u bilan bog‘laganlar. Afsonaga ko‘ra, kema suv osti qoyasiga urilib, teshilganida, o‘z gavdasi bilan bekitgan ilonni No‘h payg‘ambar qutqarib olishi lavhasi ham, Yazid e’tiqodida ilonning muqaddasligini oshirishga qaratilgan. Yazid e’tiqodollarida ilon bilan birgalikda Malik Tovus bo‘lib, u shayton timsoli hisoblanadi, yovuz ruh bo‘lsa-da, ammo yaxshilik ham qilishi mumkin».

Turkiy xalqlarning urf-odatlari bilan tuvaliklarning shomon marosimlarida o‘xshashlikni ko‘rish mumkin. Tuvaliklarning shomon libosiga yo‘l-yo‘l, ensiz mato osilgan bo‘ladi, u ilon ramzi. Mana shu yo‘l-yo‘l matoning biriga ikki shoh qo‘shilgan, kiyimning bu tomoni «olti boshli ilon Amirk‘a» deb ataladi, shomon bosh kiyimidagi ilon bosh deb atalgan, unga ikki qatorli qovri (chig‘anoq) tikiladi. Shomon doirasining qo‘l tutqichi quyi qismida ilon tasviri o‘yiladi,

shomon qamchisi ilon sifatida qabul qilinib, u yovuz ruhlar-dan himoya qiladi.¹

Bu yerda ilon shomonning homiysi va qo‘riqchisi sifa-tida namoyon bo‘ladi. Shunisi diqqatga sazovorki qoraqol-poq, qozoq, qirg‘iz, oltoylik va qator turkiy xalqlardagi e’tiqodlarga ko‘ra, yovuz mavjudodlar (alvasti va hokazo) va qo‘rqinchli ruhlar qamchidan qo‘rqib qochishadi. Qoraqal-poqlarda ilonbosh qovri (chig‘anoq)dan hujumdan himoya qiluvchi vosita sifatida ham foydalaniladi.

Ilon yoki ajdarho² ba’zan yov sifatida qo‘llaniladi Fir-davsiyning «Shohnoma» dostonidagi rivoyatga ko‘ra, Zahhok yelkasidan o‘sib chiquvchi ilonlar inson miyasi bilan oziqlanishadi. Afsonalarga ko‘ra, ko‘p shaharlar ilon ofatidan barbod bo‘lgan.

Baliqqa sajda qilish rasmi Markaziy Osiyo bo‘ylab keng tarqalgan bo‘lib, kavkaz va kavkazortida ham yoyilgan. Uning ildizi old Osiyo va O‘rta yer dengizining qadimgi xalqlaridagi o‘xhash diniy e’tiqodlari bilan bog‘lanib ketadi. Baliq bilan bog‘liq bo‘lgan rasm-rusumlar qoldiqlari Zardushtiylikda alo-hida o‘rin egallab, hatto musulmon davridagi an’analarda ham bu mavjudotga ehtirom, sajda uzoq vaqtlargacha mavjud bo‘lgan. Avestoda suv toshqini hamda baliq bilan bog‘liq juda ko‘p masallar uchraydiki, ular haqida Markaziy Osiyo xalqlarining ko‘plab afsona va diniy e’tiqodlari bor. Alovida holda esa pokizalik belgisi sifatida qo‘llangan. Unda ilohiy fazilatlar bor deb bilib, suv toshqinini u bilan bog‘langanlar.

Turli hodisa-ofatlar bilan to‘qnashuvlar hayvonlar, qush, ilon, baliq va hakazolar timsolida namoyon bo‘lib, bu qadimgi san’atning kosmogonik (olamning paydo bo‘lishi) va animistik (tafakkurning dunyodagi hamma narsaning joni bor deb hisoblagan ibridoiy shakli) tasavvurlar davrida keng tarqalganligi bilan izohlanadi. Bizning fikrimizcha, Kerder kosachasidagi qush, ilon va baliq tasvirlari havo va suv

¹ Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. M., 1948., 335-b.

² Potapov L.P. Ocherki narodnogo bita tuventsev.M.,1969, 351-352 b.

hodisa-ofatlariga qarshi kurash ramzini anglatadi. Yakonson Xersondan topilgan XII-XIII asrlarga mansub ilonlar qurshovidagi qush tasvirlangan qizil loydan ishlangan suv ko-salari bu mavzuni havo va suv hodisa, ofatlariga qarshi qadimiy ramz ekanligini ta'kidlaydi. Baliq va qushlar o'rtasidagi mantiqiy aloqalarni Fors va Xuzistonda yasalgan sopol buyumlardagi tasvirlar ko'rsatib turibdi.

Tug‘ va tug‘ro, burj va burch.

«Tug‘» bilan «tug‘ro», «burj» bilan «burch» faqat ohangi jihatidan o‘zaro bog‘liq so‘zlar emas. Ularning aksariyati – aynan milliy mustaqillik tufayli uzoq tariximiz qa’ridan dadil bosh ko‘tarib chiqqan, qayta iste’molga kirgan kalimalardir. «Burch»ning ham ma’no mohiyatida o‘zgarishlar yuz berdi. Lekin, aftidan, hamma ham bu atamalarni to‘g‘ri tushunib, o‘rinli ishlatayotgani yo‘q.

«Tug‘» ham, «tug‘ro» ham, shularga tutash «tamg‘a» so‘zi ham –sof turkiy atamalar. Bular turkiyyabon xalqlarning qadim davlatchilik an'analaridan so‘zlab turuvchi tu-shunchalardir. Ular forsiyga ham bizdan o‘tgan.

«Tug‘» – bayroq degani. U Buxoro taraflarda saqlanib qolgan, xalqimiz aziz avliyolarining qabrlari uzra tiklangan oq bayroq hozir ham uni «tug‘» deydilar.

«Tug‘ro» deb shoxlar farmonining boshida yirik harflar bilan alohida bezak berib bitiladigan sarlavhaga aytilgan. Demak, mustaqilligimiz haqidagi 1991-yilning 31-avgustida qabul qilingan tarixiy qaror sarlavhasi – bizning bosh tug‘romiz, desa bo‘lgulik. Lekin ba’zilar «O‘zbekistonning o‘z tug‘iyu tug‘rosi bor!» tarzida, «tug‘ro» so‘zini «tamg‘a» bilan chalkashtirib ishlatishyapti.

«Tamg‘a» esa yevropacha «gerb» tushunchasining aynan o‘zini anglatadi.

Xo‘s, mustaqil davlatiga ega bo‘lgan xalq sifatida milliy ramzlarimiz mohiyatidan-tarixiy asoslaridan qanchalik xabardormiz? Mana, milliy bayrog‘imizni olaylik. Yurtimiz

mustaqil deb e'lon qilinganidan ellik kunlar o'tar-o'tmas 1991-yilning 16-noyabrida, «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida»gi qonunga binoan, davlatimizning milliy bayrog'i qabul qilindi.

Endi xorijdagi turkistonliklarning bu bayroqqa munosabatini ko'ring. O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoligiga qabul qilinishi munosabati bilan AQShdagi Turkistonliklar jamiyatida yig'in o'tkazildi. O'zbekistondan borgan vakillar ham yurtdoshlariga Vatanimizning milliy bayrog'ini taqdim etdilar. Amerikadagi birodarlarimiz o'zlarini yashaydigan imorat tomiga tiklab qo'ydilar. Vatandoshlarimiz bu tantanaga bola-chaqalari, ahli ayollari bilan kelib ishtirok etdilar. Ularning ko'pchiligi O'zbekistonda tug'ilmanigan, aksariyati umr bo'yi Vatan diydoriga, ehtimolki, musharraf bo'limgan, faqat tomirlarida yurt qoni oqayotganining haqqi-hurmati, bayrog'imizni mo'tabar bilib, botbot ko'zlariga to'tiyo qilib surtdilar. BMTda O'zbekiston bayrog'i tiklangan 1992-yilning 2-mart kuni esa, Amerikada yashayotgan qanchadan-qancha turkistonlik Bosh Assambleya binosi oldiga to'plandi. Bayroq ko'tarilgan, vatandoshlarimiz davrasida gulduros qarsaklar yangradi, xuddi bayram kunlari osmonga mushak otilganida bolalar quvonchini qiy-chuvlashib ifodalaganidek, turkistonliklar boshi uzra shov-qin-suron turdi hamma bir-birini qutlagan, quchoqlagan, qalb tug'yonlari bevosita tilga chiqqan.

Ularni bu qadar xushnud qilgan narsa O'zbekistonimiz BMTga o'z milliy bayrog'i bilan borgani edi.

Ha, O'zbekistonimizning milliy tug'iga ega bo'lishi butun dunyoda mamlakatimizga munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi. Chindan, bayrog'imiz ozod yurtimiz ramzi yanglig' porlaydi.

Amerikada yashovchi bir millatdoshimiz - Kamol Toshkandiy bunday deydi: «Xalqlar orasida «Yurt qadrini – musofirdan, erk qadrini - quldan so'ra» degan gap bor. Bunga ortiqcha izoh kerak emas. Yurtimizning qadri ham, erki ham biz xorijdagi turkistonliklarga ayon. Axir, biz

yaqindagina Nyu-York ko‘chalaridan «Mustamlaka xalqlar haftaligi»da mazlum Turkiston bayrog‘ini ko‘tarib o‘tar edik. Endi esa yurtimiz bayrog‘i Birlashgan Millatlar Tashkiloti oldida mag‘rur hilpirab turibdi» («O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» haftaligi, 1992-yil, 28-avgust).

Mustaqil O‘zbekistonimizda o‘tgan ilk Navro‘z tantanalarini esingizdami? Navro‘zi olam sep yoygan 1992-yilning 21-mart kuni poytaxtimiz ko‘chalarining qariyb har qadamida milliy bayrog‘imiz hilpiradi. Bu yangi tug‘imiz qabul qilin-ganidan keyingi ilk ommaviy bayram edi. Quyosh charaqlagan o‘sha kuni bayrog‘imizning tabiat bilan naqadar uyg‘unligi yanada namoyon bo‘ldi. Osmon – xuddi bayrog‘imizning tepe qismidek ko‘m-ko‘k. Yerni uning pastki tarami yanglig‘ yam-yashil. Yeru osmon o‘rtasi - bayrog‘imizning oppoq «belbog‘i» kabi yop-yorug‘. Menga ingichka qizil chiziqlar ham shu kuni ertapishar shaftolilarning oq-qizil aralash yuz ochgan gullari-yu endi kushoyish topmoq taraddudiga tushgan mug‘jalari ramzi bo‘lib tuyuldi. Bunday daqiqalarda kishi hamma narsadan tuyg‘ulariga hamohanglik izlaydi va topadi ham. Xayol endi bevosita bayrog‘imizdagi oy va o‘n ikki yulduz tasviri sari boshlaydi. Oyu yulduz! Qadimiylar milliy ramz. «Sitora va mohi xossa»... Buxoroning so‘nggi hukmdori amir Sayyid Olimxon bino etgan ana shu yozgi saroyga bir-biriga yaqin, bir-biriga uyg‘un oyu-yulduz deb nom berilgan. Ma’lumki, «sitora»-yulduz, «moh»-oy.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tamg‘asida mavjud sak-kiz burchak- musamman ichida ham oy va yulduz aks et-tirilgan. Bayrog‘imizda bir oyu o‘n ikki yulduz bor. Yilimiz - o‘n ikki oy. Qadimul ayyomdan o‘n ikki oyda yil almashadi. Demak, oyu-yulduzlarimiz badiylik, ya’niki boqiy mustaqil-ligimiz ramzi.

Xayol o‘z-o‘zidan tarix sari yetaklaydi...

Bayroq tushunchasini odamzod kecha yo bugun o‘ylab chiqargani yo‘q. Ko‘plab qadim Sharq davlatlarinining bayrog‘iyu o‘z tamg‘asi bo‘lgan. Olimlarning yozishicha, Ol-moniyada hali «gerb» tushunchasi paydo bo‘lmasidan ancha

oldin, ya’ni bundan ikki yarim ming yil muqaddam Erondan Oltoygacha ulkan mintaqalarni egallagan turk hoqoni O‘g’uzxon davlatida nemischa «erbo» so‘zining ma’nosini ifoda etadigan «tamg‘a» atamasi iste’molda bo‘lgan. U ma’lum hukmdorga meros o’tgan davlat va mulkka egalik belgisi hisoblangan.

Muhtaram olimlarimizning Mirzo Ulug‘bekka asoslanib ma’lumot berishicha, XIII-XIV asrlarda hozirgi O‘zbekistonimiz tuprog‘ida hukm surgan davlatlarda savdo karvonlaridan olinadigan «tamg‘a solig‘i» degan soliq bo‘lgan. Hatto ruscha «tamojnya» so‘zi ham, aslida, «tamg‘a boji» birikmasidan kelib chiqqan.

Davlatimiz tamg‘asida Humo qushining aksi bor. Bu - qadim ma’naviy merosimizdagi «qanotli do’stlarimiz» bilan bog‘liq ramzlarni birrov xayoldan o’tkazishga, birinchi galda, hazrat Alisher Navoiyning qushlar haqidagi asari-«Lison ut-tayr»ni varaqlashga ishtiyoq uyg‘otadi.

Albatta, Humo qushi tamg‘amiz uchun xalqimiz ongu shuurida uzoq zamonlardan buyon yashab kelayotgan tasavvurlarga tayangan holda tanlangan. Navoiy ham «Lisson ut-tayr»da qushlar haqidagi xalq xayoloti an’analariga asoslanadi. Eng muhim, dostonda aynan Humo timsoli ham yaratilgan. Shoir uni Humoy tarzida tilga oladi.

...Qushlar Hudhud boshlagan yo‘lga yurib, Semurg‘ni izlab parvoz etadi. Biroq bu yo‘l— qushlar dastlab o‘ylaganichalik oson yo‘l emas edi. Sal o’tmay ular bag‘oyat mashaqqatli parvozdan bosh tortib, Hudhudga bir-bir uzr ayta boshlaydi. Ularning aksariyati oldingi hayoti ham yomon emasligini bahona qiladi. Ana shu uzr aytgan qushlar orasida Humoy ham bor. Shoir uni «sohibfar», ya’ni «far egasi» deb ta’riflaydi. «Far» so‘zi «go‘zallik», «husnu-jamol», «chiroy», binobarin, «nur», «ravshanlik», «yorug‘lik» ma’nolarini ham bildiradi. Podshohlar tojidagi qimmataho toshlarning nur taratib turishiga ishora qilinib, «far» ma’jozan «sha’n», «shavkat», «dabdaba», «shohlar haybati» ma’nolari-

da ham kelgan. Demak, Humoyni shoir shohona shonushavkat homiysi sifatida ta'riflaydi.

Ajdodlarimiz davlatlarining tamg‘asinigina emas, bayrog‘ini ham juda qadrlagan. Eng muhimi, qadim turkiy davlatlar bayrog‘ining ko‘vida oy va yulduz, hech bo‘lmasa, yo oy, yo yulduz mavjud. Turkiyadagi Turk standartlari (ramzlari) instituti tayyorlab chop etgan (1993- yilda) bayroqlar sirasidagi 16 turkiy tarixiy davlat tug‘idan beshtasi ana shunday. 1299-yildan to 1922-yilgacha hukm surgan Usmonli (turk) xoqonligining qip-qizil bayrog‘ida bir oy va bir yulduz shakli bor. 1922-yili tashkil topgan Turkiya Jumhuriyati ana shu tug‘ni meros qilib oldi, ammo endi ingichka oy to‘linroq oy, sakkiz qirrali yulduz esa besh yulduz bilan almashtirildi, xolos. Oq Xun hoqonligining oq-oppoq bayrog‘ida tepadan-pastga qarab joylashgan uchta besh yulduz bor edi. Hazar hoqonligining ko‘m-ko‘k bayrog‘ida esa beshta besh yulduz o‘zaro burchak hosil qilib joylashgan. 963-1183-yillarda hukm surgan g‘aznaviylar sultanati tug‘ida oy aks ettirilgan. 1236-1502-yillarda siyosat yurgizgan Oltin O‘rda davlati bayrog‘i o‘rtasida ham tepaga qaragan oy aksi mavjud.

Endi zamонавиј 12 турк давлати байрог‘идан yetтитасида оyu-yulduz борлигini esga оlaylik. Chunonchi, Turkiya Jumhuriyati, Ozarbayjon Respublikasi bayroqlarida yulduz bittadan, Turkmaniston bayrog‘ida beshta, O‘zbekistonimiz tug‘ida esa 12 yulduz aks etgan.

Xo‘sh, ana shu 12 yulduz nimaning ramzi?

Sharqda ikki xil taqvim bor. Biri – Oy hisobi bo‘yicha, ikkinchisi – Quyosh hisobi bo‘yicha. Birinchisini «qamariy yil hisobi», keyingisini «shamsiy yil hisobi» deydilar. Qamar-Oy, Shams-Quyosh. Qamariy yil hisobi Oyning Yer girdida aylanishiga qarab yuritiladi. Shamsiy yil hisobi esa tabiatning Quyosh bilan bog‘liq o‘zgarishlariga asoslanadi. Aslida, Yer Quyosh atrofini bir yilda aylanib chiqadi. Bizga esa zohiran Quyosh Yer atrofida aylanayotgandek ko‘rinadi. Qadimiy fa-

lakiyot ilmiga ko‘ra, Quyosh bir yil mobaynida o‘n ikki burjni aylanib chiqadi. Har bir burjda u bir oydan bo‘ladi. Bu burjlarning dastlabkisi – hamal. Quyosh Navro‘z kuni oxirgi burj - hamalga o‘tadi. Yil shu kundan boshlanadi.

Bayrog‘imizdagi o‘n ikki yulduz – ana shu burjlarning ramzi. Rost, boyaga eslaganimiz Navro‘z kuni Quyosh hamal burjidan turib ilk bor mustaqil O‘zbekistonga boqayotgan – nur taratayotgan edi!

Shunday deb o‘ylaganim uchunmi, 1992-yilning Navro‘zida bayrog‘imizni shaharning qaerdaki ko‘rsam, yuqori qatordagi birinchi yulduzga kamoli diqqat bilan qaragim kelaverdi. Shuni tushundimki, biz qadim Sharqning mustaqil bir davlati bo‘ldikmi, bas, endi tug‘imizda muhrlangan o‘n ikki yulduzni Grigoriy taqvimi tartibi bo‘yicha yanvar, fevral, mart, aprel va hokazo... oylar tarzida anglamasligimiz kerak. O‘zbekistonning har bir endi bayrog‘imizdagi barcha belgilardan to‘liq xabardor bo‘lishi, ularni sharhlay bilishi shart. Fuqarolik burchi shuni taqozo etadi.

Mana, muchalni oling, 1994-yil - It yili. 1-yanvardan bu yog‘iga necha kishining yangi tug‘ilgan farzandi kela-jagiga qiziqib, fol kitoblar-goroskoplardan It yili haqidagi ma’lumotlarni o‘qib yurganini ko‘rdim. Yo‘q, birodarlar, muchal yili 1-yanvardan emas, 21-martdan boshlanadi. Agar farzandingiz 1994-yilning 21-martigacha tug‘ilgan bo‘lsa, uning muchali It emas, Tovuq!

Endi shamsiy yil hisobidagi oylarni sanab o‘tay, qavs ichida ularning boshlanish kuniga mos kelishi bildirib boriladi: hamal (21-mart), savr (21-aprel), javzo (22-may), sarton (22-iyun), asad (23-iyul), sunbula (23-avgust), mezon (23-sentabr), aqrab (23-oktabr), qavs (22-noyabr), jadiy (22-dekabr), dalv (21-yanvar), hut (20-fevral).

Bayrog‘imizdagi har bir yulduz bir burjning ramzi, deyi-ladi. Aslida, har bir muayyan burj yulduzlar turkumini bildiradi. Oylar ana shu turkumlarning nomi bilan yuritiladi. Bu nomlarning lug‘aviy ma’nosini bilmaslik, mumkin emas.

Har bir burjni qadimgilar muayyan bir suratda tasavvur qilganlar. Hamal-qo'y yoki qo'zi, savr-buqa, javzo-egizak yoki beli oq-qora qo'y, saraton-qisqichbaqa, asad-arslon, sunbula-qo'lida bug'doy boshog'i ushlab olgan qiz, mezon-tarozi, aqrab-chayon, qavs-belidan quyi qismi ot shaklidagi va yoydan o'q otayotgan odam, jadiy-belidan pastki qismi baliq dumidan iborat shoxli echki, dalv-qo'lidagi idishdan suv to'kib turgan kishi, hut-dumlari bir-biriga tasma bilan bog'langan baliqlar shaklida xayol qilingan.

Quyosh mazkur burjlarga kirganida tabiatda ro'y bera-digan ajib o'zgarishlar shoirlar uchun zo'r ilhom manbai hisoblanadi. O'zbek adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy she'riyatida o'n ikki burj bilan bog'liq bir olam tasvir va tasavvur bor. Ayniqsa, dostonlarning me'rojga bag'ishlangan boblarida Navoiy burjlarni ko'p tilga oladi. Me'roj, bilamiz-ki, Muhammad alayhissalomning Buroq laqabli uchar otda Quddusga qilgan tungi sayohatlaridan so'ng Jabroil alayhis-salom ko'magida to'qqizinchi osmonga Alloh huzuriga parvozlari. Bu hazrati payg'ambarimizning buyuk mo'jizalardan biri. Navoiy mavjud olti dostonining har birida bittadan bobni ana shu me'roj tasviriga bag'ishlagan. Bu tasvirlarning hammasida ham payg'ambarimizning mavjud o'n ikki burjni bosib o'tganlari qalamga olinadi. Lekin, mahoratni ko'ring-ki, har gal buni shoir yangi-yangi ifodalar, ma'nolar, mazmunlar bilan bayon etadi.

Masalan, «Lison ut-tayr»da payg'ambarimizning burjlar oralab o'tgan sayohatlari tasviri shunday boshlanadi:

Farrididdin topti qo'zi - qo'chqorliq,
Savrg'a yetti asadkirdorliq.

Demak, payg'ambarning nurlaridan qo'zi-qo'chqordek, savr, ya'ni buqa-arslondek kuchga ega bo'libdi. Agar yilning birinchi oyi-navro'zdan boshlanadigan hamal burjining qo'zi tarzida tasavvur qilinishi, «hamal»ning lug'aviy ma'nosi «qo'zi»ekanini inobatga olsak, bu yerda Muhammad alayhissalomning xuddi Quyoshga o'xshab, burjlardan o'tayotganlarida ul zoti sharifdan taralgan nur ta'sirida qo'zi qo'chqor

bo‘libdi, degan ma’noni anglaymiz. Savr-buqa, dedik. Asad esa-arslon. Bu oylar ana shu hayvonlar suratida tasavvur qilinganini bilasiz. Demak, ikkinchi misrada Rasulullohning savr va asad burjlaridan o‘tganlari ifodalangan.

Hazrat Navoiyning milliy bayrog‘imizga yulduzlar tarzida muhrlangan o‘n ikki burj haqidagi tasvirlarni batafsil ko‘rib o‘tish alohida bir suhbatga mavzudir. Shu qisqa tahlillardan ham bilinib turibdiki, bayrog‘imizdagi burjlar haqidagi ota-bobolarimizdan juda boy meros qolgan.

Quyosh har yili ana shu o‘n ikki burjni aylanib chiqadi. Yil ketidan yil kelishi ham muqarrar. Quyoshning burjlar uzra sayri abadiy ekan, to ro‘zi Mahshar osmon-ko‘k, olam-yorug‘, Yer esa yam-yashil bo‘laveradi. Ona zaminimizga kunduzlari Quyosh, kechalari Oy yog‘du sochaveradi. Shularni hisobga olganimizda ham milliy bayrog‘imiz bus-butunicha abadiylik ramzi ekani oydinlashadi. Demak, O‘zbekistonimizda hayot hamisha – to abadiy bardavom bo‘laveradi, inshoollo!

Hamonki, milliy bayrog‘imizdagi o‘n ikki yulduz tasviri o‘sha qadimiy falakiyotimizdagi burjlar bilan ramzan bog‘liq ekan, ota - bobolarimizdan qolgan burjlar haqidagi tasavvurlarga aloqador boy merosimizni o‘rganish hammamizning fuqarolik vazifasi hisoblanadi.

Biz bugun mustaqil davlatga, milliy bayrog‘imiz, davlat tamg‘asiga, go‘zal madhiyamizga, asosiy qonunga, o‘z pulimizga, demokratik asosda saylangan Prezidentimizga ega xalqmiz. Avvallari buni tushlarimizda ham ko‘ra olmasdik.

Vatanning qadriga yetgan har bir kishi bu timsollar mohiyatini teran anglashi, kezi kelganida, ularni burro-burro tushuntira olishi kerak.

Bu balandparvoz gap emas. Bu – XXI asr bo‘sag‘asida turgan bashariyat erishgan umummadaniyat. Bu - shu vatan farzandi bo‘lgan har bir odamning muqaddas burchi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Sherdor madrasasi peshtoqida qaysi hayvonlarning ramziy ma'nosi ifodalangan?
2. Humo qushi qanday ramziy ma'noga ega?
3. Sherdor mandrassasida ohu nimaning ramziy ma'nosi-da tasvirlangan?
4. Hayot, yorug'lik va issiqlik ramzi nima?
5. Qaysi rang poklik ramzi hisoblanadi?
6. Sherning ramziy ma'nosi?
7. Naqshning qanday turlari mavjud?
8. Ilonning ramziy ma'nosi?
9. Burgut qushining ramziy ma'nosi haqida nima bilasiz?
10. Humo qushi qaysi me'moriy obida peshtoqida tasvirlangan?
11. Gulning ramziy ma'nosi nima?
12. Lola qaysi faslning ramziy belgisi?
13. Madoxilni ta'rifini keltirib bering?
14. Qo'chqor shohi qaysi xalqlarning naqshlarida uchraydi?
15. Qaysi xalq naqshlarida xo'roz, mevalar, kungaboqar shakllari ko'plab uchraydi?

VI BOB. AMALIY SAN'AT ASARLARINING BADIY TAHLILI

Kulolchilik buyumlari bezaklaridagi falsafa

Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyanganidagina qudratli kuchga aylanadi.

Islom Karimov

Qadimdan xalqimiz kulolchilik buyumlarini turli-tuman bezaklar bilan ishlagan. Ko‘plab arxeologik qazilmalar fikrimizning dalili bo‘la oladi. Ayniqsa, Xorazmdagi Qo‘y qirilgan qal’a (miloddan avvalgi III). Termizdagi Qoratepa (II-VI asrlar), Mavrdagi Gavr qal’a (VIII asr) kabi qadimiylar turarjoy xarobalaridan topilgan idish parchalari bunga yorqin misol bo‘la oladi. Toshkent, Samarcand, Buxoro, Farg‘ona kabi yirik shaharlarda arxeologik qazishlarda juda chiroyli bezalgan ko‘za, lagan, kosa kabi kulolchilik buyumlari topilmoqda. Ayniqsa, Afrosiyobda topilgan X-XI asrlarga oid idishlar kishini lol qoldiradi. Laganlarda juda chiroyli qilib ishlangan bezaklar arab alifbosining epigrafika usulida yozilgan bitiklar bo‘lib, «Sabr-shodlik kaliti», «Sodiq do‘sit baxt emasmi», «Baraka manbai ilmdir», «Oliyhimmatlilik kaliti ilmdir» kabi hikmatli va sermazmun gaplar keltirilgan. Bunday bezakli idishlar xona tokchasini bezash bilan bir qatorda o‘ziga xos shior vazifasini ham o‘tagan. O‘sha davrlarda xalq donishmandlari o‘z fikrlarini targ‘ib qilishda bunday usullardan ham keng foydalanishgan. Kulollarimiz ommani ezgulikka undovchi, ilmning qadr-qimmatini aks ettiruvchi shiorlarni omma orasida yoyishga muvaffaq bo‘lganlar.

Toshkentda ham arxeologik qazishlar natijasida qadimda ishlangan kosa topilgan bo‘lib, kosaning ichki qismida islimiy naqsh zaminida humo qushi badiiy obrazi tasvirlangan. Bu bilan kulol san’atkori o‘z falsafiy fikrini badiiy obraz orqali foniylar dunyoda insorlarga tinchlik, yaxshilik, baxt-

saodat, farovonlik yo‘lidagi orzu-umidlariga erishishlarini ifodalagan.

O‘zbek milliy kulolchilik buyumlaridan biri lagandir. Chetlari biroz ko‘tarilgan, likopchadan katta, quyuq ovqatlar, ho‘l mevalar solinadigan idish lagan deyiladi. Laganlar qadimdan ishlatilib kelayotgan idish turlaridan biri bo‘lib, uni kulollarimiz islimiyl, giriyl, epigrafik usulida yozilgan yozuvlar, har xil qush, hayvonlar, hattoki olam surati bilan bezaganlar.

Lagan nasiba ramzi bo‘lib, u doira shaklida bo‘lgani uchun olamni bildiradi. Ya’ni inson bu foniyn dunyoda xoh shoh, xoh gado bo‘lsin o‘z nasibasi (rizqi) bilan tug‘iladi. Hech bir odam boshqa bir insonning rizqini tortib ololmaydi. Muqaddas kitobimizda ham rizq haqida shunday deyilgan:

«O‘rmalagan narsa borki, barchasining rizqi Allohnинг zimmasidadir...» (Xud.6).

«O‘z rizqu-ro‘zini ko‘tara (yoki topa) olmaydigan qanchadan-qancha jonzodlar bordir. Alloh ularga ham, sizlarga ham rizqu-ro‘z berur. U eshituvchi, bilguvchidir» (Ankabud, 60).

Rizq haqida ota-bobolarimiz shunday rivoyat qiladilar:

«Bir vaqtlar zaif bir baliqchi ov qilar ekan, juda kuchli, katta baliq qarmog‘iga ilindi. Uni tortib olishga baliqchining kuchi yetmas edi. Baliq qarmoqni tortib ketdi. Buni ko‘rgan boshqa baliqchilar: «Shunday baliq ilingan edi, qo‘ldan chiqarding-a», - dedilar.

Baliqchi do‘stlariga:

- Ey, do‘stlar! U baliq mening rizqim bo‘lmasa, baliqning esa dunyodan rizqi uzilmasa, nima qilay? Uning hali bu dunyoda yeyishga ovqatdan ichishga suvdan rizqi bor ekan!- dedi.

Rizqsiz baliqchi Dajlada baliq tuta olmaydi. Ajali yetmagan baliq ham qarmoqqa ilinmaydi, to‘rga tushmaydi. Har bir odam bu dunyoda o‘z rizqini yeydi. Rizqi bitganning ajali keladi, o‘ladi».

«Har bir jonzod o‘zi uchun taqdir bergen rizqi tugama-guncha o‘lmaydi. Taqdir tomonidan yozilgan rizq o‘z sohibini (egasini) albatta topadi. Shu sababdan rizq uchun boshni har tarafga urmaslik kerakdir. Alloh o‘zi yaratgan qullarining rizqini beradi. Har bir mo‘min buni yaxshi bilishi va o‘zini yomonliklardan, yolg‘ondan, hiyladan, birovlarni aldashdan saqlashi kerak. Chunki rizq Allohga oiddir. Qulining rizqini o‘zi beradi».

Kulollarimiz laganning bezagida baliq tasvirini ishlaganlar. Baliq xushyorlik ramzi. Bu bezak orqali: Insonlar bu dunyoda hushyor bo‘ling, o‘z rizqlaringizni topayotgarningizda ehtiyot bo‘ling. Axir rizq ikki xil bo‘ladi. Biri halol, ikkinchisi harom. Siz foniy dunyoda halol rizqingiz bilan kun kechiring. Harom rizq oqibati yomon bo‘ladi, deydilar.

Misol tariqasida rishtonlik usta kulol Sh.Yusupov yasa-gan lagan bezagi falsafiy dunyosini naqsh san’ati tili orqali o‘qib ko‘raylik va undan falsafiy fikrlarini bilib olamiz. Lagan cheti gir aylangan islimiy hoshiyali naqsh bilan bezal-gan bo‘lib, hoshiya olti bo‘lakka bo‘linib, uch bo‘lagi to‘qroq rangda, to‘rsimon naqshda bezalgan, qolgan uch qismi oppoq zaminda o‘simlik naqshi gajaklar chiqarib aylanma erkin harakatda o‘sib borishi tasvirlangan. Bu insonning yaxshi kunlarini eslatadi. Yuqoridagi to‘rsimon to‘q havorang katta nuqtalar bezagi esa insonning og‘ir kunlarini eslatadi. Bu bilan oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘ bo‘ladi. Ya’ni insonni foniy dunyoda mu-sofirdek hayoti quvonch va tashvishlardan iboratdir, degan falsafiy fikrni beradi.

Laganning markaziy qismi daraxt va uning atroflari islimiy naqshlar bilan bezatilgan. Doira ichida shakl foniy dunyonи, daraxt esa insonning hayotini, atrofdagi islimiy naqshlar tabiatni, undagi gullar tabiatning go‘zalligini tasvir-laydi.


Bu bezak orqali kulol usta inson foniy dunyoga keladi, ko‘karadi, o‘sadi, ulg‘ayadi, hayot quvonchi, tashvishlarini, achchiq va chuchugini tatib ko‘radi. Ba’zi odamlar o‘zidan

biror yaxshi narsa qoldirmaydi, demoqchi. Bu bilan inson biron daraxtga, ya’ni yaxshisini mevali, yomonini mevasiz bir quruq daraxtga o‘xshatiladi. Ya’ni mevali daraxt o‘zini shirin-shakar mevasi bilan insonlarga foyda keltiradi.

Lagan markazidagi daraxt yonida ikki xil, ya’ni asimetrik islimiylar naqsh tasvirlangan. Daraxtning chap tomonidagi naqsh insonning imkoniyatidir. Bu bilan kulol foniy dunyodagi insonlarning xohishi va imkoniyati bo‘ladi, lekin ular hech qachon birdan bo‘lmaydi, degan falsafiy fikrni aytadi.

Laganni osmonrang koloritda olinishi, xuddi foniy dunyoda insonlarni yomon kundan asrash ramziy ma’nosida olingan.


Lagan markazidagi daraxt pastdan-yuqoriga o‘sib ulg‘ayadi va foniy dunyodan ko‘z yumadi. Buni daraxtning uchi diraning chetiga borib taqalganligi ko‘rsatib turibdi.



46-rasm. Afrosiyobdan topilgan laganchaga (X-XI asrlar) arab yozuvining nasx turida «Ilm olishning avvali achchiq nihoyasi shirindir», deb yozilgan.



47-rasm. Bu laganchaga (X-XI asrlar) arab yozuvining kufiy turida «oliyhimmatlik kaliti ilmdir», deb yozilgan.



48-rasm. Lagan va sopol idish. 1960-yil. Shahrisabz K.Xazratqulov.

Qadimgi likopchalardagi bezaklar siri

Sirdaryo viloyatidagi Kultepa eski shahri qazilmalarida vaqtida Qoraxoniylar davriga mansub ashyolar ya’ni sopol qadah, kosa, ko’za, xum, tog’ora va boshqa ko’pgina sirlangan idishlar topilgan. Shular ichida o’ziga xos sirlangan, sathi yassi, chekkalari parrakli ko’ngirali qilib bezatilgan XII asrga xos idish topilgan. Kulol yasagan likobchaning to’rtta parrakchasi butun, ikkitasi shikastlangan. Parrakchalar 13 ta bo’lib idish tagi notejis, bir xil emas, diametri 15 *sm*, tag aylanasi 10 *sm*, balandligi 1,5 *sm*. U yashil rangda sirlangan bo’lib ora tomonida qisman faqat parraklariga sir berilgan. Ozroq qavariq, tagida sir tomchilari va dog’lari bor. Likopchani parraklari va o’rta qismlari bezatilgan.

Ushbu likobchadagi bezaklarni badiiy tahlil qilib, ularda yashiringan ramziy ma’nolarni o’rganamiz.

Likopchani umumiyligi ko’rinishi gul ko’rinishiga ega bo’lib, olam go’zalligini, insonni surati va siyrati go’zal bo’lsin degan ramziy ma’noga ega. Likopchaning chetidagi to’lqinsimon chizig’i, insonni hayoti bir tekis emasligini bildiradi. U faqat ezgulik yo’lida yurishi kerakligi hamda kun, tun va kunduzdan iborat ekanligi haqida ko’p hikmatlar borligini bildiradi. Inson umri o’tkinchi ekanligi komillik darajasiga intilishi lozim deyiladi. Yillar, asrlar davomida insonlar bu foniylar dunyoda o’z amallari bilan mehmon bo’lib o’taveradilar. Umar Xayyom ta’biri bilan aytganda “Insonni hayoti bir karvonsaroyga o’xshaydi, uning bir eshididan kirib tursalar ikkinchi eshididan chiqib turarlar” deydi. Insonlarni hayoti bamisol suvday tez o’tib ketaveradi. Inson hayotda nima uchun yashayotganini anglamog’i hamda faqat ezgulik yo’lida yurishi kerakligi haqidagi hikmatni beradi. Likopcha markazidagi bezak doira shaklida dinamik holatda tasvirlangan. Doira shaklidagi bezakni markazida to’rt yaproqli iroqi gul hamda doirani to’rtta tomonida uchta uchburchak shakllar tasvirlangan. Doira chetiga uchburchakli quyosh nurlari aks ettirilgan.

Doira shakli olamni, yerni bildiradi, to‘rt yaproqli iroqi gul charxpalakni bildiradi. Ikkinci ma’nosi doirani to‘rtga bo‘lib turishi ya’ni 1 yil 360 kundan ya’ni to‘rtta fasldan iboratligi, har bir fasl uch oydan iboratligiga ishora qiladi. Naqsh markazida dinamik holatga ko‘tariladigan to‘rt yaproqli iroqi gul charxpalakni ramziy ifodalanishining sababi shundaki, unda yer ham quyosh ham umuman butun borliq abadiy harakatda ekanligi uqtirilgan.

Idishda ikkita katta halqa berilgan bo‘lib ular markazga qarab uchburchaklar ko‘rinishida ya’ni quyosh nuriga o‘xshab tasvirlangan.

Unda barcha sayyoralar Yer, Quyosh va boshqalari bilan o‘zaro uzviy bog‘liqligi aks ettirilgan. Ikkita katta xalqalarni uchburchak shaklidagisini ketma-ket berilishi koinotning cheksizligini bildiradi.


Parrakchalardagi tasvirlar talqinida qiyinchilik bor. Gap shundaki, parrakchalarning 4 ta butun va 2 ta shikastlanganida naqsh takrorlanmaydi. Taxmin qilish mumkinki, bu asos yo‘qolgan qismlarida ham saqlangan. Ko‘rinib turibdiki, bular shunchaki naqshlar emas, balki biror-bir ramziy ma’noga ega. Saqlanib qolgan kungiralardagi – bezaklarida quyosh maydoni va osmon jismlari ramzlari bor. Ularning ayrimlarida o‘roq va oy, doira va quyosh aksi aniq bilinib turibdiki, nuqta belgilari sifatida qayd etilgan chiziq va uchburchakli shakllar o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan yetti sayyorani anglatishi mumkin.

Parrakchalardagi boshqa “asosiy” belgilar nimani anglatishini taxmin qilish qiyin.

Xulosa qilib aytganda, kulolchilik buyumlari amalda ovqat yoki meva qo‘yish uchun ishlatilibgina qolmasdan, balki insonlarni tarbiyalaydi, ruhiy ozuqa, falsafiy fikr beradi, hamda insonlarni davolaydi. Ota-bobolarimiz qoldirgan amaliy san’at namunalarini davom ettirib, chuqurroq ilmiy o‘rganaylik.¹

¹ Aleksey Gritsina Idish XII asr taqvimi. San’at jurnali 1999 № 2, 6-7 betlar.

Ularning tarbiyaviy, falsafiy, ruhiy va shifobaxsh qirralarini xalqimizga yetkazaylik, ayniqsa, yoshlаримизга о'rgataylik. Ularning ma'naviy dunyosini shakllantiraylik. Talaba yoshlаримизни go'zalliklarni his qilish va ulardan bahramand bo'lishga hamda o'z qo'llari bilan go'zalliklarni yaratishga o'rgataylik.



49-rasm. Sirdaryo viloyatidagi Kultepa eski shahridan topilgan likopchani (XII asrga tegishli) ustidan ko'rinishi. 1- iroqi gul, 2-romb bezak, 3-aylana va arrasimon bezak, 4-ikkita katta doirasimon bezaklar, 5-to'lqinsimon chiziq 6- parrakdagi bizga noma'lum bezaklar.

Milliy do‘ppi bezaklarining falsafasi

Shohu toju hil’qatekim
Men tomosha qilgali.
O‘zbegim boshida qalpoq,
Egnida shirdoqi bas.

Alisher Navoiy

Boy tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining milliy timsollaridan biri uning an’anaviy kiyimlari hisoblanadi. Hozirda milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, yangi binolarimiz milliy an’analar asosida qurilib, shaharlarimiz ko‘rkiga ko‘rk qo‘shtmoqda. Milliy liboslarimiz ham moddiy va ma’naviy yodgorliklarning boshqalari kabi xalqimizning o‘ziga xosligini aks ettiradi va etnik belgilarini namoyish etadi.

O‘zbek xalq amaliy san’atining eng ko‘p tarqalgan va ommalashgan turlaridan biri – do‘ppi o‘zbek milliy kiyim – boshlarining biri sifatida xalqimiz hayoti, an’analariga singib ketgan.

Do‘ppi turkiy so‘z bo‘lib, tepa ma’nosini bildiradi. Uni Markaziy Osiyo, Eron va ayrim o‘rta Sharq mamlakatlardan, Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Shinjonda, Volga bo‘yi tatarlari va boshqalarda ham ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonda Toshkent, Chust, Buxoro, Samarcand, Boysun, Shahrisabz do‘ppilari mashhur bo‘lib, ular alohida ahamiyatga egadir. Uning iroqi, chust, gilam do‘ppi, chakma to‘r, qizil gul, piltado‘zi, zardo‘ppi, to‘ldirma deb nomlangan xillari bor.

Do‘ppido‘zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan amaliy san’at turi bo‘lib, uni qadimiylar haykallarda, yodgorliklarda, qo‘lyozmalarda, devoriy rangtasvirlarda, o‘rta (XV-XVI) yaratilgan kitob miniatyuralarida, hattoki xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham ko‘rish mumkin. Xalqimizda “qonli do‘ppi” nomli bir rivoyat bor.

Farg‘onani bosib olish ilinjidagi qirq ming kishilik yunon – makedon qo‘shtini Ustrushona (hozirgi O‘ratepa) sari yopirilib keladi. Bu yerda ular qachonlardir Eronning

shohi Kir barpo etib ketgan Kibeskata qal'asining himoyachilaridan ta'zirini yeydi. Mard zardushtiyalar makkor yunonning aldam-qaldamlariga uchmaydilar hamda uning talonchilarini qal'a ichkarisiga bir qadam ham kiritmaydilar. Jang juda uzoq davom etadi.

G'animni holdan toydirib,
Qirq bahodirni qamxada qoldirib.
Qal'a himoyachilarining beri
Oshdilar Yaksartdan nari.
Qirqovlon astoydil jang qilib,
Raqib holini tang qilib.
So'ng o'zlarini olovga otdilar
G'animlar hayratda qotdilar.
Otashparast edi qirq botir,
Ular uchun eng sharaqli ish
Olov bo'lish, Quyoshga qo'nish!

Eron, Baqtriya, Sug'd singari yurtlarni bemashaqqat qo'lga kiritgan Maqduniya (Makedoniya) qaroqchisini erk-sevar fag'onaliklar jasorati esankiratib qo'ydi. U qal'aga kirib berkindi va qo'shining qal'aga sig'magan qismi tevarakda chodir tikladi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra (Arian va Strobinni guvohlik berishicha) o'sha tun farg'onaliklar mingtacha yunonni yer tishlatib ketdilar. Tungi chiqishlar keyingi kechalarda ham davom etdi. G'azablangan shoh besh yuz mohir palaxmonchisini qarorgoh atrofiga qo'yib chiqdi va ularga tongga qadar farg'onaliklarning xoh o'ligi bo'lsa-da, tutib kelmoqni buyurdi. Shafqatsiz jang bilan tun kechdi. Palaxmonchilar farg'onaliklarning na o'ligi-yu, na tirigini qo'lga tushirdilar. Tong chog'ida esa bir qonli do'ppini roniylaganga solib, shohga keltirdilar. Hukmron o'ratepalik folbinu donishlarni chorladi. «Bu nima?» — degan so'roqqa "Farrxona, farrxona" — deb javob aytildi. Shoh bu yot so'zda bir sehr tuydi, ichi kuydi, jang maydonidan murdayuyaradorlarigacha chiqarib ketadigan ahil va mard «bebosh»larning bu sirli libosi uni vahimaga qo'ydi. Arrianning

shohidlik berishicha, ko‘p o‘tmay bir yoy o‘timidagi masofadan turib, farg‘onaliklarni kuzatishga muyassar bo‘ladi.

Ularning kamon-tig‘lari, charm ishtonlariyu kanop ko‘ylaklari bir yon bo‘lsa, boshlaridagi hukmdorga tanish do‘ppilari bir yon bo‘ldi, shohning bag‘ri qon bo‘lib, ruhi so‘ldi. Alqissa, Farg‘onani zabit etishni xayol qilgan Iskandar Maqduniy (Zulqarnayn) Xo‘jand devorlariga boshini urib, safari erta qarib, orzulari puchga aylanib, Sharq sari yo‘llari boylanib, kelgan joyiga qarab ravona bo‘ldi.

Do‘ppilarning erkaklar, ayollar (shu jumladan, o‘g‘il bolalar, qizchalar, go‘daklar, qariyalar) uchun mo‘ljallangan turlari bor. Yoshi o‘tib qolgan ayollar do‘ppi o‘rniga ro‘mol o‘rashadi. Bolalar do‘ppilari qulqoqcha, qalpoqcha, do‘ppi, kallapo‘sh turlariga bo‘linadi. Ular tumorlarga boyligi, popukligi, tovlanishi, ipakdan sharsimon popuk to‘qilganligi bilan farq qiladi.

Do‘ppilarimizda juda ko‘p uchraydigan bodom elementi bo‘lib, u qut-baraka va hayot ramzi sifatida ishlatilib kelingan, ya’ni shu odamning uyidan hayoti davomida qutbaraka ketmasin, degan ma’noni anglatgan. Bundan tashqari, bodom ko‘pgina kasalliklarga davo ekani hamda eng chiroyli fasl bahorning, yangi faslining darakchisi ekani uchun ham ramz sifatida ishlatilgan. Yana shunga o‘xhash elementlardan biri-qalampir tasviridir. Bu har bir insonni yomon ko‘zlardan asrasin, degan ma’noni anglatgan. Shuning uchun ust kiyimlarimizda ham amalda ishlatiladigan buyumlarda ham uchraydi. Ajdodlarimiz yangi tug‘ilgan go‘daklar, shuningdek, ko‘zi yorigan ayollarni yomon ko‘zlardan asrash ma’nosida qalampir shaklida taqinchoqlar, chunonchi tumor bezakli to‘g‘nog‘ichlar taqishgan. Insonlarni boshqa insonlar ko‘zidan chiqayotgan kuchli nurdan himoyalash vositasi sifatida foydalanishgan. Ba’zi insonlardagi kuchli nur insonlarni bioquvvat maydoniga ta’sir etmasligining oldini olishgan. Agar insonga ko‘z tegsa, kinnachi tabiblarimiz kosaga kul yoki non, piyoz, tuz solib

qo‘lida aylanma harakat qilib o‘sha teshikni berkitganlar. Bu o‘rinda davolovchi kinnachilar muhim rol o‘ynagan.

Amaliy san’at turlari naqqoshlik, kulolchilik, kashtachilik, san’at namunalarida ilon tasviri ko‘p ishlatilganligining guvohi bo‘lasiz. Ilon yomonlikdan asrovchi timsol sifatida ishlatilgan. O‘tmishda ilonga sajda qilishgan, ilonning sehri, kuch – qudratiga ishonishgan. Shuning uchun do‘ppilarda ham ilon tasviri ishlatilgan.

Do‘ppilarda yana hayvonlar – tog‘ kiyigi, chayon qoplonga o‘xhash tasvirlar ham beriladi.

Handasaviy naqshlar ham ommaviy bo‘lgan. Tik, ko‘ndalang chiziqlar va to‘g‘ri burchaklar chatishuvi komil uyg‘unlik deb qaralgan. To‘lqinsimon va sochma naqshlar obihayot to‘lqinlari timsolini aks ettirib, ular dehqonchilikda qut – baraka ramzi bo‘lgan.

Do‘ppilarning naqsh kompozitsiyalarida qator hollarda arab yozuvi kashtaga uyg‘unlashib ketgan. Dono so‘zlar, samimiy tilaklar va hayotiy iboralar do‘ppi kashtasining mazmuni va ifodaviy nafosatini teranlashtirgan. Bu naqsh – yozuvlar bir vaqtning o‘zida ko‘zlarni quvontirish hamda xalqni peshlash uchun xizmat qilgan. O‘zbekiston xalqlari tarixi davlat muzeyida saqlanayotgan XX asr boshiga mansub. Buxorocha erkaklar do‘ppisida arab yozuvida oq ip bilan shunday so‘zlar bitilgan: «Quloq, mayli boshda qolsin, dushman yer bilan yakson bo‘lsin».

Do‘ppi ham amaliy va ma’naviy qimmatga ega. Amalda do‘ppi kishilarning boshini oftobdan, shamoldan, issiqlidan, sovuqdan asragan, odamning jismoniy kamchiligi yashirin-gan, bosh og‘rig‘idan asragan, ya’ni shamollashning oldini olgan.

Uning ma’naviy qimmati esa ajdodlarimizning o‘lmas qadriyatlarini singdirishi, bezashi, kishini ko‘rkam ko‘rsatib insonning qaysi millatga mansub ekanligini ko‘rsatib turganidir. Hatto o‘sha millat vakillarini bildiradi. Insonlarni axloqiy tarbiyalaydi, turli yomon ko‘zlardan asraydi.

Qadimda katta majlislarda do‘ppilariga qarab, qaysi shahardan yoki qishloqdan kelganligini va nechta kishi qat-nashayotganligini aniqlashgan.

O‘zbek do‘ppisi kashtasida atirgul, gulsafsar, chinnigul, ko‘knori, lola, gultojixo‘roz, olma guli, olcha guli, charos, bodom, qalampir, anor kabilar tasvirlanadi. O‘simpliksimon naqshlar orasida xo‘roz, bulbul, tustovuq, kabi rangli qushlar ramzi elementlari ishlangan. Ular garchi shartli tasvirlansa-da, ularni osongina bilib olish mumkin.

Do‘ppining kvadrat shaklida bo‘lishi odam boshiga kiyishda qulayligi, chiroyliligi, ramzi bo‘lib, dunyoning to‘rt tomonini – osmon saroyi, Quyosh farzandi, abadiylik, yorug‘likni bildiradi. Do‘ppining tepe qismida to‘rtta qirrasining bitta nuqtada birikishi – Allohning yagonaligini bildiradi.

Do‘ppining pastki qismi to‘rtburchak, ya’ni qubba – qubba shakllarning takrorlanishidan hosil bo‘lgan islimiy naqsh, qal’ani o‘rab turgan devorlarni eslatadi. Bu bizni to‘rt tomondan yomon ko‘zdan va ofatlardan saqlab turuvchi qal’a devoridir. Ota-bobolarimiz qadimdan boshidagi do‘ppisi orqali kishilarimiz boshi har doim omon bo‘lsin deb yaxshi niyat qilganlar. Xullas do‘ppida mardlik, jasorat, halollik, poklik, kabi, belgilar mujassam. Chust do‘ppisi tim-solidagi bunday ramzlar milliy tuyg‘u ustuvorligidan dalolat. Do‘ppi tikishda katta hayotiy tajriba, aql-zakovat, zehnidrok, did, mushohada yuritish, kuzatuvchanlik kabi fazilatlar talab qilinadi. Turli bezaklarga boy do‘ppilar nafaqat o‘zbek xalq an’anaviy milliy liboslaridan biri, balki, milliy koloritiga yo‘g‘rilgan zamонавиy kiyim-bosh sifatida ham yashab qoladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Amaliy san'at asarlarining badiiy tahlili deganda nimani tushunasiz?
2. Afrosiyob arxeologik qazilmalari haqida nimalar bilasiz?
3. Ramz so'zi nima ma'noni bildiradi?
4. Qadimgi likopchalardagi bezaklar siri haqida nimalar bilasiz?
5. XII asr Sirdaryo viloyati Kultepadan topilgan likopcha haqida nimalar bilasiz?
6. Do'ppilardagi milliy bezaklar falsafasi haqida nimalar bilasiz?
7. Bizga noma'lum bezaklar haqida nimalar bilasiz?
8. Amaliy san'at asarlarining badiiy tahlili nimadan boshlanadi?
9. Dalvarzin tepa arxeologik qazilmalari haqida nimalar bilasiz?
10. Amaliy san'at asarlarida badiiy g'oya deganda nimani tushunasiz?
11. Amaliy san'at asarlarida mavzu va mazmun deganda nimani tushunasiz?
- 12 San'at asarlarida marom deganda nimani tushunasiz?
13. Asarlarda simmetriya deganda nimani tushunasiz?
14. Amaliy san'at asarlarida xarakatlar tizimi deganda nimani tushunasiz?
15. Amaliy san'at asarlarida «oltin kesim qoidasi» deganda nimani tushunasiz?
16. Amaliy san'at asarlarida nisbat deganda nimani tushunasiz?
17. Rangshunoslikda keskin farqlanish deganda nimani tushunasiz?
18. Ranglarning bir-biriga nisbati qanday ataladi?
19. Asarlarda kompozitsiya shakllarning qanday turlari mavjud?
20. Assimetriya deganda nimani tushunasiz?

VII BOB. MARKAZIY OSIYODA ME'MORIY BEZAK SAN'ATI.

Samarqand me'moriy bezaklari¹

Qadim va shavkatli Turonning poytaxti Samarqand shahrining tarixi moziyning chuqur, bir necha ming yillik tubidan boshlanadi. Bu shaharning Afrosiyob, Cho'pon ota, Registon kabi tarixiy qismlari alohida o'z kechmishtalariga ega ekanligini hamma ham bilavermaydi. Biz quyida Samarcandning yuragi hisoblangan ko'hna va ulug'vor Registon haqida hikoya qilmoqchimiz. Registon deganimizda ko'z oldimizga ajdodlarimizning muhrlanib qolgan, Samarcandning shon-shavkatli kunlaridan tirik guvoh – xotira, uch ulug'vor madrasa – Ulug'bek, Tillakori va Sherdorlari qad rostlab turgan tarixiy maydon keladi. Bu maydon nimalarga guvoh bo'limgan deysiz. Samarcandning olimu-ulamolari, erk uchun kurashga otlangan botirlar shu maydonda oqsaqollardan oq fotiha olganlar. G'oliblar ham shu maydonda olqishlanganlar...

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Registon uzoq o'tmishga ega. Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ibridoiv davrlarda bu yerda changalzorlar bo'lib, unda har xil yovvoyi hayvonlar yashagan. Shuningdek, bu erdan juda qadimgi ariqning ko'hna o'zani ham topildi. Ariq, hozirgi So'zangaron ko'chasi tomonidan kelib, Siyob bozori tomonga o'tib ketganligi ma'lum bo'ladi. Samarcandga Iskandar Zulqarnayn bostirib kelganida shahar Afrosiyobda bo'lib, hozirgi Registon maydonining o'rni shahar chekkasi hisoblangan.

VII asrda Samarcand arablar tomonidan istilo qilin-gach, lashkarboshi Qutayba ibn Muslim shahar aholisining katta qismini shahardan ko'chirib yubordi va ularning o'rni-ga arab lashkarlarini joylashtirdi. Bundan tashqari mahalliy xalqning shahar ichkarisiga kirishini cheklab qo'ydi. Mahal-

¹ Berdimurodov A. Qadim Samarcandning yuragi. Dakarchi g. T.: 2000. 12-oktyabr.

liy aholi yashash uchun yangi joy izlashga majbur edi va hozirgi Registon maydoni o‘rni va atrofida yangi turar joylar paydo bo‘ldi. Aynan shu davrlarda bu yerda hunarmandlar-ning ustaxonalari, savdo rastalari bunyod etildi. XI-XII asrlarda Registon maydoni va uning atrofidagi mahallalar mudofaa devori bilan o‘ralib, “tashqi shahar” deb atala boshlandi.

1220-yili qadimgi Samarqand – Afrosiyob Chingizzon tomonidan batamom vayron qilingach, bu yerda yashashni iloji qolmaydi. Omon qolgan xalq hozirgi “eski shahar” to-monga, ya’ni Registon maydoni atrofiga o‘rnasha boshladи. Bu yerdan oqib o‘tuvchi kanal ancha kengayib sayozlasha boshlaydi, shundan so‘ng kanal uchun yangi o‘zan qazilib jilovlanadi. Kanalning eski o‘zanida juda ko‘p qum to‘planganligi uchun bu joy Registon, ya’ni “qumloq joy” deb atala boshlagan.

Sohibqiron Amur Temur davrida Registon maydoni o‘rnida markaziy bozor joylashgan, shuningdek, bu yerda Jahongirning xotini Tuman oqa tomonidan barpo qilingan, usti yopiq tim – rastalari qurilgan edi. Registon maydoni-ning me’moriy jihatdan shakllanishi Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davridan boshlanganligi ma’lum. Samarqandda 40 yil hukmronlik qilgan ulug‘ munajjim bu shaharning obodon-chiligi borasida hech narsani ayamadi.

Ulug‘bekning farmoni bilan Tuman og‘a timining g‘arbiy tomonida hashamatli madrasa o‘z salobati va go‘zalligi bilan zamondoshlarning hayratiga sazovor bo‘lgan. Uning to‘rt yonida to‘rtta baland minora bunyod qilingan.

Madrasaning ichki hovlisida bir necha qulay va shinam hujralar, darsxonalar qurildi. Hovlidagi hovuzchada limmo-lim suv jimirlab turar, unga quyosh nuri tushgach esa 3 devorlardagi naqshlarga quyosh nuri urilib, kishi ko‘zini qamashtirar darajada aks berar edi.

Mirzo Ulug‘bek Registonda madrasadan tashqari ulkan xonaqoh va ulug‘vor karvonsaroylar ham bunyod qildirdi.

Bulardan tashqari bu erda qurilgan sharqona hammom ham barchani lol qoldirgandi.

Registon maydoni XVII asrda yana ulkan qurilish maydoniga aylandi. Bu yerda Samarqand hokimi Yalangto'shibiy Bahodir bir-biridan go'zal ikki madrasa bunyod qildirdi. Ulug'bek madrasasining qarama-qarshisida qad rostlagan Sherdor madrasasi qurilishi 1619-yili boshlangan bo'lib, uning loyihasini yaratgan me'morlar har tomonlama Ulug'bek madrasasiga monand qilishga harakat qilganlar. Sherdor madrasasining devorlarida uni qurgan usta-me'mor Abdul Jabbor va bezaklarini yaratgan mohir usta Muhammad Abboslarning nomlari abadiy muhrlanib qolgan.

Ushbu madrasa qurilgan paytida xalq orasida va hujjatlarda "Yalangto'shibiyning katta madrasasi" deb atalar edi, ammo keyingi davrlarda noto'g'ri ravishda Sherdor deya atalib ketgan.

Registon maydonida bunyod qilingan uchinchi madrasa Tillakori madrasasidir. Bu madrasa ham Yalangto'shibiy Bahodir tomonidan 17 yil davomida barpo qilingan. XVII asrlarga kelib Amur Temur jome' masjidi anchayin xarobaga aylanganligi tufayli va Registondagi Alika Ko'kaldosh masjidi batomom yo'q bo'lganligi sababli Samarqand ahli yangi jome' masjidiga ehtiyoj sezardi. Buni yaxshi anglagan "Yalangto'shibiyning kichik madrasasi" degan nom olganligiga qaramay keyinchalik "Tillakori" degan nom bilan atalib ketdi.

Bir necha asrlardan buyon ajdodlarimizning shonshavkatini, daholiklari va qudratlarini olamga ko'z-ko'z qilib kelayotgan Registon maydoni bugungi kunda ham ulkan tantanalar, shodu-xurramliklar o'tkaziladigan Bosh maydon sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Registon obidalari

Samarqand necha asrlardan buyon tengsiz tarixiy obidalari go'zal me'moriy yodgorliklari bilan dovrug' qozonib kelmoqda. Bu ko'xna shaharga kelayotgan turfa say-yohlarni yodgorliklarning mahobatiyu rangin naqshlari bilan birga ularning peshtoqlarga bitilgan yozuvlar ham qiziqtirishi tabiiy. Bu yozuvlarda nimalar ifoda etilganligini bilish yurdoshlarimiz uchun ham, sayyohlar uchun ham nihoyatda qiziqarlidir.

Yozuvlarni o'z joyida o'rganishning iloji bo'lsa-da, bu ancha noqulaylikni tug'dirishi tabiiy edi. Shuning uchun Registon majmuasida zarur moddiy texnika bazasi yaratildi. Asosan ish ko'p vaqt va mehnatni talab qildi. Masalan, Ulug'bek madrasasi bosh peshtoqidagi minoralarning ust qismi yoxud Sherdor va Tillakori madrasalari gumbazlari atrofiga bitilgan suls va kufiy yozuvidagi bitiklarni o'qish o'ta murakkab vazifa edi. Yozuvlarning suratlari olinib, kompyuterga kiritildi va yozuv elementlarini kattalashtirgan holda o'qishga tuyassar bo'ldik.

2007-yil dekabr oyida Tillakori madrasasi bosh peshtoqi ichki qismining asosiy joyi o'pirilib tushdi. Undagi yozuvlarni olingan suratlar va o'lchamlar asosida qayta tiklashga muvaffaq bo'ldik. Tillakori madrasasi chap tomoni guldastasidagi bitiklar ham qisman saqlangan yozuv asosida to'laligicha tiklandi. Shu tariqa dastlab Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalaridagi barcha yozuvlar to'liq o'qib chiqildi. Bunga uch yil vaqt kerak bo'ldi. Majmuadagi barcha yozuvlar arab, o'zbek, rus va ingliz tilida kitob holida nashr etish uchun tayyorlandi.

Kitobda Ulug'bek madrasasining old qismi, ya'ni pesh-toqdagi barcha yozuvlar shartli ravishda raqamlangan. Suratlari kattalashtirilgan holdagi arabiylar yozuvlar, so'ng esa ularning tarjimalari berildi. Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalaridagi bitiklar kufiy, suls, nasta'liq xat usullarida yozilgan bo'lib, Ulug'bek davrining usta xattotlari bor ma-

horat va iste'dodlarini namoyish etganlar. Yozuvlar asosan Qur'oni karim oyatlari, hadislardan iborat bo'lsa-da, bosh peshtoq o'rtasidagi ichki ravoq devorida madrasa tarixiga taalluqli yozuvlar ham asl holatida saqlanib qolgan.

Yozuvlardan ma'lum bo'lishicha, Mirzo Ulug'bek (Muhammad Targ'ay) ushbu binoni qurishga kirishishda Qur'oni karimning «Zarur» surasi, 73-oyati-Allohnинг so'ziga amal qilingan. Sho'rolar davrida aksariyat olimlar Mirzo Ulug'bekni «ateist» sifatida talqin etmoqchi bo'lgan esalarda madrasa devoridagi yozuvlarni o'qib tasnif etish ularning xayollariga kelmagan. Bosh peshtoqdagi hadislar islam dini-ga e'tiqod, islam dini olimlarining ulug' martabasi to'g'risidadir:

«Payg'ambar alayhissalom aytadilar: dunyo o'zi bir lahzadir, uni toat bilan o'tkazgin» (Ulug'bek madrasasi minorasi pastki qismidagi yozuv).

Madrasa yozuvlarida Qur'oni karimning ilmga da'vat etuvchi, olimlarni hurmat qilishga chaqiruvchi suralar keltirilgan. Bu suralar madrasalarni ta'mirlashda asl nushalarga asoslangan holda to'liq o'z shakliga keltirildi.

Ulug'bek madrasasining ichki hovlisida to'rtta kichik ravoq bor. Ulardagi yozuvlar ham to'la o'qilib, to'rt tilga tarjima qilindi. Unda asosan Qur'oni karim suralari yozilgan. Hujra eshigi ustidagi peshtoqqa koshinkorlik uslubida kufiy va suls yozuvlarida Muhammad payg'ambarimiz hadislari bitilgan. Jozibador koshinkorlar uslubidagi yozuvlarda asosan ilm, o'rganuvchi va ilm haqidagi hodisalarni o'qish mumkin. «Olim yoki o'rganuvchi bo'l, yoki ilm ahlini tinglovchi bo'l, ilm ibodatdan afzaldir va dinning asosidur».

«Yaxshilik qilish yomon falokatdan (o'limdan) saqlaydi». «Sizlarning yaxshilaringiz, Qur'onne o'rganib keyin (boshqalarga ham) o'rgatganlardir».

Ko'rinib turibdiki, ushbu maskan ilm ahli va olimlar to'planadigan joy bo'lgan. Ulug'bek madrasasining ikkinchi ravoqida keltirilgan yozuv madrasa va Ulug'bek yashab o'tgan davr bilan bevosita bog'liq. Sherdor madrasasi ham

xuddi Ulug‘bek madrasasidagi kabi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rganildi. Birinchi navbatda madrasaning bosh peshtoqi suratga tushirilib, undagi yozuvlar shartli ravishda raqamlab chiqildi. Ulug‘bek va Sherdor madrasasi qurilgan davrlar orasidagi farq 200 yilni tashkil etadi.

Samarqand hokimi Bahodir Yalangto‘shbiy ushbu binoni qurishda Ulug‘bek madrasasidan o‘zib ketishini maqsad qilib qo‘ymagan. U, aksincha, Sulton Ulug‘bekka cheksiz hurmat-e’tibor ramzi sifatida uning ezgu ishlarini davom ettirgan. Sherdor madrasasi bosh peshtoqida Alloh va uning rasuli Muhammad payg‘ambarning ulug‘lanishi haqidagi oyat va hadislar bor. Ularga shu darajada jozibali va maftunkor ishlov berilganki, yozuvlarni go‘zal naqshlardan ajratib o‘qish nihoyatda qiyin. Xattotlik san’ati zeb-ziynatlar bilan naqshlangan bu yozuvlarni noyob san’at asariga aylantirgan. Sherdor madrasasidagi bitiklardan anglashildiki, ushbu madrasa Hovon Imomquli Muhammadxon roziligi bilan Amir Yalangto‘shbiy Bahodir tomonidan bino etilgan. U hijriy 1042-yilda (milodiy 1619-yil) qurib bitkazilgan. Qur’oni karimdagи «Nahl» surasining oyatlari madrasani bunyod etishga asos qilib olingan.

Sherdor madrasasi ichki hovlisining to‘rt qutbida Ulug‘bek madrasasidagi kabi ravoqlar mavjud bo‘lib, ularda ham Qur’oni karim suralari, hujra eshiklari ustida esa ilm-fan, din va olimlar to‘g‘risidagi hodisalar keltirilgan.

Ulug‘bek madrasasi hujra eshigi ustidagi yozuvlar asosan qayta ta’mirlandi. Sherdor madrasasidagi yozuvlar esa asl holicha saqlanib kelinmoqda. Bu madrasa yozuvlari konservatsiya ishlov olib borildi. Aksariyat eshik usti yozuvlari yaxshi saqlanmagan yoxud butunlay o‘chib ketgan.

Madrasaning ichki hovlisi ravoqlaridagi fors-tojik tilida bitilgan qit’a madrasa qurilishi bilan bog‘liq juda muhim ma’lumotlarni aniqlash imkonini beradi. Qit’a mazmuni shunday: dushman saflarini buzuvchi odil Yalangto‘sh keldi, uning kamoloti madhiga zo‘r til durlariga to‘ldi, u er yuzida shunday bir madrasa qurdiki, bu bilan faxrlanish falakka

qadar yetdi, dono harifning tafakkur kamandi necha qavmlar harakat qilsa-da, madrasa minoraning ma’nosiga yetolmas. Me’mor uni shunday quribdikim, falak bu yangi oyni ko‘rib ko‘kdagi oyga nisbatan chiroyliligidan barmoq tishlab qoldi. Uni bino etgan Yalangto‘s Bahodir bo‘lgani uchun ham, qurilgan yilning abjad hisobida «Yalangto‘s bahodur» deb bilingiz.

Ushbu qit’a Sherdor madrasasining ikki joyida, ya’ni ichki ravoqda va madrasaning chap tomonidagi qobirg‘ali guldasta ichki binosida bitilgan. Tashqi va ichki ravoq yozuvlarining farqi shundaki, birinchi koshinburun uslubida oro berilgan holda bitilgan. Ikkinchi yozuv naqqoshlik uslubida ishlangan va qit’aga bir bayt qo’shilgan yozuvlar orasida naqqosh (xattot) nomi (Katabai Muhammad Darveshi Samarqandiy) ham keltirildi. Oxirgi madrasalarda Yalangto‘s Bahodir nomidan ushbu bino tamanno va tahsin uchun emas, balki yaxshi duo va haq yo‘lida qurilgani qayd etib o’tilgan.

Sherdor madrasasining bosh peshtoqidagi kataba yozuvlari xalqni hidoyat va ma’rifat yo‘liga chorlash bilan birga, XVII asr tosh kandakorligi va xattotlik san’atining nodir namunalaridan hisoblanadi.

Registon ansamblining tarixan shakllanishini oxiriga yetkazgan Tillakori madrasasi yozuvlari ham tahsinga sazovor, bu madrasa bitiklari bosh peshtoqdan boshlab o‘rganildi. Afsuski, ularning ayrimlari to‘la saqlanib qolmagan. Bosh peshtoqdagi yozuvlar Alloh va uning rasuli Muhammad payg‘ambarga hamdu sano bilan boshlanadi. Ulkan peshtoq morpechlarida fors – tojik tilidagi «Oxirat xayr bod!» yozuvi ko‘p marotaba keltirilgan.

Tillakorining Ulug‘bek va Sherdor madrasalaridan farqi shundaki, uning hujra eshiklari tashqi tomondan qo‘yilgan. Bu me’moriy yechim Tillakori madrasasi hovli sahnining kat-talashishiga sabab bo‘lgan. Buxoro shahridagi Ulug‘bek madrasasi (1417-yil) va G’ijduvondagi madrasada (1433-yil) ham me’morlar shu uslubni qo‘llashgan. Tillakori madrasasi ichki

hovlisining to‘rt qutbida peshtoqlar bino qilingan, lekin ular-dagi yozuvsalar boshqalariga nisbatan siyrakroq. Hovli sahnida yozgi yoki xalq orasida masshtab bo‘lgan tilla suvi bilan ishlangan gumbaz osti masjidi joylashgan. Undagi naqshu nigorlar kishini hayratlantiradi. Qur’oni karim oyatlari va hadislar jozibador kufiy va suls yozularida bitilgan.

Tillakori masjidi ko‘p yillar davomida shahar jome’ masjidi vazifasini o‘tagan. Unda marmardan yasalgan minbari mavjud. Ichki masjid mehrobida oltin suvi bilan shunday yozuvsalar bitilgan.

«Masjidlar Allohning uylaridir va masjidlarning ahli esa Allohning suyuklilaridir»

Registon ansamblidagi yodgorliklar – Ulug‘bek madrasasi, Sherdor va Tillakori madrasalari yozuvsalarining tarjima va tasniflari buyuk madaniy merosimizni o‘rganish va uni targ‘ib etishda muhim o‘rin tutadi, degan umiddamiz.

Sher tasviri muammozi

Bundan bir necha yil muqaddam Samarqandda ikkita Sherdor madrasasi bor desak, hech kim ishonmasligi tabiiy edi. Chunki shu nomda faqat bir madrasa borligi ma’lum edi. Axir, shahardagi me’moriy yodgorliklar dovrug‘i dunyoga ketgan, ular haqida juda ko‘p kitoblar chop etilgan. Me’morlik va san’at tarixiga oid salmoqli tadqiqotlarda ham katta-kichik ommabop risolalarda ham mashhur yodgorliklar qatorida albatta Sherdor madrasasi haqida ham ma’lumotlar topish mumkin. Lekin shaharda yana boshqa Sherdor madrasa bo‘lganligi, hatto hozir ham mavjudligi xabari xayoliy uydurmadek tuyular edi. Shu bahona Samarqand me’morligi tarixiga oid Sherdor madrasasi nomi bilan bog‘liq muammo va yangiliklar haqida bir-ikki og‘iz so‘z aytmoqchimiz.

Samarqand shahrining me’moriy qiyofasi haqida fikr yuritsak, dastavval ko‘z o‘ngimizga ulug‘vor Registon maydonidagi bir-biridan go‘zal va mahobatli madrasalar namoyon bo‘ladi. Registon ulkan peshtoqlar, adil minoralar,

bahaybat toqu ravoq va gumbazlardan tashkil topgan, rang-barang koshinkori libosidagi beqiyos me'moriy ansamblidir. Maydondagi Ulug‘bek madrasasi, Sherdor madrasa, Tilla-kori masjid-madrasa Samarqand me'morlari ijodiy dahosini nodir namunasi hisoblanadi. Bu qutlug‘ zaminda necha-necha mutafakkir, ziyokorlar – ustoz olimlar qadamining izi bor. Uch murakkab dorilfununing har biri me'morligimiz taraqiyotining zarvaraqlarini tashkil etadi.

Sherdor madrasasi misolida ba’zi muammolarni eslab o’taylik. Madrasa 1629-1631-yillar davomida Samarqand hokimi sarkarda Yalangto‘s Bahodir tomonidan qurilgan. O‘z davrining mo‘jizasi hisoblangan imorat tarifida shoirlar madhiyalar ham yozishgan. Madrasaning koshinkor bezak-lari orasida forsiy madhiyani o‘qiymiz (tarjima):

Yer nuqtasi osmon avjidan afvo-
Ko‘tarib madrasa ettirdi bino,
Yeru ko‘k ziynatin bo‘ldi yalovi,
Toqisi – kamolot, aql o‘lchovi.
Ko‘p tirishib, ilmdan bog‘lab ham qanot,
Aqlning lochini etolmas, hayxot
Minora uchiga tashlab ham kamand
Fikrning darvozi chiqolmas harchand.
Toqiga muhandis berganda oroy,
Osmon barmoq tishlab, dedi: «Yangi oy!?”

Olimlarning taxmin etishicha, Sherdor madrasasi o‘rnida ilgari Zahriddin Muhammad Bobur ta’riflagan «bis’yor ulug‘ gumbazli» xonaqoh bo‘lgan. Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq xonaqohning qoldiqlari madrasa ostida qolib ketgan emish. Tarixiy hujjatlardan ma’lum bo‘lishicha Ulug‘bek xonaqohning yer ostida Tuman oqo timining poydevori ham qolib ketgan. Lekin hozircha Sherdor madrasasi yaqinida va hovlisida olib borilgan arxeologik qazish vaqtida yuqorida aytib o‘tilgan binolarga mansub aniq devor qoldiqlari topilgani yo‘q. Xonaqoh va tim kabi ikki ulkan imorat qoldiqlari butunlay izsiz yo‘qolib ketishi mumkin emas, axir. O’sha binolar madrasa ostida bo‘lmasa kerak, degan fikr ham xayol-

ga keladi. Sherdor madrasasining janubi-g‘arbiy burchagidagi gumbazi ancha ilgari qurilgan bir binoning qoldiqlari, deb e’lon qilingan edi. Madrasaning ajralmas qismiga aylanib qolgan baland gumbazli bino – maqbara hali ham aniqlanmagan tarixiy muammo.

Aslida Yalangto’sh Bahodir madrasasi nomi bilan tarixa kirgan bino el orasida asosan «Madrasai Sherdor» yoki «Sherdor madrasasi» nomi bilan mashhur bo’lgan. Bunga sabab bino peshtoq ravoqi qanotidagi sher, ohu-kiyik va quyosh tasvirlaridir. Darvoqe, qush nurlari zar sochgan ajoyib gullar chamanida nozik ohuni quvib ketayotgan barvasta sher tasviri shu darajada mahorat bilan ishlanganki, u madrasani xarakterli ramziy belgisi sifatida ko’pchilik orasida yanada ma’lum va mashhur bo’ldi. Qizig‘i shundaki islom dini avj olgan bir davrda, garchi har qanday jonzot, xususan, odam tasviri qat’iyan man etilgan bir zamonda jonivorlar real tasviri qatorida odam qiyofasidagi quyosh berilishi bino me’mori Abdujabbor naqadar dadil va mustaqil ijodkor usta bo’lganligidan darak beradi. Bunday tasvirning ulkan bino peshtog’ida ishlanishi bilan me’mor qanday maqsadni nazarda tutgan ekan? Bu masalada ham tayin aniqlik yo‘q.

Samarqandlik olim Abu Tohirxo‘ja XIX asrning 30-yillarida yozgan «Samariya» kitobida Sherdor madrasasi peshtoqidagi tasvirlarni biroz boshqacha talqin qiladi. U tasvir mazmunini musulmon estrologiyasida keng tarqalgan osmondagи yulduz burjlari bilan bog‘liq ta’riflaydi. Abu Tohirxo‘janing aytishicha,. Xurshid-quyosh shakli sher burji (yulduzlaar turkumi) bilan qo’shilib ketgan: ohuni tutmoqchi bo’lgan sher hamlasini qush nurlarining tig‘i qaytarmoqda. Go‘yoki, nur-ziyo ofatni daf etmoqda. Har holda, ijodkorlar chuqur g‘oyaviy fikrni ramziy tahlitda berishgani ko‘rinib turibdi. Lekin hozircha, tasvirning talqini haqida boshqa biror aniq tarixiy ma’lumotga ega emasmiz.

Xo‘sish, Sherdor madrasasidagi kabi ulkan tasvirlar boshqa imoratlarda ham bo’lganmi? Ha bo’lgan!

Tarixnavis Sharafiddin Ali Yazdiyning ta'kidlashicha, Samarqand yaqinidagi 1397-yilda qurilgan Bog'i Dilkusho-ning devor burjlari tepasida kabutarga hamla qilgan burgut-ning haykalsimon tasviri bo'lган. Shahrisabzdagi Oqsaroy (1380-1405) peshtoqidagi sher tasvirini ispan elchisi R.G.Klavixo ko'rgan ekan. Qadimgi Anov (Obinav) man-zilidagi me'moriy yodgorlik (XV asr) peshtoqida afsonaviy ajdaholarning tasviri juda yaxshi saqlanib qolgan edi, afsuski, 1948-yil zilzilasi vaqtida butunlay buzilib ketgan. Buxoro shahridagi Nodir Devonbegi madrasasi (1622) peshtoqida afsonaviy semurg' tasvirini hozir ham ko'rish mumkin. O'ratepadagi (Tojikiston) bir madrasa peshtoqida qandaydir afsonaviy mahluq tasviri bo'lган. Xullas, monumental imo-ratlar peshtoqlarida tasviriy bezaklar berilishi XIV-XVII asrlar yodgorliklarida nisbatan oz bo'lsada, uchraydi. Hech shubhasiz bular ichida eng ma'lum va mashhuri Sherdor madrasasi peshtoqidagi sher, ohu va quyoshning koshinkori tasviridir. Endi tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan bir Sherdor madrasasi borligi haqidagi tarixiy faktlarga e'tiboringizni jalb etamiz. «Samariya» kitobini V.L.Vyatkin, kitobning tojik tilidagi matnini chop ettirgan N.I.Veselovskiy va bu asar haqida tadqiqot olib borgan olimlar Abu To-hirxo'janing uch so'zdan iborat kichik bir izohiga nimagadir e'tibor berishmagan ekan. Muarrix shahar tashqarisidagi Nodir Devonbegi madrasasi nomi bilan tanilgan imorat (1630-1635) haqida so'z boshlar ekan, uni «Madrasa Sher-dori berun», ya'ni «Tashqi Sherdor madrasasi» nomi bilan mashhur deb ta'riflaydi. Demak, Samarqand tashqarisida joylashgan Nodir devonbegi madrasasining ham ikkinchi nomi bo'lган va u «Sherdor madrasasi» deb atalgan. Nima uchun madrasa bunday nom bilan mashhur bo'lган va bu haqida ilmiy kittoblarda biror xabar yo'q? Chamasi, bu savolga Abu Tohirxo'janing qisqa izohiga isbot topilmagani, bu haqdagi ma'lumotlar xalq orasida butunlay unut bo'lib ketgani uchun ham biror javob topilmagan.

Abu Tohirxo‘ja e’tirof etishicha, u Samarqand yodgorliklari tarixini yozish davomida ko‘p tarixiy manba va qo‘l-yozmalarni o‘qib, har bir binoni sinchiklab ko‘rib chiqqan. Demak, u Nodir Devonbegi madrasasini ham o‘rgangan, undagi tarixiy yozuvlardan foydalangan. Lekin tarixchi nima uchundir binoning tashqi Sherdor madrasasi deb atalishi haqida biror ma’lumot bermaydi. Abu Tohirxo‘ja davrida bu masala ochiq-oydin bo‘lganiga shubha yo‘q. Tashqi Sherdor jumbog‘ining javobini faqat bir tarixiy hujjatdan topishga muyassar bo‘ldik. U Mirza Barot Mulla Qosim o‘g‘lining «Samariya» kitobi asosidagi o‘zbekcha maqolasidir. «Turkiston viloyati gazetasi»ning 1884-yil 26-may sonida «Samarqand firdavsmonandning bani» nomi bilan e’lon qilingan maqolada Nodir Devonbegi madrasasi ta’riflanar ekan, mazkur madrasa binosi— imorati peshtoqi misli madrasa Sherdori Yalanto‘sdayin deb o‘xshatiladi. «Mazkur madrasaning peshtoqida kiyikning surati va ikki adad sherning surati koshin bilan bezatilgan», debadolat beradi. Demak, Mirza Barot Nodir Devonbegi madrasasi peshtoqidagi sher kiyik tasvirlarini ko‘rgan, o’sha davrda koshinkor bezaklar ancha butun va shakli aniq ko‘ringan bo‘lishi kerak. Ma’lum bo‘lishicha, qariyb yuz yil o‘tgan davr davomida koshinkor bezaklar to‘kilib ketgan, qoldiqlari esa binoning 1913-yildagi ta’miri vaqtida buzib, suvab tashlangan. Oqibatda yillar o‘tishi bilan tashqi Sherdor madrasasi nomi tamoman unutilgan, sher va kiyik tasviri bo‘lganligi haqidagi xabar hatto fanda ham noma’lum bo‘lib qolaverган. Agar Mirza Barotning kichik bir xabari bo‘lmaganda, balki madrasa tarixida tasviriy bezaklar butunlay e’tibordan chetda qolib ketgan bo‘lardi. Koshinkor bezak qoldiqlarida sher va kiyik tasviri borligi aniqlanmay qolishi mumkin edi.

Nodir Devonbegi madrasasi peshtoqida sher va kiyik tasviri bo‘lishiga qanday sabab va asos bor? Madrasa ichkarisidagi tarixiy yozuv bino hijriy 1040-1045-yillar (1630-1635) davomida Nodir Mirza Tog‘ay ibni Sulton Mirza tomonidan qurilgani haqida xabar beradi. Buxorodagi ash-

taxoniylardan Imomqulixon (1611-1642) davrida xonning eng ishonchli va yaqin kishisi, devonbegi, ya’ni moliya ishlari bo‘yicha vazir vazifasida ko‘p yillar ishlagan tadbirkor va dono sarkarda Nodir Devonbegi dastlab poytaxt shaharda bir necha monumental binolar qurdirdi. Hovuz me’moriy ansamblining tarkib topishida Nodir Devonbegi ko‘rsatmalarini katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Xuddi ana shu davrda qurilgan madrasa peshtoqida afsonaviy semurg‘lar tasviri paydo bo‘lishi ham Nodir Devonbegi talabining natijasi bo‘lsa kerak. Ikki Sherdor madrasasi ham bir davrda, ya’ni Nodir Devonbegi va Yalangto‘sning mavqeい ortib, juda boyib, dovrug‘i ketgan davrda qurilgan. Ikki madrasa qurilishi va bezaklarida me’mor Abdujabbor boshchiligidagi ustalar qatnashgan bo‘lsa ajab emas. Haqiqatdan ham har ikki madrasaning koshinkor bezaklarini diqqat bilan kuzatsak, ular o‘rtasida badiiy mushtaraklik yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Endi Samarqanddagi ikkinchi Sherdor madrasasiga uning unutilgan obrazli nomini qaytarish vaqtি keldi. Madrasada ta’mir ishlari boshlab yuborilgan. Samarqandlik mashhur usta, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Abdug‘affor Haqqulov ajoyib bir tashabbus bilan chiqdi. Unda bizni qiziqtirgan obidani ta’mir etish ishlarini tajribali usta o‘z zimmasiga olganligi haqida so‘z boradi: «Milliy me’morchiligimizning ajoyib namunasi bo‘lgan Nodir Devonbegi yodgorligini boshdan-oyoq ta’mirlashni o‘z otalig‘imga olaman, - deb yozadi usta «Lenin yo‘li» gazetasida bosilgan xatida. Ma’lumki, bu nodir koshona salobati, ko‘rkamligi, handasaviy va o’simliksimon bezaklari bilan boshqa yodgorliklardan ajralib turadi. Afsuski, uning bu go‘zalligiga vaqt og‘ir jarohat yetkazgan. Men butun tajribam, san’atim, bilimimni va kuchg‘ayratimni ana shu jarohatga malham qilishga, ya’ni uning asl holiga keltirishga sarflayman. Eng muhimi, ta’mirlashda yuksak sifat uchun kurashaman va koshonaning haqiqiy qiyofasini – barcha bezaklarini o‘z holiga keltirishga, xullas asliy ko‘rinishini to‘la tiklashga butun quvvatimni sarflayman».

Keyingi qidirishlar natijasida devonbegi madrasasi tashqi peshtoqining noyob foto surati ham topildi. Suratda sherning shaklu-shamoyili aniq ko‘rinib turadi. Shu hujjat asosida ro‘yxat tuzish imkoniyati paydo bo‘ldi. Xalq ustasi Abdug‘affor Haqqulovning boshlagan oliyjanob xayrli ishi muvaffaqiyatli yakunlandi. Usta Nodir Devonbegi madrasasiga uning ikkinchi nomini – «Madrasasi Sherdor berun», ya’ni «Tashqi Sherdor madrasasi» nomini qaytarishga muyassar bo‘ldi.

Sherdor madrasasi bezaklarining badiiy tahlili.

Hunarvarlarki qilg‘aylar hunar fosh.
Agar xorotaroshu xoh naqqosh.
Biri har dam yo‘nub yuz nav’ xora,
Ki qilg‘ay havz yo forshu izora.
Biri har dam chekib yuz naqsh dilkash,
Ki har bir qasrni qilg‘ay munaqqash...
Ko‘runib har zamoni ko‘zga bir shakl,
Ko‘z olg‘och bo‘lg‘usidur o‘zga bir shakl,
Chu bo‘ldi jilvagar ashkol yuz nav’
Anga ham bo‘lg‘usi timsol yuz nav’¹.

Alisher Navoiy

O‘zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatları, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o‘rganish va tahlil etish g‘oyat muhimdir. «Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo‘ldiki, - degan edi Prezidentimiz I.A. Karimov, biz bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o‘tmishdagi boy an’analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog‘imiz kerak». ¹ Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyati-

¹ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin, Asarlar 7-tom, Toshkent, 1956, 47-b.

¹ I.A.Karimov. «O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyilari», T.: «O‘zbekiston», 1995, 9-b.

miz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, otabobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma'noda Respublika hukumatni tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997-yili «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur» qabul qilindi. Unda «O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik an'analar, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan.¹

Keksa ustalarimiz aytishicha, qadimda naqqoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki bo'yagan naqshlari orqali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilmoq kerak bo'lgan.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xusrav, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Hayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar xayolini o'ziga tortuvchi, tabiatning go'zal manzaralariiga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Kishilarni go'zallik bilan yaqin do'st, birodar bo'lishga undaganlar.

Chunki, muqaddas kitobimiz bo'lgan Qur'oni Karimda «Alloh go'zal va u go'zallikni sevadi», deyiladi. Demak, islamning estetik nuqtai nazari go'zalikka oshno bo'lmoqdir. Alloh go'zal ekan, u yaratgan odam ham, u bunyod qilgan olam ham, bandalarga hadya etgan noz-ne'matlari ham go'zaldir. Ibrohim Haqqiy aytadi: «Mavlo, ko'raylik, naylar, naylarsa go'zal aylar. Shunga muvofiq, Allohning ismsifatlarini vasf etuvchi so'zlarimiz, uning qudratini tamsil etuvchi binolarimiz, me'morlik obidalarimiz, qo'yingki,

¹ Qarang: «Xalq ta'limi» jurnali, 1992-yil, 10-12-son, 1-b.

tangri irodasi, ism-sifati bilan bog‘liq bu olamda nimaiki narsa bo‘lsa, hammasi go‘zal bo‘lishi kerak. Arab imlosi, g‘azal bitiklar, naqshlar, me’moriy obidalar, tasviriy san’atning islimiy-tilsimiy turlari, eshitish va ko‘rish a’zolarimiz orqali ruhimizga hissiy quvonch olib keladi. Islom madaniyati ijod dasturida fikr va narsalarning shakl yaxlitligi ramziy-tilsimiy mazmun qobig‘iga o‘ralgan. Naqsh, chodraga o‘ralgan ayolga o‘xshaydi. Naqsh - haqqoniyatni qo‘l bilan ushlab ko‘rish emas, go‘zallikning mohiyatini anglash, shu go‘zallikni dilda tasdiqlash, chodra ortidagi holatga o‘zni tayyorlash va unga kirib borish timsolidir...»¹

Xalqning beba ho madaniy merosi. Ularda asrlar tajriba-si jamlangan, bobolarimiz ijodiy mehnati mujassam topgan.

O‘tmishning biror yorqin «ziyo» zarrasi asrlar zimistonini yoritishi mumkin. Mustaqillikka erishgan xalqimiz san’atshunoslaridan madaniy meros xazinasiga munosib yodgorlik yoki yodnomalarni izlab topish, ularni chuqur o‘rganib mag‘zini chaqish, ular tashkil etgan ijod pillapoyalaridan ko‘tarilib yangi zamon madaniyati ravnaqiga xizmat etish kabi g‘oyat mas’ul va e’tiborli ishlar ko‘لامи kutib turibdi. O‘zi bir olam bo‘lgan me’morchilik san’ati va u bilan chambarchas bog‘liq xalq amaliy san’ati, xususan naqqoshlik, o‘ymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalardagi ijod namunalarini o‘rganish yo‘lida anchagina samarali tadqiqotlar mavjud. Ko‘p yillik izlanishlar natijasida, tabiiyki, xalq me’morlari, xalq ustalari taomiliga xos anchagina muammo- lar bor, ulardan biri, bezaklarni ramziy o‘qish alifbosi tuzilmaganligidadir. Kitobni yozishdan maqsad shundaki, me’moriy bezak va amaliy san’at yo‘nalishida tayyorlanayotgan kadrlarimizni jahon andozalari talablariga javob bera oladigan barkamol insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgandir. Buning uchun maktablarda, kasb-hunar kollejlarida va oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quvchi-talabalarimizga ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosimiz bo‘lmish me’moriy yodgorlik-

¹ G’afur G’ulom . Ibtidodagi ahd. Tafakkur jurnali. 1994 №1. 53-54 b.

lar va amaliy san'at asarlaridagi bezaklarni ramziy ma'noda o'qiy olishga, undagi mantiqiy falsafiy g'oyalarni to'g'ri anglashga o'rgatish zarurdir.

Sherdor madrasasi peshtoqidagi bezaklarning falsafiy yechimi

«Muhandiskim bu qasr obod qildi,
Bu yanglig‘ tarhini buniyod qildi».

Alisher Navoiy¹

Prezidentimiz I.A.Karimovning «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» kitobiga yozilgan so'z boshisida uqtirilganidek, «O'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarimizning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashash»² mustaqil respublikamiz har bir fuqarosining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lib qoldi. Shuning uchun chuqur, xolisona o'rghanish va yoritishga bo'lgan intilish yaxshi samara bermoqda. Qadimdan ajdodlarimiz yashayotgan maskanlariga, devoru toshlarga, idish-tovoqlariga ov jarayonlari, jangu-jadallar, bazmlar, yozuvlar, tantana mafrosimlari, turli hayvon, qush hamda o'simlik va naqshlar bilan muhrlaganlar. Bundan tashqari bezaklarni ta'sirchanligini oshirish uchun xalq hikmatlari, ulug' allomalarining pandasihatlarini turli ramziy ma'noda ifodalab kelganlar. Ular go'zallikni yaxshi ko'rghanlar. Shuning uchun go'zallik orqali insonlarga voqelikni, madaniyati va qadriyatlari tarixini manbalar asosida yetkazib bergenlar.

Bulardan tashqari fikr almashuv vositasi sifatida ramziy ifodalar, muayyan shakl va belgilarning muomalaga kiritilishi natijasida yozuv kelib chiqqanligi qadimdan ma'lum.

¹ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin, Asarlar 7-tom, Toshkent, 1956, 47-b.

² I.A.Karimov. «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», T.: «O'zbekiston», 1995, 9-b.

Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov «Milliy timsollar va ramzlarning har biri milliy g‘ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri katta bir darslikdir» deb ta’kidlab o‘tgan edi.

Xo‘s sh ramz nima? «Ishora qilmoq» so‘zidan olingan bo‘lib, tabiatni, voqealikni, hayotdagi quvonch va tashvishlar, do‘sst va dushman, ezgulik va yovuzliklarni chiziq, rang va shakllar orgali ifodalashdir.

Hozirda ramziylik haqida va naqshiy bezaklarni o‘qish alifbosi qiyomiga yetkazib tuzilmaganligi, «Ramziylik lug‘ati» hamda «Ramzlar entsiklopediyasi» O‘zbekistonda tuzib chop etilmaganligi ko‘pgina qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Chet ellarda esa deyarli amalga oshirilib bo‘lingan.



50-rasm. Samarqand shahri. Sher dor Madrasasi va uning atrofidagi hunarmandlar rastalari. (1913-yil. Etnograf S.Dunin olgan surat.)




51-rasm. Sherdor madrasasining yon tomonidan ko‘rinishi.
1913-yil.



52-rasm. Buxoro tarixiy yodgorliklarining ko‘rinishi.



53-rasm. Amir Temur maqbarasi.



54- rasm. Afrosiyob. Devor naqshlarida aks ettirilgan g‘ozlar.



55- rasm. Afrosiyob. Kiyim naqshlari



56- rasm. Afrosiyob tasviri. Kiyimdagи naqshlar tasviri.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xusrav, Kamolliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Hayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olimu fuzalolarimiz, naqqoshlarimiz binolarni kishilar xayolini o‘ziga tortuvchi, tabiatning go‘zal manzalariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Kishilarni go‘zallik bilan yaqin do‘st, birodar bo‘lishga undaganlar.

Alisher Navoiy asarlarida ham musavvir va naqsh san’ati ta’rifida aytilgan zavq va ehtirosga to‘liq satrlarni ko‘p uchratamiz. Alisher Navoiyning zamondoshi, tarixchi Zayniddin Vosify «Badoye’-ul vaqoye» asarida qiziq bir hodisani xabar qiladi. Mashhur musavvir Kamoliddin Behzod yangi suratni Alisher majlisiga keltirgan. «Suratda tasvirlanishcha, orasta bog‘cha, turli-tuman daraxtlar, xushsurat qushlar, har tarafda ariqchalar, ochilgan zangori gul tuplari va uning orasida mir Alisherning yoqimli surati. U asosga tayangan, yonida sochiq zar to‘la taboqlarni qo‘yan.

Hazrati Amir ul suratni mushohada va mulohaza qildi: ul nafis sahifa bog‘lar ichra latif va shodlik gullari huzur bag‘ishlovchi daraxtlar bilan bezatilgan. So‘ngra Navoiy majlisida hozir bo‘lganlarga qarab azizlarning xotiriga bu muhim ustozи va Xuroson ahlining mashhurlaridan bo‘lgan mavlono Fasihiddin dedi:

- Mahzumlar! Ko‘z oldimdagи bu ochilgan ra’no gullarni qo‘l cho‘zib uzsamu, dastorimga sanchisam?

Mirning ulfati va do‘sti Sohib Dodo:

- Menda ham shunday istak bor edi. Ammo, qo‘l cho‘zsam daraxtlar ustidagi qushlar hurkib, uchib ketmasin deb andisha qildim,- dedi.

Hazrat Mir:

- Azizlar yaxshi so‘zlar aytishdi va ma’no durlarini ma’qul sochishdi. Agar mavlono Burhon «noma’qul ishini davo ko‘rmasalar va dag‘allik qilmasalar, men taboqlardagi oltinlarni do‘stlarning boshidan sochmoqchi edim,- dedi»¹.

¹ Norqulov N. Kamoliddin Behzod.–T., 1964.- 15-16 b.

Ayniqsa, Amir Temur shaharlarni har tomonlama chiroyli va ulug‘vor qilishga intilgan, tosh hamda g‘ishtdan keng va ravon ko‘chalar qurdirgan. Ko‘chalarda turli xil hunarmandlar uchun do‘ppichilik, misgarlik, zargarlik, beshikchilik, pichoqchilik, bo‘yrachilik, savatchilik, gilamchilik rastalari barpo ettirgan. Temur Parij, Bog‘dod, Damashq, Sheroz, Sultoniya, Qohira nomi bilan ataluvchi qishloqlar, Bog‘i Nav, Bog‘i Behisht, Bog‘i Baland, Davlatobod Saroy bog‘i, Bog‘i Nav, Bog‘i Chinor kabi bog‘-rog‘lar, ajoyib, ulug‘vor saroylar qurdirgan.

Jahongir fath etgan o‘lkalardan jalb etilgan ko‘plab me’mor- muhandislar, g‘isht teruvchilar, o‘ymakorlik, naqqoshlik, ganchkorlik san’ati ustalarining ijodiy mehnati, tajribasi Temur poytaxtini juda muhtasham, go‘zal, savlatli binolar bilan bezagan.

Samarqand so‘g‘dining go‘zalligi va latofati shu qadar mashhurki, bu haqida bahs ochishning hojati yo‘q deydi Hofizi Abru².

Temurdan keyingi hoqonlar ham shu ishni davom qildirdilar.

Dunyodagi eng ko‘hna shaharlardan biri – Samarqandning eski shahar markazi, ya’ni Registonda savlat to‘kib turgan Sherdor madrasasiga bir nazar solaylik. (57,58,59) Uning peshtoqlari, bahaybat gumbazlari va chiroyli minorlari, rang-barang sirli koshinlari hamda nafis, hashamatli, dab-dabali ishlangan jimmimali qoplamasini kishini hayratga soladi. Ushbu madrasa boshqa me’moriy yodgorliklar singari o‘z mazmuniga va tarixiga ega.


² Samarqand. (Kirish so‘zi mualliflari V.A.Bulatova, G.V.Shishkina). – T., G‘.G‘ulom nomli adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.-19-b



57-rasm. Samarqand. Registon ansamblı (1417-1660)



58-rasm. Samarqand. Sherdor madrasasining umumiyo ko‘rinishi.



59-rasm. Samarqand. Sherdor madrasasi peshtoqidagi bezaklar.

«1956-1970-yillarda Sherdor madrasasining maydon tomonidagi peshtoq ostini qazish paytida maydon qadimiy sathining payrahasi (trotuari) topildi. Nihoyat, 1976-yilda bu maydondan 2 metrdan ortiq tuproq olindi. Maydonning qadimiy sathi ochildi. Ana shu qazilma vaqtida Mirzo Ulug'bek madrasasiga kirishdagi asosiy ravoqning eniga teng va bino poydevoridan olti metr nariroqda sun'iy hovuz topildi. Hovuz devorlari yerdan bir metr balandlikda bo'lib, suv o'tmasligi uchun maxsus qirindi qorishmasi bilan to'ldirilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra bu sun'iy hovuzga har doim nihoyatda tiniq suv to'ldirilib qo'yilgan va har xil rangdagi chiroyli baliqlar tashlab qo'yilgan. Bizningcha, bunday oqilona usulni yaratishdan maqsad: avvalo koshinlar quyosh ta'sirida qizib chaqnamasligi bo'lsa kerak. Chunki suvning salqini jazirama quyosh ta'sirini ozaytirishga katta yordam

beradi. Bunday tadbirning yana boshqa tomoni shundaki, quyosh nuriga qarama-qarshi turgan peshtoqdagi koshinlar yaraqlashining aksi hovuzga tushib, ajoyib tasvir namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, quyosh peshtoqdan o‘tgunga qadar uning aksi peshtoqqa ishlangan naqshda, naqshdagi aks esa hovuzdagi suvga tushib, go‘yo yerda ham, peshtoqda ham quyosh yaraqlab chiqib turgan manzarani kashf etadi, lekin bu tadbirdan ham ko‘ngli to‘lmagan hoqon quyoshning jazirama issig‘i koshinlar jilosiga ta’sir etmasligi uchun peshtoqning eniga barobar qilib, zamonasining chiroyli matolaridan jild hozirlatib, ertalab quyosh chiqishidan peshingacha peshtoqni o‘ratar va peshindan keyin oldirib qo‘yar ekan».¹

Registon maydonidagi Ulug‘bek madrasasi, Sherdor madrasasi, Tillakori masjid-madrasasi Samarqand me’morlari ijodiy dahosining nodir namunasi bo‘lib kelmoqda. Bu ulug‘ yer zaminda necha-necha mutafakkir, ziyolilar, allomalar, pirlar, ustozu-shogirdlar, olimlar qadamining izi bor. Uch muborak universitetning har biri me’morchiligidan durdonalari bo‘lib hisoblanadi.

Ayniqsa, Samarqand hokimi vatanparvar, fidoiy inson-Yalangto‘sh Bahodir. U Registon maydonidagi Sherdor va Tillakori madrasalarini qurdirdi. Ular O‘rtta Osiyo me’morchilik san’atining mumtoz namunasi bo‘lib qoldi. «Yalangto‘shbiy Bahodir Saidqul o‘g‘li, Yalangto‘shbiy, (1578.15.08 -1656-yil) Nurotada Samarqand – Ashtarkoniylar davridagi harbiy-mulkdor zodagonlarning yirik vakili. Olchin qabilasidan. Nurota hokimi oilasida tug‘ilgan. 1626-yildan Samarqand hokimi. Shu yili unga otaliq unvoni beriladi. Yalangto‘sh Bahodir obodonchilik, qurilish ishlariga katta e’tibor bergen. Jumladan, Samarqanddagi Sherdor madrasasi (1619-1636), Tillakori masjid-madrasalari (1646-1660), Maxdumquli A’zam masjidi, xonaqosi (1618) va boshqalarni

¹ Haqqulov A. Ta’mir san’ati. –T.: Mehnat. 1991 52-53 b.

qurdirgan».¹ 1619-yili Sherdor madrasasini Yalangto‘sh Bahodir qurdiradi. «Yalangto‘sh qudratining ramzi madrasa ravoqida qarab turgan ikki quyosh tagida ohularga hamla qilayotgan sherlar timsolida ifoda etilgan. Madrasa Samarqandlik me’mor Abdujabbor² loyihasi bo‘yicha 17 yil davomida qurilgan, uni me’moriy bezak ustasi Muhammadabbos ziynatlagan».³

Sherdor madrasasi XVII asrning birinchi yarmida, ya’ni 1619-1636 yillarda qurilgan. Me’mor madrasa peshtoqini quyidagi she’r bilan jimmador qilib yozib, bezagan:

«Shijoatli amir Yalangto‘sh odil,
Kamolin madhida durlar sochar til:
Yer nuqtasin osmon avjidan avfo-
Ko’tarib madrasa ettirdi bino,
Yeru-ko‘k ziynatin bo‘ldi yalovi.
Toqisi-kamolot, aql o‘lchovi.
Ko‘p tirishib, ilmdan bog‘lab ham qanot,
Aqlning lochini yecholmas, hayhot!
Minora uchiga tashlab ham kamand,
Fikrning darvozi chiqolmas harchand.
Toqiga muhandis berganda oroy,
Osmon barmoq tishlab, dedi: «Yangi oy!?!»
Yalangto‘sh Bahodir kuyganchun asos,
Yalangto‘sh Bahodir» - tarixiga mos».⁴

Madrasa ikki qavvatlidir. Bosh tarzidagi peshtoqning ikki yoniga gulasta ishlangan. Peshtoq ichkarisiga koshinkori bezak orasida qora zominli koshinga oq harflar bilan me’mor Abdujabbor nomi yozilgan.⁵ Madrasa peshtoqi simmetrik qilib ramziy naqshlar bilan bezatilgan, qizg‘ish – zarhal Sher nozik oq ohuni quvib ketayotgani tasvirlangan. Odam qyo-

¹ O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 10 – jild, 2005, 232 – bet.

² XVII asarda yashab o‘tgan me’mor Abdujabbor. Sherdor madrasasining me’mori (1619-1636).

³ Samarqand, G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti 1986,118 –bet.

⁴ Kryukov S. Registon. T.: «O‘zbekiston», 1965, 3-b.

⁵ Zohidov P. Zeb ichra ziynat.T.:Adabiyot va san’at nashriyoti,1985, 103-bet.

fali Quyosh esa zarhal yog‘du bilan hoshiyalangan. Ular atrofiga naqshu-nigorlar chizilgan. Qizig‘i shundaki, ko‘pgina olimlarimiz o‘zlarining asarlarida «Islom dini avj olgan bir davrda, garchi har qanday jonzot, xususan, odam tasviri qat’iyan man etilgan, deb yuritganlar.¹ Vaholanki, muqaddas kitobimiz Qur’oni Karimda va Hadisi Sharifda» man etilgan joyi yo‘q. Faqat sanamlarni yasash taqiqlangan. Shuning uchun biz tirik mavjudotlarni tasvirlash man etilgan, degan fikrga qo‘silmaymiz. Sababi shundaki, saqlanib qolgan tarixiy hujjatlar bu fikrni inkor etadi.

XV - XVII asrlarning turli adabiy va tarixiy asarlari (masalan, XV - XVII asrdagi «Shohnoma» ning juda ko‘p qo‘lyozmalari, XV asrdagi «Zafarnoma va boshqalar» dagi miniatyurlar dunyoviy hayot, mehnat va manzaralarini tasvirlaydi va devorlariga turli jonivorlar rasmi tasvirlangan, lekin yo‘q bo‘lib ketgan me’morchilik obidalari guvohlik beradi.

«Me’morchilik yodgorliklarining ba’zi fasadlarida jonli mavjudotlar tasvirlangan koshinli va sirli namoyonlar hozirga qadar saqlanib qolgan. Masalan: Shahrisabzdagi Oqsaroy (1380-1405-yil) peshtoqi sherlar rasmi solingan namoyonlar bilan bezatilgan. Anov masjidi (1456-yil) peshtoqining ravoqi tepasida ajdarlar tasvirlangan timpan bo‘lgan. Buxorodagi Nodirbegi madrasasi asosiy fasadining ayvoni yuqorisiga laylaklar rasmi solingan va hokazo».

Usta mulla Abdujabbor nafaqat naqsh tilini, balki go‘zallik falsafasini, ramziylikni bilgan va mustaqil ijodkor usta bo‘lgan. U bunday tasvirning ulkan bino peshtoqida ishlanishi bilan me’mor qanday maqsadni nazarda tutgan ekan? Bu masalada hozirgacha tayin aniqlik yo‘qdir. Shu haqida to‘xtalib o’tmoqchimiz.

¹ Kryukov S. «Registon». (Samarqand arxitektura yodgorliklari). -T. , «O‘zbekiston», - 1965. 9-b.


Taniqli olim, akademik Po'lat Zohidov o'zining «Me'mor olami» kitobida Sherdor madrasasining bezagi haqida shunday yozadi: «Samarqandlik olim Abu Tohirxo'ja XIX-asrning 30-yillarida yozgan «Samariya»¹ kitobida Sherdor madrasasi peshtoqidagi tasvirlarni biroz boshqacha talqin qiladi. U tasvir mazmunini musulmon astrologiyasida keng tarqalgan osmondag'i yulduz burjlari bilan bog'lab ta'riflaydi. Abu Tohirxo'janing aytishicha, xurshid – Quyosh shakli sher burji (yulduzlar turkumi) bilan qo'shilib ketgan: ohuni tutmoqchi bo'lgan sher hamlasini quyosh nurlarining tig'i qaytarmoqda. Go'yoki, nur-ziyo ofatni daf etmoqda. Har holda, ijodkorlar chuqur g'oyaviy fikrni ramziy tahlilda berishgani ko'rinib turibdi. «Lekin, – deydi Po'lat Zohidov, – hozircha, tasvirning talqini haqida boshqa biror aniq tarixiy ma'lumotga ega emasmiz»².

Haqiqatdan ham Sherdor madrasasi peshtoqidagi bezatilgan naqsh kompozitsiyasi qiyomiga yetkazib talqin qilib berilmagan. Chunki naqshni o'qish tili alifbosi bizgacha yetib kelmagan. Hozirda esa naqshlar tili alifbosi tuzilmagan. Shuning uchun naqshlarni o'qish masalasi muammo bo'lib kelmoqda. Sherdor madrasasi peshtoqidagi bezak murakkab kompozitsiya bo'lib, uni tahlil qilish va undan to'g'ri xulosa chiqarish uchun san'atshunos olim bir qancha ilm turlaridan xabardor bo'lishi lozimdir. Masalan, bezakni tahlil qilish uchun olim naqsh san'atini yuqori darajada bilishi shu qatori astrologiya, psixologiyani ikki tarmog'i bo'lmish «Fiziognomika» (qiyofa ilmi), rang psixologiyasi, ramziylikni, dunyoviy hamda g'ayb ilmidan xabardor bo'lishni talab etadi. Demak, me'mor-naqqosh Abdujabbor yuqorida aytib o'tilgan ilmlardan xabardor bo'lgani o'z isbotini topdi (60-rasm).

¹ Samariya. Abu Tohirxo'ja. Buxoro tarixi (Narshaxiy. Shajarai Xorazmshoxiy / Bayoniy.

² Zohidov P. Me'mor olami.- T., Qomuslar bosh tahririyati, 1996 -230 -b.


Me'mor Abdujabbor va naqqoshlar



60-rasm. Sherdor madrasasini bezagan me'mor - naqqosh Abdujabbor va naqqoshlar yuqoridagi ilm turlarini puxta bilganlar.

Bahodir Yalangto'sh aql zakovatli inson bo'lib, o'z boyligini ko'pgina qismini xalq farovonligi uchun sarflagan. Masalan, Sherdor madrasasi, Tillakori madrasa va boshqalar misol bo'la oladi. U o'z xalqi uchun sarmoyasini ayamadi. Vatanparvar inson uzoqni ko'zlab, xalqini ziyo (ilm) olishga undaydi. Ziyo orqali insonlarni ruhiy poklikka, ruhiy poklik orqali komillikka erishadi, degan falsafiy fikrni ilgari suradi. Shuning uchun me'mor Abdujabbor oldiga shunday vazifa qo'yadiki, bo'lajak madrasa peshtoqiga shunday tasvir ishlash kerakki, bu naqsh birinchidan, bezak qalbidagi go'zallikni aks ettirishni maqsad qilib qo'yadi. Muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimda aytilganidek, «Alloh go'zallikni yaxshi ko'radi» degan falsafiy, g'oyani ko'taradi. Chunki, atrof-muhit ham go'zal bo'lishga chaqirilish kerakligini tu-shuntiradi. Ikkinchidan, deydi, Yalangto'sh Bahodir, bu tasvir orqali insonlarni ziyoli bo'lishga, ya'ni ziyo orqali ruhiy poklik orqali komillikka erishish mumkinligini ko'rsatish, uchinchidan, mening haqimda, ya'ni naqsh tili bilan yashagan davrimni hamda mening suratimni va siyratimni


bayon etgin deb, Abdujabbor oldiga vazifa qilib qo'yadi. Abdujabbor ushbu vazifani yetuk naqqoshlar guruhi bilan maslahatlashib, ajoyib, mukammal kompozitsiya tuzadilar va o'z oldilariga qo'yilgan maqsadga erishadilar. Sherdor madrasa peshtoqidagi kompozitsiyani quyidagi ramziy yechimda amalga oshiradilar (61-rasm).



61-rasm. Sherdor madrasasi bezaklarining uch vazifasi.

Bezaklarning birinchi qatlam ma'nosi va hikmati

Me'mor Abdujabbor Sherdor madrasasining peshtoqini shunday bezaydiki, bu hech qaysi me'morchilikda takrorlanmaydigan hamda hayvonlar, o'simlik va yerga issiqqliklar, hamda yorug'lik berib turuvchi Quyoshni, milliy go'zal, komil insonni aks ettirgan. Bezak qalbidagi go'zallikni chiziq, shakl va rang tili bilan borliqni xalqiga yetkazadi. Ushbu go'zallik insonlarning ruhini ko'taradi, qalbida hayotga, ma'naviyatimizga, qalb go'zallidan ruhiy ozuqa oladi. Insonlarni estetik va ahloqiy ruhda tarbiyalaydi. Simmetrik naqsh go'zallik orqali insonlarni til go'zalligi bilan dil go'zalligi har doimo mos kelishini qalbdan kuylaydi. Shuning uchun ham yaltiq narsa oltin bo'lavermaydi deb bejiz aytmaganlar. Insonlarni foniylar tuyoda qiladigan amallari go'zal bo'lishi, ya'ni ezgu amallarni qilishga, vatanini,



62-rasm. Sher dor madrasasining peshtoqdagi ko'rinishi xalqini tabiatni e'zozlashga chaqiradi. Foniylar dunyo mehnatlarni bu dunyoda faqat ezgu ishlar bilan shug'ullanishga undaydi. Kimdandir bog', kimdandir kitob, madrasa, mas-


jid, ko‘prik, shogird va boshqalardan ezgulik qolish farzligini naqsh tili bilan so‘zlaydi. Bunga vatandoshimiz vatanparvar inson Yalangto‘sh Bahodir ham misol bo‘la oladi.

Islimiyl naqshlar ona tabiat, tabiatning go‘zalligi, nozne’matlar diyori ekanligi. To‘lqinsimon islimiyl naqsh hayotning notejisligini, oyning o‘n beshi yorug‘ bo‘lsa, o‘n beshi qorong‘udir. Bularda hikmat alomatlari bordir. Insonning kuni va tuni, vaqtini o‘tishini ya’ni umr o‘tishini ramziy anglatadi. Shuning uchun inson har bir daqiqani g‘animat bilishni anglatadi.

Oq gullar tabiatni pokiza saqlashga, insonni ruhiy poklikka undaydi.

Yashil rang islam dini e’tiqodi, iymon butunligi, ulug‘lik, valiylik ramzi, tabiat rangi.

Havo rang – koinot cheksizligi, tinchlik, yomon ko‘zdan asrash ramzi ekanligini anglatadi.



63-rasm. Klaster usulida islimiyl naqshlarni o‘rganish.

Sariq, zarg‘aldoq rangli gul – ziyo go‘zallik, dunyo go‘zalligi, qalb go‘zalligini bildiradi.

Havo rangli novda – inson hayot chizig‘ini nihoyatda notejisligini anglatadi.

Sarg‘ish zarg‘aldoq rangli novda – insonlarni ziyo yo‘lida yurgan hayot chizig‘ini va bu yo‘l oltinga o‘xhash go‘zalligini bildiradi.


Namoyon — ko‘rinish, komillik, ya’ni insonning mustaqil komillik darajasiga erishganlik darajasini ko‘rsatadi.

Bezaklarning ikkinchi qatlam ma’nosi va hikmati


Ikkinchi masalani, ya’ni insonlarni ziyo orqali ruhiy poklikka, ruhiy poklik orqali inson komillikka erishadi, degan g‘oyani quyidagicha yechimini topgan:

Jonivorsimon kompozitsiya, zehn bilan qarasak, birinchi sher, ikkinchi Quyosh, uchinchi ohu, to‘rtinchi naqshlar ichidagi namoyon ko‘zga tashlanadi.

Olamda Alloh jonzotlar ichida eng aqlli va kuchli qilib insonni yaratgan. Shunday ekan hayvonot olamida eng kuchli qilib sher erkagini oladi. Yo‘lbars tanasini esa epchillik bilan borliqqa aql-zakovati yetadigan ramzda olinadi. Aslida, dunyoda yo‘lbars tanali sher yo‘q. Shersimon yo‘lbarsni inson obrazida aks ettirgan. Quyosh nurlaridan ziyo, ya’ni ilm ramzida foydalangan. Ohu bolasini esa ruhiy poklik o‘rnida tasvirlagan. Namoyonni esa eng yuqorida yashil va oltin rangda bezashgan.




64-rasm. Namoyon naqshining ranglarini ilmiy tahlili.



65-rasm. Sherdor madrasasi peshtoqlari namoyoni tahlili.

1-erkak sher boshi, 2-zuluksimon qora shakllar, 3-sherning oyog‘i, 4-sherning qulog‘i, 5-sherning tishi, 6-sherning sochi, 7-sherning qorni, 8-sherning dumi, 9-ohu, 10-inson peshonasi, 11-quyosh nuri, 12-qoshning qovog‘i, 13-qora soch, 14-sochning gajagi, 15-inson yanog‘idagi xollar, 16-namoyon, 17-tilla rangli islimiyl naqshlar, 18-oq rang, 19-yashil rang, 20-havo rang, 21-sherning tirnog‘i, 22-inson qoshi, 23-inson burni, 24-oq nuqtalar, 25-sherning tili, 26-sherning ko‘zi, 27-sherning soqoli, 28-inson labi.


Namoyon naqshining ranglarini tahlil qilsak sarg‘ish zarg‘aldoq rang - ziyoni, oq rang -ruhiy poklikni, yashil rang -valiylikni, havo rang -yuqori darajani ya’ni hamma rangni qo‘shib o‘qisak komillik darajasi degan ma’noni bildiradi. (64-rasm). Namoyon komillik darajasi ramzida ishlatilgan. 64 va 66-rasmlarda ko‘rsatilganidek, inson ziyo(ilm) orqali ruhiy poklikka erishadi, ruhiy poklik orqali esa komillik darajasiga erishadi, degan falsafiy g‘oyani ilgari suradi. Oltin nurlarini sherda quyoshda, islimiyl naqshda va namoyonda ko‘rish mumkin. Inson ziyo orqali olamni biladi va o‘zligini anglaydi. Bu ramziy naqshlar unsiz ovozda ilm haqida bunday deydi: Alloh odamga turfa ilmlarni o‘rgatgan va boshqa mavjudotlar- dan farqlagan.



66-rasm. Sherdor madrasasi peshtoqidagi naqshlarning tarbiyaviy ahamiyati chizma asosida aks ettirilgan. Bezaklarni naqsh tili bilan o'qisak, «Inson umri davomida ziyo orqali ruhiy poklikka erishadi, so'ngra u komillik darajasiga yetadi» degan falsafiy g'oya ilgari surilgan.

Ilk oyati kalimaning «o'qi», deya nozil bo'lishi islomda ilmning yuksak mavqega egaligidan dalolat beradi. Har bir musulmon shu tuyg'u bilan harakat qiladi. Bilmaganlarini bilish uchun umr bo'yi intiladi. Inson ilm yo'lidan yursa yuksaladi, aks holda tubanlikka yuz tutadi. «Zamaxshariy bu oyati kalimani tafsir qilar ekan, shuday deydi: «Alloh taolo insonlarga bilmaganlarini o'rgatish uchun ilk oyatda «o'qi» kalimasini indirdi. Bu esa ilohiy vahiyning ilmgaga bergan buyuk bahosidan dalolat. Allah insonlarni jaholat botqog'idan ilm yo'li bilan ziyoga chaqiradi va ularga buyuk ne'mat sifatida bu ilmlarni yozish imkoniyatini ham berdi»¹. O'qiganlar va ilm sari intilganlar haqiqatga erishadi. Shu jihatdan olim kishi juda go'zal mavqega ega bo'ladi. Johil esa tubanlikka yuz tutadi.

¹ Islomiyat va ilm. Musannif: Saloxiddinova M, "Mavarounnahr", T., 2004, 9-b.



67-rasm. Inson ziyo orqali ruhiy poklikka, ruhiy poklik orqali komillik, darajasiga erishish mumkinligini ranglar orqali tasvirlash modeli.

Alloh taolo Zumar surasining 9-oyatida² bu xususida : «Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘lurmi?!» deydi. Alaqlar surasining 1,2,3-oyati³ karimalarida:

«(Ey Muhammad, butun borliqni) yaratgan zot bo‘lmish Robbingiz nomi bilan o‘qing! (U) insonni laxta qondan yaratdi. O‘qing, Robbingiz esa karamli zotdir», deya marhamat qilinadi. Bu Rasulullohga (s.a.v) vahiy bo‘lgan ilk oyatlar, shuningdek, Islomiyatning ilmiga bo‘lgan yuksak e’tiboridan dalolat beradi. Rasululloh (s.a.v.) ham hadislarida «Beshikdan to qabrgacha ilm izlangiz» deya buyurganlar.


Sherdor madrasasi peshtoqi bezagidagi elementlari birma-bir tizib keltirib ko‘ramiz. (68-rasm) Sherdor madrasa peshtoqidagi tasvirlarning har birini bo‘laklarga bo‘lib, ularning elementlarini yana bir tizim asosida yoritib bergen¹. 2-jadvalda esa ba’zi elementlar ramziy ma’noda qisqacha ko‘rsatib o‘tilgan.

² Qur’oni Karim. Zumar surasi. 9 – oyat.

³ O’sha asar. Alaqlar surasi. 1,2,3 – oyati.

¹ 2 – jadvalga qarang.

Sherdor madrasasi peshtoqi bezagidagi elementlar



68-rasm. Sherdor madrasasi peshtoqi bezagidagi elementlar tizimi.

Biz bu bezakdagi har bir nuqta yoki ranglarda o‘ziga xos hikmatlar borki, ularni naqsh tili bilan o‘qish va ulardan tegishli xulosalar chiqarish mumkin.


Bu go‘zallik qalbidagi hikmatlarni birma-bir o‘qib chiqamiz. Inson ilm orqali komillikka erishish uchun Alloh yaratgan bu hikmat durdonalaridan to‘g‘ri foydalanish lozim. Ularni birma-bir o‘qib chiqamiz:

2-jadval

Sherdor madrasasi peshtoqi bezagidagi elementlarning ramziy ma’nolari

Nº	Ramzlar	Ramziy ma’nosi
1	Sherning boshi	Kuchlilik va donolik ramzi hamda Yalangto‘sh Bahodir burji.
2	Yo‘lbars tanasi	Epchillik ramzi hamda Bahodir Yalangto‘sh muchali.
3	Sherning oyoqlari	Mustahkam kuchga va ajdodlarning katta ma’naviy hamda moddiy asosga egaligi.
4	Yoshi katta sher	Ulug‘lik, donolik, aqillilik.
5	Sherning qulog‘i	Hushyorlik ramzi.
6	Sherning tishi	Tafakkurning o‘tkirligi.
7	Sherning erkagi	Hokim Yalangto‘sh Bahodir qiyoslangan.
8	Sherning badanidagi qora chiziq va oq nuqtalar	Hayot yovuzlik va ezgulikdan iborat ekanligi.
9	Sherning dumi	Ulug‘vorlik ramzi.
10	Ohu	Kuchsizlik ramzi.
11	Quyosh	Hayot, yorug‘lik, jo‘shqin hayot, davr yana Bahodir Yalangto‘shning quyosh sohibi ekanligi.
12	Quyosh nuri	Nur, ziyo, ya’ni ma’rifat, bilim tarqatuvchi.
13	Inson qiyofasi	Alloh hamma narsani ko‘rguvchi va bilguvchidir.
14	Qora soch	Yoshlik, kuchlilik va go‘zallik ramzi.
15	Sochning gajagi	Moddiy va ma’naviy boylik, milliylik.
16	Yonoqdagi xol	Komillik .
17	Islimiylar naqshlar	Ona tabiat, tabiatning go‘zalligi, nozi-ne’matlar diyori ekanligi.
18	Zarhal rangli gullar	Go‘zallik ramzi. Go‘zal hayot, ya’ni Allah go‘zallikni yaxshi ko‘radi. U go‘zaldir, ziyolilik.
19	Oq gullar	Pokizalik ramzi.
20	Yashil rang	Islom dini, imon, e’tiqod ramzi, yuqori cho‘qqi.
21	Havo rang	Koinot, olamning cheksizligi, tinchlik va yomon ko‘zdan asrash ramzi.

Sher (arslon) boshining birinchi ramziy ma’nosи, tirik mavjudotlarning ichida eng aqilli va kuchli qilib insonlarning yaratilganligiga ishora qilingan. Insonlar faqat moddiy oziqlanib qolmasdan, balki ruhiy oziqlanishi zarurligi aks ettirilgan. Alloh odamga bergen ilm orqali har narsaning sirini bildirgan va barcha maxluqot ustidan hokimlik qilgan. (69-rasm).



69-rasm. Klaster usulida Sher kallasini tahlil qilish.

Erkak sherning boshini olinishi ramziy ma’noda bo‘lib, uni Samarqand hokimi Bahodir Yalangto’shga qiyoslab aks ettirilgan. Bahodir Yalangto’shning dovyurak, bahodir, aqlzakovati, epchilligi, ziyoli, donoligini bildirsa, ikkinchi tomon dan esa sher kallasi orqali uning yulduzlar burji sher, ya’ni arslon ekanligiga ishora qilingan. Bu burji orqali uning xarakteri to‘liq ochib berilgan.

Sherning qulog‘i insonlarni hushyorlikka undaydi. Dunyoda rizq ikki xil bo‘ladi, biri halol luqma, ikkinchisi harom luqma. Bu ikki luqmaning farqini hushyorlik bilan ajrata bilgin, deydi. Chunki oxiratda hamma amallaringni javobini berasan, deyiladi. Quloq haqida ajdodlarimizdan Abu Nasr Farobi shunday degan edi:

«Agar quloqni nimalardan berkitish kerak deb so‘rasalar, aytgil, avval botil va bid’at so‘zlardan, ikkinchidan, behuda va foydasiz fahsh so‘zlardan, uchinchidan, g‘iybat va bo‘hton so‘zlarni eshitishdan asrang. Chunonchi, g‘iybatga quloq solgan g‘iybatchining gunohiga sherikdir deyiladi.¹

Sherning tishi orqali inson aql-zakovatda, ilmda, tafakkurda o‘tkir bo‘lishi lozimligi ifodalangan.

Sherning badanidagi qora chiziq va oq nuqtalar orqali esa hayot kun bilan tundan iboratligi, dunyoda yorug‘lik bor joyda qorong‘ulik ham borligi, foniy dunyoda ezgulik bilan yovuzlik yonma-yon yurishi uqtiriladi va insonlarning ezgu amallarini bajarishga undaydi.

Sherning tili. Dunyodagi eng shirin va eng achchiq narsadir. «Tilga e’tibor xalqqa e’tibor» deb xalqimiz bejiz ayt-magan. Ota-bobolarimiz «Kishi foniy dunyoda yashar ekan, so‘z odobiga nihoyatda qattiq rioya qilishi, hamma narsani gap deb gapirovermasligi, o‘ylab gapiroishi, bo‘lar-bo‘lmasga so‘z qotmasligi, tilini tiyib yurishi zarur. Aks holda boshiga balo orttiradi, o‘ziga ziyon-zahmat yetkazadi» degan fikrni ko‘pgina maqollar vositasida bildirganlar. «Qilich kesolmaganini so‘z kesadi», «Til tig‘i qilich tig‘idan o‘tkir», «Tig‘ jarohati bitar, til jarohati bitmas» (Tig‘, pichoq, qilich) kes-gan yara tezda bitib ketadi, ammo tiling bilan (yomon gapi-rib) birovning dilini yaralasang, bu jarohat sira ham tuzalmaydi. Keyin u odamning ko‘nglini olishing juda qiyin bo‘ladi. Shuning uchun avvalo yomon so‘zlama» deyilmoqchi.¹

«Tilning odobi qaysi, deb so‘rasalar, bu olti narsaga tilni ochish va sakkiz narsadan tilni saqlash, deb aytgil. Tilni ochish kerak bo‘lgan narsalar qaysi, deb so‘rasalar, aytgil: hojat zarurati yuzasidan ko‘ngillarga yashirin bo‘lgan rozni izhor etish, mazlumlar faryodiga javob berish va mahrumlar

¹ Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri. T.: Xalq me’rosi, 1993 – 50-b.

¹ Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani.- T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediya-si, Davlat ilmiy nashriyoti, 2001-333-b.


imdodi uchun so‘z aytish. Chunki bu orqali zolimning zulmi mazlumlar boshidan ko‘tarilishi mumkin.

Tilni saqlash lozim bo‘lgan narsalar qaysi, deb so‘rasalar, aytgil: birinchidan, yolg‘on gapirishdan, zero yolg‘onchi xudoning dushmanidir. Ikkinchi, va’daga xilof gapirish va munofiqona so‘z aytishdan. Uchinchi, g‘iybat va bo‘hton gaplardan, chunki bo‘hton fosiqlar ishidir. To‘rtinchidan, behuda bahsu-munozaradan, ayb qilishdan va gap tashishdan asrang, bular shayton vasvasasiga kiradi. Beshinchi, o‘zini maqtash va ta’riflash xudbinlikka olib keladi. Oltinchi, navkar va xizmatkorlarni la’natlashdan. Yettinchidan, qarg‘ashdan, duoyi bad qilishdan, chunki bu jonu-dilning ofatidir. Sakkizinchi, mazax-masxara qilish va hazil-huzuldan».

1. Yoshi ulug‘ sher tasvirlanishining sababi, insonlarni va Yalangto‘s sh Bahodirni dono, tajribaga asoslanganligini aql-zakovati yuksaklik alomatida aks ettirgan.

2. Yo‘lbars tanasining ramziy ma’nolari:

Tirnoq – yer yuzidir, ya’ni komillar nazdida yer yuzi tirnoqchalikdir. U yer yuzidagi (foniy dunyodagi) har bir sirdan voqifdir. Uni «bo‘yash» sir saqlashga ishora. Fozillar sirni saqlay oladilar (70-rasm)



70-rasm. Yo‘lbarsni klaster usulida tahlil qilish.

Peshtoqning chap qismida tasvirlangan sherning bir oyog‘ida bitta tirnog‘i tasvirlanmagan. Bu dunyoning «bir kam dunyo», «beayb parvardigor», «gunohkor banda», «ojiz banda» degan falsafiy g‘oyalarini beradi.

Sherning dinamik, ya’ni harakatdagi holatinining tasvirlanishi ham ramziylikka ega bo‘lib, inson ziyo olish uchun doimo harakatda bo‘lishi kerak, shuning uchun ham payg‘ambarimiz (s.a.v.) dedilar: « - Xitoydan bo‘lsa ham ilm izlang. Ilm izlash har bir musulmonga farz».¹ – degan so‘zlarda cheksiz hikmat xazinalari borki, inson bularni qalbi bilan anglashi kerak. Yana payg‘ambarimiz (s.a.v.) dedilar:

– Ilm xazinadur».²

Sherning tanasidagi qora zuluk shakllar yovuzlik, (tun ramziy) ifodalangan. Kun tun va kundan iboratligini anglatadi.

Sherning tanasidagi oq dumaloq shakldagi tasvirlar poklikni, yorug‘lik va kunni bildiradi. Qora shaklidagi tasvir va oq shaklidagi tasvirlar dunyo ezgulik va yovuzlikdan iboratdir, degan ma’noni bildiradi.

Alloh Oli Imron surasining 190, 194-oyati karimalarida:

Osmonlar va Yerning yaratilishida, tun va kunning o‘rin almashib turishida aql egalari uchun alomatlar bordir. Ular osmonlaru-yerning yaratilishi haqida fikr yuritadilar: «Ey Rabbimiz! Bu (koinot)ni behuda yaratmagansan».

Sherning dumi – orqali ulug‘vorlik aks ettiriladi, ya’ni inson ziyo orqali ulug‘likka erishadi, deyiladi.

Sherning qorni – nafs, ya’ni inson harom va shubhali taomni emasligi, hamda pok bo‘lish ramzi sifatida aks ettirilgan.

Ko‘z – insonning qalb ko‘zi ramziy ifodalangan. Inson olamda ko‘rinadigan jamiki narsalarni ko‘zi bilan ko‘radi. Yeru-ko‘kka ibrat ko‘zi bilan boq, ularni ham buyuk kuch

¹ Bulatov S.S., Qo‘chqorov M. Inson qiyofasini o‘qish san’ati. (Fiziognomika). T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2004, 92-b., Shomaqsudov Sh.,Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani.- T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 2001 -333 –b.

² Abu Nasr Farobi. «Fozil odamlar shahri». T.: Xalq merosi, 50-51 b.

yaratgan. Lekin, voqeliklarni qalbi bilan ko‘rmaydi. Ko‘zning ham o‘ziga xos hikmatlari mavjud. Chunonchi, «Agar ko‘zning odobi nechta, deb so‘rasalar, ikkita, deb ayt. Birinchidan, ko‘zni to‘rt narsani ko‘rishdan saqlash kerak. Ikkinchidan, to‘rt narsani ko‘rishga ko‘zni ochish kerak. Agar ko‘z ko‘rishi lozim bo‘lgan to‘rt narsa nima, deb so‘rasalar aytgil: yo‘lni ko‘rib, qadamni qo‘yishni mulohaza qilish uchun avval yo‘lga qarash kerak... Ikkinchidan, yer va os-monga qarash kerak... Uchinchidan, ibratli narsalarga ko‘zni ochib qarash kerak, toki foydali saboq bo‘lsin...

Agar ko‘zni berkitish zarur bo‘lgan narsalar qaysi deb so‘rasalar, aytgil: birinchidan, ko‘zni nomahramni ko‘rishdan man etmoq kerak. Chunki nomahramga nazar shunday bir zaharli o‘qli, u qaysi dilga borib tegsa, uni shayton zahri bilan zaharlaydi va xarob etadi. Ikkinchidan, ko‘zni shahvat qo‘zg‘ovchi suratlardan asrash kerak, ammo agar birov poklik yuzasidan boshqa birovga va yo yaxshi suratga qarasa, bunda hech ziyon yo‘qdir...

Uchinchidan, ko‘zni o‘zgalar aybini ko‘rishdan asrash kerak, zero birovlardan ayb izlash eng yomon xislatdir:

O‘zgalar aybiga boqma, o‘zingga boq,
Ko‘zni yoqaga berkit, dil sha’mini yoq.

To‘rtinchidan, ko‘zni birovga haqorat nazari bilan qarashdan asragil. O‘zgalarni kamsitish, mazax qilish, ojizlar ustidan kulishdan saqlan. Chunki, hech kim nuqsondan holi emas. Xoja Imomiddin Faqih yozganidek:

Mamlakat shohi bo‘larsan yo ilohing soyasi,
Lek boqma sen haqorat ko‘zi-la bir bandaga»

Sherning oyoqlari orqali ona zaminning mustahkam kuchga, katta ma’naviy hamda moddiy boylikka ega ekanligi ramziy ifodalangan.

Oyoq haqidagi hikmatlar haqida Abu Nasr Farobi shunday deydi:

«Agar oyoqning odobi nechta deb so‘rasalar, ikkita deb aytgil. Birinchidan, uchta joyga borish, ikkinchidan uchta

joyga borishdan saqlanish. Agar borilish lozim bo‘lgan mavze’ (joy)lar qaysidir, deb so‘rasalar, aytgil: birinchidan, xayrli joyga borish, ikkinchidan, qabrlar va qalblar ziyyaratiga borish, biror gunohkorning shafoati yoxud bemorning ziyyaratiga borish yoki jabr-zulmni daf etish uchun qadam tashlash.

Agar borilishi man etiladigan joylar qaysi deb so‘rasalar, aytgil: birinchidan, zolimlar va haromxo‘rlar uyiga bormaslik, ikkinchidan, qimorxona va xarobot kabi noloyiq va tuhmat joylarga bormaslik, uchinchidan, nomahramlar orqasidan qadam tashlamaslik».¹

Oppoq ohuning bolasini ruhiy poklik ramzida berilgan. Bu ruhiy poklikka inson faqat ziyo, ilm orqali erishadi, deyiladi. Ruhiy poklikka erishgan odam u komil inson hisoblanadi.(71-rasm).

Quyosh yorug‘lik timsoli, ya’ni inson ruhi quyoshdekkor yorug‘, pok bo‘lishi, quyosh nuri esa insonlarni ziyoga, ma’rifat-bilim orqali ruhiy poklikka erishtiradi, deyiladi.


Kiyik bolasidagi yashil rangli nuqtalar – valiylik, ko‘ngil pokizaligi, islom dini, inson xarakteridagi go‘zal xulq-odob egasi bo‘lishlikni bildiradi.

Oltinsimon rangli nur – kompozitsiyada yetakchi rang, nur, ziyo, bilim ramzida aks ettirilgan. (72-rasm)


Qizg‘ish zarhal rangi – bilan shersimon yo‘lbars va ikki islimiylar naqshning bir novdasi ham shu rangda tasvirlangan. Buning sababi nimada? Mantiqiy ma’nosi shundaki, qizg‘ish – zarhal rangli quyosh yog‘dusi ziyoni bildirsa, sherning rangi shu rangda tavirlangan islimiylar naqsh, Samarqand hokimi butun olamga bilim, ma’rifat tarqatuvchi ekanligi o‘z ramziy ifodasini topgan.

Oltinsimon nur yog‘dusi orqali foniylar dunyoda yashayotgan jamiki insonlarni ziyo, ilm olishga chaqiradi (73-rasm).

¹ O‘sha asar 51-bet.



71-rasm. Ohuni klaster usulida tahlil qilish



72-rasm. Ranglarni klaster usulida o‘rganish.



73-rasm. Nurni klaster usulida tahlil qilish.

4. Inson qiyofasi tasvirining ramziy ma'nolari.

Inson qiyofasi orqali «Alloh hamma narsani ko'rguvchi va bilguvchidir» mazmunida berilgan.


Ko'z – ma'rifat chashmasidir. Tim qora ko'z ma'rifatning cheksizligini bildiradi. (74-rasm).

Qoshi – bir-biriga yaqinligi taqdir yo'li yaqinligi, yaxshilik alomatidir. Yuqorida joylashgan qosh – maqsadga intilish alomati.

Burun – katta, go'shtdor burun tasvirlanishining o'ziga xos tomoni – bu burun egalari uzoqni ko'zlab ish qiluvchi kishilar hisoblanadi.

Qora soch – bu yoshlik ramzi bo'lib, u orqali insonlarni yoshlik davridan bilim olishga undaydi. «Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir» deb beziz aytildagan.

Sochning gajagi - esa insonlarni moddiy va ma'naviy boylikka ega bo'lishiga chorlaydi.



74-rasm. Klaster usulida inson qiyofasini tahlil qilish.

Inson qiyofasidagi bitta xol - komillik darajasini bildirsa, bu xolning simmetrik tasvirlanishi esa, insonni so‘zi bilan qilgan amali bir xilda bo‘lishiga ishora qilingan. Xol so‘zi g‘ayb ilmida tasavvuf ilmini anglatadi.

Lablarning kichik tasvirlanishi - donolik, go‘zallik alovmatida tasvirlangan. Fiziognomikada, ya’ni inson qiyofasini o‘qish san’ati kitobida bu lablar «Sezgir lablar» deb yuritilgan. «Bunday labli kishilar ochiq fe’l egalaridir. Ular kelishgan bo‘lishlari bilan birga insonda yaxshi taassurot qoldira oladigan hayotbaxsh fazilatiga ham egadirlar»¹

Labning ramziy ma’nosi «Ustozning so‘zi, nasihatini bildiradi. Chunki lab ikki qanotga o‘xshaydi, ya’ni ustoz ma’rifatidan oziqlangan shogird tafakkur osmonida uchadi, og‘izning kichkinaligi ustoz ma’rifatining sermazmunligidan dalolat beradi».²

Bezaklarning uchinchi qatlam ma’nosi: Yalangto‘sh Bahodir haqida ma’lumotning naqshlar orqali tasvirlanishi masalasi haqida.

Me’morchiliklardagi bezaklarga qaraganda o‘ziga xos farq qiladigan shunday kompozitsiya chizilganki, naqsh tili orqali shahar hokimi Yalangto‘sh Bahodir o‘z avlodlaridan qolishmasligini, afsonaviy qahramonligini, ziyo tarqatuvchi, o‘z xalqiga fidoiyligini mohirona ko‘rsata olgan. Ayniqsa naqqosh, dunyoda bo‘lishi mumkin bo‘lmagan hayvon - tanasi yo‘lbars, boshi sher bo‘lgan hayvonni aks ettiradi. Kompozitsiyada birinchi shakl shersimon yo‘lbarsdir, ikkinchisi ohu bolasi, uchinchisi quyosh, to‘rtinchisi namoyon ko‘zga tashlanadi. Demak, kompozitsiyada, ya’ni hayotda yoki teatr sahnasida qahramon bu sherdir. Asosiy qahramon - sherni naqqosh ikki o‘rinda, ya’ni ko‘plikda insonlarni, ikkinchi tomondan esa Yalangto‘sh Bahodirni ramziy ma’noda ifodalagan. Demak, Yalangto‘sh Bahodirning surati va siy-

¹ Bulatov S.S.Qo‘chqarov M. Inson qiyofasini o‘qish san’ati. T.: 2004, 74 –b.

² O‘sha asar, 91 –b.

ratini hamda tug‘ilgan yili va oy, kuni naqsh tili bilan yozilgan. Buning uchun biz tarixga murojaat qilamiz.

Samarqandlik olim Abu Tohirxo‘ja «Samariya» kitobidagi Sherdor madrasa peshtoqidagi tasvirlarni astrologiya, ya’ni munajjim ilmi bilan bog‘liqligi degan fikrini to‘g‘ri deb hisoblaymiz. Uni isbotlash uchun quyidagi ilmiy farazni qo‘llaymiz.

Tasvir, Astrologiya munajjim ilmi bilan bog‘liqligi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Astrologiya, ya’ni munajjim ilmi ayrim kishilar va xalqlar taqdirini osmon yoritgichlarining vaziyatiga qarab aytish bilan shug‘ullaniladigan ta’limotdir³.

Astrologiya, ilmi nujum (arabcha-munajjim ilmi) – ayrim kishilar va xalqlar taqdirini osmon yoritgichlarining vaziyatlariga qarab aytish bilan shug‘ullanadigan ta’limot. Qadimda Suriya, Bobil, Misr, Xitoy, Hindiston, Yunonistonda va o‘rta asrlarda Arabiston, Eron va Markaziy Osiyoda keng taraqqiy etgan.

Munajjimlar voqeа sodir bo‘lish paytida Quyosh, Oy, Merkuriy, Venera, Mars, Jupiter va Saturinning osmon gumbazlaridagi vaziyatlariga va ular ufqning qaysi qismida joylashganligiga qarab fol ochar edilar. Mirzo Ulug‘bek munajjim ilmi bilan ham shug‘ullangan va nazariy va amaliy asoslarini isbotlab bergen. (Mirzo Ulug‘bek, Ilmi nujum, T. 1994.)¹

Kompozitsiyada naqqosh tasvirda Yalangto‘sh Bahodir yni erkak boshli sher ramzida aks ettirgan. Erkak sher boshi orqali Samarqand hokimi Yalangto‘sh Bahodirning sharqiy tolenoma asosida burji, yo‘lbars tanasi orqali esa uning muchali ramziy berilganligini aniqladik.

Yalangto‘sh Bahodirning sharqiy tolenoma asosida Yo‘lbars uning tug‘ilgan yili, erkak sherning boshi esa uning oy va kuni ekan. 75-rasmda ko‘rsatilganidek, Yalangto‘sh Bahodir sharqiy muchal bo‘yicha yo‘lbars 12 yildan hozirgi yildan ayirib borsak 1578-yilga to‘g‘ri kelyapti. 1619-yilda

³ O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 1-jild, T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2000. 468-b.


Yalangto'sh Bahodir 41 yoshda ekan, burji bo'yicha sher ekan. 23-iyul – 23-avgust oralig'ida tug'ilgan. Lekin, qaysi oyda va qaysi kunda tug'ilganligini aniqlash uchun yana tasvirga murojaat qilamiz. Biz 23-iyul – 23-avgust oralig'ida 30 kun bor. Shu 38 dan 30 kunni ayirsak, 8 qoladi. 23-avgustdan 8 olib tashlasak, 15-avgust bo'ladi. Yalangto'sh Bahodir 15-avgustida tug'ilgan ekan. Lekin, o'zbek milliy entsiklopediyasining 10-tomida tug'ilgan yili 1576 oyi 15-sentyabr deb berilgan. Peshtoqidagi bezak asosida esa tug'ilgan yili 1578-yil 15-avgustga to'g'ri kelmoqda. Bu tafovutni jiddiy o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. 19-jadvalda yuqorida aytib o'tilgan qiyosiy tahlil bayon etilgan. Uning xarakteri va taqdiri qanday bo'lgan? Yulduz ilmi bo'yicha o'rgansak, Yalangto'sh Bahodir xarakteri va taqdiri sharqiy tolenoma «Taqdir ta'biri» manbasida quyidagicha bayon etilgan.

№	Ma'lumotlar	Yalangtush Bahodirning tug'ilgan yili	Oy, kun	Vafot etgan yili
1	O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. №10 tom	1576-yil	15-sentyabr	1656-yil
2	Bizning ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida	1578-yil	15-avgust	1656-yil
3	farqi	2 yil	1 oy	–

75-rasm. Yalangto'sh Bahodirning tug'ilgan yili va oyining O'zbekiston milliy entsiklopediyasidagi ma'lumotlar bilan bizning ilmiy tadqiqotlarimiz natijalarining ko'rsatkichlari.

Bu muchalda tug'ilganlar achchig'i tez va tartib-intizomga rioya qilmaydigan kishilardir. Ular katta yoshdagilar yoki rahbarlar bilan tez-tez janjallahib turishadi, hatto o'zlarining haq emasliklarini fahmlasalar-da, bari-bir bahslashishga tayyordirlar. Ulardan ko'pincha inqilobchilar, rahnamolar chiqadi. Itoat etishni yoqtirishmaydi, ammo bosh-qalarga aytganini qildirishadi. Shu bilan birga, ko'pincha, yaxshi o'ylab ko'rmasdan qaror qilishadi yoki to'g'ri xu-

losani juda kech chiqarishadi. Agar ular biror ishni boshlashdan oldin yaxshilab o‘ylab ko‘rish va dono maslahatlarga qulq solishning uddasidan chiqa olishsa, katta-katta mavafiqiyatlarga erishishi mumkin. Tabiatan kurashuvchan, qo‘rs va jizzaki bo‘lib, ko‘zlangan ishlari uchun o‘zlarini qurban qilishga ham qodir. Ulardan yaxshi lashkarboshilar yoki korxonalarining rahbarlari chiqadi. Lekin, xavfli jinoyatchi bo‘lishi ham mumkin. Xullas, bular, odatda, omadli odamlardir.

Sharqiy muchal	Burj bo‘yicha
YIL	OY VA KUN
	
1576-yil	15-sentyabr
1578-yil	23-iyul – 23-avgust (18-avgust)
← → Yo‘lbarssimon sher	

76-rasm. Samarqand shahrining hokimi sarkarda Yalangto‘sh Bahodirning sharqiy tolenomaacosida taqdir ta’biri.
Sharqiy muchal bo‘yicha: Yo‘lbars yili.¹

Burjlar va shamsiy yil oylari bo‘yicha: Arslon burji (23-iyuldan – 23-avgustgacha) Yulduzlar ilmiga nazar solsak, bizningcha, Samarqand hokimi sarkarda Yalangto‘sh Bahodir burji Arslon (sher) bo‘lgan, 23-iyul-23-avgust oraliq‘ida tug‘ilgan. Uning xarakteri va taqdiri qanday bo‘lgan?

¹ Taqdir ta’biri. To‘plib nashrga tayyorlovchi Ra’no Akrom qizi . Toshkent, «Kamalak» 1994-56-22 b.

Yulduz ilmi bo‘yicha o‘rgansak, Yalangto‘sh Bahodir xarakteri va taqdiri sharqiy tole’noma «Taqdir ta’biri» kitobida quyidagicha bayon etilgan. Bu esa, naqshni o‘qishni yanada osonlashtiradi, deb hisoblaymiz.

«Hammaga ma'lumki, olam to‘rt unsur – Yer, Suv, Havo, va Olovdan tashkil topgan. E’tiboringizga havola etilayotgan navbatdagi muchal quyosh hukmronligida bo‘lib, ramzi esa olovga qiyoslanadi. Shuning uchun, muchal sohiblari mehribondirlar. Arslon (Sher) – hayvonot podshosi, Odam «Arslon» lar jamiyatda yetakchilik, rahbarlik sifatlari bilan ajralib turadilar.

Bu muchal sohiblari tor, ko‘rimsiz uylarga sig‘maydilar. Boshqarishga moyilliklari bilan har qanday joyda, har qanday holatda o‘zlarini erkin sezadilar, bahs va munozaralarda, ko‘pincha, qo‘llari baland keladi. Ular chiroyli va did bilan kiyinadilar. «Arslon» yoshi o‘tgan sayin bosiqligi va sokinligi bilan yanada ulug‘lashib boradi, hech qachon mag‘rur boshini egmaydi. Katta davralarda «Arslon» hammaning diqqatini o‘ziga tortishi yoki bir burchakda qovog‘ini solgancha, hech kimga aralashmay o‘tirishi bilan ajralib turadi. U juda hurmat talabdir. Mabodo, mehmoningiz «Arslon»ga nisbatan e’tiborsiz bo‘lsangiz, u sizni hech qachon kechirmaydi. U suhbat chog‘ida odamlarda g‘alati bir taassurot qoldiradi. «Arslon» maslahat berishni yoqtiradi. Ammo domlaning aytganini qil, qilganini qilma, deganlaridek, uning hayoti hamisha ham o‘rnak bo‘ladigan darajada emas. Lekin masalahatlarini inobatga olmasangiz ham xato qilasiz! Negaki, uning o‘gitlari turmush tajribalari mahsuli bo‘lib, azbaroyi o‘zgalarni xavfdan ogohlantirish uchun ham «kuyib-pishadi». «Arslon»lar maqtovni yoqtiradilar, tanqididan vajohatlanadilar. Bu muchal sohiblarining orasida turmushga chiqmagan yoki bo‘ydoqlar umuman yo‘q. Chunki «Arslon» doimo sevib, sevilib yashaydi. Sevgi bobida ular aldanishlari mumkin, ammo ezilmaydilar». «Arslon» lar kuchsiz, himoyasiz odamlarga yordam berishni, kelgan xavfga qalqon bo‘lishni yaxshi ko‘radilar va ba’zan ishlari-

ning ko‘pligidan, odamlar hadeb undan yordam so‘rab kelavermaydilar. Undan qarz so‘rasangiz, o‘zida yo‘q bo‘lsa, birovdan olib sizga beradi. Sizda, u sirayam pulsiz yurmaydi, degan fikr tug‘iladi. «Arslon» muchal sohiblarining hech biri tug‘ma kasal bilan og‘rimaydilar. Ularning yuragi, beli, oyog‘i og‘rib turadi, lekin og‘riq tez o‘tib ketadi. Ularning bitta kamchiligi — o‘z sog‘liqlariga jiddiy e’tibor berishmaydi. Biz yuqorida Samarcand hokimi bo‘lgan Bahodir Yalangto‘sning xarakterini aniqlab oldik. Sherdor madrasasi Bahodir Yalangto‘s sh necha yoshligida boshlangan va necha yoshida bitkazilganligini quyidagi 77-rasmida berilgandek aniqlandi.

Sherdor madrasasining qurilish vaqtি		
Boshlanishi	Tugallanishi	Qurilishiga ketgan vaqt
1619	1636	17 yil
Bahodir Yalangtush madrasasi qurilishi boshlangan vaqtida 41 yoshda bo‘lgan	Bahodir Yalangtush madrasasi tugallanish vaqtida 58 yoshda bo‘lgan	

77-rasm. Sherdor madrasasining qurilish yillari va Bahodir Yalangto‘s shu davrda yoshi nechada bo‘lganligi haqidagi ma’lumot.

Bahodir Yalangto‘s Sherdor madrasasini 1619-yilda qurishni boshlagan bo‘lsa, unda uning yoshi 41 yoshda bo‘lgani va bu madrasani tugatganida esa u 58 yoshga to‘lganligi bizga ma’lum bo‘ldi.

Xullas, Samarcand hokimi Bahodir Yalangto‘s haqida ma’lumotni me’mor Abdujabbor o‘ta mohirona tasvirlagan.

Shuning uchun ham Sharqqa mashhur buyuk naqqosh Maoniy «Haqiqiy naqqosh shunday ijodiy ufq topishi kerakki, unga intilgan sari yangi-yangi go‘zallik olami ochilsin. Tabiatni aynan tasvirlash bu san’atning nihoyasi emas, agar kimki rasmlardagi har bir chiziqqa jon bag‘ishlay olar ekan, u san’at kalitini egallagan bo‘ladi»¹ deb bejiz aytilda-

¹ Zohidov P. O‘zbek me’morchiligining ustozlari, O‘z. KP Markaziy Komitetining Birlashgan nashriyoti, T., 1967 – b.

gan. Abdujabbor ham san'at kalitini egallagan me'mor bo'lган.

O'rta Osiyoning me'mor va naqqoshlari yuqori darajaga chiqqanlarki, ular san'at kalitini egallaganlar. Ular shunday ufq topganlarki, unga intilgan sari yangi-yangi go'zallik olami ochganlar, chiziq, shakl va rang orqali naqsh tilida unsiz ravishda xalqqa yetkazganlar. Vatanparvar inson Bahodir Yalangto'sh o'z xalqini ziyo olishga chaqirgan va ziyo orqali ruhiy poklikka, ruhiy poklik asosida komillik daramasiga erishiladi, degan falsafiy g'oyani ilgari suradi. Chunki, payg'ambarimiz (s.a.v.) ham hadisi shariflarida: «Ilm o'rganing, ilm o'rgangan haqni nohaqdan ajratadi. Ilm jannat yo'lini yoritadi. Ilm insonga cho'lda yo'ldosh, yolg'izlikda hamroh, kimsasizlikda jondan do'st bo'ladi», deya ummatlarini ilmgaga chorlaganlar. Va yana: «Ilm insonlarni saodatga eltadi, falokatdan qutqaradi, do'stlar orasini ziynatlaydi, dushmanga qarshi qalqon bo'ladi», – deganlar.¹

Shunday ekan, asrlar davomida ulkan madaniy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turlarini, o'ziga xos tomonlari, maktablari, bajarish texnologiyasi, uslublari, ularni yaratgan ustalarning muborak nomlarini yo'qotishga haqqimiz yo'q. Ana shu sababli bu noyob san'at durdonalarini saqlash, ilmiy o'rganish, ularni yoshlarga o'rgatish va kelajak avlodga yetkazish muhim vazifamizdir.


Ko'kaldosh madrasasi bezaklari badiiy tahlili.

Ko'kaldosh madrasasi Toshkent shahrining me'moriy yodgorligi hisoblanadi. Uni Qulbobo Ko'kaldosh² 1551-1575

¹ Islomiyat va ilm./Musannif: Salohiddinova M., «Movarounnahr», T., 2004, 25-b.

² Ko'kaldosh. Umuman olganda, rizo'iy «emishgan» birodarlar. Ya'ni biror doya «enaga»ni uning o'g'li bilan birgalikda emgan begona bola. Shunga ko'ra, podshoxning rizo'iy birodariga «Ko'kaldosh» degan laqab berilgan. Ko'kaldosh istilosi, “G’iyos ul-lug’at» («Lug’atlar madadkorii»)da aytishicha, turkiy «ko'ka»(«Enaganing o'g'li») va «tosh» yoki «dosh» («Sherik») so'zlardan iboratdir. Bu ikki so'z orasidagi «l» harfi esa keyinchalik qo'shilib qolgan bo'lib, ilgari bo'lмаган. «Ko'ka» («aka») so'zi hozirgacha qozoq tilida qo'llanib keladigan O'rta

yillari qurdirgan. U Toshkentning markaziy Chorsu maydonida joylashgan. IX-X asrlarda Binokent nomi bilan ma'lum bo'lgan. Toshkent baland devorlar bilan o'ralgan bo'lib, o'n ikkita darvozalari bo'lgan. Bu devorlarni mug'illar istilosi davrida vayron qilingan. Temur va temuriylar hukmronligi davrida (XIV-XV asrlarda) esa Toshkent qaytadan tiklanib, yirik feodal shaharga aylandi. Yirik ko'pgina hashamatli binolar bunyod qilindi. (78-rasm)



78-rasm. Toshkent shahridagi Ko'kaldosh madrasasi peshtoqidagi bezakning ko'rinishi

XVIII asr boshlarida madrasa juda tashlandiq holga kelib, karvonsaroya aylantirilgan. Keyinchalik Ko'kaldosh madrasasi qayta tiklangan. Madrasani tuzatishda qatnashgan ustalar kirish darvozasi ustiga o'rnatilgan sirkor koshinlarda quyidagi yozuvni qoldirganlar: «Ushbu ajoyib binoni 1246-

asrlarda Turkistonda, xususan, Buxoro xonligida mamlakat ichki xavfsizligini ta'minlash ishlari bilan shug'ullanuvchi amaldor. (O'zbek milliy entsiklopediyasi, 5 tom T., 2004, 169 bet).

hijriy yilida (1830-1831-yillar) Azim Vali o‘g‘li usta Avaz Muhammad tuzatdi». So‘ng shunday deb yozilgan: «Bu bino saroy bosh qo‘mondoni Jahongirbek o‘g‘li Shodmonbek rahbarligida bejirim qilib qayta ishlandi. Inson o‘limi haq, biroq uning qilgan ishlari abadiy qoladi». «Koshin ishlarini usta Salimjon o‘g‘li usta Olimjon bajardi».¹

Madrasa 1868-yil zilzilada ayniqsa qattiq zararlangan, bu vaqtida uning kiraverishdagi peshtoqining gumbazi qulab tushgan (79-rasm).

1902-1903-yillarda shahar aholisidan yig‘ilgan mablag‘ hisobiga binoning yuqori qismlari qayta tiklandi. Biroq asosiy peshtoq gumbazi va peshtoqning o‘zi tuzatilmasdan qoldi.

«Peshtoqning yon tomonlari to gumbaz asosigacha va devorning kungirador qismi Yevropa g‘ishti bilan tekis qilib ishlanib chiqildi, peshtoqning yonlarida yarim doira shaklida chiroyli ravoqlar paydo bo‘ldi. Barchalardagi minoralar, ya’ni guldastalar ustida XVIII-XIX asrlardagi mahalla masjidlarida bo‘lgani singari kichkina minoralar bunyod qilindi. Bosh peshtoqning ustunlari burchaklarida gumbaz-qubba o‘rnida minoralarning uchida bo‘lgani singari ko‘rinishli fonuschalar vujudga keltirildi. Biroq bularning hammasi 1946-yil zilzilasida tamomila qulab tushdi».² 1950-yilning boshlarida Ko‘kaldosh madrasasi qayta ta’mirlandi. Madrasa umumiyl o‘lchovi (62,7x44,9m) bosh tarzi janubga qaragan darvozadan kiraverishda chapda masjid, o‘ngda darsxona joylashgan. Masjid va darsxonalarining tomi o‘zaro kesishgan ravoqlar ustida o‘rnatilgan gulzorlardan iborat. Minsaroy 7 gumbazli chorusu xovlisi (38x26,9m) keng xujralar va ochiq ayvonlar bilan o‘ralgan. Xovlining atrofidagi xujralar 38 ta bo‘lib, darsxona va masjid bilan o‘zaro bog‘langan. Madrasa dastlab 3 qavatli bo‘lgan. Me’morlar madrasani bezashda, asosan, binoning old tamoniga e’tibor berishgan. Peshtoqi

¹ Kryukov K. S. «Ko‘kaldosh madrasasi» T., O‘zbekiston, 1968, 3-bet

² Kryukov K. S. «Ko‘kaldosh madrasasi» T., O‘zbekiston, 1968, 3-4-betlar.

bilan balandligi 1973 m bo‘lib, sirkor parchin va giriҳ naqshlar bilan bezatilgan. Bosh tarzining 2 burchagidagi guldastalar tepasi qafasa bilan yakunlangan.
















Ko‘kaldosh madrasasi XVIII asr boshlarida qarovsiz holga kelib qolgan va karvonsaroy ombori sifatida foy-dalanilgan. 1886 va 1946-yillardagi zilzilalar oqibatida vayron bo‘lgan. Bir necha bor ta’mirlanishi natijasida madrasaning tashqi ko‘rinishi o‘zgarib ketgan. Ko‘kaldosh madrasasi hujralaridan birida Furqat (1889-1891) va Hamza (1910-1911) istiqomat qilgan, shoir Xislat va boshqa tahsil olgan. Madrasaning old tomoniga an’anaviy usulda zinapoya ishlangan. 1998-yildan binoning muhandislik ustuvorligini ta’mirlash tashqi va ichki tarzlarini asl holga keltirish va atrofini obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ko‘kaldosh madrasasi O‘zbekiston musulmonlari diniy idorasi tasarrufida (1991-yildan). Binoda shu idoraga qarashli o‘rta maxsus islom bilim yurti joylashgan.¹

Milliy ramzlar

Me’morlik san’ati juda qadimiy tarixga ega. Me’mor dahosi bilan yaratilgan ajoyib koshonalar, saroylar, ehromlar, madrasalar, minoralar va boshqa mahobatli inshoatlar insoniyat taraqqiyotining turli davrlaridan darak beruvchi noyob va bebahoh xazinalardir. Shakllar geometrik uyg‘unligi tartibini belgilash muhim masalalardan biridir. Abu Ali ibn Sino tibbiyat sohasidagi qomusiy asarini «Al-Qonun» deb atagani bejiz emas. Abu Rayhon Beruniy esa astronomiyaga oid ulkan asarini «Mas’ud qonuni» deb atagan. Buyuk faylasuf Abu Nasr Farobi tafakkur olami, jamiyat va tabiat qonunlarining ilmiy mohiyati haqida tadqiqot olib bordi. Shoir va musavvir Sodiqbek Afshod tasviriyl san’at haqida «Qonun as-suvor» kitobini yozdi.¹

¹ O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. T. 2003, 168-169 betlar.

¹ Zohidov P. «Zeb ichra ziynat». G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, T.; 1985, 163 b.



79-rasm. Chaxpalakning ba'zi-bir ko'rinishi.

Xuddi shu kabi me'morlik sohasida ham har davrning o'ziga xos «qonun»lari bo'lgan. Shular qatorida me'moriy merosning aniq ochilmagan tarixiy jumboqlari ham behisob. Me'moriy bezaklarni ramziy o'qish tili orqali bezaklardagi falsafiy g'oyalarni aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

Fikr almashuv vositasi sifatida ramziy ifodalar, muayyan shakl va belgilarning muomalaga kiritilishi natijasida yozuv kelib chiqqanligi qadimdan ma'lum.

Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov: «Milliy timsollar va ramzlarning har biri milliy g'ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri katta bir darslikdir», deb ta'kidlab o'tgan edi.

Xo'sh, ramz nima? Ramz so'zi «ishora qilmoq» ma'nosini bildirib, tabiatni, voqeilikni, hayotdagি quvonch va tashvishlar, do'st va dushman, ezgulik va yovuzliklarni chiziq, rang va shakllar orqali ifodalashdir. Naqqoshlikda bezaklar tilini bilish uchun naqshlarni o'qish tilining alfbosini yaxshi bilish (bezaklarni) talab etiladi.

Hozirgacha ramziylik va naqshiy bezaklarni o'qish alif-bosi qiyomiga yetkazib tuzilmagan, «Ramziylik lug'ati» hamda «Ramzlar entsiklopediyasi» O'zbekistonda tuzib, chop etilmaganligi ko'pgina qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Chet ellarda esa bu deyarli amalga oshirib bo'lingan. Juhonga mashhur olimu fuzalolarimiz, naqqoshlarimiz o'z asarlarida binolarni kishilar xayolini o'ziga tortuvchi, tabiatning go'zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar.

Ko'kaldosh madrasasi bezaklarlaridagi falsafiy g'oya. Alloh taoloning fayzi-barakoti yog'ilgan, dunyoga ulug'olimi fozillarini yetishtirib bergen ma'rifat maskanlari dinu-imon ila obod bo'ladi, atrofga ham nur taratadi. Toshkentimiz shunday shaharlardandir.

Ajdodlarimizning yaratgan naqshlari mazmunan qatlamador, turlicha hissiy bo'yoq, shakl, ruh va mantiqiy hamda falsafiy tovlanishlarga egadir.

«XVI asr o‘rtalarida Xo‘ja Ahror madrasasi va masjidi jome’dan janubi - g‘arbroqda Toshkent hokimi ko‘kaldosh laqabli vaziri Baroqxon, ikki qavatli madrasa qurdirgan. O‘zining kattaligi va tashqi tomonining sirkor parchinlar va rang-barang naqshlar bilan bezatilishi jihatidan hamda lojvard baland gumbazlari bilan bu madrasa o‘sha zamondagi Samarqand va Buxoro madrasalaridan qolishmas edi.

Madrasa peshtoqi 10 va 5 raxli geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Ikki tomonida ikkitadan kvadrat shaklida va mehrob tokcha ko‘rinishida bezaklar bilan bezatilgan.

Ikki yonida to‘rtta kvadrat chiroyli bezatilgan bo‘lib, unda Markaziy Osiyoning deyarli barcha me’morchilik tajribasida uchraydigan charxpalak tasvirlangan. Ushbu naqshni shu asrgacha hech kim ilmiy tahlil qilib xulosa chiqara olmaganlar. Birorta manba’da hozircha ilmiy tahlili bayon qilib berilganini uchratmadik.

Xo‘sh, Ko‘kaldosh binosi fasadida saqlanib qolgan kvadrat shaklidagi to‘rtta bir xil naqshli bezak qanday hikmatni anglatib turibdi?

Dunyoda ma’nosiz so‘z bo‘lmaganidek, ma’nosiz naqsh ham yo‘q. Shu nuqtai nazardan so‘z yuritilayotgan bezakni tahlil etishga urinib ko‘raylikchi!

Kvadrat ichiga nazar solsak u to‘qqizta katakka bo‘linib, kvadratda Yaratguvchi, to‘rt martta Muhammad so‘zi arab alisbosida yozilgan (84-rasm). Shakl jihatidan qarasak bitta katta charxpalak soat mili ko‘rsatgichi yo‘nalishida hamda to‘rttasi esa soat mili yurishiga qarama-qarshi kichkina shaklda tasvirlangan. Rang jihatdan qarasak Yaratguvchi va Muhammad yozuv ranglari bir xil rangda tasvirlangan. Ko‘pchilik Yaratguvchi va Muhammad so‘zini o‘qiydi. Lekin bu so‘z va shakllar bilan birgalikda qo‘sib o‘qiy olmaydilar. Buning sababi shundaki, arab imlosini bilgan inson shakllarni ramziy ma’nosini yetarli darajada bilmaydilar, bilsalarda ikkalasini qo‘sib o‘qishga qiynaladilar. Avvalo, nima uchun bezakka kvadrat tanlangan? Kvadrat - dunyoning to‘rt tomoni, mustahkamlik, olamning cheksizligi, quyosh

farzandi ekanligi, abadiylik, yorug'lik ma'nolarini, shuning-dek, olamning moddiy asosi to'rt unsurdan, ya'ni yer, suv, havo va olovdan iboratdir. Kvadrat yana simmetrik, go'zallik tenglik ramzidir. Olamdagi jamiki go'zallik kvadrat shakliga asoslangandir.

Ushbu kvadrat nima uchun 9 ta katakka bo'lib, shu kataklar asosida yozilgan (85-rasm). Buning sababi nimada. Agar raqamlarni to'qqizta katakka yozib chiqsak quyidagi ko'rinish beradi. Matematikada raqamlar falsafasiga murojaat qilsak, har bir raqam o'ziga xos mantiqiy va falsafiy ma'noga ega. Ya'ni 1-raqami Allojni yagonaligini, 2- raqami juftlik ramzi va hokazo tushunchalarga ega.

Nima uchun kvadrat to'qqizta teng katakka bo'lingan?.

Inson ona qornida 9 oy, 9 kun, 9 soat, 9 daqiqada homila sifatida ulg'ayadi. Yana sog' va mukammal insonda 9 muhim a'zo yetuk bo'ladi: ko'z, qulqoq, burun, og'iz, qo'l, oyoq, qorin, tish va til. Qolaversa, 9 soni qadimdan muqaddas raqam hisoblangan. U baxt-iqbol ramzi.

Kvadrat o'rtasida 5 raqami yozilgan. Bu esa besh kunlik dunyoni, ya'ni inson bu (foniy) o'tkinchi dunyoda sinalish uchun keladi, qilgan amallari orqali baholanadi, ya'ni yo jannatga, yo do'zaxga tushadi degan mazmunga ega. Shuning uchun har bir inson bu dunyoda ezgulik yo'lida yurishi lozim. Yana besh raqami islomni besh ustunini imon, nomoz, ro'za, sadaqa va hajni bildiradi. Har bir inson bu foniyn dunyoda albatta ushbu amallarni bajarishi farz degan mazmunni beradi.

Insonning asosan 5 ta tuyg'usi bo'lib, ular: eshitish, hid va ta'm bilish, ko'rish va tana sezishi. Bulardan tashqari ayrim kishilarga 6-tuyg'u his qilish va 7-bashorat qilish tuyg'ulari ham bo'ladi.

Raqamlarni ko'ndalangiga yoki tikkasiga qo'shib chiqqanda 6, 12, 18, 24 raqamlar chiqadi.

Falsafiy tahlil qilsak "18 ming olamni yaratguvchi 6 kunda yaratgan" deb muqaddas kitobimizda aytilgan. Bunda 6 raqami islom falsafasida mukammallik ramzi sanaladi. Bu

oyatda 6 raqami ramziy aytilgan bo‘lib, “yaratguvchi 18 ming olamni mukammal yaratdim” degan ma’noda aytilgan. Bu bilan hech bir inson men yaratganlarimdan ortiq hech nima yarata olmaydi deb uqtiradi. Yaratganda ham inson o‘z boshiga balo yaratadi demoqchi.

Toshkent shahridagi Ko‘kaldosh madrasasi peshtoqidagi bezaklarning badiiy tahlili

№	RAMZLAR	RAMZLAR MA’NOSI
1.	Kvadrat	Olamni
2.	Kvadratni to‘rt qirrasi	Olam cheksizlikdan iborat ekanligi, olam to‘rt unsurdan, ya’ni yer, suv, havo va olovdan tashkil topgan.
3.	Kvadrat 9 kattakka bo‘linadi	Inson ona qornidan foniynun dunyoga 9 oy, 9 kun, 9 daqiqada dunyoga keladi.
4.	15 raqami	Oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u, ya’ni kun bilan tun. Hayot quvonch va tashvishdan iboratdir.
5.	Kvadrat markazidagi 5 raqami	5 kunlik, ya’ni foniy, sinov dunyosi ekanligini hamda islomning 5 ustunini, ya’ni iymon, namoz, zakot, haj 5 mahal namozni insonga 5 ta sezgi organi borligi hid bilish, ko‘rish, eshitish ta’m bilish teri sezgisi.
6.	6 raqami	Mukammallik ramzi.
7.	12 raqami	1 yil 12 oydan iborat.
8.	24 raqami	1 kun 24 soatdan iborat. Har daqiqadan unumli va ezgulik yo‘liga sarf etilishiga ishora qilingan.
9.	18 raqami	Yaratguvchi 18 ming olamni yaratgan.
10.	Charxpalak	Dunyo abadiy harakatdan iboratdir. Foniynun dunyoga insonlar kelib-ketib turadilar.
11.	Yaratguvchi	Yaratguvchi olamni yaratuvchi va uni harakatga keltiruvchi. U ko‘rguvchi va bilguvchidir.
12.	Muhammad	Muhammad yaratguvchining yerdagi ezgulik elchisidir.
13.	Teskari charxpalak	Shayton yo‘lidan yuruvchi va yovuzlik qiluvchi insonlar ramzi.

12 raqami 1 yilda 12 oy borligini bildiradi. 24 raqami 1 sutkada 24 soat borligini bildiradi.

Kvadratning tikkasiga, ko‘ndalangiga va diagonaliga qo‘yilgan raqamlar yig‘indisi 15 chiqyapti. Bu, oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘ iligidan dalolat. Ya’ni, olam nur va zimistondan tashkil topgan, inson hayoti ham shunday, ya’ni turgan bitgani notejis, noravon yo‘llardan iboratligini anglatadi.

Kvadratga to‘ldirib soat mili ko‘rsatgichi yo‘nalishida dinamik holatda charxpalak tasvirlangan.

Charxpalak - abadiy harakat timsoli, olam abadiy harakatdan iborat deganidir (85-rasm). Dunyoda jamiki borliq harakatdan iborat ekanligiga ishora qiladi.

Harakat bo‘lganda ham ezgulik va omad, baxt-iqbolsari intilishdir.

Yana charxpalakning «chorunsur» va boshqa atamalari ham mavjud. Chorunsur esa olam, tuproq, havo, suv va olov singari to‘rt unsur qorishmasidan tashkil topgan degan ma’noni ham anglatadi. Bu charxpalaksimon shakl Sharqda qariyb 1000 yildan buyon xilma-xil ma’noga ega bo‘lib kelgan.

Olmon matematigi German Veyl charxpalak haqida shunday degan edi: «Charxpalak (Svastika) insoniyatning eng qadimiy ramzlaridan biri sifatida ma’lum bo‘lgan».

Me’morchilik madaniyati tarixi bilimdoni professor Dodo Nozilov charxpalak haqida shunday yozgan: «Charxpalak shaklidagi naqsh O‘rta Osiyoda juda qadim zamonlardan buyon mavjud. Oltintepadagi bronza davriga oid charxpalak shaklidagi tamg‘alar, X-XI asrlarga oid Afrosiyob devoriy pannolari fikrimiz dalilidir».

Charxpalak shaklidagi naqshlar quyosh ramzi, o‘lish va tirilish hamda abadiylik, o‘lim va hayot ramzi.

Chechen-ingushlarda esa mehmon ketishidan oldin mezbon eshigiga do'stlik ramzi sifatida charxpalak naqshi tamg'asini o'yib ketar ekan.

Mug'ullarda murakkablashtirilgan charxpalak tasviri «o'n ming yillik baxt» ma'nosini anglatgan. O'tov peshtoqidagi naqsh «hech qachon bu uyning chirog'i o'chmasin» degan ma'noni bildirgan».

Charxpalaklarning dunyoda turli-tuman turlari mavjud (82-rasm).

Charxpalak shaklini mantiqan tahlil qilib ko'rsak quydagi hikmatlar bizga ayon bo'ladi (85-rasm).

«AS» chiziq - tiriklik ramzi.


«DV» chiziq - inson hayotining qisqaligi ya'ni o'lim ramzi.

A1, V2, S3 va D4 – chiziqchalar charxpalakni harakatini ya'ni dinamik ko'rinishga hamda charxpalakni soat ko'rsatgichini chapdan o'ngga yoki o'ngdan chapga harakatini ko'rsatib turish uchun xizmat qiladigan chiziqlardir.


Charxpalakni, soat ko'rsatgichini chapdan o'ngga harakati hayot va o'lim doimo takrorlanishini, olam esa abadiy ekanligiga ishora qiladi. Shuning uchun ham Umar Xayyom ta'biri bilan aytganda «Insonlarni hayoti bamisol karvon-saroya o'xshaydi, uni ikki eshigi bo'lib, uning biridan kirib tursalar ikkinchisidan chiqib turadilar» deydi. U insonlarni foniy dunyoga ya'ni vaqtincha sinov uchun dunyoga kelishligini uqtiradi. Charxpalak shaklida hayot bor joyda o'lim muqarrardir, Olam esa abadiydir deyilmoqchi.

Muqqadas kitobimiz Qur'oni Karimning Mulk surasini 2—oyatida shunday deyiladi: «U o'lim va hayotni sizlarning qaysilaringiz amalda yaxshiroq ekaningizni sinash uchun yaratgandir. U barchadan g'olibdur va gunoxlardan kechuvchidir». ¹


¹ O'zbek milliy entsiklopediyasi, 2-jild, T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2000. 121-b.




80-rasm. Kvadrat Olamni bildiradi.




83-rasm. Allah olamning moddiy asosi 4 unsurdan ya’ni yer, havo, suv va olovdan tashkil topdi.




81-rasm. Kvadrat teng 9 bo‘lakka bo‘lingan.



82-rasm. Charxpalak tasvirlari.



84-rasm. 1, 2, 3, 4, Muhammad va Allah so‘zi yozilgan



85-rasm. Charxpalaklarni teskari tasvirlari.

Yaratguvchi so‘zi kvadratni va charxpalakni markazida joylashtirilgan bu bilan naqqosh butun olamni harakatga keltiruvchi, ko‘rguvchi va bilguvchi yakkayu-yagona zotdir demoqchi. Muqaddas kitobimiz Qur’oni Karimda yana shunday deyilgan: «Yaratguvchi barcha narsalarni bilguvchi zotdir». «U (yana) osmonlar va yerning hukmronligiga, farzand tug‘magan, podshoxlikda sherigi bo‘lmagan va barcha narsani yaratib, (aniq) o‘lchov bilan o‘lchab qo‘ygan zotdir».¹

Bu olamning yaratilishidan maqsad, yaralmishlarga qarab yaratganni bilish, uni sevish, anglash va bu yo‘lda kamolotga erishishdir.

Dunyoga boqqan ko‘zlar sanoqsiz yulduzlaru, hayvonot olamini, tabiatning cheksiz go‘zalligi, buyuk san’at bilan yaratilganligiga va Yaratguvchining ilmiga hayron qoladilar. Xalqni sevadilar.

Yaratguvchi Oli Imron surasining 190, 194-oyati kalmalarida:

«Osmonlar va yerning yaratilishida, tun va kunning o‘rni almashib turishida aql egalari uchun alomatlar bordir. Ular turib ham, o‘tirib ham, yotib ham Yaratguvchini zikr etadilar va osmonlaru yerning yaratilishi haqida fikr yuritadilar: «Ey rabbimiz! Bu (koinot)ni behuda yaratmagansan. Sen (ayblardan) pok zotdirsan. Bas, Bizni do‘zax azobidan saqlagin! Ey rabbimiz! Biz «Rabbingizga imon keltiring» deb imonga chorlagan jarchi (Muhammad)ni eshitdik va Rabbimiz! Gunohlarimizni kechir, xatolarimizni o‘chir va bizlarni solih kishilar qatorida vafot etdir! Ey Rabbimiz! Yana bizlarga payg‘ambarlarning vositasi ila va’da qilgan narsalarini ato et va bizlarni qiyomat kunida sharmisor qilmagin! Albatta, Sen va’daga xilof qilmaysan».

Bu olamni egasiz deb o‘ylama, qara har bir narsaning yaratguvchisi bor, eru-ko‘kka ibrat ko‘zi bilan boq, ularni ham buyuk kuch yaratgan.

¹ O‘zbek milliy entsiklopediyasi, 10-tom, T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2005. 230-b.

«Bu oyatni kalimalarda cheksiz olamni yaratgan, qalblarga ilm nurini bergen yagona Yaratguvchining qudratidan hayratlangan insonlar: «Ey Rabbimiz! Bu koinotni behuda yaratmagansan», deya yig‘laydilar». Uning ilmidan anglashga harakat qiladilar.¹ Bu muhabbat tufayli unga intiladilar, uni sevadilar, shu bois Qu’oni Karimda: «imon keltirganlar Yaratguvchini juda sevganlardir», deya marhamat qilinadi. Yaratguvchini chinakkam imon keltirish unga bo‘lgan buyuk muhabbat tufayli ekanligi aytiladi. Bunday insonni Xaqga ishongandan keyin u yuborgan kitobiga ham katta e’tibor beradilar. O‘lim bilan yuzlansalar ham, och va suvsiz qolsalar ham Yaratguvchining amrlariga bo‘ysinadilar».

84-rasmida kvadratning to‘rtta burchagidagi katagiga Muhammad yozilgan. Yaratguvchi so‘zini va to‘rtta chekkada Muhammad so‘zi och havo rangda yozilgan. Bir xil rangli yozuvlarni qo‘shsak besh raqamini beryapti. Bu bilan foniy dunyoga Yaratguvchi olamining to‘rt tomoniga rasulini ya’ni komil inson bo‘lmish oxirgi payg‘ambarlarni yuborgay. Sizlarga Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarni ibrat uchun yuborgan. Sizlar undan ibrat olingiz. U ezgulik elchisidir. Bu foniy dunyoda islom dinini besh ustuniga (ya’ni iymon, nomoz o‘qish, ro‘za tutish, zakot berish, xaj safariga borishiga) amal qilingiz va komillikka erishasizlar deyilgan.

Xaqni amrlarni ado etishda insoniyatga na’muna bo‘lgan payg‘ambarimiz (s.a.v.) Xaqning amrlarini ado etganlar. Unga bo‘lgan muhabbatlari tufayli hatto kechalari uyqularidan voz kechib ibodat qilganlar.

«Bir kuni hazrati Oysha onamiz Rasullohga (s.a.v.) Yo Rasulloh, sizning avvalgi va keyingi gunohlaringiz avf etilgan bo‘lsada tunlarni tonglarga ulab, oyoqlaringiz ishgunicha ibodat qilasiz, ko‘z yoshi to‘kasiz», deydilar. Rasulloh (s.a.v.) esa: «Ey Oysha Yaratguvchining shuncha ne’matlari uchun shukur qilmayinmi?» deydilar. Bu muborak so‘z Yaratguvchiga bo‘lgan cheksiz ishonch va mehr-muhabbat-

¹ Taqdir ta’biri. (Sharhiy tolenoma) –Toshkent:Yangi asr avlod, 1999. 21-22 b.

larining alomatidir. Payg‘ambarimiz Yaratguvchining anganganlari tufayli namoz vaqtłari bo‘lishi bilan: «Ey, Bilol! Azon ayt va bizni quvontir», derdilar. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) xaqqqa bo‘lgan muhabbatlari bilan bizga o‘rnak bo‘ladilar.»¹

85-rasmda kvadratning ichidagi charxpalakning ichki to‘rt tomonida soat strelkasi harakat yo‘nalishiga ya’ni katta chizilgan charxpalakni harakat yo‘nalish tomoniga qarama-qarshi harakat yo‘nalishi tasvirlangan.

Bu bilan olamda Yaratguvchiga ezgulikka ya’ni insonlarga qarshi kuchlar yovuzlik yo‘lida yurgan Yaratguvchining bandalarini ishora qilingan, yana foni olam ezgulik va yovuzlikdan iboratdir. Hayot qarama-qarshilikdan iborat degan ma’noni bildiradi.

Hech bir inson foni dunyoga ona qornidan “yomon” bo‘lib tug‘ilmaydi, tug‘ilgandan keyin ham “yomon” bo‘lishini niyat qilmaydi. Har qanday yomonlik, gunoh ishlар avvalo bilimsizlik, ma’rifatsizlikdan kelib chiqadi. Qur’oni Karimda yaxshilik va ezgu amallar Yaratguvchidandir, yomonlik, yovuzlik shaytondandir, deyilgan bo‘lib, ularning qaysi birini tanlash insonning o‘z inon-ixtiyoriga berilgan. Bu sinov dunyosida har bir odam amalga oshirgan yaxshi-yomon amallari uchun boqiy dunyoda javob berishlari muqarrardir. Yaratguvchi hamma olamni harakatga keltirar ekan, ezgulik yo‘lida va yovuzlik yo‘lida yurgan bandalarni ko‘rguvchi va bilguvchidir. Har bir inson foni ya’ni o‘tkinchi dunyoda oxiratda javobini beradi. Bu shior olamga insonlarni yaxshi amallarni qilishga, komil inson bo‘lishga, Yaratguvchi yaratgan insonlarni, tabiatni va butun borliqni ko‘z qorachig‘idek saqlash yovuzliklar qilmaslikka chaqirilgan. Insonlar bu foni dunyoda sinov dunyoda yurghanliklarini yana bir bor go‘zal naqshlar orqaliy falsafiy fikrni inson qalbiga etkazishga harakat qilingan. Bu hayot falsafasi faqat O‘zbekiston xalqi uchungina aytilmagan, balki yer yuzidagi barcha xalqlarni ezgulikka, tinchlikka va insonlarni tabiatni umuman borliqni qadriga etish hamda kelgusi av-

lodlarga pokiza holda etkazish degan falsafiy g‘oyani shior tariqasida aks ettirilgan.

Shuning uchun Shayx Sa’diy
Sheroziy shunday degan edi:
Qololmas jahon ichra mangu kishi,
Faqat qolg‘usi yaxshi nomu ishi.

Istiqlol tufayli tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz tabora tiklanib hayotimizda mustahkam o‘rin olib bormoqda.

Yurtboshimiz takidlaganlaridek, “Barchamizga qadrdon bo‘lgan bu azim go‘zal va betakror shahar nafaqat mustaqil davlatimizning poytaxti, balki yurtimizning qiyofasini belgilaydigan, serquyosh diyorimizning butun kurku tarovatini o‘zida namoyon etadigan Vatanimiz ostonasidir”.. Shunday ekan ta’rifi ulug‘ shaxrimizning tarixini chuqur o‘rganish, yosh avlodni o‘tmish bilan yaqindan tanishtirish, ularni mustaqilligimizning qadriga etib avaylab asrash shu ma’noda Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash har birimizning burchimizdir.

Italiyalik mashhur yozuvchi Giyom Apolliner shunday degan edi:

Jumboqlarga to‘la bepayon
Ulkani biz tadqiq etamiz
Kimki istar sirlar echmoqchi
Shu yorqin sir bular namoyon...
Bizlarni hech ayb etmagan siz!
Biz istiqbol va mangulikning
Sarhadida doim jangdamiz.¹

Ajdodlarimiz bizga qoldirgan cheksiz ma’naviy boyliklarimizdan biri tarixiy ichki va tashqi bezaklari faqat insonlarni go‘zallikni ko‘ra bilishga emas balki, go‘zallik qalbidagi falsafani o‘qiy olishga hamda xalqimizga etkaza olishdan iboratdir.

¹ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsili hilol №29,O‘rtta Osiyo va Qozog’iston musulmonlar diniy boshqarmasi,T.,1991,4-5-betlar.

Ko'kaldosh madrasadagi bezaklarini ilmiy o'rganish, uning ezgulik, ma'naviy komillikka chorlovchi g'oyalarini vatandoshlarini, ayniqsa yosh avlod qalbi va ongiga singdirish bu yodgorliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlarga qoldirish hammamizning Vatan oldidagi burchimizdir.

"O'lim va hayotni Yaratguvchi yaratgan, bu haq! Odatda avval hayot, so'ngra esa o'lim boshlanadi. Agar e'tibor bersangiz, bu oyatda o'lim avval keltirilyapti, buning xikmati odamlarni yaxshi amallarga chorlashdir. Chunki o'limni eslagan odam doimo unga tayyorgarlik ko'rish va o'lgandan so'ng sharmanda bo'lmaslik uchun o'zini yaxshi ishlarga safarbar qiladi"².

Navbatdagi - Yaratguvchi so'zi kvadrat va charxpalakning markaziga joylashtirilgani ko'rinish turibdi. Ya'ni, butun olamni harakatga keltiruvchi, ko'rib turguvchi va bilguvchi yakkayu-yagona zot – Yaratguvchi degan ma'noni anglatadi.

Kvadratning to'rt burchagidagi katakka Muhammad so'zi bitilgan. Yaratguvchi va Muhammad so'zlari och havo rangda yozilgan. Bir xil rangli yozuvlar beshta. Bu ham bejiz emas.

Aytimoqchiki, yaratguvchi bandalariga oxirgi payg'ambarni yubordi, u zot ibrat va ezgulik elchisi. Unga ergashmoqlikning eng to'g'ri yo'li - islom dinining besh rukni: iyomon, namoz, ro'za, zakot va haj. Ushbularga amal qiling, aslo kam bo'lmaysiz.

Navbatdagi kvadratning ichidagi charxpalakning ichki to'rt tomonida soat millari harakatiga, ya'ni katta charxpalakning harakat yo'nalishi tomoniga qarama-qarshi harakat tasvirlangan.

Bu - dunyoda yovuzlik ham mavjudligiga, ular ezgulikka zid yo'nalishda harakatlanishiga ishora. Hayot qarama-qarshilikdan iborat degan ma'no berdi.

² Samarqand (Kirish so'zi mualliflari V.A.Bulatova, G.V.Shishkina)-T., G'.G'uromov nomli adabiyot va san'at nashr., 1986,-13 b.

Ko‘rinadiki, qadimiy me’morchiligidan an’analarida yuzaki qaragandagina oddiy tuyulgan «arzimas» naqshlarda ham olam jahon hikmat xazinalari mujassam topgan.

Mazkur falsafiy da’vat faqat islom dini tarafdorlarinigina emas, balki har qanday e’tiqod vakillarini yaxshilikka, ezgulikka da’vat etadi. Boshqacha aytganda, buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan cheksiz ma’naviy boyliklarimizdan bo‘lmish tarixiy obidalarning ichki va tashqi bezaklari kishilarni faqat go‘zallikni ko‘ra bilishga emas, balki go‘zallik qalbidagi donish hikmatlarni o‘qiy olishga ham o‘rgatadi, odatlantiradi.

Asrlar davomida yaratilgan ulkan madaniy boyligimiz, xususan o‘zbek milliy xalq amaliy bezak san’atida keng tarqalgan turlarining o‘ziga xos tomonlari, maktablari, bazarish texnologiyasi, uslublari, ularni yaratgan ustalarning muborak nomlarini yo‘qotishga haqqimiz yo‘q. Ana shu sabab bu noyob san’at durdonalarini saqlash, ularni yoshlarga o‘rgatish muhim vazifamizdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Ko‘kaldosh madrasasi nechanchi asrda qurilgan?
2. Imom al-Buxoriy majmuasi loyihasining muallifi kim?
3. Samarqand me’moriy bezaklari haqida nimalar bilasiz?
4. Me’moriy obidalarda qanday naqsh turlari ko‘p uchraydi?
5. Astrologiya fani bilan naqqoshlik san’atini o‘zaro bog‘liqligi nimada?
6. Yalangto‘s Sh Bahodirning ustozi kim bo‘lgan?
7. Tillaqori madrasasi kim tomonidan qurdirilgan?
8. Sherdor madrasasi devorlarida qanday bitiklar bor?
9. Samarqand, Buxorodagi me’moriy obidalarda qanday hayvon va qushlarning tasviri aks ettirilgan?
10. Ramz so‘zi nima ma’noni bildiradi?
11. O‘zbekistondagi qanday minoralarni bilasiz va ularni bezaklari haqida so‘zlab bering.

12. Me'morchilik obidalari haqida qanaqa afsona va rivoyatlar mavjud?
13. Ko'kaldosh madrasasi kim tomonidan qurdirilgan?
14. Minora, masjid va madrasaning bir-biridan farqi?
15. Mustaqillik yillarda qaysi tarixiy obidalar qayta ta'mirlanib tiklandi?
16. Charxpalak naqsh elementi qachon kelib chiqqan va uning ramziy ma'nosi haqida so'zlab bering?
17. Nodir Devonbegi madrasasi peshtoqida qanday ramziy tasvir ifodalangan?
18. Oqsaroy kim tomonidan qurdirilgan va uning bezaklari haqida nimalarni bilasiz?
19. Hazrati imom majmuasi mustaqillik yillarda qaysi naqqosh ustalar tomonidan ta'mirlandi va bezatildi?
20. Me'moriy obida bezaklarining uyg'unligi deganda niman tushunasiz?

VIII BOB. DUNYO XALQLARI NAQSHLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS TOMONLARI

Dunyo xalqlarining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’at turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. Jahon xalqlarida vujudga kelib gullab-yashnagan san’at turlari betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, dunyo xalqlari bezak san’ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya’ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz.

O‘lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlari natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jiismga badiiy ishlov berishi usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo‘lib, asrlar osha hozirgacha uzlucksiz davom etib kelmoqda.

Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo‘lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyati insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik-badiiy idrok qobiliyatini kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar va voqeа-hodisalarни, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoyilda qaytadan aks ettrishga havas uyg‘otadi. Shakl va ranglarning real hamda stil-lashtirilgan tasvirlarni yaratish shu tariqa kelib chiqadi va u o‘z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o‘rin ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning xilma-xil shakllar va turlari paydo bo‘ladi. Dunyo xalqlarining bizgacha yetib kelgan san’at asarlari orasida naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlar alohida ko‘p sonni tashkil etadi. Boshqa san’atlarga nisbatan bunday naqshli bezaklar ko‘pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor.

Ma’lumki, Islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudotni yarata olish faqatgina qodir tangriga xosdir, insonlar esa bunday

ishni bajarishga ojizdirlar, inchunin, bordiyu, biror ishni yu-qori takomil darajasida ijro etish imkonи yo‘qligi avvaldan ma’lum ekan, bunday ishga kirishmoqlikning o‘zi aqldan emasdur.

Boshqacha aytganda, hech bir tasvir unda ifodalagan mavjudot darajasiga ko‘tarila olmaydi, shu bois tasvir soxta bo‘ladi.

Tasviriyl san’atga bu qadar chuqur, falsafiy yondashish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil bezak san’atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo‘lganki, hozirda jahonga mashhur me’morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, hattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagи san’atlarning ajoyib darajada uyg‘unlashgan mujassamligidan iboratdir.

Ma’lumki, mavjud barcha san’at turlari o‘z o‘quvchisi-ga, tinglovchisiga yoki tomoshabinga o‘tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta’siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Shu o‘rinda amaliy bezak san’ati turlarining fazilatlari juda ham o‘ziga xos bo‘lib, ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. Ya’ni, bunday san’at asarlari ayni chog‘da ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo‘lgan.

Rang-barang o‘simliksimon, geometrik naqshlarda, ularning o‘zaro joylashishida chuqur mazmun singdirilgan. Tasvirlangan naqshlarda ramziylik ustuvordir. Insonlar qadimiy obidalarni nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda, ular orqali o‘z orzu-umidlarini, mu-habbat va tilaklarini tarannum etganlar. Naqqosh otabobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o‘rgatib, uylarni ajoyib naqsh-nigorlar bilan bezaganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam, ruhiy osoyishtalik og‘ushida bo‘lishi, uzoq umr ko‘rishini insonlar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida ilg‘aganlar.

Naqsh nima? Jahon xalqlarida naqshlarni rivojlanish tarixiga bir nazar solaylik.

Naqsh¹ (arab. – tasvir, gul) – qism (taqsim)liri muayyan tartibda bir maromda takrorlanishidan hosil bo‘ladigan handasaviy shakllar, o‘simlik, qush, hayvon va boshqalarning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezak (gul). Turli narsalar (ashyolar, qurol, mato, mebel, kitob va shakli keltirilgan), me’moriy inshootlar (ham ichki, ham tashqi bezaklar), nafis san’at (asosan, amaliy san’at) asarlarida keng qo‘llanadi, ayrim xalqlarda, shuningdek, odam tanasini bezash (tatuirov-ka, bezash)ga mo‘ljallanadi. Narsaning sirtini bezayotgan naqsh uning tuzilishini yuzaga chiqaradi va uning badiiy sifatini oshiradi. Naqsh yoki mavhum shakllardan tuziladi, yoki aniq mavzulardan uslublashtiriladi. Ishlanayotgan xom ashvosiga ko‘ra, naqsh ishlashning turlituman uslub va usullari mavjud: o‘yma (ganch, yog‘och, mis, tosh, marmar va boshqalar), bo‘yama (qog‘oz, mato, ganch, yog‘och, sopol va boshqalar). choc yordamida tikma (kashtado‘zlik, zardo‘zlik va boshqalar), zarb qilib, quyib (zargarlik, misgarlik va boshqalar), to‘qima (gilamchilik, to‘qimachilik va boshqalar), qadama (panjarasozlik va boshqalar) va boshqalar.

Naqshning paydo bo‘lishi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Naqsh tarixi insoniyatning badiiy madaniyati kabi qadimiadir. Arxeologik materiallar naqshning jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Metall, sopol buyum, idish, qurollar paleolit, neolit davrlarida oddiy handasaviy shakllar qatorida o‘simliksimon naqshlar bilan ham bezatilgan. Naqsh turli o‘lkalar, turli xalqlarda geografik muhit, o‘simlik va hayvonot dunyosi, madaniyati ta’sirida turlicha rivoj topgan. Masalan: Shimol o‘lkalari naqshlarida archa, chorvadorlarda mol shoxi, dehqonlarda uzum bargi va g‘ujumi, o‘troq aholida gul, anor, bodom, qalampir tasvirlari ko‘p uchraydi. Yevropada turli davrlarda hukmron bo‘lgan badiiy uslublar (barokko, gotika, klassizm va boshqalar.)

¹ O‘zbekiston milliy enktsilopediysi. O‘zbekiston milliy enktsilopediysi Davlat ilmiy nashriyoti. 6-tom. T.: 2003, 292-293 betlar.

naqshga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Uyg‘onish davrida, ayniqsa, yuksak jozibadorlikka erishgan. XIX asrning oxiridan boshlab shu davrda vujudga kelgan turli oqimlar naqshni atayin kam ishlatdi, hatto undan butunlay voz kechishgacha bordi.

Naqsh san’ati O‘rtta Osiyo madaniyati tarixida juda qadimiy san’at turi bo‘lib, o‘ziga xos namunalari bilan ajralib turadi. Arxeologik topilmalar naqshning xilma-xil va rang-barang namunalaridan darak beradi. Me’moriy yodgorliklarda naqshning ancha mukammal, o‘ziga xos va yuksak san’at-korlik bilan yaratilgan nusxalarini uchratish mumkin. Xalq amaliy san’atining har bir turida (xususan, kashtado‘zlik, gilamchilik, o‘ymakorlik, ganchkorlik, naqqoshlik kabi) naqshning shakliy imkoniyatlari naqadar keng va boy ekanligi yaqqol kuzatiladi. O‘rtta Osiyoda naqshlar keng tarqalgan bo‘lib, ular, asosan, 2 turga bo‘linadi: handasaviy shakl va chiziqlardan iborat eng murakkab naqsh turi - girih, keng tarqalgan o‘simgilsimon naqsh - islamiy. Har bir naqshning o‘z qonun-qoidalari bor: taqsim va bo‘laklar aniq o‘lchamda, uyg‘un bo‘lishi, ranglar did bilan tanlangan, o‘zaro mutanosib bo‘lishi lozim. Bu naqqosh ustadan katta mahorat, malaka talab qiladi. O‘rtta Osiyoda eng qadimgi naqsh namunalari, asosan, me’moriy inshootlarda saqlangan; naqshning ajoyib namunalari ganch, yog‘och va toshni o‘yib, ba’zan bo‘yab ishlangan.

VIII-XIII asrlarda tasviriy san’at rivojlanmadi, xalq amaliy bezak san’ati Knyaz Romanov saroyi devoriga ishlangan naqshdan lavha (XIX-asr oxiri, Toshkent). Qo‘qon jom’e masjidining shift va ustun sharafasidagi naqshning bir qismi (XIX-asr boshi).

Naqsh hisobiga keng taraqqiy etdi, naqqoshlik jadal rivojlandi. Bino, buyum, idish, kiyim, qurollar aksariyat naqsh bilan bezatildi; masjid, madrasa, maqbaralarni hashamdar qilishda naqsh muhim o‘rin egalladi. Shu davrda me’morlikda g‘ishtni turlicha qalab naqsh hosil qilish san’ati yuksak darajaga ko‘tarildi. Binolarning yog‘in tushmaydigan

joylari ganch va yog‘och o‘ymakorligi, bo‘yama naqshlar bilan bezatildi. Jumladan, me’moriy yodgorliklardan o‘zgandagi maqbaralar (interyer, devor, peshtoq, ravoqlar) g‘ishtin nafis naqshlangan. XIV-XV asrlarda koshinkoriy naqshlar yaratildi (Ko‘hna Urganchdagi To‘rabekxonim ko‘shki, Samarqanddagi Shohizinda ansamblı, Dilkusho ko‘shki – Ishratxona va boshqalar). Xiva, Buxoro, Qo‘qon xonliklari davrida xalq ustalari san’ati ayniqsa shaharlarda o‘sdi, naqsh, naqqoshlik ham yanada rivojlandi. Xudoyorxon o‘rdasi (Xiva), Sitorai Mohi Xosa (Buxoro), Toshhovli (Xiva) va boshqa binolar mohir ustalar tomonidan nafis naqshlar bilan bezatildi. Bu esa O‘rta Osiyoda naqshning o‘ziga xos uslublari vujudga kelganligini ko‘rsatadi.

Buxoro naqshi eng murakkab, mukammal va jozibador bo‘lib, ko‘p asrlik ijodiy mehnat an’analari samarasidir; Naqsh bezak bo‘lish bilan birga binokorlikning ajralmas qismiga aylangan. Juda murakkab girihsar puxta o‘lcham bilan ishlangan, gul naqshlari o‘ziga xosligi bilan (gul naqshda vaza, kosa, guldonlar uslublashtirilib, ularda gul butalari aks ettirilgan. Yaproq, mevalar tasvirlari bir maromda berilishiga alohida e’tibor bilan) ajralib turadi. Xiva naqshi (yulduzlar hosil qiluvchi girihsar orasida o‘simliksimon gullarni mahorat bilan joylashtirilishi, barg shaklidagi bezaklarning ko‘pligi, o‘simliksimon tasvirlar zinch, ko‘p va turli-tumanligi bilan mashhur, Farg‘ona naqshi Marg‘ilon, Xo‘jand, Qo‘qon, Namangan va boshqa shaharlarda vujudga kelgan uslublardan iborat. Me’moriy yodgorliklar (Qo‘qondagi Modarixon daxmasi va Daxmai shohon), XIX-asrda yaratilgan naqshlarda sodda rang-baranglik (sariq, qizil, yashil, qora, oq, ko‘k, pushtirang), naqsh qismlarining ancha jo‘nligi ko‘zga tashlanadi. Farg‘ona naqshining o‘ziga xos jihatlari: bino devorlariga mehrobi namoyonlar ishlanib, ular hoshiya naqsh bilan bir-biridan ajratiladi, hoshiyalar orasiga girihsar qolgan qismlarga o‘simliksimon gullar ishlanadi. Ularda Buxoro, Xiva naqshlarining ta’siri seziladi. XIX asr oxiri –

XX asr boshlaridagi naqshlarda Yevropa naqshlarining ham ta'siri bor.

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida yaratilgan ro'zg'or buyumlari, asbob va qurollar, uy va inshootlarni naqsh (bezak)siz tasavvur qilish qiyin. O'rta Osiyoda ishlangan bezakli buyumlar, matolar xalqaro bozorlarda ham qadrlangan. Turli o'lkalar bilan madaniy-iqtisodiy aloqalar naqshning rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

XX asr boshqa sohalar qatorida amaliy san'at an'analarining yangi rivojlanish davri bo'ldi. 30-yillardan yirik jamoat va ma'muriy binolar qurilishi rivojlandi, badiiy buyumlar ishlab chiqish yo'lga qo'yildi. Alisher Navoiy teatri, Muqimiy teatri, O'zbekiston tarixi muzeyi, Xalqlar do'stligi saroyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, «Xotira» maydoni, Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi, Oliy Majlis, O'zbek milliy drama teatri, O'zbekiston konservatoriysi binolarining turli texnika, usullar bilan ishlangan naqshlar hisobiga ko'rakam qilingani qadim an'analarining tiklanganligi, yangi mazmun bilan boyib borayotganligiga yorqin dalildir. xalq ustalari Usta Shirin, Yu. Musayev, T. Arslonqulov, Q. Jalilov, SH. Rafurov, S. Xo'jayev, N. Ibrohimov, M. Qosimov, U. Zufarov, Q. Haydarov, U. Ahmedov, O. Polvonov, T. To'xtaxo'jayev, O. Qosimjonov, J. Hakimov, Yo. Raupov, A. Boltayev, aka-uka J. va B. Jallovlar, S. Xudoyberganov, H. Rahimov va boshqalar yaratgan asarlar XX asr o'zbek milliy naqqoshligining yorqin namunalariga aylandi.

Naqsh bilan bezatilgan quticha (XX asr o'rtalari, Toshkent). Kulollik, Zardo'zlik, Kashtado'zlik, Gilamchilik, Zargarlik, Kandakorlik va boshqa sohalarda naqsh bilan bezatilgan badiiy buyumlar turmushga fayz kiritadi. Ustalar yangi usullarni qo'llab, yangi mazmun bilan boyitilayotgan naqshlar yaratmoqda. Bu jarayonda naqqoshlardan M. To'rayev, A. Ilhomov, S. Mahmudov, Q. Shoislomov, H. Nuraliyev, A. Asqarov, O. Fayzumayev, S. Shukurov va boshqa yirik ustalar shogirdlari bilan qatnashdilar. Ular yaratgan bezaklarda «kundal», «mehrobi», «bodom», «buta»,

«norgul», «shobarg», «oygul», «zanjira» naqsh turlari ko‘p uchraydi. Ushbulardan ko‘rinadiki, O‘zbekiston mustaqilligidan keyin barcha san’atlar qatorida amaliy san’at turlari, shulardan naqsh, naqqoshlik, yog‘och va ganch o‘ymakorligi ham jadal rivojlanmoqda, ularda qadimgi, unutilayotgan an’analar qayta tiklanayotgani, naqsh turlari kengayotgani va islimiylar qayta tiklanayotgani, naqsh turlari uyg‘unlashayotgani kuza-tiladi. Naqqoshlar ham 1995-yildan Toshkent shaharda YuNESKO tashkil etgan xalq hunarmandligi yarmarkasi, Parij shaharda o‘tkazilgan Amir Temurning 660 yilligi tantanalari ko‘rgazmasi va boshqalarda qatnashib kasbiy mahoratlarini namoyish etdilar.

Eslatma: Dunyo naqshlari va ularning o‘ziga xos tomonlarini mustaqil ish sifatida alohida o‘rganiladi:

Qozoq xalq naqshlari.




86-rasm. Qozoq xalq naqshlaridan namuna.



87-rasm. Qozoq xalq naqshlari. Palak



88-rasm. Qozoq xalq naqshlari. Palak.



89-rasm. Qozoq xalq naqshlaridan namuna.



1



2



90-rasm. Qirg'iz xalq naqshlaridan namunalar

Turkman xalq naqshlari.



91-rasm. Turkman xalq naqshu-nigorlaridan namuna.



92-rasm. Turkman xalq gilamlaridagi bezaklar.



93-rasm. Turkman xalq gilamlaridagi bezaklar.



94-rasm. Turkman gilamlaridagi bezaklar.




95-rasm. Turkman xalq naqshlari.



96-rasm. Turkman xalq naqshlaridan namuna.



97-rasm. Tojik xalq naqshlaridan namunalar.




98-rasm. Tojik xalq naqshlari

Xitoy xalq naqshlari



99-rasm. Bronzadan yasalgan noyob idishning badiiy bezaklari.



100-rasm. Gullar bilan bezalgan qora zaminli guldon

101-rasm. Ukraina xalq naqshlari (xohlama naqqoshlik san'ati)






102-rasm. Badiiy bezakli likopcha (xohloma naqqoshlik san'ati)

103-rasm. Ukraina xalq naqshlari (xohlama naqqoshlik san'ati)







104-rasm. Yaponiya xalq naqshlari.




105-rasm. Fransiya. Lyudovik XIII davri Shevrini qal'asi shiftiga ishlangan naqshli bezaklar



106-rasm. Fransiya. Barokko uslubida ishlangan shkaf.
Andrey Sharl Bulya.



107-rasm. Rokokko uslubidagi laganning badiiy bezaklari.
1690-1730 yillar.



108-rasm. Qadimgi Misr san'at asarlaridan namunalar.
Oltindan yasalgan Tutanxamona niqobi



109-rasm. Hindiston. Tojmahal.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Dunyo naqshlari va ularning o‘ziga xos tomonlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Qozoq naqshlarida qanday elementlar ko‘proq ishlataladi?
3. Tojik naqshlari qirg‘iz naqshlaridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Uzum va uning bargi qaysi xalqlarda ko‘p ishlataladi?
5. Rus xalqi naqshlarining o‘ziga xos tomonlari nimalardan iborat?
6. Qaysi xalqlarda giriҳ naqshi ko‘proq qo‘llaniladi?
7. Assimetriya qaysi millat naqshlarida ko‘proq uchraydi?
8. Xalq naqshlarini yaratilishida geografik muhitning qanday ta’siri bor?
9. Grek naqshlarining o‘ziga xos tomonlari nimalardan iborat?
10. O‘rta Osiyo naqqoshlik san’atining rivojlangan davri haqida nimalarni bilasiz?
11. Eron naqqoshlik san’ati haqida nimalarni bilasiz?
12. Misr ehromlari haqida nimalarni bilasiz?
13. Qadimgi Yunoniston vazalari va ularning bezaklari haqida nimalarni bilasiz?
14. Yapon xalqlari naqshlarining raglari haqida nimalar bilasiz?
15. Xitoy xalq amaliy san’ati haqida nimalar bilasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 1992.
2. Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atni yanada rivojlantirishning davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31- mart farmoni “Xalq so‘zi” gazetasi. -T. 1997-yil 1-aprel.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O‘zbekiston, 1998.
4. Karimov. I. A.“Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T., “Ma’naviyat” 2008.
5. Karimov I.A.O‘zbekiston siyosiy-iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
6. Karimov I. «Ma’naviyat falsafa va hayot». -T., «Fan». 2001.
7. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni -Toshkent, 1992.
8. O‘zbekistonda umumiyl o‘rta ta’lim markazi kontsepsi-yasi.-Toshkent: Xalq ta’limi, 1992.-1-son.
9. Abduqodirov A. Obidalar jilvasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 1972.
10. Avedova N.A. Toshkent o‘ymakorligi. - Toshkent: O‘z dav. Badiiy adabiyot nashr, 1961.
11. Azimov I. Farg‘ona vodiysining arxitektura yodgorilk-lari.-Toshkent: O‘zbekiston, 1986.
12. Azimov I. O‘zbekiston naqshu-nigorlari. -Toshkent: Ad-abiyot va san’at nashri, 1987.
13. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo.-Toshkent, 1992-yil.
14. Asotirlar va rivoyatlar. -Toshkent: Yozuvchi, 1993-yil.
15. Anuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. -Toshkent: O‘qituvchi, 1969.

16. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.-T.: 1968.
17. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. -T.: O‘zbekiston, 1992.
18. Amanullayev A.A. Oliy o‘quv yurtlarida talabalarni ganch o‘ymakorligi to‘garak ishlarini boshqarishga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari. (Badiiy grafika fakultetlari misolida). Ped. fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: TDPU, 2001.
19. Amir Temur o‘gitlari: (to‘plam) tuzuvchilar B.Ahmedov, A.Aminov -T.: Navro‘z, 1992.
20. Alexin A.D. «O yazike izobrazitelnogo iskusstva», - M., 1973.
21. Ahmedova M. “Falsafa” “Sharq”. T., 2005.
22. Azimova B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. -T. O‘qituvchi. 1984.
23. Axmedov R. «Albom». -T., «Yozuvchi». 2001.
24. Axmedov R, Shostkova L. «Albom». -T., 2006.
25. Alexin A.D «O yazike izobrazitelnogo iskusstva». -M., 1973
26. Abdullayev N. «O‘zbekiston san’ati tarixi». -T., «O‘zbekiston falsafasi milliy jamiyati» nashriyoti. 2007.
27. Abdirasilov S, Boymetov B, Tolipov N. «Tasviriy san’at». -T., «Cho‘pon nomidagi matbaa ijodiy uyi». 2006.
28. Abdullayev N. «Sharq xalqlari san’ati tarixi». -T., «O‘zbekiston» faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007.
29. Bobur Z.M «Boburnoma». -T., «Yulduzcha». 1990.
30. Bulatov S.S, Anaxanov B «Rang psixologiyasi». -T., «Nizomiy nomidagi TDPU». 2001
31. Bulatov S.S, Tolipov T «Go‘zallik falsafasi». -T., «Fan va texnologiya». 2008

32. Bulatov S.S «O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati». -T., «Mehnat». 1991.
33. Beda G.V «Osnovi izobrazitelnoy gramoti». -M., 1989
34. Bulatov S.S. Rang psixologiyasi. T., Nizomiy nomidagi TDPU 2004.
35. Bulatov S.S. Rangshunoslik T., Faylasuflar jamiyati 2009.
36. Bulatov.S.S., Salimov.S.N., Muxtorov.A. “Sherdor madrasasi bezaklarining sirli olami”. T., Talqin. 2007.
37. Bulatov S.S. Psixologo-pedagogicheskiye osobennosti formirovaniya umenii i navikov vo vneklassnoy rabote (na materiale obshcheobrazovatelnix shkol Uzbekistana). Diss. ... kand. ped. nauk. -M.: 1985.
38. Bulatov S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog‘och o‘ymakorligiga oid atamalarning izoxli lug‘ati. Mehnat, -T. 1991.
39. Bulatov S.S., Ashurova M. Amaliy san’at qisqacha lug‘ati. Qomuslar bosh tahririyati. -T. Mehnat. 1992.
40. Bulatov M.S. «Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV v.v.». -M., «Nauka». 1978.
41. Bulatov S.S., Jabborov R.R. Tasviriy san’at asarlarning falsafiy va pisixologik tahlili (Monografiya) - T., Fan va texnologiya 2010
42. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. - Toshkent: Cho‘lpon, 1999.
43. Boymurodov N. «Amaliy psixologiya». -T., «Yangi asr avlodi». 2008 .
44. Vigotskiy L.S. «Psixologiya iskusstva». -M., 2-e izdatelstvo. 1968
45. Vinner A.V. Materiali jivopisi iskusstvo. -M. Visshee shkola. 1954.
46. Vozrastnie i individualnie osobennosti obraznogo mishleniya uchastiya. (Pod. red. I.S.Yakimenskiy). -M. Pedagogika. 1989.

47. Volkov N.N. «Vospriyalie kartini». - M., 1976.
48. Greyner L.K. «Obshie osnovi kompozitsii promishlennix izdeliy».-L, 1970.
49. Goncharova P.A. Buxoro zardo‘zlik san’ati (albom). -T.: G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
50. Gadoyev P. Oq saroy. -Toshkent .Xalq so‘zi.-1995.-24 oktyabr
51. Donolar bisotidan. Tuzuvchi va tarjimon Sh.Shomuhamedov. (Muharrir Mirtemir). -T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976.
52. Djos V.V. Prakticheskoe rukovodstvo k testu Lyushera Kishenov. Periodka. 1990.
53. Do’stmetova Z. «Me’morchilik asoslari». –T., «Sharq» nashriyoti. 2007.
54. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum (A.I. Shcherbakov tahriri ostida). –T.: O‘qituvchi, 1991.
55. Ziyomuxammedov B. «Komillikka eltuvchi kitob». –T., «Turon-iqbol» nashriyoti. 2006 .
56. Zoxidov P.Sh. «Me’mor olami». –T., «Qomuslar» bosh tahririyati. 1996
57. Zohidov P.Sh. Zeb ichra ziynat. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.
58. Zohidov P.Sh. Farg‘ona naqshi (xalq ustasi Saidahmad Norqo‘ziev albomidan). - T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1960.
59. Zohidova D.A. «Hunarmandchilikka kirish» maxsus kursi bo‘yicha dastur va uslubiy tavsiyanoma. -T.: O‘MKHTRI, 2001.
60. Zohidova D.A. O‘rta asrlarda Sharq hunarmandlar tayyorlash tajribalaridan kasb-hunar ta’limida foydalanish. Ped. fan.nom. ... diss. avtoreferati –T.: O‘MKHTRI, 2001.

61. Ikonnikov A.V., Stepanov G.P. «Osnovi arxitekturnoy kompozitsi», - M., 1971.
62. Ignatev E.I. «Psixologiya izobrazitelnoy deyatelnosti detey». -M., 1961
63. Ibragimov A, Sulaymonov A. «Kitobat san'atiga oid iboralarining izohli illyustrativ lug'ati». -T., «Fan». 2007 .
64. Imomov Q. O'zbek xalq og'zaki prozasi.- Toshkent. 1981
65. Ipak yo'li afsonalari.- Toshkent: Fan, 1993.
66. Kuzin V.S. "Psixologiya". - M., 1982.
67. Kaykovus.Qobusnoma (Forschadan M. Rizo Ogahiy tarj). -T.: Istiqlol, 1994.
68. Kalila va Dimna (Hikmatnoma). S.G'aniyeva tarj.; Nashr uchun mas'ul: X.Nazirov. -T.: Istiqlol, 1994.
69. Karimov X. Usto Qodir. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
70. Kasb-hunar risolalari (Tuzuvchi Hasanov B.) -T.: Yozuvchi, 1993.
71. Krauklis V.S. Albom kovrov. Leningrad. Stroyizdat. 1986.
72. Levin S.D. «Besedi s yunim xudojnikom». - M., 1988.
73. Lyubimov L.D, «Iskusstvo drevnego mira». - M., 1980.
74. «Materiali i texnika risunka». Pod red. V.A.Koroleva. - M., 1984.
75. Mazur V.A. Didakticheskie usloviya natsionalnom xudojestvennom remeslom v professionalnix uchelishchax Uzbekistana. Avtoreferat. diss. kand.ped.nauk. -T.: NIIPO, 1996.
76. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. -T.: Fan, 1994.
77. Mahkamov U. Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy maddaniyatni shakllan-tirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. nom. ... diss. avtoreferati. -T.: UzPFITI, 1998.
78. Maslennikova Z.D. Rabota kraskami v shkole. -M. Uchpedgiz. 1959.

79. Malinkovaya L.Yu. Qashqadaryo vohasining arxitektura yodgorliklari. -- Toshkent: O‘zbekiston, 1979.
80. Moran A. «Istoriya dekorativno – prikladnogo iskusstva. Per. sxfr». –M., «Iskusstvo». 1982 .
81. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi: Umumta’lim maktablari uchun. -T.: O‘qituvchi, 1996.
82. Minglayev B. «Falsafa nechanchi o‘rinda turadi». –T., «Ma’rifat» gazetasi. 2004-yil. 10-mart.
83. Mirzaahmedov M. Boshlang‘ich badiiy naqsh ishlash metodikasi.- Toshkent: O‘qituvchi, 1976.
84. Mirzaahmedov M. Materiallarga badiiy ishlov berish.- Toshkent: O‘qituvchi, 1986.
85. Mirzahmedov M., Ergashev S. Yog‘och o‘ymakorligi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1995
86. Mo“jiza yaratish san’ati. Bosh muallif A.S.O‘rolov. - Toshkent: Mehnat, 1996.
87. Mo‘minov I.M. Temuriylar davri O‘rta Osiyo san’atining paydo bo‘lishi va taraqqiy etish tarixiy ildizlari haqida//TAT.-3 tomlik.-Toshkent: Fan, 1969.
88. Nig‘monov B.V, Ermatova A.B. “Naqshi-nigoralar”. Nizomiy nomidagi TDPU, T.: Metodik qo‘llanma 2010.
89. Nurtayev O‘. «Rangshunoslik asoslari». –T., «Ilm ziyo». 2008.
90. Osnovi xudojestvennogo remesla. Pod red. V.A. Baradulina –M.: Prosveshchenie, 1988.
91. Ochilov M. Muallim - qalb me’mori. –T.: O‘zbekiston, 2001.
92. Ochilov M., Ochilova N.M. O‘qituvchi odobi. –T.: O‘qituvchi, 1996.
93. Oydinov N. Rassom o‘qituvchilarni tayyorlash muammlari. – T.; “O‘qituvchi”, 1997.
94. Odnaradov N.V. Materiali v izobrazitelnom iskusstve. –M. Prosveshchenie. 1983.

95. Odobnoma.-6,7,8,9 sinflar uchun.-- Toshkent: O‘qituvchi,1996-1999.
96. Pedagogika (A.Q. Munavvarov tahr.) –T.: O‘qituvchi, 1996.
97. Pedagogika tarixi (oliy o‘quv yurtlari uchun darslik) A.Zunnunov, M.Xayrullayev va b. –T.: Sharq, 2000.
98. Petrovskiy A.V. tahriri ostida. «Umumiyl psixologiya». – T., «O‘qituvchi». 1992.
99. Propp V.Ya. Istoricheskie korni volshebnoy skazki. L.1946.
100. Rostovtsev N.N. «Metodika prepodavaniya izobrazitel-nogo iskusstva v shkole». - M., 1980.
101. Rahim Ahmedov (Albom), T., «Yozuvchi» 2001.
102. Rahim Ahmedov Tuzuvchi Larisa Shostko. Albom, T., 2006.
103. Rudin N.G. Rukovodstvo po tsvetovedeniyu. –M. Gizlekprom. 1956.
104. Rostovtsev N.N, Ignatev S.E, Shoroxov E.V. «Ris-unok», «Jivopis», «Kompozitsiya» xrestomatiya. –M., 1989
105. Rostovtsev N.N. «Metodika prepodavaniya izobrazitel-nogo iskusstva v shkole». –M., 1980.
106. Rempel L.I «Arxitekturniy ornament Uzbekistana». – T., «Gosudarstvennoe izdatelstvo xudojestvennoe literaturi». 1961.
107. Rempel L.I «Tsep vremen. Vekovie obrazi i brodyachie syujeti v traditsionnom iskusstve Sredney Azii».– T.,»Izdatelstvo lit. i isskustva». 1987
108. Sarsenbayeva R.M. Mehnat ta’limi negizida o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazishning ilmiy-metodik asoslari (xalq hunarmandchiligi misolida) 13.00.02. Ped. fan. nom. ... diss. -T.: O‘MKHTRI, 2004.
109. Sultanova G.A. Pedagogik mahorat //O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

110. Sulaymonov A, Jabborov B. «Tasviriy san'atda oqim va yo'nalishlar». –T., «Respublika ta'lim markazi». 2008 . Somov Yu.S. «Kompozitsiya v texnike». –M., 1972
111. «SAN'AT» jurnali nashriyoti, Toshkent, 1999-2010.
112. Sokolnikova N.M. «Izobrazitelnoe iskusstvo osnovi kompozitsii». Obninsk. Izdateltsvo «Titul» 1996.
113. Soyibov T. Kompozitsiya. –T. O'zbekiston. 1999.
114. Saifnazarov I., Qosimov B., Muxtorov M., Nikitchenko G. «Fanning falsafiy maslahatlari». –T., «Fan va texnologiya». 2007 .
115. Temur tuzuklari. (A. Sug'uniy va X.Karamatov tarj. B. Ahmedov tahr.) –T.: Adabiyot va san'at nashr., 1996.
116. Tojiyev B. «Kompozitsiya» fanidan ma'ruzalar matni. Nizomiy nomli TDPU T., 2000
117. Turdaliyev A. Tasviriy san'at darslari va darsdan tash-qari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni badiiy kasbhunarga yo'naltirish. Ped. fan. ... diss. nom. Avtoreferati. – T.: O'zPFITI, 1997.
118. Tursunaliyev T.N. Rangshunoslikka oid terminlar lug'ati. –T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2002.
119. Tyutyunnik V. Materiali i texnika jivopisi. –M. Izdatelstvo Akademii xudojestv. 1962.
120. Usmonov M. San'atim-saodatim. –T.: Yosh gvardiya, 1983.
121. Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. –T.: Fan, 1977.
122. Usmonov Rahimjon. Saodatnama. –T.: O'qituvchi, 1995.
123. Umarov E. «Estetika». –T., «Milliy universitet». 2007
124. Fahriddin Rasul. Axloqnama. –T.: Fan, 1997.
125. «Falsafa qisqacha izohli lug'at». –T., «Sharq» nashriyoti. 2004 .
126. Friling G., Ksaver A. Chelovek – tsvet – prstranstvo (prikladnaya tsvetopsixologiya). –M. Stroyizdat. 1973.

127. Shoroxov B.V. Osnovi kompozitsii. M., «Prosveshnie» - 1979.
128. Shoroxov E.V. Osnovi kompozitsii. -M. Prosveshchenie. 1981.
129. Shobaratov P.P.. Lakli miniatyura. «Kompozitsiya». - T., «Yangi asr avlodi». 2007.
130. Shermuhammedova N. «Falsafa va fan metodologiyasi». -T., «O‘zbekiston Milliy Universiteti». 2005
131. Shevelev E.Sh,Marutaev M.A,Shmelev I.R. «Zolotoe sechenie». -M., 1990
132. «Shkola izobrazitelnogo iskusstva v 10 vip.». -M., 1960-1963 god.
133. Egamov X. Bo‘yoqlar bilan ishlash. -T.: O‘qituvchi, 1981.
134. Eshmetov Sh.A. Ustoz-shogird munosabatlarining ijtimoiy-psixologik fenomenlari. Ped. nom. ... diss. avtoreferati. -T.: O‘z. MU, 2004.
135. Egamberdiyev A, « Raxim Axmedov (hayoti va ijodi)». -T., 1994
136. Egamov A. «Kompozitsiya asoslari». -T., «San’at». 2005.
137. Egamberdiyev.A. “Raxim Ahmedov”. T., 1994.
138. Egamov X. «Rangtasvir». -T., «Bilim» nashriyoti. 2005.
139. O‘zbek xalq maqollari. -T.: Adabiyot va san’at nashr., 1989.
140. O‘zbek milliy entsiklopediyasi. «O‘zbek milliy entsiklopediyasi» nashriyoti 1-12 tom. T., 2000-2007.
141. «O‘zbekiston san’ati» (1991-2001 yillar). -T., «Sharq» nashriyoti. 2001.
142. Qosimov Q. Naqqoshlik. -T.: O‘qituvchi, 1990.
143. Qosimov Q. Naqqoshlik: Badiiy shakl to‘garagi mashg‘ulotlarining mazmuni va metodikasi. (To‘garak rahbarlari uchun qo‘ll.) -T.: O‘qituvchi, 1982.

144. Qur'oni Karim (Tarjima va izohlar, muallif Alovuddin Mansur). –T.: «Cho'lpon», 1992.
145. Qosimov Q. Naqqoshlik. –T. O'qituvchi. 1990.
146. Qo'ziyev T., Egamov A., Qanoatov T., Nurqobilov A. «Rangtasvir». –T., 2003.
147. G'oziyev E.F. Muomala psixologiya. – T.: ToshGU. – 2001.
148. G'ulomov S.S., Bulatov S.S. Sharqona usta-shogird odobi. –T.: 2000.
149. G'oziyev E. Psixologiya. –T. O'qituvchi. 1994.
150. Xasanboyev J., To'raqulov X. va boshqalar. «Pedagogika fanidan izohli lug'at». –T., «Fan va texnologiyasi». 2008 .
151. Xakimov A.A. Izobrazitelno-Ornamentalnie obrazi i motivi prikladnogo isskustvo // Xudojestvennaya kultura Sredney Azii v X-XIII vv. Tashkent, 1983
152. Hakimlar hikoyati (M. Hasaniy tarj: Mas'ul muharrir U.I.Karimov) –T.: Meditsina, 1985.
153. Hasanov R. Narodnoe dekorativnoe iskusstvo Uzbekistana kak sredstvo esteticheskogo vospitaniya detey maldshego shkolnogo vozrasta. Diss. ... kan. ped. nauk. –T.: 1970.
154. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari. –T.: O'qituvchi, 1986.
155. Haqqulov A. Ta'mir san'ati. -T.: Mehnat, 1991.
156. Xasanov R. Boshlang'ich sinflarda naqsh chizish metodikasi. –T. O'qituvchi. 1972.
157. Xvorostov A.S. Chekanka, inkurustatsiya rezba po derevu: 2-e izd-vo dop. i perereb. – M.: Prosveshchenie, 1985.
158. Xoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi. –T.: O'qituvchi, 1996.
159. Xudoyberganov K. «Yozuvlarga yashiringan tarix». –T., «Ilmiy - tarixiy» nashriyoti. 1996 .

160. Xudoyberganov R. «Rangshunoslik asoslari». –T., «G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi». 2006.
161. Husayn Voiz Koshifiy. Kim bilan do’stlashish kerak («Axloqi Muhsiniy» dan). –T.: Cho’lpon, 1992.
162. Husayn Voiz Koshifiy. Futtuvatnomai Sultoniy yohud javonmardlik tariqati (Pandnoma). –T.: Xalq merosi, 1994.
163. Yuz bir hadis.- Toshkent: Mehnat, 1991.
164. Yusupov E.Yu. Umumiylar tahriri ostida. «Falsafa».—T., «Sharq» nashriyoti. 1999.
165. Yakobson P.M. «Psixologiya xudojestvennogo tvorchestva». –M., 1971.

LUG'ATLAR

A

AYLANMA NAQSH - chirmashgan gulchambar ko‘rinishidagi badiiy naqsh. Bu naqsh tana, barg va gulchalardan tashkil topgan o‘simlikka o‘xshaydi. Uning qo‘s Shimcha xillari bor. U Xiva amaliy san’atida aylanma islimiy nomi bilan yog‘och, tosh, mis va boshqalarga ishlarnadi.

AYLANMA TAQSIM - (ruscha rapport) biror tasvirni yoki naqshni aylanasi radiusi bo‘yicha takrorlanishiga aytildi. Taqsim turi xalq amaliy san’atining barcha turlarida ishlatiladi.

ANDAZA - (fors. tojikcha - o‘lchov, son, hajm, miqdor, trafaret, ruscha - merka, shablon) - shakl ko‘chirish uchun qo‘llaniladigan (qog‘oz, karton, faner, po‘lat, tunuka va hokazolardan tayyorlangan) maxsus o‘lchagich. Qo‘qonda o‘lchak va iskat deb ham ataydilar. Tunukasozlikda va misgarlikda - taxta, tunuka yoki misning bir qismini buyum yasash uchun kesib olish maqsadida ustiga andazani qo‘yib chizib olish - andazalash deyiladi.

Temirchilikda andaza ketmonning zo‘g‘ati yoki tanasini qirqib olish uchun yasalgan o‘lchak. Metallsozlikda andaza shablon deb yuritiladi. Kashtachilikda qog‘oz yoki kartondan chizilgan rasmni naqshga muvofiq qirqib tayyorlangan gul ham andaza deyiladi. Ganch o‘ymakorligida, me’morchilikda binolarni bezashda rozetka, ustun, qandil, gipsli ramka va boshqalarni yasashda ishlatiladi. Bunda yig‘ma andaza, osma andaza, yarim andaza, tebranuvchi andaza va boshqalardan foydalilaniladi. Bu andazalar po‘lat, tunuka, yog‘och, faner va boshqalardan yasaladi.

ANOR - o‘simliksimon naqsh elementi. Naqqoshlik, kулолчilik, misgarlik, gilamdo‘zlik, kashtachilik, zardo‘zlik va

boshqalarda juda ko‘p ishlatiladi. Anor elementi qadimdan ishlatilib kelinganligi sababli u to‘qchilik va to‘kin-sochinlik ramzi sifatida qo‘llanilgan.

ANORGUL - anor elementidan tashkil topgan islimiy naqsh kompozitsiyasi. Anorgul qadimdan ishlatilib kelinayotgan naqsh bo‘lib, Farg‘ona naqshlarida ko‘p uchraydi. Anorgul ikki xil: tabiiy, ya’ni tabiatda qanday bo‘lsa, shunday yoki stillashtirilgan uslubda tasvirlanadi. Anor tasvirlangan bu naqshda anorning ko‘pincha ichki qismi ham ko‘rsatiladi. Anorgul naqshi kulolchilikda, misgarlikda, kashtachilikda, to‘qimachilikda, naqqoshlikda juda ko‘p ishlatiladi.

ANQO - qush, afsonaviy qush, ramziy naqsh elementi bo‘lib, u kishiga baxt keltiruvchi degan ma’noni bildiradi. Bu qush kulolchilikda, naqqoshlikda, misgarlikda, ganch o‘ymakorligida va boshqa xalq amaliy san’ati turlarida ishlatiladi. Ayniqsa kulollar o‘z laganlarida anqo qushini ajoyib qilib tasvirlab kelganlar. Chunonchi kulollar Usta Abdulla, usta Bobo Boyniyozov, Uzoqboy Germatov, Muhiddin Raximov va boshqalarni ishlarida ko‘p uchratish mumkin.

APPLIKATSIYA - qog‘oz, gazlama, karton va boshqa materiallarga rang-barang material yoki qog‘oz parchalarini yopishtirish orqali naqsh yoki badiiy tasvir yaratish.

ASOSIY RANG - tabiatdagi sariq, qizil, zangori ranglar. Shu ranglarni bir-biriga ozmi-ko‘pmi aralashtirish natijasida boshqa ikkinchi darajali ranglar kelib chiqadi.

AXROMATIK RANG - grekcha rangsiz degan ma’noni bildirib, ular bir-biridan yutadigan yoki tarqatadigan yorug‘lik kuchi bilan farq qiladi. Ularga oq, qora va kulrang ranglar kiradi.

AXTA - naqsh yoki biror rasmni shaffof (kalka) qog‘oga chizib, chiziq yo‘llarini igna bilan teshib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlangan andaza. Xorazmda uni ulgi, Buxoroda so‘zan deb yuritadilar. Ilk davrlarda ustalar sirtga

to‘g‘ridan-to‘g‘ri chizib, o‘yib ketganlar, keyinchalik axta orqali tasvirni tushirish qulayligini bilib foydalanib kelganlar.

Naqqoshlar, ganchkorlar, yog‘och o‘ymakorlar va boshqalar naqsh kompozitsiyalarining eskizini yillar davomida saqlab kelganlar. Ular xohlangan vaqtda ulardan ijodiy foydalanib takomillashtirganlar. Bu axtalar hattoki otadan-bolaga meros bo‘lib qolgan. Ustalar ahtani maxsus sandiqlarda saqlab kelganlar, hozir esa davlat arxivlarida saqlanib kelinmoqda. Masalan, mashhur ganchkorlar Usta Shirin Murodov, Toshpo‘lat Arslonqulov, naqqoshlar T.To‘xtaxo‘jayev, Jalil Xakimov va boshqalar tayyorlagan axtalar arxivlarda saqlanmoqda. Axtani tayyorlash uchun shaffof (Xitoy) qog‘ozga naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya o‘qi bo‘yicha qog‘oz ikkiga, to‘rtga va hokazoga buklanadi. Bukkanining bir qismiga naqsh chiziladi. Naqshli shaffof qog‘ozni opka yostiqcha ustiga qo‘yib naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Naqshni yirik va maydaligiga qarab igna tanlanadi. Ignan teshigi oralig‘i naqshning mayda va yirikligiga bog‘liq. Agar naqsh mayda bo‘lsa, igna oralig‘idagi masofa yaqin bo‘ladi. Naqsh nusxasini igna bilan teshib bo‘lingandan keyin, shaffof qog‘oz yoyib yuboriladi, natijada axta hosil bo‘ladi. Tayyor bo‘lgan axtani ish yuzasiga qo‘yib, ustidan xoka urib va bosib yurgizib chiqiladi. Natijada naqsh nusxasi ish yuzasiga ko‘chiriladi va hokazo.

ANIMATSION MA’RUZALAR - Ta’lim oluvchilarga interaktiv tuzilishga ega bo‘lgan o‘rgatuvchi kompyuter dasturlari orqali yetkaziladi. Animatsion ma’ruzalar multimedia texnologiyasidan foydalanib shakllantiriladi. Bunda har bir ta’lim oluvchi o‘zining psixofiziologik xususiyatidan kelib chiqib, animatsion ma’ruzadagi trayektoriyasi, o‘zlashtirish sur’ati va o‘rganish usulini tanlaydi. Amaliy mashg‘ulotlar kompyuter texnologiyalari ning zamonaviy yutuqlarini mujassamlashtiruvchi trenajerlar,

virtual reallik asosida o‘qitish vositalari, ekspert o‘rgatuvchi tizimlarga asoslanadi.

AUDIO MATERIALLAR - Bu turdagи audiomateriallar kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib tarqatiladi.

AMALIY MASHG’ULOTLAR - Har bir bob uchun alohida topshiriqlar, amaliy mashg‘ulotlar va ularni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar beriladi .

ASOSIY O‘QUV MATERIALINING ELEKTRON SHAKLI - Bosma shaklda bayon etilgan asosiy, tushuntiruvchi, amaliy matnlarning elektron versiyasi taqdim etiladi.

B

BAND - (novda) o‘simlik bandi. Islimiyl naqsh elementi bo‘lib, u gullarning novdasi hisoblanadi. Band tabiatdaga daraxt yoki o‘simlik novdasining stillashtirib olingan tasviri- dir. Har bir naqsh elementi singari bandning ham kompozitsiyada qo‘llanishining o‘ziga xos qoidalari bor. Masalan: bandning aniq bir o‘lchamda bo‘lishi, uning kompozitsiyada berglar, gullarga nisbatan joylanishi, naqshda gullar, barglar va tanoblarining tagidan o‘tishi va hokazo. Turli shaharlarda naqqoshlar banddan kompozit- siyada o‘ziga xos foydalanadilar, shuning uchun ham naqshlar bir-biridan farq qiladi. Chunonchi Xorazm naqshida bandlar kam kurtakli, ba’zan deyarli kurtaksiz, novdalarning o‘zi prujina singari bir-biriga to‘qilib ketadi. Buxoro, Toshkent va Samarcand nusxalarida ko‘pincha shukufta ajratilmay, shukufta o‘rniga novdacha qo‘shilib ketadi va hokazo.

BARG - o‘simliksimon naqsh elementi bo‘lib, naqqosh- lar tomonidan tabiatdagi o‘simlik barglarini umumlashtirib olingan tasviri. Barglarning quyidagi turlari bor: shobarg (shoh barg), o‘simliksimon naqsh elementlaridan biri bo‘lib, barglar ichida eng kattasi hisoblanadi. «Qo‘shbarg» ikki

bargdan iborat bo‘lgan o‘simliksimon naqsh elementi, «ko‘pbarg» bir necha barglardan tashkil topgan o‘simliksimon naqsh elementi, (chor barg) to‘rt bargdan iborat bo‘lgan naqsh elementi, (xurmo bargi) xurmo daraxti bargining naqqoshlar tomonidan umumlashtirib olingan tasviri, tol bargi, anorbarg, qashqarcha barg, madoxil barg, qo‘shbodom barg, qalampir barg, nok barg, sambit barg, butoq barg va boshqa turlari bor. Barg naqsh kompozitsiyada to‘ldiruvchi va husn beruvchi element bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra oddiy va murakkabga bo‘linadi. Oddiy barglarga uch barg, bodom bargi, tol bargi va boshqalar kiradi. Murakkab barglarga esa ko‘pbarg, shoxbarg va boshqalar kiradi.

BODOM - bodomni stillashtirib tasvirlangan o‘simliksimon naqsh elementi. U bosh kiyimlar, zargarlik buyumlari; matolar, do‘ppichilik, me’moriy va boshqa xalq amaliy san’ati turlarida ishlatiladi. Bodomni naqqoshlar baxt-iqbol ramzi tariqasida ishlatadilar.

BOSH TANOB - naqsh kompozitsiyasining asosini tashkil etuvchi chiziq.

BOFTA - islimiy naqsh elementi. Tanob aylanib o‘tib, hosil qilingan jozibali shakl. Uning to‘g‘ri, egri yoki aralash chiziqli turlari bo‘ladi.

BILIMLAR BANKI – o‘z tarkibiga axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib, darsliklar, o‘quv qo‘llanmlari, kompyuter multimediali o‘rgatuvchi tizimlar, audio va video o‘quv-axborot materiallari, lug‘at va ma’lumotnomalarni elektron versiyalarini mujassamlashtiradi. Bunday elektron resurslar majmuasi bir qator afzalliklarga ega: elektron resurslardagi ma’lumotlarni tez qidirib topish, ularni sistemali joylashuvi, materiallarni ko‘rgazmaliligi, keltirilgan materiallar doirasini kengligi va qo‘sishmcha ma’lumotlarga bo‘lgan murojaat mavjudligi, materiallarni ixchamligi, materiallarni yetkazish usulini osonligi va tezligini yuqoriligi kabilar.

V

VIDEO MATERIALLAR - sinxron hamda asinxron tartibda uzatiladi. Video materiallarini sinxron tartibda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatilishi pedagog va ta’lim oluvchining bevosita muloqotini ta’minlaydi, an’anaviy ma’ruzalarga xos barcha ijobiy jihatlarni o‘zida mujassamlashtiradi, pedagog va ta’lim oluvchilar bir-birini real vaqtda ko‘rib va eshitib turishini ta’minlaydi.

VIRTUAL STENDLAR - haqiqiy obyektlar, jarayonlar va hodisalarning elektron modeli.

VIRTUAL STENDLAR VA VIDEO LAVHALAR – Bunda laboratoriya qurilmalari va uskunalarining ko‘rinishlari, ularning harakatlari, texnologik jarayonlarning bajarilish animatsiyalari va videolavhalari taqdim etiladi.

VIRTUAL OBYEKTLAR YOKI JARAYONLAR - haqiqiy mavjud bo‘lgan, shuningdek, tasavvur qilinadigan obyektlar yoki jarayonlarning elektron modeli. «Virtual» so‘zi elektron tashuvchilarida ko‘rsatiladigan ta’lim yoki boshqa obyektlarning elektron analoglari tavsifini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Bundan tashqari ushbu ibora elektron model bilan ishslash paytida, haqiqiy fazoviy metaforani davom ettiruvchi interfeys texnologiyalari multimediyasiga asoslangan miqdorini bildiradi.

G

GIRIH - forscha «chigal tugun» degan ma’noni anglatadi, handasaviy naqsh. Murakkab naqsh turi. Geometrik naqsh turlaridan biri bo‘lib to‘rt burchak, uch burchak, boshqa ko‘pburchaklar aylana va yoylardan tashkil topadi. Tuzilishi jihatidan to‘g‘ri chiziq, egri chiziq va aralash chiziqlardan, uzluksiz rapportlardan tashkil topgan bo‘lib, har bir rapport o‘z tuzilishiga ega.

GIRIO'KOR USTA - girihsiz chizuvchi usta. Girihsiz murakkab bo'lgani uchun uni hamma usta ham chiza olmaydi. Shuning uchun ba'zi ustalarga girihsizning ustalaridan biri Usta Shirin Murodov bo'lgan.

GUL - o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, tabiatdagi gullarni naqqoshlar tomonidan umumlashtirib olingan tasviridir. Gullar naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi va husn beruvchi element hisoblanadi. Gullarning har xil turlari bo'lib, ularning o'ziga xos nomlari bor. Chunonchi, uchbesh yaproqli oygul, bargli oygul, lola gul, paxta gul, pista gul, no'xat gul, bodom gul, chinni gul, safsar gul, atir gul, gulafshon, gultojixo'roz va boshqalar. Gullar tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkabga bo'linadi. Murakkab gullarga pista gul, ko'p bargligul; oddiy gullarga esa oygul, lola gul, paxta gul, no'xat gul va boshqalar kiradi.

GUL - naqsh so'zi o'rnida ham ishlatiladi. Gul so'ziga naqshning nomi qo'shib ham aytildi. Chunonchi guliraftor, davra gul, islimiy gul, guli yakraftor, guli seraftor, gulsun va boshqalar bo'lib ularning 200 ga yaqin turi bor. Amaliy san'atning barcha turlarida uchraydi. Oltin yog'och, ganch, mis, kumushga o'yib chizib yoki qabartib ishlanadi, badiiy buyumlarda yo'rma, kashta tarzida tayyorlanadi. O'zbekistonning milliy gullari mazmundorligi va rangbarangligi bilan ajralib turadi.

GUASH - suvli uncha tiniq bo'limgan bo'yoq. Yolim bo'yoq turi. U rasm, teatr bezagida, ganch o'ymakorligida o'yilgan naqshni bo'yashda va rangli ganch qorishmasini tayyorlashda ishlatiladigan bo'yoq. Naqqoshlikda ham ko'p ishlatiladi.

GULLI GIRIH - girihsiz islimiy naqshlarni qo'shib ishlatilgan murakkab naqsh turi. Bu kompozitsiyada girihsizning birinchi darajali naqsh hisoblanadi.

GUL QALAM - yumshoq mo'yqalam turi bo'lib, naqshlarni bo'yash va pardozlash uchun ishlatiladigan

mo‘yqalamdir. Gul qalamlar bo‘rsiq, olmaxon, savsar kabi hayvonlarni yungidan tayyorlanadi. Ularning ishlatish joyiga qarab uch turga, mola qalam, obi qalam va siyoh qalamlarga bo‘linadi. Mola qalamlar 9, 10 nomerli mo‘yqalamdir. Naqshlarning katta va kichik zaminlarini (yuzlarini bo‘yashda ishlatiladi). Obi qalam 6-7 nomerli mo‘yqalamdir. Naqshlarni juda kichik yuzalarini bo‘yashda va kompozitsiyaning chetki chiziqlarini ya’ni ramkalarini chizishda ishlatiladi. Siyoh qalam esa 1-2 nomerli mo‘yqalamlar bo‘lib, axta yordamida tushurilgan naqshning izlarini o‘chib ketmasligi maqsadida bo‘yoqdan chizib chiqish, gul va barglarga targ‘il berish hamda oq bandlarini tortishda ishlatiladi. Avval naqqoshlar ko‘pincha o‘zlari tayyorlaganlar yoki maxsus tayyorlaydigan ustalar bo‘lgan.

GRUNTLASH - buyumga biror tasvirni ishlashdan oldin yuzasini tayyorlash.

GIPERMATN - elektron shaklda taqdim etilgan hamda tarmoqlangan bog‘lanishlar tizimi bilan ta’minlangan, uning bir fragmentidan boshqasiga darhol o‘tish imkoniyatlari oldindan berilgan matn.

GIPERMEDIYA – tarkibiga turli tipdagи tuzilgan axborot vositalaridan (matn, illyustratsiya, tovush, video va boshqalar) tuzilgan gipermatn.

D

DIDAKTIK MATERIALLAR - Didaktik materiallarga talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash hamda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan muammoli, qiziqarli savollar, ijodiy topshiriqlar, loyihalar o‘yinlar, krass-vordlar kabi materiallar kiradi. Shuningdek o‘qitish jarayonida o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan tarqatma materiallar, kartochkalar, savolnomalar, yuriknomalar, amaliy ishni tashkil etish buyicha texnologik xaritalar va h.k. kiradi.

DARSLIK - «Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish kontseptsiyasi» ga muvofiq «Darslik – davlat ta’lim standarti, fannig o‘quv das-turi, metodikasi va didaktik talablari asosida belgilangan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan, hamda turdosh ta’lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr» deb ta’riflangan.

YO

YORDAMCHI TANOB - naqsh kompozitsiyasida ik-kinchi darajali chiziq bo‘lib xizmat qiladi.

J

JINGALA - daraxt shohchasining ma’lum jingalak shaklidagi ko‘rinishi. O‘simliksimon naqsh elementi. Naqsh kompozitsiyasida to‘ldiruvchi element vazifasini o‘taydi. Naqqoshlar bu naqsh elementini to‘kin-sochinlik, boylik hamisha yosharib turuvchi ona tabiatni ramzi tariqasida qo‘llab kelganlar.

JUJA - qizil (gul) kesak. Ganchkorlikda rangli ganch tayyorlashda ishlatiladigan qizil kesak. Qizil rang juja deb ham ataladi.

Z

ZAMAZKA - taxta yoriqlariga va deraza romlariga yop-ishtiriladigan xamirsimon ko‘rinishdagi qorishma.

ZAMIN - o‘ymakorlikda va naqqoshlikda naqshli bezakni tagi (foni) deyiladi.

ZIRK GULI - juda chiroyli yaproqli gul, o‘simliksimon naqsh elementi bo‘lib, gullarning bir turi. U Markaziy Osiyo naqshlarida juda ko‘p uchraydi. Uni azaldan ota-bobo

naqqoshlarimiz osoyishtalik va umruzoqlik ramzi ifodasida ishlatib kelganlar.

I

IZORA - (ruscha panel) uy devorining pastki bezak qismi bo‘lib, ko‘pincha naqsh yoki ganch bilan bezatilgan.

ISLIMIY - (o‘simpliksimon naqsh) naboliy deb ham yutiladi. Klassik naqsh tanob, band bargli, kurtakli butalardan tashkil topib, bir-biri bilan chirmashib ketib, o‘simpliklarning o‘xhashlik tasvirini beradi. Islimiyning turlari ko‘p bo‘lib, ustalar kompozitsiyasi qaysi shakl bilan to‘ldirilgan bo‘lsa shu shaklni nomini qo‘shib aytishadi. Chunonchi islimiy mehrob, islimiy bodom, islimiy bulbul va boshqa ko‘p nomlari bor.

IZOHLI LUG’AT - Texnik terminlar, atamalar, nomlanishlar va soha standartlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar va tushunchalar beriladi.

K

KALKA - (fr. kalgus so‘zidan) chizmachilik, naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorlik va boshqalarda nusxa ko‘chirishda ishlatiladigan shaffof qog‘oz yoki gazmol. Chizmadan tush hamda yorug‘lik vositasida ko‘plab nusxa ko‘chirish uchun ishlatiladi. Naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorlik, ganch o‘ymakorlik va boshqa xalq amaliy san’ati turlarida axta (ulgi) tayyorlashda ishlatiladi. Hozirda kalkadan tayyorlangan ustalarning ming-minglab naqsh axtalari muzeylarda saqlanmoqda.

L

LAZUR - favorang, zangori bo‘yoq.

LOLA - naqsh kompozitsiyasida ustalar juda ko‘p qo‘llaydigan islimiylar naqsh elementi.

LEKSIYALAR KURSI – fanning o‘quv dasturi bo‘yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, o‘quv maqsadlari keltirilgan, foydalaniladigan asosiy va qo‘sishimcha o‘quv ababiyotlar ko‘rsatilgan, o‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan nashr bo‘lib, uning nomi tegishli fan nomi bilan ataladi.

M

MADOXILI - (arabcha so‘z bo‘lib, ostona, kirish, eshik ma’nosini bildiradi) chapu rost takrorlanuvchi islimiylar naqsh turi. U kompozitsiyada chiqish nuqtasi (manbai, ildizi) hisoblanadi. Madoxili ko‘rinishi jihatidan xilma-xil bo‘lib, g‘uncha, lola, uchbarg va boshqa shakllardan iborat bo‘ladi.

Ana shu shakllarning orasiga naqqoshlar har xil gullar kiritib o‘ziga xos nom qo‘yanlar. Chunonchi madohili lola (lola shakliga yaqin qilib ishlangan g‘uncha madoxili naqsh turi), qo‘sish madoxili (lola, g‘uncha, gul va boshqa shakldagi madoxilining yuqoriga, pastga qaratib chizilgan nusxasi), madoxil islimiylar (naqsh taqsimining asosini madoxili shakli egallovchi islimi naqsh turi). Madoxili naqshlar arxitekturada yog‘och, tosh mis o‘ymakorligida, naqqoshlikda, kashtado‘zlikda va boshqalarda keng tarqalgan. Madoxili turlari borgan sari ko‘payib bormoqda, u zamonaviy binolarda va uy-ro‘zg‘or buyumlarini bezashda keng qo‘llanilyapti.

MADOXILI LOLA - juda qadimdan ishlatilib kelinayotgan lola shaklidagi islimiylar naqsh turi.

MARG’ULA - qo‘sish chiziqli gajak. Islimiylar naqsh elementi. U xalq amaliy bezak san’ati turlari misgarlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik va boshqalarda ishlatiladi.

Agar bir novdaning uchida ikki marg‘ula hosil bo‘lgan bo‘lsa, qo‘sh marg‘ula deb yuritiladi. Tasvirda novda bilan marg‘ula tasvirlangan bo‘lsa, marg‘ulali novda deb yuritiladi. Naqsh kompozitsiyada marg‘ula to‘ldiruvchi element hisoblanadi.

MAG’ZI SOXTA - (pape-mashe) fransuzcha pape-mashe, ya’ni ezilgan qog‘oz degan ma’noni bildirib, tuyib ezilgan qog‘oz, karton, latta va boshqa narsalarni yopishqoq moddalar, gips, kraxmal, yelim qorishtirib hosil qilinadigan bo‘rtma tasvir yoki naqqoshlikda ishlatiladigan material. Mag‘zi soxtadan katta-kichik qalamdon, shaxmat taxtachalari, qimmatbaho muqovalar, sandiqchalar, niqoblar, har-xil qutichalar, o‘quv ko‘rgazma qurollari, guldonlar, badiiy ramkalar, o‘yinchoqlar tayyorlashda, spektakllarni bezashda ishlatiladi.

Mag‘zi soxta bilan ishlangan narsalarga lak bilan naqsh ishlash Samarqandda XV asrda juda yaxshi rivojlangan. Chunonchi Go‘ri Amir maqbarasining ichki qismida va Bibixonim masjidida ajoyib mag‘zi soxtadan yasalgan naqshlarning ijobiy namunalari bor. Go‘ri Amir maqbarasi bosh binosining ichki qismida mag‘zi soxtaning 998 elementi bor. Mag‘zi soxta bilan naqsh ishlash san’ati XV asrda Samarqandga Shimoliy Hindistondan o‘tgan. Shimoliy Hindistonda mazkur san’at juda rivojlangan.

Mag‘zi soxtadan yasalgan har xil qutichalar, qalamdonlar, sandiqchalar, mo‘yqalamlar bilan o‘rik va olcha yelimi qo‘shilgan tilla yoki bronza bilan tasvir ishlaganlar.

MORPECH - (tojikcha: mor - ilon, pech - ya’ni, kulcha ilon) ilon izi shaklidan iborat xoshiya naqsh. Morpech misgarlikda mis idishlarni chetiga va ichiga, ganchkorlikda tokcha, namoyon, izora chetlariga hamda yog‘och o‘ymakorligida esa eshik, namoyon, stol-stul va boshqa narsalarning chetiga ishlanadi.

MUNABBAT - arabcha o'stirmoq degan ma'noni anglatadi. Asosi to'g'ri to'rtburchakdan tashkil topib, to'rt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbatdan foydalaniladi. Ko'pincha Markaziy Osiyo naqsh kompozitsiyalarida ko'p qo'llaniladi. Naqqosh munabbatni chizishda avval to'rtdan bir bo'lagini chizib olib keyin esa axtasini (ulgisini) tayyorlaydi. Ustalar munabbat kompozitsiyasini sathga axta yordamida tushirib chiqib, uni bo'yab, o'yib, tirnab ishlaydilar. Munabbatning o'simliksimon, geometrik, ramziy va boshqa kompozitsion turlari bor. Uning quyidagi atamalari mavjud, munabbati mehrob, munabbati bofta, munabbati islumi, munabbati giriҳ va boshqalar.

MUKARNAS - stalaktit, ravoqli mehrobsimon kosa-chalardan tashkil topgan murakkab hajmdagi geometrik bezak turi. U Markaziy Osiyoda VII-VIII asrlarda paydo bo'lgan. XV - XVII asrlarda keng tarqalgan bo'lib, boshqa davlatlarda ham ishlatilgan. Mukarnaslarning ajoyib namunalarini Samarcanddagi Shohi-Zinda ansamblida, Ulug'bek madrasasida uchratish mumkun.

Amir Temur maqbarasida, Buxoro, Xiva, Farg'ona vodiysi va boshqa shaharlardagi binolarda uchratish mumkin. Mukarnaslar, murakkab bo'lganligi uchun hozir kam ishlatilyapti.

MO'YQALAM - qilqalam, naqqoshlikda, rassomchilikda bo'yoqning qog'oz, ganch, yog'och, karton va boshqalarga tasvir solish, bo'yash, chizishda ishlatiladigan asbob. Mo'yqalamlar hayvonlar yungidan va har xil sun'iy tolalar-dan tayyorланади.

Mayin yungdan (mo'yna, bo'rsiq, suvsar, olmaxon) tayyorlangan mo'yqalamlar akvarel, tempera hamda grafika ishlarida ishlatiladi, dag'alroqlaridan tayyorlanganlari esa moybo'yoq rassomchilikda, naqqoshlikda va bo'yoqchilikda qo'llaniladi. Uzun qildan tayyorlangan mo'yqalamlar esa

freska hamda teatr dekoratsiyalarini tayyorlashda ishlataladi. Bu mo‘yqalamlarni avvalgi ustalarining o‘zлari tayyorlaganlar yoki buyurtma berganlar, hozir ko‘pchilik ustalar tayyor mo‘yqalamlarni rastalardan sotib oladilar.

MATNLI MATERIALLAR - Nazariy mashg‘ulotlarni tashkil etishning matnli qismi eng salmoqli o‘rinni egallaydi. Odatda, o‘quv dasturiga muvofiq asosiy o‘quv materialllari matnli shaklda yaratilib, shundan so‘ng ularga qo‘srimcha ravishda audio hamda video materiallar ishlab chiqiladi. O‘quv materialining bu taxlitda taqdim etilishi an’anaviy lektsiyalarning bir qator kamchiliklar (zarur o‘rinlarni ko‘chirib olish, qayd qilish, ma’ruzachi tomonidan uni qayta-qayta takrorlashga ortiqcha vaqt sarflanishi)ni bartaraf etilishini ta’minlaydi.

MULTIMEDIYALI VOSITALAR - turli tipdagи axborotlarni va jarayonlarni matn, rasm, sxema, jadval, diagamma va virtual muhitlarni yaratish, saqlash, ishlov berish, raqamlashtirilgan va jarayonli ko‘rinishda amalga oshirishning kompyuterli vositasi.

MA’LUMOTNOMA - Ushbu elektron darslikdan foydalanuvchi uchun ko‘rsatmalar, foydali dasturlar va ma’lumotlar beriladi.

MUSTAQIL ISH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI HAMDA ULARNI BAJARISH BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR - Mustaqil ish muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakaning ma’lum bir qismi bo‘lib, o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriyada yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Ushbu bo‘limda talabalar mustaqil ishini bajarish yuzasidan tegishli kafedralar tomonidan savol va topshiriqlar hamda ularni bajarish bo‘yicha metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib quyidagi sxemada keltirilgan mustaqil ish turlari bo‘yicha topshiriqlar ishlab chiqiladi.

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN SAVOL VA TOP-
SHIRIQLARNING ELEKTRON SHAKLI - Savol va topshiriqlar tizimi-zamonaviy o‘quv darsligining yetakchi va jadal rivojlanayotgan ko‘rsatkichidir. Savollar va topshiriqlarning elektron shaklda berilishi talabaga o‘z-o‘zini bahoresh ularning faollashuvini va bilimlarni mustahkam egalashlarini ta’minlaydi, ularning kasbiy qiziqishlarini rivojlantiradi, ishlab chiqarish sharoitlarida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Talaba savollar va topshiriqlarni kompyuter imkoniyatlaridan foydalanib bajaradi.

N

NAMOYON - forscha ko‘rinish, manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon mukammallashgan yetuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon voqe’likning umumlashgan tasviriy obrazini o‘zida aks etadi. Masalan: chamanzor, bog‘ubo‘stonlar, daryolar, gullar, barglar va boshqalarni aks ettiradi. Chetlaridagi hoshiya namoynning badiiy ko‘rinishida muhim rol o‘ynaydi. Namoyon hech nimaga ulanmaydigan mustaqil kompozitsiya. U murakkab naqsh turiga kirib, uning o‘simliksimon, geometrik, gulli girih ramziy va boshqa turlari mavjud. Usta namoyonni ishlashda uning uzoq va yaqindagi ko‘rinishini ham alohida hisobga oladi. Namoyon islimiy naqshdan iborat bo‘lsa, unda uning band va tanoblari darajalarga bo‘lib chiqiladi. Gulli girihli namoyonda girih asosiy, islimiy naqsh esa, to‘ldiruvchi hisoblanadi. Namoyon faqat girihdan tashkil topgan bo‘lsa, uni ham asosiy, ham to‘ldiruvchi girihlarga bo‘lish mumkin, ya’ni yirik girihlarni ichiga mayda girihlar chiziladi.

Namoyonlar simmetrik va assimetrik tuzilgan bo‘ladi. XIX asrning o‘rtalarida har bir voqeanning namoyonlari o‘ziga xos bo‘lib, ular bir-biridan farq qiladi. Ular xarakterli ornament uslubiga ega. Masalan: Xiva naqqoshligidagi

namoyonlarda bandlar bir-biri bilan spiralsimon ulanib ketadi. Barg, gullar kam qo'llaniladi. Ularning kompozitsiyasi dinamik xarakterga ega. Toshkent ustalarining namoyon kompozitsiyalari o'ziga xos bo'lib, o'simlik va gullarning ko'pligidadir.

Farg'ona namoyon naqsh kompozitsiyalarida tabiatdagi gul, barg, meva (lola, gul, atirgul, bodomgul, majnuntol, anor va hokazolar) va boshqalar to'g'ridan-to'g'ri o'zi tasvirlanadi. Ularning mehrobi namoyon, chorsi namoyon, seraftor, shabaki namoyon, majnuntol namoyon va boshqa atamalari bor.

NAQSH - arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Elementlari ma'lum tartibda takrorlanadigan geometrik shakllar, o'simlik, parranda, hayvon va boshqalarning sxfematik tasviridan tashkil topgan bezak. Naqshlar islimiy (nabotiy), geometrik (handasaviy) va boshqa turlarga bo'linadi.

NAQQOSH - naqsh chizuvchi va yaratuvchi usta-san'atkor. Naqqosh borliqdagi gul, barg, qush va boshqalarni stillashtirib olib qog'oz, yog'och, ganch va hokazolarga chiziqlar hamda ranglar orqali tasvirlaydi. Mashhur naqqoshlardan Yoqubjon Raupov, Toyir To'xtaxo'jayev, Jalil Xakimov, Saidmaxmud Norko'ziyev va boshqalar misol bo'la oladi.

NAZORAT SAVOLLARI VA TESTLAR - Har bir bob bo'yicha tuzilgan nazorat savollariga va yozma topshiriqlarga talaba mustaqil ravishda javob yozib uni qog'ozga printerdan chiqarilgan ko'rinishda o'qituvchiga taqdim qilishi mumkin. Test savollariga javob berib talaba har bir bo'lim bo'yicha o'zining bilimini tekshirib ko'rishi mumkin.

O

OBI - forscha, suv degan ma'noni anglatadi. Obi naqshning chetiga, hamda namoyon bilan hoshiya tutashgan joylarni turli-tuman ranglarni ajratib turuvchi chiziq. Obini naqsh elementlari kesib o'tishi mumkin emas. Obini xalq amaliy bezak san'atining barcha turlari misgarlik, kulolchilik, ganchkorlik, zardo'zlik, kashtado'zlik, gilamchilik va boshqada ko'rish mumkin. Masalan, pichoqchilikda pichoqning sarbasta hamda dasta oralig'iga o'rnatilgan yupqa mis, ya'ni tashqaridan pichoqqa o'rnatilgan yupqa mis uzun chiziqqa o'xshab ko'rindan. Shu pichoqchilikda obi deb yuritiladi. Marg'ilon, Namangan, Shaxrisabz, Qoraqalpog'iston va boshqa joylarda - ona deb yuritiladi.

ORALIQ RANG - rang doirasini tashqi xalqasida sariq, yashil, ko'kish, binafsha va hokazo tartibda joylashadigan oraliq ranglar.

P

PANJARA - tobardon, arxitektura detali bo'lib, binolarning tuynuk, darcha, eshik hamda boshqa joylarida bezak si-fatida ishlatiladi. Pandaralar tuzilishi jihatidan o'simliksimon, geometrik, o'simliksimon-geometrik, ramziy bo'ladi. Panjarani ganch o'ymakorligida kuyma va o'yma usulida tayyorlanadi. Ganchli panjaralar VIII asr binolarida ham ishlatilgan. Panjaralar misdan, toshdan, marmardan, yog'ochdan va boshqa materiallardan qilinadi.

R

RANG - biror narsaning bo'yog'i, tusi. Asosiy ranglarga sariq, qizil va zangori ranglar kiradi. Bularning qo'shilishidan yashil, ko'k, binafsha, zarg'aldoq, jigarrang kabi ranglar hosil bo'ladi. Ranglar asosan ikki turga, ya'ni iliq ranglar

(qizil, sariq, zarg‘aldoq, sarg‘ish yashil) va sovuq ranglar (zangori, ko‘kish yashil, binafsha, havo rang kabilar)ga bo‘linadi. Ranglar amaliy san’at turlarida muhim rol o‘ynaydi.

RANGLARNING VAZMINLIGI - ranglarning kishida og‘ir va yengil taassurotlar uyg‘otuvchi xususiyati, to‘q va och ranglar.

RANGLAR GARMONIYASI - ranglarning bir-biriga muvofiq tushishi.

RANGLARNING TOZALIGI - mazkur rangning spektr rangga yaqinlashtirib borishi. Spektr ranglar eng toza ranglardir.

RANGLARNING FAZOVIY XUSUSIYATI – ranglarning zichligi, yengilligi yuzani uzoqlashtirib yoki yaqinlash-tirib ko‘rsatish qobiliyati.

RAPPORT - fransuzcha qaytarish, naqshning takrorlanadigan xarakterli qismi. Kashta, gilam, gazlama, keramik buyumlari, trikotaj va boshqalarda naqshlarni takrorlanadigan qismi bo‘lib, gazlamada arqoq hamda tanda rapportlari bo‘ladi.

RAX - biror narsaning qirrasi (cheti).

RITM - kompozitsiyaning eng kuchli va xarakterli asosi hisoblanadi. Ritm naqsh elementining ma’lum masofada bir tekisda takrorlanib kelishi bo‘lib, naqshdagi harakatning uzluksiz va go‘zal ko‘rinishini ta’minlaydi.

RTA - (ruscha bordyur) ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimi, hoshiya naqsh. Chizilayotgan naqsh nusxasining xarakteriga qarab ketma-ket, to‘nkarma usullarda ulanishi mumkin. Naqqosh to‘nkarma usulida taqroranuvchi ruta chizayotganida taqsim asosini qog‘ozga (ikki buklab) chizadi, axta aylantirib, undan foydalanadi. To‘nkarma ruta kompozitsiyada bir yoki ikki, ba’zan uch chiqish nuqtasi, odatda, o‘rtada bo‘ladi (bo‘sh joylarni to‘latishda xizmat qiladi). Ketma-ket ulanuvchi rutalar bir, ikki, uch yo‘nalishli bumk,

har yo‘nalishda bittadan chiqish nuqtasi bo‘ladi. Ikki chiqish nuqtali rutalarda (aylantirma nusxa) deb ataladigan kompozitsiya ham uchraydi. Taqsim chegaralaridagi ikki chiqish nuqtasidan chiquvchi novdalar soat yo‘liga o‘xshatilib, ikkinchi nuqtani bosib, o‘tadi, ya’ni ikki nuqtadan chiqqan novdalar xalqa hosil qiladi. To‘ldiruvchi elementlar ham novdalarning o‘rnashgan joyiga moslab chiziladi.

S

SIYOH QALAM - kichik mo‘yqalam bilan naqsh konturini bo‘yoqda chizib chiqish.

SILUET - (fransuzcha - siluetta) - XVIII asr fransuz davlat arbobi nomidan olingan bo‘lib, odam, hayvon, qush, narsa va boshqalarning soyaga o‘xshatib bir rangda ishlangan tasviri. Tasvir sidirg‘a rangdagi qog‘ozni kesib ishlab boshqa rangdagi qog‘oz yoki materialga yopishtirilishi ham mumkin. Grafika texnikasining bu turi qadimdan Xitoyda, Yaponiyada va boshqa sharq mamlakatlarida, XVII asrdan Yevropada rivojlangan. Keng ma’noda narsa, bino turli shakllarning xarakterli ko‘rinishi va boshqalarni anglatadi.

SIMMETRIYA - grekcha so‘z bo‘lib, o‘lchovlarning bir-biriga mosligi, tengligi, mutanosibligidir. Simmetriyaning bir qancha turlari bor.

SIRTMOQ - boftaning bir turi bo‘lib, u bandi rumiy deb ham ataladi.

T

TANOB - arabcha chilvir, arqon degan ma’noni beradi. Murakkab naqshlar kompozitsiya asosini tashqil etuvchi va naqshga shakl beruvchi chiziq tanob deyiladi. Naqqosh naqsh kompozitsiyasini chizishdan oldin birinchi navbatda tanob tortib, keyin novdalarni chizadi, so‘ngra novda yo‘nalishiga moslab gullar joylashtirib chiqadi. Tanob ustisi

dan hech qachon gul, novda yoki barg bosib o‘tmaydi. Bunda tashqari tanob tag ranglarni bir-biridan ajratib turadi. Tanoblar xilma-xil bo‘lib, bir kompozitsiyada boshlanganicha uzlusiz davom etadi, ba’zi nushalarda ikki nuqtadan boshlanib bir-biriga qarab yo‘nalib, bir-biriga chir-mashib tugallanadi, yana boshqa nusxalarda tanob bir nuqtadan boshlanib ikki tomonga yo‘nalib taqsim chetiga borib tugallanadi. Ba’zan egri, to‘g‘ri yoki aralash chiziqlardan tashkil topgan bo‘lishi ham mumkin. Agar kompozitsiyada kesib o‘tuvchi tanoblar rangli naqshlarda ishlatilsa, unda al-batta ikkalasi ikki xil rangga bo‘yaladi. Agar bir xil rangda bo‘ysa, unda asosiy shakl o‘zini ko‘rsata olmaydi. Tanoblar bir-birini kesib o‘tmay parallel bo‘lsa, bunday nusxani «qo‘sh tanobli islimi» deb ataladi. Agar tugallangan mustaqil kompozitsiya bo‘lsa, «qo‘sh tanobli namoyon» deb ataladi. Kompozitsiyada tanob birdan ortiq ham bo‘lishi mumkin. Agar ikki tanobli kompozitsiya bo‘lsa, biri bosh ikkinchisi yordamchi tanob deyiladi. Kompozitsiyada tanob ustidan novda, gul, barg va boshqalarning o‘tishi mumkin emas.

TARG‘IL - (naqqoshlikda) naqshning gul va barglarini o‘zidagi hosil bo‘lgan soyalarni har xil rangli chiziqlar yordamida pardozlash. Naqqoshlikda targ‘il pardoz berishning bir turi bo‘lib, naqqoshlar tabiatdagi gul va barglarni o‘zidagi soyalarni rangli chiziqlar yordamida tasvirlaydilar.

Tabiatdagi gullarning urug‘i va changlarini ham naqqosh naqshni pardozlashda chizib bo‘yab tasvirlaydi. Targ‘il berishning har xil yo‘llari bo‘lib bo‘yalayotgan gul va barglarning rangidan har doim to‘qroq olinib pardoz beriladi.

Gul va barglarga berilayotgan targ‘il ularning xarakteriga va rangiga mos bo‘lishi kerak. Targ‘il berilgan naqshning badiyiliyi yanada oshib o‘ziga xos ko‘rinish beradi. Gul va barglarga targ‘il berishda yumshoq kichik nomerdagi mo‘y-qalamlardan foydalaniladi. Targ‘ib berish qardosh xalqlar amaliy naqshlarida ham uchraydi, lekin ular o‘zbek milliy

targ‘illaridan xarakteri va ranglari bilan ajralib turadi. Gullarni va barglarni pardozlash xalq amaliy san’ati turlarida ham bor, lekin ular o‘ziga xos nomlari bilan yuritiladi. Masalan, ganchkorlikda choka, yorma, lo‘la va tabaqa pardozlar, yog‘och, gravyura, mis o‘ymakorligi va boshqalarda o‘ziga xos nomlar bilan yuritiladi.

TAQSIM - (fransuzcha qaytarish, ruscha rapport) naqqoshlikda, naqshning ma’lum bir shaklda takrorlanuvchi qismi, bo‘lagi. Markaziy Osiyo naqshlari o‘ziga xos xakterga ega bo‘lib, naqshlarining deyarli hammasi takrorlanuvchi ma’lum bo‘lakdan (qismdan) iboratdir. Shu taqsim sathi taqsim yuzi deyiladi. Naqqoshlar avval taqsim yuzini qog‘ozga belgilab, naqsh kompozitsiyasining bir qismini chizadi va axtasini (ulgusini) tayyorlaydi. Naqqosh bezatiladigan yuzaga shu axta yordamida naqshni takrorlab tushirib to‘ldirib chiqadi va bezatadi. Taqsim kompozitsiyasining takrorlanuvchi qismi har xil bo‘ladi. Chunonchi, uchburchak, to‘rtburchak, kvadrat va hokazo. Doira yoki gumbazga mo‘ljallangan naqsh taqsimiy kompozitsiya yuzining to‘rtdan, oltidan, sakkizdan, o‘n ikkidan va h.k. qismlarini tashkil etib, taqsim doirada yonma-yon takrorlanadi. Bunday taqsim aylana taqsim deb ataladi. Taqsim to‘g‘ri chiziq bo‘yicha takrorlansa u to‘g‘ri taqsim deb yuritiladi. Taqsim to‘g‘ri va oyna shaklida almashlab takrorlansa unda chapurost taqsim deb ataladi. Bunday taqsim juda keng tarqalgan.

TOKCHA - xona devorlariga uy-ro‘zg‘or buyumlari, qo‘yiladigan maxsus joy. Tokcha qadimdan sinchli yoki paxsa uylarga ishlatilgan. Hozirgi shkaf va servantlarning o‘rnini bajargan. Ko‘pincha mehmonxonalarga tokcha ishlangan. Tokcha devorning pastki qismi izorani tepa qismidan to sharafagacha bo‘lgan balandlikda bajarilgan. Tokchalar ko‘pincha o‘yma ganch va naqshlar bilan bezatilgan. Bu tokchalar kosamon tokchalar deb yuritiladi. Bu tokchalar

xonaga alohida ko‘rk bag‘ishlagan. Ganch o‘ymakorlik san’ati rivoj topgan shaharlarda ayniqsa, Buxoro, Toshkent, Farg‘onada tokchalar bilan bezatish odat tusiga kirib qolgan. Ustalar tokcha ishlashda avval devorda maxsus joy ajratib o‘sha o‘lchamga moslab eskiz chizadilar. Tokcha gorizontal va vertikal bo‘laklarga bo‘lib chiqiladi, har bir bo‘lagi uchun naqsh kompozitsiyalar chiziladi va ganch taxtachalar o‘yiladi, hamda ularni o‘rniga joylashtirib chiqiladi. Chetlariga hoshiya naqshlar bajariladi. Tokchaning ajoyib namunalarini Toshkentdagi xalq amaliy san’ati muzeyida ko‘rish mumkin.

TURUNJ - arabcha «limon» degan ma’noni bildiradi. Ruscha medalon naqshlarda kompozitsyaning markaziga chiziladigan naqsh turi. Markaziy Osiyoda o‘ziga xos ko‘rinishga va mazmunga ega bo‘lib, qadimdan ishlatilib kelinadi. Turunj naqshning ko‘rinishi, oval shaklida bo‘lgani uchun shunday deb yuritiladi. Turunj hech qanday naqshga ulanmay muallaq turadigan kompozitsiya bo‘lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan, hozir uning doira, 5-10 raxli yulduz, oval, romb, ellips shakllari bor. Turunj nusxasi 4,8,16 ga bo‘linadi. Naqqoshlar ko‘pincha to‘rtburchakli kompozitsiya chetiga oddiy naqsh ya’ni ruta ishlab o‘rtasiga turunj ishlaydilar. Turunj ko‘pincha devor o‘rtasiga, shift markaziga, kashta, gilam markazlariga bajarijadi. Usta turunj ulgusini tayyorlashda qog‘ozni 4,8 yoki 16 ga buklab bir bo‘lagiga nusxa chizadi. Shu naqsh chiziqlarini ignada teshib so‘ngra qog‘oz yoyilsa qolgan bo‘laklariga ham nusxaning o‘zi takror hosil bo‘ladi. Tayyorlangan turunj nusxasini kerakli yuzaga tushiriladi.

U

USTA - (forscha-toj) biror hunarni egallab, shu sohada malaka orttirgan shaxs. O‘z hunarini yaxshi biladigan kishi.

USLUBIY QO‘LLANMA – o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda mashg‘ulot maqsadi, mazmuni, uni o‘qitish texnologiyasi, didaktik vositalar va ulardan foydalanish usullari, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar hamda qo‘srimcha topshiriqlar bayon qilinadigan, amaliyotlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatma va yo‘riqnomalar keltirilgan (ta’lim muassasalarining uslubiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan) nashr.

USLUBIY KO‘RSATMA – muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari (loyihalar), laboratoriya, amaliy va mustaqil ishlarni, bitiruv malakaviy ishlarini, magistrlik dissertatsiyalarini bajarish tartibi mazmuni va metodikasi aniq, batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo‘yicha talabalarda zarur amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga mo‘ljallangan (ta’lim muassasasining uslubiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan) kichik adadli nashr.

F

FRIZ - (ital. - bezak) amaliy san’at bezak turlaridan. Devor, pol, mebel, gilam, turli buyum ishlariga gorizontal tasvir tarzida hoshiyalab ishlatiladigan bezak.

FANNI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI - O‘qituvchi uchun fanni elektron darslik vositasida o‘qitishda kerakli shart-sharoitlarni tashkil etish, o‘quv maqsadlarini belgilash, o‘qitish tamoyillari, har bir bo‘limni o‘qitish vaqtini, kerakli kompyuter vositalarini ta’minlash va o‘quv jarayonidagi o‘qituvchining ishtiroki, talabalarning fanni o‘zlashtirishlarini doimiy tahlil qilib borish, talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholash bo‘yicha uslubiy tavsiylar beriladi.

FAN DASTURI - Davlat ta’lim standarti asosida tuzilgan, ushbu fanning tarkibi va mazmunini to‘liq qamrab olgan o‘quv dasturi beriladi. Dasturda fanni o‘rganish maqsadi, boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, tarkibi va hajmi (o‘quvchining fanni o‘zlashtirish vaqtining davomiyligi, bo‘limlar va mavzular nomi) fanni o‘zlashtirgandan hosil qilinadigan bilim, malaka va ko‘nikmalari, hamda adabiyotlar ro‘yxati beriladi

FOYDALI DASTURLAR - Bularga mazkur darslikning elektron qismidan foydalanish tartibi, o‘quv materialini o‘rganishga tegishli elektron vositalar (multimedia, virtual stendlar, animatsiyalar va h.k.) va ulardan foydalanish tartiblari kiradi.

X

XAL - biror naqshga (tasvirga) tayyorlangan tilla yoki kumush bo‘yoq.

SH

SHABLON - namuna, shtamp, trafaret. Bir shakldagi narsalar tayyorlash uchun yasalgan namuna.

SHARAFA - arabcha karniz ma’nosini bildirib, mukarnas shaklidagi karniz, binolarning devor va shift oralig‘iga, minoralarga, taxmon, mehroblarning tepe qismlariga ishlataladigan hajmiy o‘yma, murakkab bezak turi. Markaziy Osiyo va Sharq me’morchiligidagi xos bezak turi bo‘lib, ayniqsa temuriylar davri arxitekturasida, ya’ni XV - XVII asrlarda yuksak rivoj topgan. Sharafa qisman egma va qabariq yuzali bo‘lib, u minora, gumbal, kapitellardagi girih va mukarnaslar birlashuvi natijasida hosil bo‘lgan. Muqarnasning biror bo‘lagini to‘g‘ri chiziq yo‘nalishida bir-biriga ulab takrorlansa sharafa hosil bo‘ladi. Sharafani yasash ancha murakkab bo‘lgani uchun ko‘pincha kuyma asosida nuxalar

tayyorlanib keyin devor yuziga yopishtiriladb. Oddiy sharafalarni esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri devor sathiga axta yordamida tu-shirib o‘yiladi. Sharafa chizmasini tayyorlashda uchburchak, kvadrat va boshqa kataklardan foydalaniladi. Sharafalarni ganch, gips, alebastr, marmar, beton va boshqa materiallardan ishlanadi. Masalan, Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli teatr binosining tashqi qismida Usta Shirin Murodov marmar izora sharafasidan foydalangan. Sharafa ustalaridan Usta Shirin Murodov, Shamsiddin G‘ofurov, Kuli Jalilov va boshqalar edi. Sharafaning katakli, ko‘p qirrali, prizmali, aralash va boshqa shakldagi turlari bor. Sharafa bilan mu-karnasni qo‘shib ishlatilishi Imom Qozixon sharafa (birinchi bo‘lib Buxorodagi imom Qozixon boyning uyida qo‘llanganligi sababli shu nom bilan yuritiladi) deyiladi. Sharafa qadimdan ishlatilib kelinayotgan bo‘lib uning har xil namunalarini Kolon, Kutb, Boloxovuz minoralarida, Ulug‘bek, Tillakori, Ulug‘bek madrasalarining minoralarida, Amir Temur maqbarasida, Shohi-Zinda ansambllarida va boshqa joylarda uchratish mumkin. Ulug‘ Oktyabr Revolusiyasidan keyin esa Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli teatri-da (har xil sharafalar), qishloq xo‘jaligi ministriligi binosida (prizmaga o‘xshash), Toshkent kurantidagi binoda (ko‘p qirrali sharafa) hamda boshqa joylarda foydalanilgan. Sharafadan hozirgi vaqtida kam foydalanilmoqda.

SHOBARG - shohbarg, islimiy naqsh elementlaridan biri bo‘lib, barglar ichida eng kattasi. Shohbargni naqqoshlar bahorga uyg‘onish ramzi sifatida ifoda etganlar.

SHOBARG ISLIMIY - islimi naqshning bir turi, u xoshiya hisoblanadi. Kompozitsiyada shobarg diagonal bo‘yicha harakatlanadi, buning taqsimi «chapu rost» sxemasida takrorlanadi.

SHPAKLYOVKA - nemischa kurakcha degan ma’noni bildirib, yuzalarini bo‘yash hamda pardozlashdan oldin sirtni tekislash uchun suriladigan quyqasimon massa. U bo‘r,

yog‘och yelimi, alif moyi aralashmasidan tayyorlanadi. Yuzalarni shpatel yordamida sillqlashni shpaklyovkalash deb yuritiladi.

Shpaklyovkaning ikki turi bor. Yelimli shpaklyovka va yog‘li shpaklyovka. Yelimli shpaklyovka yog‘och yelimi, alif moyi va bo‘rdan tayyorlanadi. 1 kg yelimga 3 litr suv, 1 kg yelim hisobiga esa 0,3 litr alif moyi qo‘sishadi. Yog‘li shpaklyovkaga esa alif moyi ko‘proq miqdorda qo‘shiladi.

E

ESKIZ - qo‘1 bilan ko‘zda chandalab, chizmachilik asboblarisiz taxminiy o‘lchamlarda bajariladigan xomaki tasvir. Naqqosh, rassom, bezakchi, ganchkor va boshqalar biror narsa yoki uyni bezashdan oldin xomaki tasvirini bajaradilar. Shu eskiz bo‘yicha ish bajariladi. Lekin ish jarayonida eskizdagi ayrim narsa o‘zgarishi ham mumkin.

ELEKTRON TAJRIBA – real obyektlar, mahsulotlar va mavjudotlar ko‘rgazma modellarini yaratish va izlanish imkonini beruvchi elektron muhit.

ELEKTRON LUG’AT - an’anaviy «qog‘ozli» lug‘atga mos keluvchi elektron axborot manbai. Kompyuter versiyada so‘z yoki so‘zlar guruhiga maxsus ajratilgan ko‘rsatma bilan istalgan dasturdan chaqarilishi mumkin. An’anaviy lug‘atlardan farqli ravishda eletron lug‘at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animatsion lavhalar, tovush, musiqa va boshqalar bilan birga media-obyektlarning butun spektrlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

ELEKTRON TESTLAR - saqlangan, ishlov berilgan va baholash uchun kompyuter yoki telekommunikatsion texnikasi yordamida taqdim etiladigan testlar. Testlar berilishi o‘rganilgan matnni talabaning qanchalik darajada o‘zlashtirganligi o‘z-o‘zini baholash imkonini beradi

ELEKTRON TOPSHIRIQLAR - o‘qituvchiga ta’lim oluvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda mustaqil va nazorat ishlari uchun tartibga keltiradigan topshiriqlar majmuini o‘zida aks ettiruvchi axborot manbasining muhim ko‘rinishidir. Yaratilgan topshiriqlar ta’lim oluvchilarga an’anaviy «qog‘oz»li va elektron variantlarida tavsiya etilishi mumkin.

ELEKTRON NAZORAT (TESTLASHTIRISH)- elektron o‘quv adabiyotining komponenti bo‘lib, an’anaviy kompyutersiz testlashtirishning analogidir. Elektron testlashtirish holatida kompyuter test va uning natijalarini ko‘rsatib beradi, bu bilan bog‘liq bo‘lgan algoritmlarni joriy qiladi. (Masalan, bajarilgan yoki o‘tkazib yuborilgan topshiriqlarga qaytish imkoniyatining borligi yoki yo‘qligi, bitta testga vaqtning chegaralanganligi va hokazo).

ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI - fan buyicha yaratilgan elektron darslik, o‘quv qo‘llanma, ko‘rsatmalar, multimediyali vositalar, ma’lumotnomalar va lug‘atlar, gipermatnlar, elektron testlar va topshiriqlar hamda shunga o‘xhash talabaning mustaqil bilim olishining ta’minlovchi, o‘rganishga qiziqish uyg‘otuvchi resurslar kiradi.

ELEKTRON DARSLIK – fanning o‘quv hajmini to‘liq qamragan va masofaviy o‘qitish hamda mustaqil o‘rganish uchun kompyuter texnologiyalariga asoslangan, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarali o‘zlashtirishga mo‘ljallangan bo‘lib:

- o‘quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o‘quv materiallar verbal (matn) va ikki o‘lchamli grafik shaklda;

– multimedia (ko‘p axborotli) elementlari, ya’ni ma’lumot ikki-uch o‘lchamli grafik ko‘rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;

– taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi. Quyidagi sxemada elektron darslikning namunaviy tuzilmasi keltirilgan.

ELEKTRON O‘QUV QO‘LLANMA – fanning o‘quv hajmini qisman yoki to‘liq qamragan va axborotning adaptatsiya blokini o‘z ichiga olgan bo‘lib, masofaviy o‘qitish va mustaqil o‘rganish uchun mo‘ljallangan o‘quv manbai.

ELEKTRON USLUBIY QO‘LLANMA – pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta’lim faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatish shakli. Elektron uslubiy qo‘llanmada pedagogik tajriba mashg‘ulotlarning raqamlashtirilgan video-lavhalari, elektron yoki unga o‘girilgan shaklda yaratilgan talabalar ishlarini darslar bo‘yicha rejalashtirilgan shaklida ko‘rsatiladi.

ELEKTRON O‘QUV NASHRI - ta’lim oluvchilar tomonidan bilimlar, ko‘nikmalar va mahoratlarni ijodiy va faol egallashlarini ta’minlaydigan ilmiy amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o‘quv materialga ega bo‘lgan elektron nashr.

ELEKTRON KUTUBXONA- talaba hamda pedagoglar uchun hujjatlashtirish va xavfsizlikning xususiy tizimi bilan ta’minlangan, to‘liq matnli elektron axborotni resurslar, telekommunikatsiya vositalari asosida jamlash va yetkazish imkoniyatini ta’minlovchi dasturli majmuadir.

ELEKTRON LUG’AT-an’anaviy «qog‘ozli» lug‘atga mos keluvchi elektron axborot manbai. Kompyuter versiyada so‘z yoki so‘zlar guruhiga maxsus ajratilgan ko‘rsatma bilan istalgan dasturdan chaqirilishi mumkin. An’anaviy lug‘atlar dan farqli ravishda elektron lug‘at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animatsion lavhalar, tovush,

musiqa va boshqalar bilan birga media-obyektlarning butun spektrlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

ELEKTRON NAZORAT (TESTLASHTIRISH)- Elektron o‘quv adabiyotining komponenti bo‘lib, an’anaviy kompyutersiz testlashtirishning analogidir. Elektron testlashtirish holatida kompyuter test va uning natijalarini ko‘rsatib beradi, bu bilan bog‘liq bo‘lgan algoritmlarni joriy qiladi. (Masalan, bajarilgan yoki o‘tkazib yuborilgan topshiriqlarga qaytish imkoniyatining borligi yoki yo‘qligi, bitta testga vaqtning chegaralanganligi va h.k.).

ELEKTRON MA’LUMOTNOMA - Bunga asosan elektron maslahat beruvchi ma’lumotnomalar kiradi. Bunday maslahatlar o‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan mavzularga duch kelinganda; amaliy mashg‘ulotlarni bajarishda kutilmagan savollarga javob topishda; yangi materiallarni taqdim etishda; mutaxassislar bilan muloqot qilishda amalgamoshiriladi.

ELEKTRON TRENAJERLAR - Bu nazariyadan amaliyotga o‘tganda to‘g‘ri javobga yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadigan ta’lim sharoitini ishlab chiqarish vaziyatiga yaqinlashtirish imkoniyatini beradigan qurilma.

O‘

O‘AR - arabcha eritish, yutish degan ma’noni beradi. Tunj, alyuminiy, jez, rux, qalay, kumush hamda oltinlardan tayyorlangan kukun. Metall buyumlarni hallashda ishlatiladi, buyumlar sirtiga hal galvani usulda yoki metallash, kimyoviy ishlov berish yo‘li bilan qoplanadi. Metallmas buyumlar sirtiga metall hamda metall qorishmalaridan tayyorlangan kukun, ya’ni hal yuritiladi. O‘alni lokka qorib keyin esa biror sirtga suriladi. Zargarlik va arxitektura detallariga juda yupqa qilib zarhal, ya’ni oltin suvi yurgiziladi.

O'QUV-METODIK MAJMUA (O'MM) – davlat ta'lif standarti va fan dasturida belgilangan talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalgaloshishni ta'minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv – uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta'lif resurslari, o'qitish texnologiyasi, baholash metodlari va mezonlarini o'z ichiga oladi.

O'ZLASHTIRISHNI BAHOLASH VOSITALARI VA MATERIALLAR - Ta'lif oluvchilar tayyorgarlik sifatining kompyuter texnologiyalari asosida aniqlash imkoniyatini yaratadi. Bularga turli murakkablik darajasiga ega bo'lgan testlar kiradi.

O'QUV QO'LLANMA – muayyan fan dasturi boyicha tuzilgan va fan asoslарining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlovchi; darslikni qisman to'ldiruvchi, ayrim bob va bo'limlarning keng tarzda yoritishga yoki laboratoriya va amaliy (seminar) mashg'ulotlar va mashqlar yechimiga mo'ljalangan nashr.

Testlar

1. Ustozning kasbiy fazilatlariga nimalar kiradi?
 - a) yaxshi nutq, o‘quvchanlik, muomala, muloqot, bilimdonlik va boshqalar;
 - b) saxiylik, odoblilik, marhamatlilik, or-nomus talabchanlik;
 - v) sabrlilik, o‘quvchanlik, muomala, muloqot, ochiqyuzlilik, odoblilik;
 - g) sof muhabbat muomala, muloqot, riyokorlik.
2. Sharqda naqqoshlik san’ati qaysi davrdan boshlab rivojlangan?
 - a) Neolit;
 - b) Paleolit;
 - v) Mezeolit;
 - g) Mis davri.
3. Qaysi qatorda naqqoshlikga oid atamalar berilgan?
 - a) kundal, mehrob, axta, bofta, namoyon, sangina, pastel;
 - b) etyud, etyudnik, natura, molbert;
 - v) kundal, mehrob, axta, bofta, namoyon, shobarg;
 - g) sangina, pastel, retush, sous.
4. Mustaqil fikr yurita oladigan inson ...
 - a) aqli;
 - b) sog‘lom;
 - v) mehnatsevar;
 - g) vatanparvar.
5. Toshkentdagi Amaliy san’at muzeyi kim tomonidan qurdirilgan?
 - a) A. V. Polevtsev;
 - b) Amir Olimxon;

v) V.A .Verishagen;

g) Xudoyorxon.

6. Registon maydonidagi Sherdor madrasasi peshtoqida qaysi hayvonlar ramziy ma'noda ifodalangan?

a) sichqon,turna, burgut;

b) yo'lbars, sher, ohu;

v) kabutar, kiyik, yo'lbars;

g) tovus, ayiq, laylak.

7. O'zbek xalq amaliy san'at turlarini sanab bering.

a) naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, zardo'zlik;

b) rang tasvir, qalam tasvir, kompozitsiya;

v) haykaltaroshlik, miniatyura, mahobatli rangtasvir;

g) yog'och o'ymakorligi, grafika, dizayn.

8. «Hunar» deganda nimani tushunasiz?

a) muayyan tayyorgarlikni talab etib, odatda tirikchilik manbai bo'lgan mehnat faoliyatidir;

b) san'at turidan biri;

v) kasbning bir turi;

g) ustachilik.

9. Charxpalak nimaning ramzi?

a) hayotning tinimsiz harakatda ekani;

b) kun bilan tunning almashuvi;

v) oy bilan quyosh;

g) yilning asr bilan almashuvi.

10. Oliy Majlis binosi uchun ishlangan o'yma bezakli eshiklar qaysi yog'och o'ymakor ustalar tomonidan ishlangan?

a) M.To'rayev, A.Ilhomov;

b) S.Mahmudov, Q. Shoislomov;

- v) H.Nuraliyev, S.Shukurov;
- g) Barcha javoblar to‘g‘ri.

11. Shogirdning odobiga nimalar kiradi?

- a) ustozni hurmat qilish, ustozdan haqqini talab qilish;
- b) o‘z kasbini sevish, ustoz oldida hokisor bo‘lish, noloyiq ishlar qilmaslik va boshqalar;
- v) pokizalik, aqlilik, hushyorlilik;
- g) samimiylilik;

12. «Odam borki odamlarning naqshidir, odam borki hayvon undan yaxshidir» kimning qalamiga mansub?

- a) A.Avloniy;
- b) A.Navoiy;
- v) M.Ulug‘bek;
- g) Beruniy.

13. Samarqanddagi tarixiy obidalarni ko‘rsating.

- a) Abdulqosim madrasalari, Tilla-shayx, Shayx Zayniddin masjidlari;
- b) Minorai Kalon, Somoniylar maqbaralari, Chor Minor;
- v) Tillakori, Sherdor, Ulug‘bek madrasalari, Shohi-Zinda majmuasi;
- g) Kalta- minora, Ichon qal'a. Ko‘kaldosh, Al-Buxoriy maqbarasi.

14. Naqqoshlikda qaysi gul, parranda va hayvonlar shakli ko‘plab uchraydi?

- a) Atirgul, o‘rdak, echki, quyon;
- b) G’uncha, lola, anorgul, tovus, bulbul, sher, humo;
- v) Gulsafsar, burgut, bulbul, sher, humo, ondatra, qo‘y;
- g) Moychechak, olma, kabutar, suvsar, echki;

15. Shogird deganda kim tushuniladi?
- a) ustozni yordamchisi;
 - b) o‘rganuvchi shaxs;
 - v) hunar o‘rgatuvchi;
 - g) usta yoki mutaxassisdan hunar yoki ilm o‘rganayotgan kishi;
16. Ilk naqqoshlikka oid san’at namunalari respublikamizning qaysi viloyatlarida rivojlangan?
- a) Xorazm, Sug‘d, Baqtriya viloyatlari;
 - b) Misr, Yunoniston, Rim;
 - v) Qadimgi Xitoy, Hindiston, Yaponiya;
 - g) Eron, Arabiston, Afg‘oniston;
17. Odob bor yerda – nima bor?
- a) tinchlik, shodlik va mukammallik;
 - b) tinchlik bor;
 - v) xotirjamlik bor;
 - g) imon bor;
18. Go‘ri-Amir maqbarasi gumbazining naqshlari qaysi ashyoda bajarilgan?
- a) ganchdan;
 - b) marmar va toshdan;
 - v) sopol koshinlardan;
 - g) granit hamda shishadan;
19. «Naqqoshlik» san’atida ishlatiladigan terminlar qaysi qatorda ko‘rsatilgan?
- a) kundal, mehrob, axta, bofta, namoyon, sangina, pastel;
 - b) etyud, natura, molbert;
 - v) kundal, mehrob, axta, bofta, namoyon, shobarg;
 - g) sangina, pastel, retush, sous;

20. Naqsh termini qanday ma'noni anglatadi?
- a) lotincha «chigal», «tugun» degan ma'noni bildiradi;
 - b) geometrik shakllardan tuzilgan naqsh;
 - v) arabcha «tasvir», «gul» degan ma'noni bildiradi;
 - g) lotincha «ornament»-bezak degan ma'noni anglatadi.

21. «O'zbek xalq amaliy bezak san'ati» kitobining muallifi kim?

- a) S.S.Bulatov;
- b) Q.Qosimov;
- v) M.Mirzahmedov;
- g) Z.Bositxonov.

22. Ustoz - kim?

- a) hunar o'rgatuvchi;
- b) sohani o'rgatuvchi;
- v) o'qitgan, hunar, ilm, tarbiya bergan va fan-hunar cho'qqilariga yetaklagan inson;
- g) odobli, vatanparvar, fidoiy inson;

23. Toshkent naqqoshlik maktabi namoyandalarini ko'rsating.

- a) A.Boltayev, O.Yoqubov, E.Sapayev, Usta Shirin Murodov;
- b) A.Ilhomov, K.Karimov, M.To'rayev, T.Arslonqulov;
- v) O.Qosimjonov, Yo.Raufov, J.Xakimov, T.To'xtaxo'jayev;
- g) Hammasi to'g'ri.

24. Giriichi ustalar qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- a) B.Jalolov, U.Umarbekov, A.Mirzayev;
- b) O'.Tansiqboyev, M.Nabiev, S.Abdullayev;
- v) Usta Shirin Murodov, Z.Bositxonov, A.Ilhomov;
- g) A.Boltayev, O.Yoqubov, R.Masharipov.

25. Xiva naqqoshlik maktabi namoyandalaridan kimlarni bilasiz?

- a) J.Xakimov, T.To‘xtaxo‘jayev, A.Ilhomov;
- b) O.Qosimjonov, Yo.Raufov, Z.Bositxonov;
- v) A.Boltayev, O.Yoqubov, R.Masharipov, E.Sapayev;
- g) Sh.Murodov, T.Arslonqulov, S.Norqo‘ziyev.

26. Anvar Ilhomov qaysi naqqoshlik maktabi namoyandas?

- a) Toshkent;
- b) Xiva.;
- v) Samarqand;
- g) Buxoro.

27. Abdulla Boltayev qaysi naqqoshlik maktabi namoyandas?

- a) Toshkent;
- b) Xiva;
- v) Samarqand;
- g) Buxoro.

28. Xiva naqsh kompozitsiyasi Toshkent naqsh kompozitsiyasidan nimasi bilan farqlanadi?

- a) dinamikaligi, rangi va novdalardan ko‘p foydalanganligi bilan;
- b) speralsimon, zaminiga kumush va tilla rang berilishi bilan;
- v) kompozitsiyalarining mahobatliligi va ranglarning nafisligi bilan;
- g) naqsh kompozitsiyalarida girihsining ko‘p qo‘llanishi bilan.

29. An’ana – nima ?

- a) urf-odatlar;
- b) avlodlardan-avlodlarga o‘tib borayotgan va muayyan jamiyat ichida saqlangan madaniy meros;

- v) axloqiy normalar;
- g) g‘oyalar va qadr-qimmat.

30. Somoniylar maqbarasi qayerda joylashgan?

- a) Toshkentda;
- b) Samarqandda;
- v) Buxoroda;
- g) Xivada.

31. M.To‘rayev qaysi naqqoshlik mакtabining namoyandasи?

- a) Toshkent;
- b) Rishton;
- v) Buxoro;
- g) Qo‘qon.

32. Sherdor madrasasi nechanchi asrda va kim tomonidan qurdirilgan?

- a) XVIII asrning 1-yarmida Yalangto‘sh Bahodir tomonidan;
- b) XVII asrning 1-yarmida Yalangto‘sh Bahodir tomonidan;
- v) XVI asrning 2-yarmida Hoji Hoshimiya Dahbedi tomonidan;
- g) XIV asrning 1-yarmida me’mor Abdujabbor tomonidan.

33. Shogirdning ijobiy fazilatlariga nimalar kiradi?

- a) chaqqonlik, bilimdonlik;
- b) aqlilik, hushyorlik;
- v) noloyiq ishlar qilmaslik, ustozni hurmat qilish, o‘z ishiga e’tiqod qo‘yishi, sevishi va h.k;
- g) sezgirlik va chaqqonlik.

34. Qalampirning ramziy ma’nosi?

- a) yomon ko‘z va balolardan asrash;
- b) to‘kin-sochinlik;
- v) Achchiq qismat;
- g) Baxt, iqbol.

35. Burgut qushining ramziyligi?

- a) kuchlining zaif ustidan g‘alabasi;
- b) koinot ramzi;
- v) hushyorlik ramzi;
- g) yirtqich qush qiyofasi.

36. Ustozning shogirdlari ota-onalariga bo‘lgan munosabati nimalardan iborat?

- a) saxiylik, ota-onasiga farzandining qobiliyati, sof muhabbat;
- b) o‘z vazifasidan chiqishi, ota-onasiga farzandining qobiliyati, xulqi odobi to‘g‘risida ochiq gapirish;
- v) sabrlilik, o‘z vazifasidan chiqishi, ochiqyuzlilik, xushmuomalalik;
- g) or-nomuslilik, xulqi odobi, sof muhabbat.

37. Chinni gulning ramziy ma’nosi?

- a) hayot ramzi;
- b) sadoqad;
- v) yolg‘izlik;
- g) xiyonat.

38. Ma’naviyat bu-...

- a) insonning eng yaxshi hulqi;
- b) hikmatlar asosi;
- v) hikmatning inson hayot tarziga aylanib ketganlik holati;
- g) odob, axloqlilik xislatlari.

39. «Bir kun tuz ichgan joyingga ...» maqolni davom et-tiring.

- a) sakkiz yil duo qil;
- b) qirq kun alik ol;
- v) qirq kun salom ber;
- g) sajda qil.

40. Hayot, yorug'lik va issiqlik ramzi nima?

- a) yulduz;
- b) planeta;
- v) quyosh;
- g) kameta.

41. Humo qushi qanday ramziy ma'noga ega?

- a) baxt qushi;
- b) baxtsizlik;
- v) saxiylik;
- g) go'zallik.

42. «Usta» degan unvonni olishi, shogirdni qanday darajaga yetganligini bildiradi?

- a) chaqqonligini;
- b) shogirdning yetilganlilik darajasini;
- v) yaxshi ustaliligini;
- g) aqliligini.

43. Atirgulning ramziy ma'nosi nima?

- a) muhabbat va go'zallik;
- b) vafodorlik;
- v) sadoqat;
- g) samimiylilik.

44. Jahon xalqlarining naqshlari bir-biridan nimalari bilan farq qiladi?

- a) rangi, kompozitsion tuzilishi, elementi;
- b) jilvadorligi, proporsiyasi, qiziqarliligi;
- v) kompozitsion tuzilishi, xalqlarning an'analari va jilvadorligi;
- g) yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri.

45. Qaysi naqsh nomi arabcha so'z bo'lib, «ostona, kirish, eshik» ma'nosini bildiradi?

- a) namoyon;
- b) madohili;
- v) ruta;
- g) morpech.

46. Ma'rifat bu-...

- a) ma'naviyatning bir turi;
- b) bilim-hikmat, ilmu-toliblarga bilim berish bilan bog'liq faoliyat turi;
- v) faoliyatning asosiy turi;
- g) ilmli inson.

47. Sherdor manzarasidan ohu nimaning ramziy ma'nosida tasvirlangan?

- a) ruhiy polik;
- b) ma'naviy poklik;
- v) yetuklik;
- g) ezgulik.

48. Bulbulning ramziy ma'nosi?

- a) sadoqat;
- b) baxt qushi;
- v) hushyorlik;
- g) halollik.

49. Shogirdning iffati deganda nima tushuniladi?

- a) nafsimizni gunoh hisoblangan ishlardan saqlamoq;
- b) nafsni bir ko‘rinishi;
- v) qalb ko‘rinishi;
- g) til va dil iffatini.

50. Hushyorlik va halol luqma ramzi?

- a) sakkiz oyoq;
- b) dengiz yulduzi;
- v) baliq;
- g) dengiz oti.

51. Shogirdning salbiy amallariga nimalar kiradi?

- a) yaxshi kiyinish, bilag‘onlik, sir saqlash, ig‘vo;
- b) do‘sining ustidan kulish, mensimaslik, yolg‘onchilik;
- v) poraxo‘rlik va qo‘pollik, sotqinlik, qiziqqonlik;
- g) ig‘vo, sabrsizlik, sotqinlik, qiziqqonlik, yolg‘onchilik, manmanlik va boshqalar.

52. Lola qaysi faslning ramziy belgisi?

- a) qish;
- b) yoz;
- v) kuz;
- g) bahor.

53. Bofta nima?

- a) geometrik naqsh;
- b) to‘qilgan shakldagi naqsh;
- v) navo naqshi;
- g) rang tusi.

54. Anorni ramziy ma’nosi?

- a) baxt-iqbol ramzi;
- b) to‘kin sochinlik;

- v) hoshiya naqshi;
- g) ezgulik to‘qchilik.

55. Shimol xalqlarining naqshlarida ko‘proq nima aks etadi?

- a) archa;
- b) mevalar;
- v) qalampir;
- g) barg va lola.

56. Zirk gulining (gulsafsar) ramziy ma’nosi?

- a) muhabbat, umr;
- b) yomon ko‘zdan asrash;
- v) osoyishtalik va umr uzoqliligi;
- g) umr uzoqliligi, yomon ko‘zdan asrash.

57. Qozoq naqshlarida asosan qanday elementlar ishlataladi?

- a) uzum va uning bargi;
- b) turli xil hayvonlar;
- v) hayvon va ularning shoxlari;
- g) qush va parrandalar.

58. Yaproqning ramziy ma’nosi?

- a) baxor, uyg‘onish;
- b) bog‘chilik;
- v) go‘zallik;
- g) navro‘z.

59. J.Hakimov qaysi naqqoshlik maktabining namoyandasasi?

- a) Farg‘ona naqsh maktabining;
- b) Termiz naqsh maktabining;
- v) Toshkent naqsh maktabining;
- g) Xorazm naqsh maktabining.

60. O.Qosimov qaysi naqqoshlik maktabining namoyandası?
- Qoraqalpoq naqsh maktabining;
 - Toshkent naqsh maktabining;
 - Farg‘ona naqsh maktabining;
 - Termiz naqsh maktabining.

TEST SAVOLLARIGA JAVOBLAR

1	A	11	B	21	A	31	A	41	A	51	G
2	B	12	B	22	V	32	B	42	B	52	G
3	V	13	V	23	V	33	V	43	A	53	B
4	A	14	B	24	V	34	A	44	A	54	G
5	A	15	G	25	V	35	A	45	B	55	A
6	B	16	A	26	A	36	B	46	B	56	V
7	A	17	A	27	B	37	A	47	A	57	V
8	A	18	A	28	A	38	V	48	A	58	A
9	A	19	V	29	B	39	V	49	A	59	V
10	B	20	V	30	V	40	V	50	V	60	B

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. O‘zbek xalqi amaliy bezak san’ati tarixi.....	7
2-bob. Ustoz va shogird an’analari.....	51
3-bob. Naqqoshlik san’ati.....	83
4-bob. Naqqoshlik maktablari	104
5-bob. Ramziy naqshlarning alifbosi.....	146
6-bob. Amaliy san’at asarlarining badiiy tahlili.....	196
7-bob. Markaziy Osiyo me’moriy bezak san’ati va ulardagi naqshlar	210
8-bob. Dunyo xalqlari naqshlari va ularni o‘ziga xosligi.	282
Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	312
Ilovalar	323
1-ilova. Lug‘atlar	
2-ilova. Testlar	

S.S. BULATOV, P.P. SHABARATOV, M.A. RASULOV

NAQQOSHLIK

Muharrir *N.Rustamova*
Texnik muharrir *M.Alimov*
Badiiy muharrir *M.Odilov*
Kompyuterda sahifalovchi *S.Ismoilov*

Bosishga ruxsat etildi 01.12.2010. Qog‘oz bichimi 60x84¹/16.
Hisob-nashr tabog‘i 23,0 b.t. Adadi 23 dona.
Buyurtma №100

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100084, Toshkent, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI» bosmaxonasida
rizografiya usulida chop etildi
100000, Toshkent, Qori-Niyoziy ko‘chasi, 39-uy.

QAYDLAR UCHUN